$$+2\left\{\frac{T_it_i\,b_i}{\sin\gamma_p}+K_s\left\{b_p-\frac{\left[\sqrt{K_s{}^2+4q_oK_s\,b_p\,\dfrac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_i\cos(\gamma_i+\varphi_1)}}-K_s\right]\cos(\gamma_p+\varphi_1)\cos\varphi_1}{2q_otg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\right\}\times\right.$$

$$\times\frac{\left[\sqrt{K_s^{\,2}+4q_oK_s\,b\dfrac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_1\cos(\gamma_p+\varphi_1)}}-K_s\right]}{q_o\sin\gamma_p\,tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\times$$

$$\times\left[\sin(\gamma_p+\varphi_1)+\cos\gamma_p\sin\varphi_1\right]\cos^2\varphi_1+h\rho b_p\times$$

$$\times\left\{L_ig\frac{\sin\alpha_i+(\cos\gamma_p ctg\gamma_p+\sin\gamma_p\cos\alpha_p)tg\varphi_1}{\cos\alpha_i-\sin\gamma_p\sin\alpha_i tg\varphi_1}+\right.$$

$$\left.+K_TV^2\frac{\sin^2\gamma_p\left[\sin\alpha_i+\sin\gamma_p(ctg\gamma_p+\cos\alpha_i)tg\varphi_1\right]}{ctg\alpha_i-\sin\gamma_p tg\varphi_1}\right\}\left(1+\frac{W}{100}\right)\Bigg\}. \qquad (5)$$

T_t=1,2·10^6 Pa, t_i=0,001 m, b_i=0,08 m, K_s=2·10^4 Pa, h=0,12 m, φ_1=30°, φ_2=40°, α_i=30°, ρ=1200 g/m^3 L_i=0.50 m, g=9,81 m/c^2, W=16%, B_q=4 m, b_h =0,5 m, h_D =0,16 m, K_T=0,9, D=0,61 m, β=15°, α=40°, Δ=0,05 m, t_p = 0,001 m, γ_i=45°, β_p=30°, b_p=0,36 m. qabul qilinib (5) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblashlar 1,7-2,2- m/s harakat tezliklarida mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatiladigan yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiligi 5,4 kN, ikkinchi qatorga o‘rnatiladigan ish organiniki esa 2,7 kN, barcha shunday ish organlariniki esa 10,8 kN oralig‘ida bo‘ladi.

Xulosa

1,7-2,2- m/s harakat tezliklarida mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatiladigan yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiligi 5,4 kN, ikkinchi qatorga o‘rnatiladigan ish organiniki esa 2,7 kN, barcha shunday ish organlariniki esa 10,8 kN oralig‘ida bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://lex.uz/ru/docs/5524284?ONDATE=24.07.2021%2000
2. https://lex.uz/docs/4650303
3. Imomqulov Q.B., Xalilov J.M., Nishanboev N.N. // Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organining parametrlarini asoslash / Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – Namangan, 2024. -№ 2 (15). – 77- 81 b.
4. To‘xtaqo‘ziyev A., Imomqulov Q.B. Tuproqni kam yenergiya sarflab deformasiyalash va parchalashning ilmiy-texnik asoslari. – Toshkent: KOMRON PRESS, 2013. – 120 b.

Imomqulov Q.B., Xalilov J.M. Keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiliklarini aniqlash. *Maqolada intensiv bog‘ qator orlariga ishlov beradigan mashinaning keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiliklarini nazariy aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.*

Имомкулов Қ.Б., Халилов Ж.М. Определение тягового сопротивления широкозахватных плоскорежущих рабочих органов. *В статье представлены результаты исследований, проведенных по теоретическому определению тягового сопротивления широкозахватных плоскорежущих рабочих органов машины для обработки интенсивных садово-пропашных культур.*

Imomqulov K.B., Xalilov J.M. Determination of draft resistance of wide-cut flat-cutting working tools. *The article presents the results of studies conducted on the theoretical determination of the traction resistance of wide-grip flat-cutting working bodies of a machine for processing intensive garden-row crops.*

UO‘T 631.31

TUPROQ FIZIK-MEXANIK XOSSALARINING O‘ZGARUVCHANLIGINI TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARINING ISHLOV BERISH CHUQURLIGI BO‘YICHA RAVON YURISHIGA TA’SIRINI BARTARAF ETISH

To‘xtaqo‘ziyev A.[1] t.f.d., prof., Rasuljonov A.R.[1] t.f.f.d., k.i.x.


[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Ma’lumki, ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi (bir tekisliligi) barcha tuproqqa ishlov berish mashinalarining asosiy ish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo‘lsa va uning barqarorligi, ya’ni bir tekisda bo‘lishi ta’minlansa, ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga hamda ulardan yuqori hosil olinishiga erishilinadi, aks holda esa, ya’ni belgilangan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi ta’minlanmasa – o‘simliklarni notekis rivojlanishi va pishib yetilishi kuzatiladi, hosildorlik 12-15 foizga pasayadi. Bular Respublikamiz va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan [1-4]. Shu sababli ham har bir tuproqqa ishlov berish mashinasi uchun ishlov berish chuqurligi va uning belgilangandan chetlanishlari(notekisligi)ga qat’iy talablar va cheklanishlar qo‘yilgan.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarda mavjud tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi keng chegarada o‘zgarishi va bu o‘zgarish hattoki bir dalani o‘zida ruxsat etilgandan 3-4 marta katta bo‘lishi hamda buning eng asosiy sababi tuproq fizik-mexanik xossalari(namligi, zichligi, qattiqligi)ning doimiy ravishda o‘zgarib turishi ekanligi ko‘rsatilgan [5-8].

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib biz tomonimizdan osma plug misolida tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligini uning tuproqqa ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon (bir tekis) yurishiga salbiy ta’sirini bartaraf etish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazildi.

Tuproq fizik mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi plugning ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon yurishiga ta’sir etmasligi uchun u(plug)ning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazi π_1 (rasmga qaralsin) shu tekislikda unga ta’sir etayotgan R_{XZ} va F_X (bunda R_{XZ} – plugning lemexlari va ag‘dargichlariga ta’sir etayotgan reaksiya kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N; F_X – plugning dala taxtalariga ta’sir etuvchi ishqalanish kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N) kuchlar teng ta’sir etuvchisi R^y_{XZ} ning ta’sir chizig‘i $\tau - \tau$ da joylashgan bo‘lishi lozim. Chunki bunda R_{XZ} va F_X kuchlarning plugning oniy aylanish markaziga nisbatan momentlari yig‘indisi nolga teng bo‘ladi va ularning va demak tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi ishlov berish chuqurligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.



Tuproqning fizik-mexanik xossalarini o‘zgaruvchanligini plugning ishlov berish chuqurligi bo‘yicha bir tekis yurishiga salbiy ta’sirini bartaraf etishga doir sxema

Plugning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazining τ – τ chizig‘ida joylashgan o‘rni π_1 ni aniqlash uchun rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib R_{XZ}^{y} kuch ta’sir chizig‘i τ – τ ning va $D(D_1)$ hamda $A(A_1)$ nuqtalardan, ya’ni traktor osish mexanizmininig pastki tortqilaridan o‘tadigan to‘g‘ri chiziqning $XD(D_1)Z$ koordinatalar sistemasidagi tenglamalarini tuzamiz. Ular mos ravishda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Z = Xtg\psi_{XZ}^{y} + \left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}}\right)tg\psi_{XZ}^{y} + $$
$$+0,5b_d\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^{y}\right) - H_1; \quad (1)$$

$$Z = \frac{\left(H_3 + h - H_1\right)X_B}{\sqrt{l_b^2 - 0,25\left(l-c\right)^2 - \left(H_3 + h - H_1\right)^2}}, \quad (2)$$

bunda ψ_{XZ} – R_{XZ} kuch ta’sir chizig‘ining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °;

e – plugning pastki osish nuqtalaridan uning birinchi korpusining lemexigacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m;

n – plugga o‘rnatilgan korpuslar soni, dona;

L – plugning korpuslari orasidagi bo‘ylama masofa, m;

ρ_{XZ} – plugning o‘rta (shartli o‘rta) korpusi lemexining uchidan R_{XZ} kuchning ta’sir chizig‘igacha bo‘lgan masofa, m;

H_1 – plugning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, m;

H_3 – traktor tayanch tekisligidan u osish mexanizmi pastki tortqi-larining qo‘zg‘almas sharnirlari $A(A_1)$gacha bo‘lgan tik masofa, m;

h – plugning ishlov berish chuqurligi, m;

X_B – traktor osish mexanizmi pastki va markaziy tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi bo‘ylama masofa, m;

l_b– traktor osish mexanizmi pastki tortqilarining uzunligi, m;

l – plugning pastki osish nuqtalari orasidagi ko‘ndalang masofa, m;

c – traktor osish mexanizmi pastki bo‘ylama tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi ko‘ndalang masofa, m.

(1) va (2) ifodalarni birgalikda yechib, plug oniy aylanish markazining τ – τ chiziqda joylashgan o‘rnini (rasmdagi π_1 nuqtani) aniqlash uchun quyidagi ifodalarga ega bo‘lamiz:

$$X_{\pi_1} = \frac{\sqrt{l_b^2 - 0,25\left(l-c\right)^2 - \left(H_3 + h - H_1\right)^2}}{\left(H_3 + h - H_1\right) - \sqrt{l_b^2 - 0,25\left(l-c\right)^2 - \left(H_3 + h - H_1\right)}tg\,\psi_{XZ}^{y}} \times$$
$$\times\left[\left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}}\right)tg\psi_{XZ}^{y} + 0,5b_d\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^{y}\right) - H_1\right]; \quad (3)$$

$$Z_{\pi_1} = \frac{H_3 + h - H_1}{\left(H_3 + h - H_1\right) - \sqrt{l_b^2 - 0,25\left(l-c\right)^2 - \left(H_3 + h - H_1\right)}\,tg\,\psi_{XZ}^{y}} \times$$
$$\times\left[\left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}}\right)tg\psi_{XZ}^{y} + 0,5b_b\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^{y}\right) - H_1\right]. \quad (4)$$

Plugning oniy aylanish markazi π_1 nuqtada joylashishi uchun bundan tashqari traktor osish mexanizmi yuqorigi bo‘ylama tortqisining davomi ham ushbu nuqtadan o‘tishi lozim. Bunga asosan plugning pastki $D(D_1)$ va yuqorigi S osish nuqtalari orasidagi tik masofa $(H_2)'$ ni to‘g‘ri tanlash hisobiga erishilinadi va uni aniqlash uchun rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib quyidagi ifoda olindi:

$$\left(H_2\right)' = Z_{\pi_1} - \frac{X_{\pi_1}\left(H_3 + h - H_1 + Z_B - Z_{\pi_1}\right)}{\sqrt{l_b^2 - 0{,}25\left(l-c\right)^2 - \left(H_3 + h - H_1\right)^2} - X_B - X_{\pi_1}}. \quad (5)$$

(3)-(5) ifodalarga N_3 = 0,6 m, h = 0,35 m, N_1 = 0,85 m, l_b = 0,95 m, l = 1,04 m, s = 0,62 m, ye = 0,62 m, n = 3 dona, L = 1,0 m, ρ_{XZ} = 0,15 m, b_d = 0,2 m, X_V = 0,3 m, Z_V = 0,56 m, ψ_{XZ} = 12º, ψ^y_{XZ} = 10º qiymatlarni qo‘yib, 3-4 sinfdagi traktorlar bilan agregatlanadigan pluglar uchun X_{π_1} = 295 cm, Z_{π_1} = 0 cm va $(H_2)'$ = 71,1 cm bo‘lishi lozimligini aniqlandi.

Xulosa

Tuproqning fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon harakatiga ta’sir etmasligi uchun ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlari shu tekislikda ularga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari teng ta’sir etuvchisining ta’sir chizig‘ida joylashtirilishi lozim. Bunga asosan tuproqqa ishlov berish mashinalarining pastki osish nuqtalaridan ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlarigacha bo‘lgan gorizontal va tik hamda ularning pastki va yuqorigi osish nuqtalari orasidagi tik masofalarni to‘g‘ri tanlash hisobiga erishilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соколов Ф.А. Агрономические основы комплексной механизации хлопководства. – Ташкент: Фан, 1977. – 224 с.

2. Кондратюк В.П. Обработка почвы под посев хлопчатника в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1972. – 286 с.

3. Аристов А.Н., Муля М.Г. Результаты опытов по определению влияния неравномерности глубины вспашки на потери урожая яровой пшеницы // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 5-12.

4. Князов А.А., Баев Н.К. Исследование влияния неравномерности глубины пахоты на урожайность зерновых культур в условиях Среднего Поволжья // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 13-18.

5. Набиев Т.С. Исследование и обоснование параметров регулятора заглубления рабочих органов культиваторов для повышения качества между-рядной обработки хлопчатника: Автореф. дис. … канд. техн. наук. – Ташкент, 1975. – 26 с.

6. Глущенко А.Д. и др. О повышении устойчивости движения в почве рабочих органов хлопковых культиваторов-растениепитателей// Механизация хлопководства. – 1980. – № 10. – С. 11-12.

7. Аповов И. Вероятностно-статистические закономерности изменения внешных воздействий машинно-тракторных агрегатов // Механизация хлопководства. – 1980. – № 4. – С. 17-19.

8. Бурченко П.Н. Механико-технологические основы почвообрабаты-вающих машин нового поколения. – Москва, ВИМ, 2002. – 212 с.

To‘xtaqo‘ziyev A., Rasuljonov A.R. Tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligini tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon yurishiga ta’sirini bartaraf etish. *O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini ko‘rsatishicha, tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi tuproqqi ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon harakatiga ta’sir ko‘rsatmasligi uchun ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlari shu tekislikda ularga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari teng ta’sir etuvchisining ta’sir chizig‘ida joylashtirilishi lozim.*

Тухтакузиев А., Расулжонов А.Р. Исключения влияния изменчивости физико-механических свойств почвы на равномерность хода почвообрабатывающих машин по глубине обработки. *Как показывают результаты проведенных исследований, чтобы исключить влияние изменчивости физико-механических свойств почвы на равномерность*

хода почвообрабатывающих машин по глубине обработки мгновенные центры вращения их в продольно-вертикальной плоскости должны быть расположены на линии действия равнодействующей сил сопротивления, действующих на них на этой плоскости.

Tukhtakuziev A., Rasuljonov A.R. Exclusions of the influence of the variability of the physical and mechanical properties of the soil on the uniformity of the movement of tillage machines along the tillage depth. *The conducted research results show that to eliminate the influence of soil physical and mechanical properties variability on the uniformity of the soil-cultivating machines' movement along the tillage depth, their instantaneous centers of rotation in the longitudinal-vertical plane should be located on the lines of action of the resultant resistance forces acting on them in this plane.*

UO‘T 634.1-13

MEVALI DARAXT KO‘CHATLARINI ILDIZ TIZIMINI TAHLIL QILISH ORQALI MASHINA CHUQUR YUMSHATKICH-EGATOCHKICHINING ISHLOV BERISH CHUQURLIGI VA KENGLIGINI ASOSLASH

Mukimov Z.A.[1] tayanch doktoant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.


Yangi mevali bog‘ barpo qilinadan maydonlar belgilangan tartibda tanlab olinadi va 50-60 cm chuqurlikdan o‘g‘itlangan holda asosiy ishlov beriladi. Ishlov berilgan ekin maydoni tekslanib, ko‘chat o‘tqazishga tayyorlanadi. So‘ngra maydonga ko‘chat o‘tqazish ishlariga kirishiladi.

Mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish mashinasida mevali daraxt ko‘chatlarini sifatli o‘tqazish uchun o‘tqaziladigan ko‘chatlarning novdalari va ildizlarining uzunliklari hamda kengliklari muhum o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan o‘tqaziladigan ko‘chatlarning o‘lchamlaridan kelib chiqib, mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish mashinasi qismlarini, jumladan, mashina chuqur yumshatgich-egatochkich parametrlarini asoslash kerak bo‘ladi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuquryumshatgich-egatochgichning ishlov berish o‘lchamlari (chuqurligi va kengligi) asoslanmagan. Ba’zi mualliflar egat o‘lchamlarini mavjud o’tqaziladigan ko‘chatlarning parametrlari nuqtai nazaridan kelib chiqib qabul qiladilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yangi mevali bog‘larni barpo etishda kasallikka chidamli, serhosil va sifatli hosil beradigan navlaridan iborat mevali bog‘lar tashkil qilinishi maqsadida kuchli o‘suvchi payvandtagli, yarim pakana payvandtagli va pakana payvandtagli ildiz tuzulishiga ega bo‘lgan 2 yoki 3 yillik payvantagli ko‘chat turlari o‘tqazilmoqda. Bunday ildiz tuzulishi barcha mevali daraxt ko‘chatlari uchun ta’alluqli hisoblanadi. Shuni alohida takidlash kerakki, ushbu mevali daraxt ko‘chati turlari, navlariga va shox-shabbalarini va ildiz tizimlarini rivojlanishi turlichadir. Ushbu payvandtagli ko‘chatlarni ildizlarini tuzulishidan kelib chiqib, ularni ildiz o‘lchamlari kuchli o‘suvchi payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan uzun bo‘lib, uning uzunligi 330 mm gacha bo‘lsa, yon so`ruvchi ildizlarini kengligi 300 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydonini kattaligini hisobga olib 5x5, 6x6, 8x8 m va katta sxemalarda o‘tqaziladi. Yarim pakana payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan bir oz uzunroq bo‘lib, uning uzunligi 250 mmgacha bo‘lsa, yon so‘ruvchi ildizlarini kengligi 260 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydoni 4x5, 3x5, 5x5 m va boshqa o‘rtacha sxemalarda o‘tqaziladi. Pakana payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan qisqa bo‘lib, uning uzunligi 180 mm gacha bo‘lsa, yon so‘ruvchi ildizlarini kengligi 300 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydoni 4×1,2, 4x1,5, 4x2 m va boshqa kichik sxemalarda o‘tqaziladi.

Mevali daraxt ko‘chatlarini ildiz tizimlarini ko‘mish chuqurligini aniqlashda mevali daraxt ko‘chatlari ildiz uzunligini o‘rganishdan tashqari payvandlash orqali ko‘paytirilgan payvantagli

ko‘chatlarni payvandtaglarini tuproq bilan ko‘milib qolishini oldini olishga maqsadida e’tiborga olish kerak (1-rasm).





a) **b)**

1-rasm. Ko‘chatni payvandtagi (a) va uni tuproq bilan ko‘mish sathigacha bo‘lgan masofa (b).

Aks holda payvantagiga havo o‘tmasligi natijasida turli kasalliklarga chalinishi, mo‘rtlashishi va chirishi natijasida ko‘chatni kelgusida qurib qolishi yoki rivoji past bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga payvandtag ostidan yovvoyi navni o‘sib chiqishi natijasida mevali bog‘ sifatiga zarar keltiradi. Demak, payvantaglarni tuproq bilan ko‘milib qolishini oldini olish chegarasi bu ko‘mish cuqurligini maksimum chegarasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida o‘tqazilayotgan mevali daraxt ko‘chatlarini parametrlari bilan tanishib, xisob-kitob ishlari yuritidi. Ilmiy-tadqiqot instituti mutaxssislarini ma’lim qilishicha, yangi bog‘ barpo etish uchun asosan 1-2-3 yillik ko‘chatlar o‘tqazilishi takidlandi. O‘tqazilayotgan ko‘chatlarni shoxlari va ildizlarini o‘lchamlari olindi (1-jadval).

1-jadval

O‘tqazish uchun tayyorlangan 2-3 yillik mevali daraxt ko‘chatlarining shox va ildizlarining o‘lchamlari

T/r	**Daraxt ko‘chatini nomi**	**Shoxlari**, mm		**Ildizlari**, mm	
		uzunligi	**kengligi**	**uzunligi**	**kengligi**
1	Olma	148-152	310-340	190-230	180-220
2	O‘rik	165-173	360-420	220-220	200-240
3	Softoli	166-174	270-320	210-240	110-140
4	Bodom	161-170	410-470	210-250	180-240
5	Olxo‘ri	147-154	200-250	210-250	200-250
Jami	**O‘rtacha:**	**160**	**350**	**210**	**200**
	Maksimum:	**174**	**470**	**250**	**250**

Takidlanishicha, o‘tqazilayotgan ko‘chatlar standart talablariga javob beradigan bo`lishi kerak. Ko‘chatni mexanik shikastlangan, qurigan, o‘tqazish uchun xalaqit qiladigan bir qator ortiqcha shox va ildizlari o‘tkir bog‘ qaychisi yordamida qisqartiriladi. Bundan tashqari, ko‘chatlarni yahshi ko‘karib ketishi uchun ko‘chatni shox va ildizlari kuchliroq qisqartirilishi mumkin. Natijada dala sharoitida o‘tqazish uchun kovlab olingan ko`chatlarni shoxlari va ildizlarining uzunligi hamda kengligi bo‘yicha ma’lum darajada qisqarishiga olib kelinadi. Bu esa mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuqur yumshatgich-egatochkich parametrlarini tanlashda muhum hisoblanadi. Ko‘chat o‘tqazishni osonlashtirish maqsadida ko‘chat shoxlarini o‘lchamlarini ham hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ko‘chatni o‘tqazish chuqurligini hisoblash. O‘tqazish uchun tayyorlangan mevali daraxt ko‘chatlarini ko‘chat o‘tqazish agrotexnikasidan kelib chiqib tanlaymiz. Yuqoridagi 1-jadvaldan

kelib chiqadigan xulosa shuki, mevalarning turlari, ularning ko‘chatlarini ildiz uzunligi(balandligi) maksimum 250 mm ga teng bo‘lar ekan.

Ko‘chatni o‘tqazish agrotexnikasiga asosan ko‘chat ildiz bo‘g‘zidan 60-80 mm ko‘milsa, ko‘chatni yahshi ko‘karib ketishi mumkin, lekin ko‘chat payvandtagini ko‘milib qolmasligini inobatga olinishi zarur. Bunda ko‘chat ildiz bo‘g‘zidan payvandtaggacha bo‘lgan masofa 65-70 mm gachaligini hisobga olinadi. Payvandtagni tuproq bilan ko‘milib qolmasligi uchun tuproq bilan payvandtaggacha bo‘lgan 25-30 mm masofani chiqarib tashlashimiz kerak. Demak, ko‘chat ildizi bo‘g‘zidan tuproq bilan ko‘milish balandligi 40 mm bo‘ladi.

Ko‘chat ildizini tuproq bilan ko‘milishi ko‘chat ildizini ildiz uzunligi maksimum 250 mm va ko‘chat ildiz bo‘g‘zini 40 mm ko‘milishini hisobga olsak, ko‘chat o‘tqazish chuqurligi kamida 290 mm ni tashkil qiladi.

Ko‘chatni o‘tqazish kengligini hisoblash. O‘tqazish uchun tayyorlangan mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish agrotexnikasidan kelib chiqib tanlaymiz. Bunda, ko‘chatlarni ildiz kengligi asosiy o‘rin tutadi. Ko‘chatlarni shox-shabbalarini kengligi ko‘chatlarni o‘tqazish kengligiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ko‘chatlarning ildiz tizimini tahlili shuni ko`rsatdiki, ko‘chatlarni o‘tqazish kengligini hisoblashda ko‘chatlarni asosiy ildizlari emas, balki yon so‘ruvchi ildizlarining o‘lchami muhum o‘rin tutadi. Bu so‘ruvchi ildizlar otqaziladigan ko‘chatni bevosita tuproq bilan faol birikib ketishi natijasida ko‘chatni tez ko‘karib amal olishida muhum o‘rin tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ko‘chatlarni yon ildizlarini kengligi kamida 250 mm ga tengligi aniqlangan edi. O‘tqazilayotgan ko‘chat ildizlarini tuproqdagi namlik va ozuqalardan samarali foydalanib, yahshi rivojlanishini ta’minlash uchun qo‘shimcha yumshoq qatlam hosil qilish maqsadida, ko‘chat ildizini yon so‘ruvchi ildizlarini ko`chatni rivojlanishini inobatga olish kerak bo‘ladi. Shu sababli ko‘chat ildizlarini ikki tomonidan qo‘shimcha 50 mm dan 100 mm miqdorida qo‘shimcha yumshoq tuproq qatlamini hosil qilsh maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan chuqur yumshatgich-egatochgichni kengligi kamida 350 mm ni tashkil qiladi.

Xulosa

O‘tqazish uchun tayyorlangan turli mevali daraxt ko‘chatlarini ildiz va shox qismlari o‘lchamlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot izlanishlaridan kelib chiqib, mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan chuqur yumshatgich-egatochgichni ishlov berish chuqurligi kamida 300 mm va kengligini kamida 350 mm bo‘lishini lozim.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Ostonaqulov T.E., Narzieva S.X., B.X.G‘ulomov. Mevachilik asoslari. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011. 298 bet.

2. Исломов Е.И. Обоснование параметров комбинированного орудия для улучшения аридных пастбищ Узбекистана. Автореф. дисс.док.философии (PhD) по техн.наукам. – Ташкент. 2019.-С. 24.

3. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. Ўзбекистон мевачилиги. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011. 515 bet.

4. Ergashev M., Akbarov I., Mukimov Z. Mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishning anaviy usullarini o‘rganib ko‘chat o‘tqazish mashinasini loyihash. Xalqaro Ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani. TIQXMMI milliytadqiqot universiteti BuxTRBI. 23-25 mart 2025 yil. 253-258 b.

Mukimov Z. Mevali daraxt ko‘chatlarini ildiz tizimini tahlil qilish orqali mashina chuqur yumshatkich-egatochkichining ishlov berish chuqurligi va kengligini asoslash. *Maqolada mevali daraxt ko`chatlarini o`tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuqur yumshatgich-egatochgichini ishlov berish chuqurligi va kengligini tanlash uchun otqaziladigan mevali daraxt ko`chatlarining ildiz tizimlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.*

Мукимов З. Обоснование глубины и ширины обработки глубокорыхлитель-бороздореза машины путем анализа корневой системы саженцев плодовых деревьев. *В статье представлены результаты экспериментальных исследований по изучению корневой системы саженцев плодовых деревьев, высаживаемых для выбора глубины и ширины обработки глубокорыхлителя-бороздореза машины, осуществляющей непрерывную посадку саженцев*

Mukimov Z. Justification of the depth and width of processing of the furrow cultivator by analyzing the root system of fruit tree seedlings. *The article presents the results of experimental studies on the study of the root systems of fruit tree seedlings planted for selecting the depth and width of processing of the deep ripper-furrow cutter of a machine that performs continuous planting of fruit tree seedlings.*

UO‘T 631.31

ISHLOV BERISH CHUQURLIGI VA UNING BARQARORLIGI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAZORAT ETILADIGAN VA BOSHQARILADIGAN TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI

To‘xtaqo‘ziyev A.[1] t.f.d., prof., Rasuljonov A.R.[1] t.f.f.d., k.i.x., Komilov N.M.[2] t.f.f.d., k.i.x.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[2] Namangan davlat texnika universiteti.

Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi (bir tekisligi) barcha tuproqqa ishlov berish mashinalarining asosiy ish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo‘lsa va uning barqarorligi, ya’ni bir tekisda bo‘lishi ta’minlansa, ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga hamda ulardan yuqori hosil olinishiga erishilinadi, aks holda esa, ya’ni belgilangan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi ta’minlanmasa – o‘simliklarni notekis rivojlanishi va pishib yetilishi kuzatiladi, hosildorlik pasayadi [1-5].

Ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligini ta’minlash hamda ularni nazorat etish va boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan [6, 7].

Ushbu maqolada ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan tuproqqa ishlov berish mashinalarining konstruksiyalari va ularning ishlash tamoyillari keltirilgan.


Tuproqqa ishlov berish mashinalari belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va shu chuqurlikda barqaror yurishi uchun ularning tayanch g‘ildiraklari doimiy ravishda dala yuzasiga bosib turilishi va ular(tayanch g‘ildiraklar)ning tuproqqa tik bosim kuchi ma’lum bir maqbul qiymatga ega bo‘lishi lozim, ya’ni $Q_Z = Q_M$ (bunda Q_Z – tuproqqa ishlov berish mashinasi tayanch g‘ildiraklari tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchi, N; Q_M – tuproqqa ishlov berish mashinasi tayanch g‘ildiraklari tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchining ishlov berish chuqurligi barqaror bo‘lishini ta’minlaydigan maqbul qiymati, N.) shart ta’minlanishi lozim. Agar $Q_Z = 0$ bo‘lsa tuproqqa ishlov berish mashinasi belgilangan chuqurlikka botmasdan ishlaydi, $Q_Z < Q_M$ bo‘lsa tuproqqa ishlov berish mashinasining tayanch g‘ildiragi dala yuzasidagi notekisliklarga yetarli darajada moslasha olmaydi va demak ishlov berish chuqurligining barqarorligi ta’minlanmaydi, $Q_Z > Q_M$ bo‘lganda esa mashinani tortishga ortiqcha energiya sarflanadi.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarda olingan natijalar bo‘yicha tuproqqa ishlov berish mashinalari belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va shu chuqurlikda barqaror yurishi, ya’ni $Q_Z = Q_M$ shart bajarilishi tuproqqa ishlov berish mashinalarining tayanch tekisliklaridan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani o‘zgartirish (to‘g‘ri tanlash) hisobiga ta’minlanishi aniqlangan [8, 9]. Bunda bu masofani ortishi Q_Z ortishiga, kamayishi esa uni kamayishiga olib keladi.


O‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligini nazorat etish, ya’ni tuproqqa ishlov berish mashinalarini belgilangan chuqurlikka botib yoki botmasdan ishlayotganligini tekshirib borish uchun ularning tayanch g‘ildiraklari ular tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchi Q_Z ni qayd etib boradigan qurilmalar bilan jihozlanishi lozim.

Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligini boshqarish, ya’ni tuproqqa ishlov berish mashinalari belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va shu chuqurlikda barqaror harakatlanishini ta’minlash uchun ularning osish qurilmalari mashinalarning ramasiga o‘rnatilgan qo‘zg‘almas va traktorning osish mexanizmiga o‘rnatilgan quzg‘aluvchan qismlar hamda qo‘zg‘aluvchan qismlarni qo‘zg‘almas qismlarga nisbatan harakatini ta’minlaydigan mexanizmlardan iborat etib ishlanishi lozim.

Ta’kidlanganlardan kelib chiqib, ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan osma plug va chizel-kultivator ishlab chiqildi (rasmga qaralsin). Ular rama, ularga o‘rnatilgan ish organlari, tuproqqa beradigan tik bosim kuchini qayd etib boradigan elektron blok bilan jihozlangan tayanch g‘ildiraklar, qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas qismlardan tashkil topgan osish qurilmasi, osish qurilmasining qo‘zg‘aluvchan qismini qo‘zg‘almas qismga nisbatan yuqoriga va pastga harakatini ta’minlaydigan motor-reduktor va vintdan tashkil topgan.



a)



b)

1, 2-mos ravishda tuproqqa ishlov berish mashinasi osish qurilmasining qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas qismlari; 3-vint; 4-motor-reduktor; 5-tuproqqa beradigan tik bosim kuchini qayd etib boradigan elektron blok bilan jihozlangan tayanch g‘ildirak; 6-ma’lumotlarni qayd etish qurilmasi

Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalarga asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan osma plug (*a*) va chizel kultivator(*b*)ning konstruktiv sxemalari

Ish jarayonida ularning tayanch g‘ildiraklari tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchi elektron blok tomonidan qayd etilib, ma’lumotlarni qayta ishlash moduliga yuboradi. Agar bunda $Q_Z = 0$ va $Q_Z < Q_M$ bo‘lsa mashinalar osish qurilmalarining qo‘zg‘aluvchan qismlari maxsus dastur orqali $Q_Z = Q_M$ shart bajarilmaguncha qo‘zg‘almas qismlarga nisbatan yuqoriga ko‘tariladi, $Q_Z > Q_M$ bo‘lganda esa yuqoridagi, ya’ni $Q_Z = Q_M$ shart ta’minlanmaguncha pastga tushiriladi. Natijada osma plug va chizel-kultivatorning tayanch g‘ildiraklari doimiy ravishda belgilangan tik bosim kuchi bilan dala yuzasiga bosib turiladi va demak ularni belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va ishlov berish chuqurligining barqarorligi ta’minlanadi. Bu esa o‘z navbatida etishtiriladigan ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga olib keladi, hosildorlik ortadi.

Xulosa

Ishlab chiqilgan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan tuproqqa ishlov berish mashinalarini qo‘llash yerlarga belgilangan chuqurlikda ishlov berish va uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada ekinlarni bir tekis rivojlanishi, pishib yetilishi va hosildorlik ortishiga erishilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Соколов Ф.А. Агрономические основы комплексной механизации хлопководства. – Ташкент: Фан, 1977. – 224 с.

2. Кондратюк В.П. Обработка почвы под посев хлопчатника в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1972. – 286 с.

3. Бегимов Х. Агротехническая оценка приемов и орудий для предпосевной обработки засоленных почв Хорезмской области: Автореф. дис. … канд. селхоз. наук. – Самарканд, 1969. – 33 с.

4. Аристов А.Н., Муля М.Г. Результаты опытов по определению влияния неравномерности глубины вспашки на потери урожая яровой пшеницы // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 5-12.

5. Князов А.А., Баев Н.К. Исследование влияния неравномерности глубины пахоты на урожайность зерновых культур в условиях Среднего Поволжья // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 13-18.

6. To‘xtaqo‘ziyev A., Rasuljonov A. Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligini nazoratlash va boshqarish qurilmasini ishlab chiqish asoslari // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. – Gulbahor, 2024. – B. 52-58.

7. To‘xtaqo‘ziyev A., Komilov N., Rasuljonov A. Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligini nazoratlash va boshqarish qurilmalari // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. – Gulbahor, 2024. – B. 58-61.

8. To‘xtaqo‘ziyev A., Mansurov M., Rasuljonov A., Karimova D. Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlash chuqurligi barqarorligini ta’minlashning ilmiy asoslari. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2020. – 168 b.

9. Tukhtakuziev A., Rasuljonov A.R. Ensuring the stability of the processing depth of suspended soil mounted machines. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012156). IOP Publishing 2020.

To‘xtaqo‘ziyev A., Rasuljonov A.R., Komilov N.M. Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan tuproqqa ishlov berish mashinalari. *Maqolada ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan osma plug va chizel-kultivatorning konstruksiyalari va ishlash tamoyillari keltirilgan.*

Тухтакузиев А., Расулжонов А.Р., Комилов Н.М. Машины для обработки почвы с контролируемой и управляемой глубиной обработки, и ее устойчивостью на основе цифровых технологий. *В статье представлены конструкции и принципы работы навесного плуга и чизель-культиватора, у которых глубина обработки и ее устойчивость контролируются и управляются на основе цифровых технологий.*

Tukhtakuziev A., Rasuljonov A.R., Komilov N.M. Soil cultivation machines with controlled and controlled cultivation depth and its stability based on digital technologies. *The article presents the designs and operating principles of a mounted plow and chisel cultivator, the processing depth and stability of which are controlled and controlled based on digital technologies.*

УДК 634.74.631.535

ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ДЛЯ МЕХАНИЗАЦIИ ГОРНОГО САДОВОДСТВА УЗБЕКИСТАНА

Мусурмонов А.Т.[1] д.т.н, проф., Утаганов Х.Б.[1] PhD, Нурмихамедов Б.У.[2]

[1] Научно-исследовательский институт садоводства, виноградарства и виноделия им. акад. М. Мирзаева.

[2] Самаркандский государственный университет им. Ш. Рашидова.

Для условий горных районов Узбекистана предложена классификация террасированных площадей, учитывающая экологические особенности их, целевое назначение мероприятий и технологию освоения. Она включает три категории площадей:

- первую категорию входят склоны крутизной до 12°. Здесь целесообразна обычная контурная сплошная или полосная обработка почвы, где выращивают плодово-ягодные культуры, закладкой садов и виноградников и промышленных плантаций (фисташки, миндаля).

-во вторую категорию входят покрытые лесом площади крутизной до 20°. Для ликвидации эрозионных процессов необходимо проведение полосной обработки почвы, предпочтительно безоборотной с ориентацией по горизонталям или напашное террасирование.

Третья категория представлена крутыми склонами - 20-35°. Здесь проводят особые мероприятия: создание гидротехнических противоэрозионных сооружений в виде скамьевидных террас, площадок и микротеррас.

Метод широкополосного террасирования наиболее эффективен при освоении склонов. На более крутых участках очень резко возрастают объёмы земляных работ, а также стоимость строительства. Наибольшее распространение этот метод получил в Бостонлыкской научно-опытной станции, Научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия им. акад. М.М. Мирзаева, при закладке виноградников и плодовых насаждений (рис.1 а, б).



а) б)

а) пахотный агрегат б) поверхностная обработка фрезой

Рисунок 1 Фрагменты выполнения технологических операций на склоне.

При освоении склонов первой категории (крутизной до 12°) вначале производят засыпку и выполаживание промоин бульдозерами на базе тр-ра Т-402.01 с бульдозерным оборудованием ОБГН-4. Затем производят вспашку почвы по горизонтали в зависимости от типа выращиваемых культур, Подготовка почвы может быть сплошной - плугами на глубину до 30 см и полосной с оборотом пласта вниз по склону. Целесообразно применять плуги ПЛН-4-35, ПРН-40, вспашку для обработки почвы на глубину 12-20 см, культивацию с одновременным боронованием культиватором дисковым для склонов и культиватором-рыхлителем фирмы «Riniery». Посадку саженцев производят посадочным агрегатом ЛПА-1А, посев косточковых

- горным щелевателем-сеялкой ЩСГ-1 в агрегате с тр-ром гусеничным Агромаш-90 ТГ. При работе на склонах до 12º тр-рные агрегаты движутся с поперечным наклоном в направлении горизонтали. На всех операциях по обработке почвы, посадках и посеву, рыхлении и химической борьбе с болезнями и вредителями лесных насаждений должны применяться исключительно гусеничные двухдверные тр-ра по соображениям безопасности работ. Структуры технических средств по выращиванию лесных культур по сплошной пахоте и полосам на горных склонах крутизной до 12°. При крутизне горных склонов до 20° технология работ заключается в устройстве бульдозером и террасером-рыхлителем ТР-2А напашных террас, площадок круглой и прямоугольных форм и выемочно-напашных террас на которых создаются противоэрозионные насаждения из миндаля, фисташников**.**

Напашные террасы нарезаются плугом ПЛН-4-35 или плугом ПОН-2/3-45 после устройства подъездных путей бульдозером ОБГН-4 которым также возможно устройство выемочно-напашных террас. Устройство площадок осуществляют площадкоделателями ОПГН-1 и ПН-2 конструкции НИИЛХ.

Площади третьей категории (крутизна 20- 35°) осваивают устройством террас шириной полотна 3-4 м с помощью террасера ТК-4, площадок прямоугольной и круглой формы площадкоделателями ПП-2, ОПГН-1 и ПНД-1, а также устройством микротеррас с помощью щелевателя ЩСГ-1.

Наибольшее распространение получили ступенчатые, или скамьевидные, террасы, т.к. трудоемкие процессы обработки почвы и ухода за культурами на них могут быть механизированы.

Ступенчатые террасы формируют в основном на склонах крутизной 12-40°, реже - на склонах крутизной 5-8°. Чаще всего создают ступенчатые террасы с шириной полотна 0,8-4 м, а в отдельных случаях - 6 м. Террасы размещают с учетом способа создания культур. Этим достигается более производительное использование площади склонов и увеличение мелиоративной роли террас. Ступенчатые террасы широко применяются под закладку лесных культур, садов, виноградников и т. д.

Для подготовки участков под закладку садов и виноградников используются завозимые из-за рубежа гусеничные тракторы типа Nexos 230 VE, NEW HOLLAND, TL-100, AXOS-340, TTZ LS U62, NEW HOLLAND TK4060, TTZ LS I38, (СП УзКейстрактор,Узбекистан) Беларус-82.1. (Р. Беларусь) [1]

Глубокая вспашка с предварительным внесением органо-минеральных удобрений под закладку садов и виноградников проводится плантажными плугами типа ППН-40, планировка полей будет производиться планировочными машинами хлопкового комплекса.

Саженцы при закладке садов и виноградников сажают с помощью машины для посадки саженцев винограда НЮ-19, ямокопателей КЯУ-100Б. Междурядья в садах пашут специальным садовым плугом ПС-3-35, позволяющим выносить его относительно продольной оси трактора на 2,5-2,8 м и пахать под кроной деревьев.

Глубокое внесение (на глубину до 50 см) органо-минеральных удобрений проводится машиной типа УОМ-50 в один след. В перспективе предусмотрена разработка специального садово-виноградникового глубокорыхлителя с удобрителем для внесений с одновременным глубоким рыхлением, в зависимости от расположение кроны деревьев.

Обработка почвы и заделка сидератов проводится дисковыми садовыми боронами ДБТ-2,5 и фрезой садовой ФА-0,76, посев сидератов специальной сеялкой, измельчение сидератов косилкой измельчителем с рабочими органами типа косилки-измельчителя ИКС-3, приствольные полосы новой садовой фрезой с вертикальной осью вращения. Для удаления лоз и ветвей предусматривается использование нового измельчителя лоз и ветвей типа ИЛВ-1.

Культивацию, нарезку борозд, внесение минеральных удобрений в садах проводят культиватором садовой универсальной машиной ВК-3 и виноградниковой машиной UK-3 [2.3].

Для открытия виноградных кустов весной предусматриваются машины UOYO'-3 и TOM-0,45A, позволяющие до роспуска почек открыть кусты, укрытых осенью землей. Для ускорения созревания виноградной лозы, повышения качества винограда проводится чеканка кустов машиной ЧВС. Для измельчения лозы и ветвей будет разработана машина типа ИЛВ-1.

При уборке плодов и винограда применяется погрузчик ПК-0,75, полуприцеп - перегрузчик ПВС-29 и кузов сменный СКВ-28 и котейнеровоз ПК-4, которые существенно снижают затраты ручного труда.

Для химической защиты садов и виноградников от сельхозвредителей используются опрыскиватели вентиляторные для комплексной обработки сельхозкультур VP-1, «DALDEGAN», OBM-400, OBM-1500, «PORTER KUHN», ОШУ-200 [4]. Химзащита интенсивных садов, а также очаговая обработка традиционных садов проводится опрыскивателями ранцевым марки ОГ-101 "Аида" и пневматическим с двигателем марки ОРПД-12М и опрыскивателем тачкой с двигателем ОДК «КАРИОЛА» С-100.

Заключение.

Применение предлагаемых машин и орудий при возделывании плодовых насаждений в горном садоводстве Узбекистана увеличивает производительность труда в 5-7 раз и снижает затраты в 3-5 раза, повышая рентабельность производства саженцев и плодов.

Список литератур.

1. Система машин технологий для комплексной *механизации* сельскохозяйственного производства на 2021-2025 г. / Ч.5. Виноградарство, плодовое и декоративное садоводство - Ташкент, 2021.- 279 с.

2. A.T. Musurmonov, Sh K. Olimov, Y S. Rakhimov, U. O. Ochildiev. Experimental study of the dynamics of the hydrotracking system of the rotary share of a garden cultivator. PrintE3S Web of Conferences 486, 07002 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202448607002, AGRITECH-IX 2023 4 Page.

3. A.T. Musurmonov, X. B. Utaganov, Sh. Mirzakhodjaev. Field Tests of a Cultivator Proceeds between Row Soils in Vineyards. Print International Journal BIO Web of Conterences Volume 85, 2024 09 january (2024), 6- Page.

4. Мусурмонов А.Т., Х.Б.Утаганов Технологические показатели опыливателя для виноградников. Agro kimyo ximoya va o'simliklar karantini. журнали. № 2, 2024. Б 118- 120, 3 б.

Musurmonov A.T., Utaganov X.B., Nurmixamedov B.U. O'zbekistonda tog' oldi bog'dorchiligini mexanizaцuyalashtirish uchun texnik vositalarni asoslash. *Maqolada O'zbekiston Respublikasida tog' oldi bog'dorchilikda mevali ekinlari yetishtirishda texnologik jarayonlarni bajarish uchun mashinalar tizimi asoslangan va qullanilganda taklif etilayotgan mashina va kurollar ish unumini 5-7 marta va xarajatlarni 3-5 marta oshiradi.*

Мусурмонов А.Т., Утаганов Х.Б., Нурмихамедов Б.У. Обоснование технических средств для механизации горного садоводства Узбекистана. *В статье обоснована для выполнения технологических операций система машин и орудий для горного садоводства и применение предлагаемых машин и орудий при возделывании плодовых насаждений в горном садоводстве Республики Узбекистана увеличивает производительность труда в*

5-7 раз и снижает затраты в 3-5 раз.

Musurmonov A.T., Utaganov H.B., Nurmikhamedov B.U. Justification of technical means for the mechanization of mountain gardening Uzbekistan. *The article substantiates the system of machines and tools for mountain gardening for the implementation of technological operations and the use of the proposed machines and tools in the cultivation of fruit plantations in mountain gardening in Uzbekistan increases labor productivity by 5-7 times and reduces costs by 3-5 times.*

YERLARNI EKISHGA TAYYORLASH MASHINALARINING RESURSTEJAMKORLIGI VA ISH UNUMINI OSHIRISH

ПОВЫШЕНИЕ РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ МАШИН ДЛЯ ПРЕДПОСЕВНОЙ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ

INCREASING RESOURCE SAVING AND PRODUCTIVITY OF MACHINES FOR PRE-SOWING SOIL TILLAGE

UO‘T 631.313.9

TIRMA-G‘ALTAKMOLA

To‘xtaqo‘ziyev A.[1] t.f.d., prof., Niyetullayev A.[1] tayanch doktorant.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Bahorda yerlarni ekishga tayyorlashdagi asosiy va birinchi navbatdagi vazifa ularnining yuzasini tirmalash hisoblanadi. Mazkur tadbirni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishi dala yuzasida mayin tuproq qatlami hosil bo‘lishini ta’minlaydi, unib chiqayotgan begona o‘tlar yo‘qotiladi, hamda chigit va boshqa ekinlar urug‘larini qiyg‘os undirib olishga qulay imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari tuproqda to‘plangan namning uzoq muddat saqlanishiga erishiladi. Aksincha, tirmalashning kechikishi yoki o‘tkazilmasligi tuproqda to‘plangan namning yo‘qotilishi, dala yuzasining serkesak bo‘lib qolishi, haydov qatlamining qotib qolishiga hamda dalani begona o‘t bosib ketishiga olib keladi. Natijada yerlarni ekishga tayyorlash ishlari qiyinlashib, urug‘larni sifatli ekish va qiyg‘os undirib olish imkoni boy beriladi. Shu bois tuproqning 8-10 cm yuza qatlami yetilishi bilanoq dalalar qisqa muddatlarda tirmalanadi.

Respublikamiz sharoitida talab darajasidagi va yuqori ish sifatini ta’minlash uchun barcha maydonlarda tirmalash ikki izli, ya’ni ketma-ket ikki qator o‘rnatilgan tishli tirmalar bilan o‘tkaziladi. Bunda tirmalash agregatlari ko‘p hollarda yog‘och, metall yoki beton bruslarga ikki qator ulangan 12 ta yoki 16 ta BZSS-1,0, BZTS-1,0 va BZTX-1,0 tirmalardan tashkil topgan bo‘ladi [1]. Bunda birinchi qatordagi tirmalar bevosita bruslarga, ikkinchi qatordagi tirmalar esa birinchi qatordagi tirmalarning orqasiga ulanadi. Bunday tirmalash agregatlari quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega:

-tirmalarni ularga tiqilib qolgan begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlaridan tozalash uchun agregat to‘xtatiladi va qo‘l kuchi bilan tozalanadi. Buning uchun har bir agregatga ikkitadan to‘rttagacha qo‘shimcha ishchilar ajratiladi. Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi(QXTTSSM)dan olingan malumotlar bo‘yicha tirmalarni o‘simlik qoldiqlaridan va begona o‘tlardan tozalash uchun sarflanadigan vaqt smena vaqtining 30 foizini tashkil etadi [2,3];

-bir daladan ikkinchi dalaga o‘tish uchun agregat qismlarga ajratiladi va qo‘shimcha transport vositasida olib o‘tilib, qaytadan yig‘iladi. QXTTSSM dan olingan ma’lumotlar bo‘yicha bu ishlarni bajarish uchun 5,4 kishi/soat sarflanadi [2,3];

-manyovrchanligi past, foydalanishga noqulay.

Bularni barchasi tirmalash agregatlarining ish unumi va sifatini pasayishi, yonilg‘i, mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ortishiga olib keladi.


Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida QXMITI da ikki izli osma tirmalash agregati ishlab chiqilgan [4]. Agregat osma ramaga zanjirlar orqali ulanadigan ikki qator tishli tirmalardan iborat bo‘lib, uni qo‘llash o‘simlik qoldiqlaridan tozalashni va ularni bir daladan ikkinchi dalaga o‘tkazishni yengillashtiradi. Ammo u konstruktiv tuzilishi jihatdan qo‘pol, katta uzunlik va metallhajmdorlikka ega. Bular esa keng qamrovli tirmalash agregatini ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ishlab chiqilgan ikki izli osma tirmalash agregatining qamrov kengligi kichik (4 m), ish unumi past.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqqan holda hamda tirmalash agregatlari bo‘yicha olib borilgan izlanish va o‘tkazilgan adabiyotlar tahlili [5-7] asosida tirmalashda ish sifati va unumini oshirish, energiyamaterialhajmdorlikni kamaytirish, tirmalash agregatlarining o‘lchamlarini ixchamlashtirish maqsadida biz tomonimizdan “tirma-g‘altakmola” ishlab chiqildi (rasmga qaralsin).

Tirma-g‘altakmola osish qurilmasi 1 bilan jihozlangan rama 2 va unga zanjirlar vositasida ulangan bir qator tishli boronalar 3 dan tashkil topgan. U boronalarning oldiga joylashtirilgan maxsus tekislagich 4, orqasiga joylashtirilgan plankali g‘altakmola 5 bilan jihozlangan. Ramaning

orqasiga joylashtirilgan kronshteyn 6 vositasida uning dala yuzasiga nisbatan joylashish balandligi rostlanadi.

Ish jarayonida ramaning oldi tarafiga o‘rnatilgan tekislagich dala yuzasidagi notekisliklarni tekislaydi, tirmalar dala yuzasidagi kesaklarni maydalaydi va tuproqni 4-6 cm chuqurlikka yumshatadi, qatqaloqni buzadi va unib chiqayotgan begona o‘tlarni yo‘qotadi, plankali g‘altakmola esa tirmalar tishlaridan hosil bo‘lgan notekislik(izlar)ni tekislaydi, ular tomonidan yumshatilgan tuproq va maydalangan kesaklarni qo‘shimcha maydalaydi. Natijada dala yuzasida 4-6 cm qalinlikda tuproqdagi namning yaxshi saqlanishini ta’minlaydigan mayin qatlam hosil bo‘ladi va urug‘larning sifatli ekilishi hamda qiyg‘os undirib olinishi uchun qulay va agrotexnik talablarga mos sharoitlar yaratiladi.



Rasm. Tirma-g‘altakmolaning konstruktiv sxemasi

Ishlab chiqilgan tirma-g‘altakmolaning tajriba nusxasi tayyorlandi va uning dastlabki sinovlari o‘tkazildi. Dastlabki sinovlarda tirma-g‘altakmolaga belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va jiddiy kamchiliklari kuzatilmadi. Ushbu sinovlar tirmaning tishlariga tiqilib qolgan begona o‘tlarni tozalashda va bir daladan ikkinchi dalaga o‘tkazishda hech qanday qo‘shimcha qo‘l mehnati talab etilmasligini ko‘rsatdi. Natijada yerlarni tirmalashda ish sifati va ish unumi ortadi, mehnat va yonilg‘i sarfi kamayadi. Bundan tashqari ikki izli osma tirmalash agregatiga nisbatan ishlab chiqilgan tirma-g‘altakmolaning bir-birlik qamrash kengligiga tog‘ri keladigan massasi kam, uzunligi kalta, manevrchangligi yuqori. Bular yerlarni tirmalashda energiya-materialhajmdorlik kamayishiga olib keladi.

Xulosa

Ishlab chiqilgan “tirma-g‘altakmola” mavjud ikki izli tirmalash agregatlarining kamchiliklarini bartaraf etib ularning ish sifati va unumini oshiradi, energiya-materialhajmdorligini kamaytiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlash va maxsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar. 2022-2026 yillar. 1-Qism. – Toshkent, 2022. –545 b.

2. Протокол №26-21-88 (8075200) Государственных приемочных испытаний опытного образца сцепки борон СН-8. –СредазМИС, 1988. –44 б.

3. Протокол №26-17-89 (8075200) Государственных приемочных испытаний опытного образца агрегата бороновального АБН-8,5. –СредазМИС, 1989. – 48 б.

4. To‘xtaqo‘ziyev A, O‘sarov M, Bababekov U / Ikki izli osma boronalash agregati // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari. Xalqaro ilmiy – texnik konferentsiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. –Gulbahor, 2022. –130-132 b.

5. https://fhlupus.pl/ru/oferta/borona-zubovaya-tyajelaya/borona-polunavesna-ya-dvuxryadnaya-18-ti-zu/

6. https://www.AgriExpo.ru/scorpion/prod/tecnomeccanica-srl/product.html

7. https://pom.com.pl/ru/predlagat/Brony/navesnaya-zubchataya-borona%2C-7-polovin-u-224-u-224-1-so-strunnim-katkom/

To‘xtaqo‘ziyev A., Niyetullayev.A. Tirma-g‘altakmola. *Maqolada bahorda yerlarni ekishga tayyorlashda tirmalashning ahamiyati va mavjud ikki izli tirmalash agregatlarining*

kamchiliklari hamda tirmalashda ish sifati va unumini oshirish, energiya-resusrtejamkorlikni ta'minlash maqsadida "tirma-g'altakmola" ishlab chiqilganligi yoritilgan.

Тухтакузиев А., Ниетуллаев А. Борона-каток. *В статье освещаеются значение боронования при подготовке почвы к весеннему севу, недостатки существующих двухследных бороновальных агрегатов, а также "борона-каток", разработный с целью повышения качества и производительности при бороновании, а также обеспечение энерго- и ресурсосбережения.*

Tukhtakuziyev A., Niyetullayev A. Harrow-roller. *The article highlights the importance of harrowing in preparing the soil for spring sowing, the shortcomings of existing two-track harrowing units, as well as the "harrow-roller," developed with the aim of improving the quality and productivity of harrowing, as well as ensuring energy and resource savings.*

УДК 629.114.2

ИННОВАЦИОННЫЙ РОТАЦИОННЫЙ РАБОЧИЙ ОРГАН ПОЧВООБРАБАТЫВАЮЩЕЙ МАШИНЫ

Ахметов А.А.[1] д.т.н., проф., Рахимбаева Д.С.[2] базовый докторант

[1] Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

[2] Научно-исследовательски институт механизации сельского хозяйства.

В целях снижения энерго и ресурсных затрат последние годы все шире применяются на предпосевной обработке почвы почвообрабатывающие машины, совмещающие несколько операции за один проход агрегата. Как правило большинство из этих почвообрабатывающих машин снабжены активными ротационными рабочими органами придающей почве после ее обработки мелкокомковатую структуру, наиболее приемлемую для посева сельскохозяйственных культур.

Большинства таких почвообрабатывающих машин имеют ротационные рабочие органы, снабженные Г-образными ножами, закрепленными на обе плоскости вращения диска, расположенной на роторе на расстоянии 100-200 мм друг от друга [1-2].

Такие Г-образные ножи, хорошо справляются с крупными комками почвы, разрушая их при взаимодействии с ними придает почве после обработки мелкокомковатое строение, но вместе с тем заглубляясь крыльями в почву, выносят ее нижние более влажные слои на дневную поверхность поля, тем самым, приводят к потере влаги.

С точки зрения предотвращения выноса нижних более влажных слоев почвы на дневную поверхность имеют сравнительно лучшие показатели ротационные рабочие органы, снабженные прямыми плоскими ножами, закрепленными на обе плоскости вращения диска, расположенной на роторе на расстоянии 100-200 мм друг от друга [1-2]. Однако траектории движения этих ножей, закрепленных на одной плоскости вращения диска, находятся в одной линии, поэтому при работе между траекториями движения ножей, закрепленных на смежных дисках, на дне обработки образуются заметные гребешки в виде тумб, что нежелательно, так как они отрицательно сказывается на равномерности дна обработки. Уменьшение расстояния между траекториями движения ножей, закрепленных на смежных дисках, в целях исключения образования заметных гребешков на дне обработки, приводит к увеличению число ножей и дисков, что также нежелательно, так как приводит к росту массы ротора и энергоемкости обработки почвы.

В отличие от двух предыдущих ножей компромиссный подход к достижению качества крошения почвы и минимизации выноса нижних более влажных слоев почвы на дневную поверхность имеет рабочий орган почвообрабатывающей машины [3], содержащей расположенный перпендикулярно к направлению перемещения горизонтальный вал, на котором посредством плоских ступиц закреплены пластинчатые

ножи. Рабочая часть каждого из них выполнена плоской и установлена с наклоном от плоскости вращения ступицы к валу. Причем концы всех ножей расположены на одинаковом расстоянии от вала и под разными углами к плоскости вращения ступицы.

Данный рабочий орган производит обработку почвы с эквидистантным перемещением вершины зоны деформации каждого последующего цикла от предыдущего по направлению ширины захвата машины, обеспечивая равномерного расположения траекторию движения щек пластинчатых ножей по всей ширине почвообрабатывающей машины тем самым обеспечивая равномерности дна борозды и из-за отсутствия крыла ножей снижении выноса нижних более влажных слоев почвы на дневную поверхность.

Хотя этот рабочий орган производит равномерную обработку почвы по ширине захвата машины, но из-за наклонного расположения пластинчатых ножей выносят определенной части нижних более влажных слоев почвы на дневную поверхность и оставляет комки с низкой влажностью, расположенной на верхнем слое почвы без достаточного разрушения, что не желательно. Это происходит из-за недостаточного воздействия ножей на эти иссушенные комки, расположенные на верхнем слое почвы, т.е. ножи оказывает воздействия на них только по одной плоскости по толщине пластинчатых ножей. Тогда, как известно, при воздействии ножей на комки почвы по взаимно пересекающимся плоскостям [4] значительно повышается разрушение комка, следовательно, качество крошения почвы.

Для устранения недостатков известных ротационных рабочих органов почвообрабатывающей машины нами было разработано инновационная форма ротационного рабочего органа [5], существенно отличающиеся от ранее известных его форм.

Этот инновационный ротационный рабочий орган почвообрабатывающей машины (рис. 1) состоит из горизонтального вала 1, на котором посредством плоских ступиц 2 и крепежных элементов 3 закреплены пластинчатые ножи 4, выполненные одно цельными со стойками 5. Пластинчатые ножи 3 выполнены из плоского листа и состоит из стойки 5, полки 6 и концевой части 7. Полки 6 выполненной за счет отгиба стойки 5 предпочтительно на угол 90° на середине высоты h_p рабочей части пластинчатого ножа, т.е. полки расположены в радиусе вращения ротора, равной




Рис. 1 Инновационный ротационный рабочий орган почвообрабатывающей машины

$$R_n = R_p - h_p /2, \quad (1)$$

где R_n – радиус расположения полок пластинчатых ножей, m;

R_p – радиус ротора, m;

h_p – высота рабочей части пластинчатого ножа, m.

Обычно высоту рабочей части пластинчатого ножа выбирают исходя из величины глубины обработки a_p и угла установки ножа γ ротора из следующего выражения

$$h_p = a_p / cos \quad (2)$$

Концевая часть 7 каждого пластинчатого ножа 4 является продолжением полки 6 и отогнута относительно торца 8 рабочей длины l_p полки предпочтительно на угол 90° и занимает вертикальное положение относительно оси вращения горизонтального вала.

Щеки 9 концевой части 7 всех ножей расположены на одинаковом расстоянии R_p от оси вращения горизонтального вала 1, но они смещены относительно друг друга на равное расстояние l_n, определяемое из соотношения

$$l_n = L / 2\,Z, \quad (3)$$

где l_n – расстояние между щеками концевой части смежных пластинчатых ножей, m;

L – расстояние между смежными ступицами, m;

Z – число пластинчатых ножей, закрепленных на одной плоскости вращения ступицы.

Горизонтальный вал 1 со ступицей 2 и закрепленные к ней крепежными элементами 3 пластинчатых ножей 4 помещены внутри кожуха 10, установленного сверху инновационного ротационного рабочего органа.

Для обеспечения равного расстояния между щеками концевой части смежных пластинчатых ножей 4, закрепленные на одной плоскости вращения ступицы 2, они имеют различную рабочую длину l_{pi} полки, возрастающая по порядку расположения ножей и определяемая из следующего соотношения

$$l_{pi} = i\,(L / 2Z) - L / 4Z, \qquad (4)$$

где l_{pi} – длина полки i-го пластинчатого ножа, m;

i – порядковый номер пластинчатого ножа, закрепленного на одной плоскости вращения ступицы.

Таким образом, смещение щеки 8 смежных концевых частей 6 пластинчатых ножей 4 по оси вращения горизонтального вала 1 на необходимое расстояние достигается индивидуальным подбором длины полки каждого последовательно расположенного пластинчатого ножа.

Предлагаемый инновационный ротационный рабочий орган почвообрабатывающей машины работает следующим образом.

Во время работы инновационный ротационный рабочий орган совершая поступательное и вращательное движение врезается пластинчатыми ножами 4 в почву. При этом стойка 5 пластинчатого ножа 4 вместе с полкой 6 ударяясь об почвенные комки с низкой влажностью, расположенные на верхнем слое почвы разрушают их на мелкие фракции. Одновременно, с разрушением комков при соударении с ними полки 6 пластинчатых ножей 4 отбрасывает некоторую разрушенную часть комков, которые соударяясь с кожухом 10 дополнительно разрушаются и падают вниз на обработанную поверхность. Таким образом, верхняя иссушенная часть почвы подвергается к двукратным разрушениям, сначала пластинчатым ножом 4, а потом за счет соударения с кожухом 10, а это, естественно, повышает качество крошения почвы.

Вовремя перемещении стойка 5 пластинчатого ножа 4 вместе с полкой 6 перемещается и концевая часть 7 пластинчатого ножа, которая, из-за своего вертикального расположения врезаясь в нижние более влажные слои почвы разрыхляет их без выноса на дневную поверхность. Равномерное и вертикальное расположение щеки 8 концевых частей 6 смежных пластинчатых ножей 4 по всей ширине захвата инновационного ротационного рабочего органа почвообрабатывающей машины исключает выноса нижних более влажных слоев почвы на дневную поверхность и образованию необработанных участков, тем самым, исключая неравномерности дна, улучшает качество обработки почвы и сохраняет почвенные влаги.

Еще одной главной особенностью инновационного ротационного рабочего органа является то, что за счет подбора расстоянии между щеками смежных пластинчатых ножей и изменением число оборотов ротора можно добиться любого качества крошения почвы.

Как известно, что, согласно агротехническим требованиям, содержание фракции размерами в поперечнике 25 mm и менее должно быть не менее 80 %. Для обеспечения надежного выполнения этого требования расстояние между щеками концевой части смежных пластинчатых ножей должно быть не более 25 mm. Этого можно добиться в том случае, когда согласно (3) при числе пластинчатых ножей Z = 3 закрепленных на одной плоскости вращения ступицы расстояние между смежными ступицами будет 150 mm. При этом длина рабочей части полки согласно выражению (4) для первого пластинчатого ножа будет l_{p1} = 25-12,5 = 12,5 mm, для второго ножа будет l_{p2} = 50-12,5 = 37,5 mm, а для третьего l_{p3} = 75-12,5 = 62,5 mm.

При этих длин рабочей части полок пластинчатых ножей расстояние между щеками 8 концевых частей 6 смежных пластинчатых ножей 4 по всей ширине захвата

почвообрабатывающей фрезы будет равным 25 mm, тем самым исключает образованию крупных комков или тумб размерами более 25 mm, что и соответствует агротехническим требованиям, где содержание фракции размерами в поперечнике 25 mm и менее должно быть не менее 80 %.

Заключение

Инновационный ротационный рабочий орган производит послойную обработку почвы, при этом верхний слой почвы с низкой влажностью подвергается двукратной обработке, а нижние более влажные слои почвы подвергается однократной обработке без выноса ее на дневную поверхность.

Список литературы

1. Синеоков Г.Н., Панов И.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. – М.: Машиностроение, 1977. – 328 с.

2.Ахметов А.А., Тенденция совершенствования конструкции хлопководческих предпосевных почвообрабатывающих машин-орудий. Ташкент: "ILMIY TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI", 2017 г. – 236 с.

3. А.с. 1787336. Рабочий орган почвообрабатывающей фрезы / Ахметов А.А. // Б.И. – 1993. – № 2.

4. Байметов Р.И., Ахметов А.А. Степень разрушения комков почвы рабочими органами различных форм // В кн. "Вопросы механизации сельского хозяйства". Труды САИМЭ, вып. 23, Ташкент, 1982 г. –С.53-58.

5. Заявка на изобретения за № IAP IAP 20250524 «Рабочий орган почвообрабатывающей фрезы» от 25.08.2025 г.

Axmetov A.A., Rahimbayeva D.S. Tuproqqa ishlov berish mashinasining innovatsion rotatsion ish organi. *Maqolada innovatsion rotatsion ish organining tuzilishii va ishlash printsipi hamda uning tuproqni kerakli fraksiyonal tarkibda qatlamli ishlov berishni ta'minlaydigan asosiy konstruktiv va texnologik parametrlari keltirilgan*.

Ахметов А.А., Рахимбаева Д.С. Инновационный ротационный рабочий орган почвообрабатывающей машины. *В статье приводится устройство и принцип работы инновационного ротационного рабочего органа и его основные конструктивно-технологические параметры, обеспечивающие послойную обработку с требуемым фракционным составом почвы.*

Akhmetov A.A., Rakhimbaeva D.S. Innovative rotary working element of a soil-cultivating machine. *The article presents the design and operating principle of an innovative rotary working element and its main design and technological parameters, ensuring layer-by-layer processing with the required fractional composition of the soil.*

UO‘T 361.315.4

O‘RMON KO‘CHATXONALARINI EKISHGA TAYYORLAYDIGAN KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA PUSHTA OLGICHINING PARAMETRLARINI NAZARIY ASOSLASH


To‘xtaqo‘ziyev A.[1] t.f.d., prof., Nazirjonov I.A.[2]

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
[2] O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon filiali

Jahonda o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, ushbu yo‘nalishda kam energiya sarflagan holda o‘rmon ko‘chatxonalarini sifatli ekishga tayyorlashni amalga oshiradigan hamda

tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashishda resurstejamkorlikni ta’minlaydigan mashinalarning parametrlarini asoslashga doir ilmiy izlanishlarni olib borish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Ta’kidlanganlardan kelib chiqib, biz tomonimizdan o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina ishlab chiqildi (1-rasm).



1 – rama; 2 – rotatsion yumshatkich; 3 – pushta olgich; 4 – himoya vositasi; 5 – reduktor; 6 – kardanli uzatma; 7 – harakat uzatkich; 8 – tayanch g‘ildiragi; 9 – mashinaning traktorga osish qurilmasi


1-rasm. O‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashinaning sxemasi

U rama, rotatsion yumshatkich, rotatsion yumshatkich tomonidan maydalangan tuproq sochilib ketmasligini ta’minlash uchun himoya vositasi, reduktor, harakat uzatkich, kardanli uzatma, pushta olgichlar, tayanch g‘ildiraklar va osish qurilmasidan tashkil topgan bo‘lib, agregatning ish jarayonida rotatsion yumshatkich tomonidan tuproq qatlami belgilangan chuqurlikda maydalanadi va pushta olgich tomonidan pushtalar shakllantirilib, ekishga tayyorlanadi.

Kombinatsiyalashgan mashinani qo‘llanilishi o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlashda agregatlarni ularga kirishlari sonini qisqartiradi, yonilg‘i sarfi va ekspluatatsion xarajatlarni 1,5-2,0 barobarga kamaytiradi.

Ushbu maqolada o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichining parametrlarini nazariy asoslash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan.

Kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichini (2-rasm) agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga uning quyidagi parametrlari ta’sir ko‘rsatadi: H_p – ko‘kragining balandligi; $2\gamma_p$ – qanotlarining ochilish burchagi; β_p – tuproqqa kirish burchagi; δ_p – qanotlarining yon qirqilish burchagi; B_p – qanotlarining kengligi; L_p – korpusining uzunligi.



2-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichining parametrlari

Pushta olgich ko‘kragining balandligi quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi

$$H_p \geq (1+K_u)\frac{\left(B-h_{p.b.}ctg\varphi_t\right)h_{p.b.}}{2B}\left(\sqrt{2}+2\right), \quad (1)$$

bunda K_u – tuproqni pushta olgichning oldida uyumlanishini hisobga oladigan koeffitsent; B – pushta oralarining kengligi, m; $h_{p.b.}$ – pushtaning balandligi, m; φ_t – pushta yonbag‘rining gorizontga nisbatan qiyalik burchagi (bu burchakni tuproqni tabiiy to‘kilish burchagiga teng etib qabul qilamiz, ya’ni $\varphi_t=\varphi_{tt}$=35-38°.

Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlardan [1, 2] hamda o‘rmon ko‘chatxonalarida pushta shakllantirishga qo‘yilgan talablarga asosan K_u=0,5, B=60 cm, $h_{p.b}$=16 cm qabul qilib va bu qiymatlarni (1) ifodaga qo‘yib, pushta olgich ko‘kragining balandligi kamida 25,3 cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Pushta olgich qanotlarining ochilish burchagini ularga tuproq yopishmasligi va ularning oldiga tuproq ko‘plab uyulmasligi shartidan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi

$$2\gamma_p = \frac{\pi}{2} - \varphi \qquad (2) \qquad \text{yoki} \qquad \gamma_p = \frac{\pi}{4} - \frac{\varphi}{2}, \qquad (3)$$

bunda φ – tuproqning tashqi ishqalanish burchagi, °.

(2) va (3) ifodalarga φ ning ma’lum qiymatlarini (25-30º) qo‘yib, $2\gamma_p$=60-65° va γ_p=30-32°30′ oraliqlarida bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Pushta olgichning tuproqqa kirish burchagi quyidagi shartdan aniqlandi

$$\beta_p + \varphi < 90°. \qquad (4)$$

Bu shart bajarilganda tuproq bo‘laklarining pushta olgich ishchi sirti bo‘ylab yuqoriga sirpanishi ta’minlanadi va uning oldida ko‘plab tuproq uyulishining oldi olinadi.

(4) ifodani β_p ga nisbatan yechib va olingan ifodaga φ ning maksimal qiymatini qo‘yib (35º), pushta olgichning tuproqqa kirish burchagi ko‘pi bilan 55º bo‘lishligi aniqlandi.

Pushta olgich qanotlarining yon qirqilish burchagi tuproqning tabiiy to‘kilish burchagiga teng yoki undan 2-3º kichik olinadi. Bunda pushta olgich tomonidan shakllantirilgan pushta tuprog‘ini qaytib, egatga tushib qolish ehtimoli kamayadi va demak

$$\delta_p = \varphi_{tt} - (2-3°). \qquad (5)$$

Bu ifodaga φ_{tt} ning yuqorida keltirilgan qiymatini (35-38º) qo‘yib pushta olgich qanotlarining yon qirqilish burchagi 32-35º oralig‘ida bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Pushta olgich qanotlarining kengligi ushbu shart bo‘yicha aniqlandi

$$B_p \geq B_e, \qquad (6)$$

bunda B_e – pushta egatining kengligi, m.

(6) shart bajarilmasa, ya’ni B_p<B_e bo‘lsa, talablar darajasidagi balandlikdagi pushta hosil bo‘lmaydi.

$B_e = 2h_{p.b.}ctg\varphi_t$ ekanligini hisobga olganda, (6) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$B_p \geq 2h_{p.b.}ctg\varphi_t. \qquad (7)$$

Bu ifodaga $h_{p.b.}$ = 16 cm va φ_t = 35° qiymatlarini qo‘yib, pushta olgich qanotlarining kengligi kamida 46,0 cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Pushta olgichning uzunligi quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi

$$L_p \geq (1+K_u)\frac{(B - h_{p.b.}ctg\varphi_t)h_{p.b.}}{2B\cos\delta_p}(f + \sqrt{1+f^2})(\sqrt{2}+2), \qquad (8)$$

bunda f – tuproq bo‘laklarini pushta olgichning qanotlariga ishqalanish koeffitsienti.

f = 0,5 qabul qilib hamda K_u, B, $h_{p.b.}$, φ_t va δ_p larning yuqorida keltirilgan va aniqlangan qiymatlarini (8) ifodaga qo‘ysak, pushta olgich korpusining uzunligi kamida 49,0 cm bo‘lishi lozimligi kelib chiqadi.

Pushta olgichning tortishga qarshiligini aniqlash uchun V.P.Goryachkinning ratsional formulasidan foydalanib [3], quyidagi ifoda olindi

$$R_p \geq \left(k_p + \varepsilon_p V^2\right)\left(\frac{\left(B - h_{p.b.} ctg\varphi_t\right)h_{p.b.}}{B}\right)^2 ctg\varphi_t, \quad (9)$$

bunda k_p – tuproqning pushta olgichga solishtirma qarshiligi, Pa; ε_p – pushta olgichning tortishga qarshiligiga uning tezligi ta'sirini hisobga oladigan koeffitsient, N c^2/m^4; V – pushta olgichning harakat tezligi, m/s;

k_p = 3·10^4 Pa, ε_p = 1000 N s^2/m^4 qabul qilib va B, $h_{p.b.}$ va φ_t ni yuqorida keltirilgan qiymatlarini qo'yib, pushta olgichning tortishga qarshiligi 1,5-2,0 m/s harakat tezligida 452-476 N ni tashkil etishi aniqlandi.

Xulosalar

1. Kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichi qo'yilgan agrotexnika talablari bo'yicha sifatli pushta shakllantirishi uchun u ko'kragining balandligi kamida 25,3 cm, qanotlarining ochilish burchagi 60°-65° oralig'ida, tuproqqa kirish burchagi ko'pi bilan 55°, qanotlarining yon qirqilish burchagi 32°-35°, qanotlarining kengligi va korpusining uzunligi mos ravishda kamida 46,0 cm va 49,0 cm bo'lishi lozim.

2. Kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichining tortishga qarshiligi mashinaning 1,5-2,0 m/s harakat tezligida 452-476 N ni tashkil etdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Слободюк П.И. Исследование и обоснование параметров рабочего органа для нарезки поливных борозд при различных скоростях движения: Автореф. дис. … канд. тех. наук. – Харков, 1968. – 20 с.

2. Сергиенко В.А. Технологические основы механизации обработки почвы в междурядьях хлопчатника. –Ташкент: Фан, 1978. – 112 с.

3. Mamatov F.M. Qishloq xo'jalik mashinalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 338 b.

To'xtaqo'ziyev A., Nazirjonov I.A. O'rmon ko'chatxonalarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichining parametrlarini nazariy asoslash. *O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalarini ko'rsatishicha o'rmon ko'chatxonalarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichi unga qo'yilgan agrotexnika talablariga talablari bo'yicha sifatli pushta shakllantirishi uchun u ko'kragining balandligi kamida 25,3 cm, qanotlarining ochilish burchagi 60°-65° oralig'ida, tuproqqa kirish burchagi ko'pi bilan 55°, qanotlarining yon qirqilish burchagi 32°-35°, qanotlarining kengligi va korpusining uzunligi mos ravishda kamida 46 cm va 49 cm bo'lishi lozim.*

Тухтакузиев А., Назиржонов И.А. Теоретическое обоснование параметров гребнеобразователя комбинированной машины для подготовки к севу питомников лесного хозяйства*. По результаты проведенных теоретических исследований для образования качественного гребня по агротехническим требованиям высота груди гребнеобразователя комбинированной машины для подготовки к севу питомников лесного хозяйства должна быть не менее 25,3 см, угол раскрытия крыльев в пределах 60°-65°, угол вхождения в почву не более 55°, угол бокового среза крыльев 32°-35°, ширина крыльев и длина корпуса соответственно не менее 46 см и 49 см.*

Tukhtakuziyev A., Nazirjonov I.A. Theoretical justification of the parameters of the combine machine for preparing forestry nurseries for sowing. *According to the results of the conducted theoretical studies, to form a high-quality ridge according to agrotechnical requirements, the chest height of the combine crop-forming machine for preparing forestry nurseries for sowing should be at least 25.3 cm, the angle of wing spread within 60°-65°, the angle of entry into the soil not more than 55°, the angle of wing lateral cutting 32°-35°, the width of the wings, and the length of the body should be at least 46 cm and 49 cm, respectively.*

УДК 631.8; 632.08; 691.54

ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ИНТЕГРАЦИИ ВТОРИЧНЫХ ОТХОДОВ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ОПРЫСКИВАТЕЛИ

Борисенко И.Б.[1] д.т.н., проф., Мезникова М.В.[1] д.т.н., с.н.с., Улыбина Е.И.[2] к.т.н., доц.

[1] Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.
[2] Волгоградский государственный технический университет, Себряковский филиал, Россия

Развитие и применение перспективных технологий связано с увеличением темпов роста промышленности [1, 2]. С каждым годом направление отрасли промышленности накапливает большое количество отходов [3]. Вторичные отходы, накопленные в результате работы предприятий, подлежат утилизации или переработке. Лидером накопления вторичных отходов является строительная отрасль. Каждый год по статистике после производства цемента накапливается 10 мл. тонн отходов [3]. Строительная отрасль применяет передовые ресурсосберегающие технологии, позволяющие утилизировать во вращающихся печах до 75 % вторичных отходов, что позволяет переходить к замкнутому циклу производства, но этого недостаточно [4]. Согласно паспорта отраслевой программы в срок до 2030 года, перспективным направлением переработки пылевидных отходов промышленности являются и другие отрасли, в том числе и сельское хозяйство должно включиться в этот процесс [5]. Со стороны сельского хозяйства эту задачу решает производство химических удобрений способом рекуперации в процессе извлечения полезных компонентов из вторичных отходов и повторного их применения [6]. Чтобы применять таким образом полученные удобрения необходимо модернизировать рабочие органы штанговых опрыскивателей, а также совершенствовать способы нанесения средств защиты растений на сельскохозяйственные культуры, определяя подходы с точки зрения экологии. Для оценки перспективы применения пылевидных отходов, на созданной модели выделены два цикла накопления отходов (рис. 1) [4]. Первый цикл, когда ресурсы не




Рисунок 1 - Модель замкнутого цикла производства пылевидных отходов промышленности

покидают производства и возвращаются назад в печи. Этот процесс происходит за счёт превращения вторичных ресурсов в новый товар. Второй цикл замкнутого производства – это использование отходов промышленности в АПК. В данном цикле можно выделить две линии, когда отходы дорабатываются на собственных технологических линиях и в готовом

виде отправляются в отрасль АПК. Но при таком подходе большая вероятность несоответствия агротехнологическим требованиям полученных пылевидных отходов, а также увеличение загрязнения почвы отходами цементной пыли.

Для сельского хозяйства более привлекательным выглядит вторая линия замкнутого цикла, когда из вторичных отходов промышленности с помощью процесса рекуперации выделяют необходимые для питания роста и развития растений химические элементы. А затем уже привычные готовые удобрения применяют в сельскохозяйственных машинах. Сегодня все сельскохозяйственные машины модернизируются с возможностью применения ресурсосберегающих технологий. Одним из перспективных направлений применения такой технологии на пропашных культурах является способ полосового опрыскивания. Для этого в штанговых опрыскивателях применяются инновационные корпуса-делители, позволяющие экономить рабочий раствор и перераспределять поток рабочего раствора с необрабатываемой полосы на обрабатываемую (рис. 2) [7]. Данная технология нанесения раствора на культуру позволяет экономить 20 % рабочего раствора, но эксперименты, проведённые в поле, показывают, что часть раствора теряется за счёт образования мелкокапельного тумана, который оседает на почве или сдувается ветром при увеличении скорости движения штангового опрыскивателя по полю (рис. 3) [7].



Рисунок 2 - Инновационные корпуса-делители с распылением потока рабочей жидкости над рядками подсолнечника



а) б)

а) обычные форсунки; б) инновационные корпуса-делители

Рисунок 3 - Образование мелкокапельного тумана

Данный мелкодисперсный туман характерен для размера капли диаметром 200 мкм. При этом размер получаемой пылевидной частицы из вторичных отходов будет в несколько раз меньше, чем образующиеся капли при слиянии потока раствора рабочей жидкости. Для анализа формы и размера пылевидной частицы построен график зависимости размера частицы цементной пыли от ее содержания в образце (рис. 4).




Рисунок 4 - Зависимость размера частицы цементной пыли от ее процентного содержания в образце




Рисунок 5 - Частицы вторичных пылевидных отходов цементнойпромышленности

Анализ графика показывает, что отходы цементной пыли содержат 100 % частиц с размерами от 16,57 мкм до 258, 97 мкм. Сравнивая полученные результаты с размерами капель при опрыскивании, можно сказать, что оптимальный размер пылевидной частицы это 200 микрон. Если частица меньше, она будет сдуваться ветром, а если больше, то скатываться с листа [8]. Поэтому частицы пылевидных отходов будут подвержены сносу ветром и скатыванию с листа.

В лабораторных условиях была получена и фотография частицы вторичных отходов цементной промышленности (рис. 5). На фотографии видно, что форму и размер данного пылевидного вещества необходимо дорабатывать рабочими органами технических средств. Если этого не делать, то частица имеет острые края, которые будут осуществлять поражающий эффект смешиваясь с воздухом и под действием силы тяжести оседать на листьях обрабатываемой культуры. Механическое поражение негативно скажется на росте и развитии растения.

Заключение

Таким образом, анализ всех показателей позволяет сделать вывод, что переход к безотходному производству с использованием вторичных пылевидных отходов в сельском хозяйстве возможен. Но конструкции рабочих органов штанговых опрыскивателей требуют усовершенствования и новизны технического решения из-за наличия сноса частиц ветром. Научное обоснование результата должно осуществляться за счет наличия ветрозащитных устройств в конструкции штанговых опрыскивателей. Это позволит добиваться более качественного опрыскивания и улучшения показателей равномерности пылевой волны.

Список литературы

1. Щербакова А.С. Развитие циркулярной экономики в сельском хозяйстве // Вестник Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета. 2021. – Т. 1. № 4. – С. 405-413.

2. Кузнецова Н.А., Зинич Л.В. Вторичная переработка отходов как фактор устойчивого развития сельскохозяйственных предприятий // Фундаментальные исследования. 2021. – № 11. – С. 120-124.

3. Евдокимова Н. Е. Циркулярная модель экономики от поля до прилавка // Инновационные процессы в пищевых технологиях: наука и практика: Интернет-журнал, 2019. – С. 135-140. URL: https://vniiz.org/science/ publication/article-383/conf90-article-24 (дата обращения: 22.05.2024).

4. Борисенко И. Б., Мезникова М. В., Улыбина Е. И. Использование цементной пыли в замкнутом цикле производства промышленности в сельском хозяйстве. Известия НВ АУК. – 2024. – 5(77). – 318-325. DOI: 10.32786/2071-9485-2024-05-36.

5. Министерство промышленности и торговли Российской Федерации: паспорт отраслевой программы № 13493П-П11.2022-2030. Применения вторичных ресурсов и вторичного сырья из отходов в промышленном производстве. Москва: 2022.

6. Грачева Л.П. Шламовая (цементная) пыль в борьбе с некоторыми вредителями сельскохозяйственных растений. Автореф. дис. ... канд. биол. наук / Л.П.Грачева. Одесса: Одесский сельскохозяйственный институт, 1965. – 26 с.

7. Борисенко, И. Б., Мезникова М.В., Улыбина Е.И. Качественные показатели опрыскивания при применении способа полосовой химической обработки подсолнечника // Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: Наука и высшее профессиональное образование, 2021. – № 2 (62). – С. 339-346

8. Сельскохозяйственные машины (конструкция, теория и расчет) Часть I: учеб. пособие / Под ред. Е.В.Трубилин, А.В.Абликов, А.Н.Лютый, Л.П.Соломатина. 2-е издание перераб. и доп. Краснодар, 2008. – 200 с.

Borisenko I. B., Meznikova M. V., Ulybina E. I. Sanoatning ikkilamchi chiqindilarini purkagichlarga integratsiya qilish jarayonini o'rganish. *Ushbu maqolada purkagichlarda changsimon sanoat chiqindilaridan foydalanish istiqbollari, korxonalarning ekologiya nuqtai-nazaridan yopiq ishlab chiqarish tsikliga o'tishi va shtangali purkagichlarining ishchi organlarining qishloq xo'jaligi ekinlariga chang zarralarini qo'llash uchun moslashishi ko'rib chiqiladi*

Борисенко И.Б., Мезникова М.В., Улыбина Е.И. Изучение процесса интеграции вторичных отходов промышленности в опрыскиватели*. В данной статье рассматриваются перспективы применения пылевидных отходов промышленности в опрыскивателях, в условиях перехода предприятий на замкнутый цикл производства с позиции экологии и адаптации рабочих органов штанговых опрыскивателей для нанесения пылевидных частиц на сельскохозяйственную культуру*

Borisenko I.B., Meznikova M.V., Ulybina E.I. Study of the process of integrating secondary industrial waste into sprayers. *This article discusses the prospects for using industrial dust waste in sprayers, taking into account the transition of enterprises to a closed production cycle from an environmental perspective and the adaptation of the working bodies of boom sprayers for applying dust particles to agricultural crops.*

UO‘T 631.313.8.07

DISKLI QURILMANI ISH KO‘RSATKICHLARIGA TAYANCH TEKISLIGIDAN OSISH QURILMASINING PASTKI OSISH NUQTASIGACHA BO‘LGAN TIK MASOFA TA’SIRINI ANIQLASH BO‘YICHA TAJRIBAVIY TADQIQOTLARNING NATIJALARI

Amanov A.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

Respublikamiz dehqonlari tomonidan intensiv bog‘larni tashkil etishda qator oralari masofasi qisqarishi bilan ko‘chatlar oralig‘i masofasi birmuncha o‘zoqlashtirib kuyosh nuri tushushi va shamol aylanishi hamda tuproq unumdorligini hisobga olgan holatda qator oralari 3-4 metr mevali ko‘chatlar oralig‘i masofasi 2, 1, 0,75 hatto 0,5 metr oralig‘ida ekilib kelinmoqda [1].

Bog‘larda yarim pakana navli mevali daraxtlarini joylashtirishda ularning o‘sishi va meneral ozuqalarni to‘liq olishini xisobga olib, ishlov berish va mexanizatsiyalashgan holda daraxtlarni parvarish qilishni inobotga olish lozim.

Yangi ekilgan mevali ko‘chatlar dastlabki davrida suv bilan ta’minlash muhum tadbir hisoblanadi. Ko‘chatlar to‘liq ko‘karishi uchun ariq orqali sug‘orilsa, ko‘chat atrofidan suvni aylantirib o‘tkazib sug‘orish zarur. Tuproq va iqlim sharoitiga qarab yosh bog‘larga yil davomida 12-20 marotabagacha suv beriladi. Mevali ko‘chatlar atrofi qatqaloq bo‘lib qolmasligi uchun har


suvdan so‘ng 10-12 cm chuqurlikda yumshatib turiladi [2].

Sho‘r yerlarda olma daraxti ildizlari yer yuzasiga yaqin joylashgan bo‘lib, qator oralari 10-12 cm chuqurlikda ishlov berish muhum hisoblanadi. Tog‘va tog‘ oldi hududlarida mevali daraxt ildizlari ishlov berilgan qatlamda joylashgan bolib, qaror oralariga ishlov berishda ildiz tizimini shkastlamaslikka e’tibor qaratish zarur [3].

QXMITI da turli kenglikdagi tashkil etilgan intensive bog‘ qator oralariga ishlov berish begona o‘tlardan tozalsh hamda tuproqqa yuza ishlov berish, kabi ishlarni sifatli agrotexnik talablar asosida amalga oshiradigan resurstejamkor qurilma ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda [4, 5].


Ushbu qurilma tayanch tekisligidan u osish qurilmasining pastki taqish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani aniqlash uchun diskli laboratoriya qurilmasi ishlab chiqildi va uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Bunda qurilma tayanch tekislikdan u osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa 4 cm interval bilan 42 cm dan 54 cm gacha oraliqda o‘zgartirilib tajribalar o‘tkazildi. Bunda bitta qatorda joylashgan sferik diskli ish organlar orasidagi ko‘ndalang masofa 22 cm, sferik diskli ish organni tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 15°, sferik diskli ish organni harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 20° hamda agregatning harakat tezligi 6 va 9 km/h etib belgilandi. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida ishlov berish chuqurligi va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi, begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi qabul qilindi hamda qo‘shimcha ravishda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi aniqlandi.

Tajribalar Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani “Toshkent meva” MChJ ga qarashli 4x2 sxemada ekilgan olma bog‘ida o‘tkazildi. Tajribalardan olingan natijalar 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.



1. $M_{o'r}=f(H_0)$; 2. ±σ=f(H_0)
a) *V=6 km/h* da *b*) *V=9 km/h*

1-rasm. Qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri



1 va 2 – agregat harakat tezligi mos ravishda 6 va 9 km/h

2-rasm. Qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa ortishi bilan ishlov berish chuqurligi ortib bordi, uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa kamaydi, ya’ni ishlov berish chuqurligining barqarorligi yaxshilandi. Ya’ni, tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa 42 cm dan 46 cm gacha oshganda agregatning har ikkala harakat tezliklarida ishlov berish chuqurligi mos ravishda 5,4 cm dan 9,2 cm gacha, 5,2 cm dan 8,7 cm gacha keskin ortdi. Ushbu masofani 46 cm dan 54 cm gacha ortirilganda esa ishlov berish chuqurligi mos ravishda 9,2 cm dan 11,6 cm gacha va 8,7 cm dan 10,6 cm gacha oshdi.

Ishlov berish chuqurligining o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa 42 cm dan 54 cm gacha ortganda mos ravishda ±1,44 cm dan ±0,98 cm gacha va ±1,46 va ±1,04 cm ga kamaydi. Ammo, bunda ishlov berish chuqurligining ortishi va o‘rtacha kvadratik chetlanishining kamayish jadalliklari qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa ortishi bilan kamayib bordi. Bu masofa 46 cm va undan kichik bo‘lganda sferik diskli ish organlar belgilangan chuqurlikka botib ishlamadi, ya’ni ishlov berish chuqurligi belgilangan 10 cm dan kam bo‘ldi, 50 cm va undan katta bo‘lganda qurilma disklari belgilangan chuqurlikka botib ishladi 2-rasmdagi grafiklardan ko‘rinib turibdiki, qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa ortirilganda begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi ham oshib bordi, ya’ni ish sifati yaxshilandi. Ushbu ta’kidlangan masofa 42 cm dan 54 cm gacha ortishi bilan begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi mos ravishda 82,4 % dan 92,3 % ga, 80,4 % dan 91,1 % ga oshdi. Buni quyidagicha izohlaymiz, sferik disklarni tuproqqa botish chuqurligi ortib borganda begona o‘tlarni to‘liqroq kesilishi kuzatildi.

Qurilma tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofani 42 cm dan 54 cm gacha ortishi uning tortishga solishtirma qarshiligi 6-9 km/h harakat tezliklarida to‘g‘ri chiziqli qonuniyati bo‘yicha, ya’ni tezliklarga monand 2180 N/m dan 2736 N/m gacha va 2357 N/m dan 2889 N/m gacha ortishiga olib keldi. Buni ishlov berish chuqurligini ortgani, ya’ni sferik diskli ish organlarni tuproq bilan ta’sirlashish yuzalarini ortishiga, bundan tashqari tuproqning zich va qattiq qatlamida ishlagini bilan izohlaymiz. Agregatning harakat tezligi 6 km/h dan 9 km/h gacha oshganda qurilmaning tortishga solishtirma qarshilik zarba kuchini hisobiga ortdi.

Xulosa

Yuqorida o‘tkazilgan tahlilar shuni ko‘rsatadiki, sferik diskli ish organlar belgilangan chuqurlikka botishi, shu chuqurlikda barqaror yurishi, begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi maksimal hamda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi minimal bo‘lishi uchun qurilma tayanch tekisligidan u osish qurilmasining pastki taqish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa kamida 50 cm bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://staff.tiiame.uz/storage/users/466/articles/

2. Bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish: pakana va yarm pakana (intensiv) mevali bog‘larni tashkil etish ichki va tashqi bozorlarda yuqori talablarga ega bo‘lgan, yuqori xosildor uzum navlarini yaratish bo‘yicha. Qo‘llanma. Toshkent, 2016.-113-b.

3. Aripov A., Aripov A. Urug‘li intensiv meva bog‘lari. – Toshkent: “Sharq”, 2013. – 224 b.

4. A.Amanov. Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berishda diskli ishch organlarni samaradorligi// Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2024. – B. 35-38.

5. A.Amanov. Turli kenglikdagi intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilma ko‘ndalang va bo‘ylama disklar orasidagi parametrlarni asoslash // O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi ilmiy jurnal. Maxsus son-5 (17), – Toshkent, 2024. – B. 120-123.

Amanov A. Diskli qurilmani ish ko‘rsatkichlariga tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofani ta’siri aniqlash bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlarning natijalari. *Maqolada intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmani ish ko‘rsatkichlariga tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofani ta’siri aniqlash bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.*

Аманов А. Результаты экспериментальных исследований влияния вертикального расстояния от опорной плоскости до нижней точки навесного устройства на рабочие показатели дискового агрегата. *В статье представлены результаты экспериментальных исследований по определению влияния расстояния по вертикали от опорной плоскости до нижней точки подвеса навесного устройства на производительность орудия для обработки междурядий разной ширины в интенсивных садах.*

Amanov A. Results of experimental studies on the effect of the vertical distance from the support plane to the lower hitch point on the performance indicators of the disc implement. *The article presents the results of experimental studies to determine the effect of the vertical distance from the support plane to the lower suspension point of the suspension device on the performance of a device for cultivating rows of different widths in intensive gardens.*

UO‘T 631. 313.8.07

INTENSIV BOG‘LARNING TURLI KENGLIKDAGI QATOR ORALARIGA ISHLOV BERADIGAN DISKLI QURILMANING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

Imomqulov Q.[1]t.f.d., prof., Amanov A.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha mevali bog‘ maydonlari 53,4 mln. gektarni tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan, ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan energiya va resurstejamkor mashinalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shu boisdan meva yetishtirishda intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan zamonaviy mashina va qurilmalarni ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyoda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yetakchi tajribalarni qo‘llagan holda, zamonaviy texnologiyaga asoslangan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan, energiya sarfi kam, resurstejamkor texnologiyalar hamda ularni amalga oshiradigan texnika vositalarning yangi va zamonaviy turlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz sharoitida intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan energiya va resurstejamkor texnika va texnologiyalarini ishlab chiqarish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmanilarning maqbul parametrlarini asoslash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi PQ 4549-sonli qarorining ijrosini ta’minlash hamda azirlar Mahkamasining 24.07.2021-yildagi 458-sonli qarori bilan Qishloq xo‘jaligi birlashmalarining a’zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik sub’yektlariga mahalliy sharoitda yetishtiriladigan intensiv ko‘chatlar hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlandi [2]. Ushbu nizomni ijrosini ta’minlash maqsadida respublikamiz qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog‘ va uzumzorlar barpo etilmoqda. Xususan, respublikamiz hududidagi mevali bog‘ maydonlari 265741 gektarni tashkil etib, ushbu mevali bog‘ maydonlaridan 77412 gektarida intensiv bog‘lar tashkil etilgan, shundan 54586 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etildi.

Respublikamizda tashkil etilgan intensiv bog‘larda asosan olma, nok, gilos, shaftoli, o‘rik va olxo‘ri kabi mevali daraxtlar 3,5x2, 3,5x2,5, 4x1, 4x1,2, 4x2 sxemalarda) pakana payvantakda tashkil qilingan [3].

Intensiv bog‘larda gektariga 800-2500 tupgacha mevali ko‘chatlar ekish mumkin bo‘lsa, an’anaviy (fanda ekstinsiv) bog‘larda 350-400 tup mevali ko‘chatlar ekish mumkin ekan. Intensiv usulda tashkil qilingin bog‘larda ko‘chat oralig‘i 0,5 m dan 2 m gacha (ko‘chat turi va navidan kelib chiqib) ekilsa, an’anaviy bog‘larda bu 3-4 m ni, qator oralari esa, intensiv bog‘larda 3-4 m ni, an’anaviy bog‘larda 7-8 m ni tashkil qiladi. An’anaviy bog‘lar 30 yil hosil bersa, pakana va yarimpakana navli mevali daraxtlardan tashkil qilingan intensiv bog‘lar 8-12 yil yuqori sifatli eksportbop xosil berishi bilan an’naviy bog‘lardan ajralib turadi.

Intensiv bog‘larni tashkil etishda daraxtlarga yorug‘lik kun davomida tushushini ta’minlash maqsadida qatorlarni janub tomonga qaratib ko‘chatlarni ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qator oralari kenligi ham ekilayotgan ko‘chatlarni navi va turidan kelib chiqib tanlanadi [4].

Intensiv bog‘larni tashkil qilishda daraxtlarning bo‘yi 3,5 m dan oshmasligi, qator oralari 3,5-4,0 m bo‘lganda daraxtlar tanalari quyosh nuri bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi.

Intensiv bog‘lari qator oralariga kuz faslida qishloq xo‘jalik mashinalari yordamida mineral va organik o‘g‘itlar berilib, mevali daraxtlarni ildiz tizimi tuproqni yuza qatlamida joylashganligi sababli ildiz shikaslanmasligi, buni natijasida hosildorlik kamayishini oldini olish maqsadida 10-12 cm chuqurlikda qator oralari tuproqlariga ishlov berish amalga oshiriladi [4].

Bugungi kunda respublikamizda mavjud bo‘lgan bog‘larning qator oralariga islov berishda qamrash kengligi kichik bo‘lgan turli xil mashina va qurilmalardan bir necha bor o‘tishlar hisobiga agrotexnik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu mashina va qurilmalarning aksariyati Yevropa davlatlaridan olib kelingan bo‘lib, ular tuproq uski qatlamini yumshatish, tuproq tuzilishini yaxshilash va namlikni saqlab qolish, begona o‘tlarni yuqotish maqsadida foydalanib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqan holda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot inistitutining “Bog‘dorchilik va sabzavotchilikni mexanizatsiyalash” laboratoriyasi tadqiqot rejalari doirasida “Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilma” ishlab chiqildi (rasm).



a) *b*)

a) qamrash kengligi 3,0 m xolati *b*) qamrash kengligi 2,5 m xolati

Rasm. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilmani umumiy ko‘rinishi

Ishlab chiqilgan diskli qurilmaning dala va xo‘jalik sinovlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajriba natijalari belgilangan agrotexnik talablarga to‘liq mos keldi. Jadvalda ishlab chiqilgan diskli qurilmaning texnik tavsifi keltirilgan.

Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmadan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi O‘zDST 3193:2017 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli, “Qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar” 2016-2020 yillar uchun va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida hisoblandi [5-8]. Bunda ishlab chiqilgan intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilma mavjud intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan BDT-2.5 varianti bilan taqqoslandi.

Jadval

Diskli qurilmaning texnik tavsifi

T/r	Ko‘rsatkichlarining nomi	Ko‘rsatkichlarning o‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlarning qiymati
1.	Turi	-	Osma
2.	Qo‘shib ishlatiladigan traktor sinfi	-	0,9-1,4
3.	Ish tezligi	km/h	6-9
4.	Qamrash kengligi	m	2,5-3,0
5.	Ish unimi: Sof ish vaqti qamrash kengligi 2,5 m bo‘lganda qamrash kengligi 3,0 m bo‘lganda	ha/h	 2,10-3,15 2,4-3,6
7.	Massasi	kg	450±50
8.	Ishlov berish chuqurligi:	cm	10-12
9.	Gabarit o‘lchamlari: kengligi uzunligi: qamrash kengligi 3,0 m bo‘lganda qamrash kengligi 2,5 m bo‘lganda balandligi	mm	 3000-2500 1650 2200 1190

Xulosa

Olib borilgan texnik-iqtisodiy hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan qurilmadan qamrash kengligi 2,5 m holatida foydalanilganda, qator orasi 3,5x1,5 m bo‘lgan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berish uchun bir gektarga sarflanadigan ekspluatatsion harajatlar 16,4 % ga va mehnat sarfi 9,1 % ga, qamrash kengligi 3,0 m holatida foydalanilganda, qator orasi 4x2 bo‘lgan intensiv bog‘ga ishlov berish uchun bir gektarga sarflanadigan ekspluatatsion harajatlar 37,5 %z, mehnat sarfi 10,4 % ga kamaydii. Bunda bitta qurilmaning iqtisodiy samara, mos ravishda, 22947700,1 va 54211740,2 UZS ni tashkil etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://staff.tiiame.uz/storage/users/466/articles/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 dekabrdagi “Meva-sabzavatchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjiriniyaratishga vo‘shimcha chora-tadbrlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-sonli Qarori

3. Q.B.Imomqulov., M.T.Mamarasulova., A.K.Amanov. Turli kenglikdagi intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beruvchi qurilma konstruktiv sxemasini ishlab chiqish // Mexanika va texnalogiya ilmiy jurnali. Maxsus son-3, – Namangan 2023. – B. 231-236.

4. A.Amanov. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beruvchi qurilma konstruksiyasini tanlash //:Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to‘plami, –Toshkent 2024, –B. 31-35.

5. O‘zDSt 3193:2017. “Qishloq xo ‘jalik texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli”. – Tashkent, 2017.

6. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish buyicha namunaviy texnologik kartalar. 2016-2020 yillar uchun. I-qism.–Toshkent: QXIITI, 2016. – 140 b.

7. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar sarfi me’yorlari. QXIITI,–Toshkent: 2016. – 80 b.

8. Viloyat qishloq xo‘jaligi korxonalarida yangi texnikalar bilan bajariladigan ishlar uchun ishlab chiqarish va yonilg‘i sarfi me’yorlari.–Namangan; 2003. – 15 b.

Imomqulov Q., Amanov A. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilmaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari. *Maqolada ishlab chiqilgan intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilmaning itisodiy samarasini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.*

To‘xtaqo‘ziyev A., Usarov M., Nietullayev A. Tirma-g‘altakmola tekislagichining ish jarayonidagi burchak terbanishlarining amplitudasini aniqlash. *Maqolada tirma-g‘altakmola tekislagichining ish jarayonidagi burchak terbanishlarining amplitudasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Bunda olingan natijalar bo‘yicha ishlab chiqilgan tirma-g‘altakmola tekislagichining talablar darajasidagi ish sifati uning bosim prujinalarining bikirligini to’g‘ri tanlash hisobiga ta’minlanadi.*

Тохтакузиев А., Усаров М., Ниетуллаев А. Определение амплитуды угловых колебаний в процессе работы бороно-катковой выравнивающей машины. *В стате приведены результаты проведенных теоретических исследований по определению амплитуды угловых колеваний выравнивателя борона-катка. По полученным при этом результатам качественные показател работы внов разработанного борона-катка на уровне требований обеспечивается за счет правилного выбора жесткости его нажимных пружин.*

Tokhtakuziev A., Usarov M., Nietullaev A. Determination of the amplitude of angular oscillations during the operation of a harrow-roller levelling machine. *The article presents the results of theoretical studies conducted to determine the amplitude of angular oscillations of the harrow-mounted roller leveler. According to the results obtained, the quality of work of the newly developed harrow-catcher at the required level is ensured by the correct selection of the stiffness of its guide spring.*

UO‘T 631.31

POLIZ EKINLARI UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN PLYONKA TO‘SHAGICH QURILMASI KO‘MGICHNING TURI VA PARAMETRLARINI ASOSLASH


Norchayev D.R.[1] t.f.d., prof., Sodiqov H.U.[1] tayanch doktorant

1 Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Jahonda poliz yetishtirishda pushta olish bilan birgalikda plyonka va elastik quvur to’shab dalalarni ekishga tayyorlashning resurs tejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda pushta olib dalalarga plyonka va elastik quvur to’shab ishlov beradigan qurilmalarning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va texnologik ish jarayonini asoslash, mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, jumladan pushtalarni ekishga tayyorlashda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda poliz ekinlari ekiladigan pushtalarning butun profili bo‘yicha begona o‘tlarni yo‘qotilishi, undagi namni saqlanishini ta’minlaydigan mayin qatlam hosil qiladigan texnika vositalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanmoqda. Bu texnologiya hozirgi kundagi mahalliy dehqonlar tomonidan bajarilayotgan poliz mahsulotlarini yetishtirishdan farq qiladi. Bunda poliz o‘simliklari plyonka ostidan tomchilatuvchi elastik quvurlar yordamida sug‘oriladi. Natijada suv sarfi an’anaviy ekish va sug‘orishga nisbatan ikki barobarga kamayishi kuzatiladi.

Poliz ekinlarini plyonka ostida yetishtirish uchun kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagichning bir yo‘la egat ochib uning yuzasi tuproq kesaklarini maydalab va zichlab ketadigan qismini ishlab chiqishdan iborat. O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili hamda olib borilgan dastlabki tadqiqotlar natijalari asosida plyonka to‘shagichning konstruktiv sxemasi ishlab chiqiladi (1-rasm).

Plyonka to‘shagich rama *1*, pastki va yuqorigi osish qurilmalari *2* va *3*, pushta ochgich *4*, g‘altak *5*, elastik quvur bobinasi *6*, pastki va yuqorigi plyonka to‘shovchi barabanlar *7* va *8*, g‘ildirak *9*, sferik diskli ko‘mgich *10* lardan iborat. Plyonka to‘shagich rama *1*, pastki va yuqorigi osish



1 – rama; *2*, *3* – pastki va yuqorigi osish qurilmalari; *4* – pushta ochgich;

5 – g‘altak; *6* – elastik quvur bobinasi; *7*, *8* – pastki va yuqorigi plyonka to‘shovchi barabanlar; *9* – g‘ildirak; *10* – sferik diskli ko‘mgich

1-rasm. Plyonka to‘shagichning konstruktiv sxemasi

qurilmalari *2* va *3*, pushta ochgich *4*, g‘altak *5*, elastik quvur bobinasi *6*, pastki va yuqorigi plyonka to‘shovchi barabanlar *7* va *8*, g‘ildirak *9*, sferik diskli ko‘mgich *10* lardan iborat.

Plyonka to‘shagichning texnologik ish jarayoni quyidagicha kechadi (1-rasm). Plyonka to‘shagich harakat davomida uning pushta olgichlari pushta shakllantirib ketadi. Undan so‘ng g‘altak yordamida shakllangan pushtaning ustki qismini yuzasidagi kesaklarni maydalab pushta yuzasini tekislab hamda zichlab ketadi. Keyingi jarayonlarda plyonka va elastik quvurlar quvur bobinasi, pastki va yuqorigi plyonka to‘shovchi barabanlar, g‘ildirak, sferik diskli ko‘mgichlar yordamida pushta yuzasiga plyonkani to‘shab ketadi [1; 202-206 b.].



1-rasm Poliz ekinlari uchun kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasini tajriba nusxasining orqadan va ish holatdagi ko‘rinishlari

Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlaydigan qurilma osma bo‘lib, 0,6 sinfidagi minitraktorlar bilan agregatlanadi va rama, osish qurilmasi, brus, ichki va tashqi bashmaklar, qirqish apparati va uning

yuritmasi, o‘rilgan o‘simliklarni yo‘naltirib, uyum hosil qiluvchi ish organlari kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Ushbu texnologiya quyidagicha bajariladi eng avvalo tarvuz va qovun ko‘chatlari issiqxona sharoitida undirib olinadi, qattiq sovuq yoki qor xavfi ortda qolgach, er maydonlari ekishga tayyorlanadi. Har bir egat ustiga qurilma yordamida plyonka to‘shab chiqildi so‘ngra plyonkani kerakli joylari teshilib, ko‘chatlar stakandan olindi va ochilgan chuqurlarga o‘z tuprog‘i bilan ekildi.

Qurilmaning dastlabki dala tajribalari Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumani Amur Temur SPU, Paxtakor mahallasining fermer xo‘jaligi dala maydonlarida o‘tkazildi (2-rasm. a, b.).



a) tarvuz



b) qovun

2-rasm. Plyonka ostiga ekilgan poliz ekinlari

Plyonka tushagich qurilmasining texnik xarakteristikasi

№	Nomlanishi	Ko‘rsatkichlari
1	Plyonka tutgich barabanining diametr, mm	50
2	Plyonka tutgich barabanining eni, mm	900
3	Plyonka yo‘naltirgich barabanining diametri, mm	50
4	Plyonkani yo‘naltirgich barabanining eni, mm	900
5	Tomchilatuvchi elastik quvur tutqichi barabanining diametri, mm	300
6	Elastik quvur tutqich barabanining eni, mm	250
7	Sferik diskning diametri, mm	300
8	Sferik disklar soni, dona	2
9	G‘altak eni, mm	700
10	G‘altak diametri, mm	400
11	Pushta olgich soni (okuchnik), dona	2
12	Tashqi o‘lchamlari: mm	
	eni	1380
	balandligi	1530
	uzunligi	2500
13	G‘ildirakning diametri, mm	460
14	Qurilmaning umumiy og‘irligi, kg	430
15	Traktorga agregatlanishi, sinf	0,6 va 0,9

Taklif etilayotgan texnologiya asosida poliz ekinlari ko‘chatlarini plyonka ostiga ekish va tomchilatib sug‘orish hisobiga ko‘chatlar to‘liq unib chiqadi. Ekinlar yagana va chopiq qilinmaydi. Nihollarni kerakli suv va ozuqalar bilan yotqizilgan quvurlar kerakli chuqurlik va ko‘lamda ta’minlaydi va plyonka ostida er namligi ko‘proq muddatda saqlab turiladi. SHuningdek, suv, mineral o‘g‘itlar, zararli hashorat, begona o‘tlarga qarshi kurashish vositalari ham tomchilatuvchi elastik quvurlar yordamida amalga oshiriladi. Natijada hatto suv taqchil, unumdorligi past bo‘lgan erlarda yuqori hosil olish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa

Agroklaster fermer va kichik tomorqa xo‘jaliklari er maydonlari uchun poliz ekinlarini etishtirishda bir yo‘la pushta olish, plyonka va uning ostidan parallel ravishda tomchilatib sug‘orish shlanglarini to‘shaydigan mashina tajriba namunasi ishlab chiqildi va dastlabki dala sinovlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Tajribalar natijalariga ko‘ra, qurilmani joriy etish orqali qo‘l mehnatini 50 foizga va umumiy sarf harajatlarni 40 foizga kamayishiga erishildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Norchayev D., Xoliqov B., Sodiqov X., Nigmatjonov S. Poliz ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish: “Yuqori samarali qishloq xo’jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi-QXMITI, Gulbahor-2024, b.202-206.

2. Postoyan R.A. Protsess posadki kartofelya na sklonax i obosnovanie parametrov rabochix organov kartofelesajalki: Avtoref. kand. texn. nauk. – Erevan, 1983. – 19s.

3. Klenin N.I., Sakun V.A. Selskoxozyaystvennыe i meliorativnыe mashinы.– M.: Kolos, 1980. – 671 s.

4. Boboyev U.P. Frontal plugga tayanch-tekislovchi g‘altakning parametrlarini asoslash.: Avtoref. diss. kand. texn. nauk. – Tashkent, 2008. – 24 s.

Norchayev D.R., Sodiqov H.U. Poliz ekinlari uchun kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasi ko‘mgichning turi va parametrlarini asoslash *Maqolada butun dunyoda global iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va boshqa stress omillar ta’sirida suvga bo‘lgan ehtiyojning yil sayin keskin o‘sib borishini hisobga olgan holda O‘zbekiston tuproq iqlim sharoitida poliz mahsulotlarini etishtirishda suv resurslarini tejash imkonini beradigan qurilmaning konstruksiyasi va dastlabki dala sinov natijalari keltirilgan.*

Норчаев Д.Р., Садыков Х.У. Обоснование типа и параметров комбинированного пленочного мульчирующего устройства для бахчевых культур. *В статье представлены конструкция и предварительные результаты полевых испытаний устройства, позволяющего экономить водные ресурсы при возделывании бахчевых культур в почвенно-климатических условиях Узбекистана, учитывая резкое увеличение потребности в воде с каждым годом в связи с глобальным изменением климата, засухой и другими стрессовыми факторами во всем мире.*

Norchaev D.R., Sadykov H.U. Justification of the type and parameters of a combined film mulching device for melon crops. *The article presents the design and preliminary results of field tests of a device that allows for saving water resources when cultivating melon crops in the soil and climatic conditions of Uzbekistan, taking into account the sharp increase in water demand every year due to global climate change, drought, and other stress factors around the world.*

URUG‘ EKISH MASHINALARINING FUNKSIYALARINI KENGAYTIRISH VA URUG‘ SARFINI KAMAYTIRISH

РАСШИРЕНИЕ ФУНКЦИЙ ПОСЕВНЫХ МАШИН И СНИЖЕНИЕ РАСХОДА СЕМЯН

EXPANDING SEEDER FUNCTIONS AND REDUCING SEED CONSUMPTION

UO‘T 631.33:631.5

ZAMONAVIY RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR

Abduraxmanov A.A.[1] t.f.n., k.i.x.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

So‘nggi yillarda inson faoliyati natijasida paydo bo‘layotgan global muammolar agrar sohaga ham o‘zining katta ta’sirini o‘tkazmoqda. Eng keskin va og‘ir muammolar qatorida eroziya jarayonlarining keng masshtabda rivojlanishi, suv tanqisligi, ishlab chiqarish va bozorning globallashuvi, yer resurslari cheklanganligi holda aholi sonining ko‘payishi, tiklanmaydigan tabiiy resurslarning tez sur’atlarda tasarruf etilishi, iqlimning global o‘zgarishi kabilarni keltirish mumkinki, bu muammolarni yengib o‘tish uchun agrar sohaning innovatsion potensialini mustahkamlash, energiya va resurstejamkorlikni ta’minlash, informatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligini chuqur ekologiyalashtirish zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda Respublikamiz qishloq xo‘jaligi jadal rivojlanish bosqichida bo‘lib, turli xil yangi va zamonaviy texnologiyalar hamda texnika vositalari kirib kelishi davom etmoqda. Shu o‘rinda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va parvarishlash jarayonlarini mexanizatsiyalash nuqtai-nazaridan qishloq xo‘jaligimizga joriy etishni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lgan bir qator zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Keyingi bir necha yil davomida paxta yetishtirishning yangi zamonaviy texnologiyasi Respublika bo‘yicha juda keng maydonlarda joriy qilinmoqda. Bu texnologiyaga asosan maxsus ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan seyalka yordamida chigit qo‘shqator sxemada ekiladi, bir yo‘la tomchilatish quvurlari tortilib, ustidan plenka yopiladi [1]. Ekish bilan bir vaqtda o‘g‘it solish va gerbitsid sepish jarayonlari ham seyalkaning bir o‘tishida amalga oshirilishi mumkin.

Qatorlarga yopilgan plenka butun mavsum davomida dalada qoldiriladi. Bu tuproq namligini uzoqroq saqlash, begona o‘tlarning o‘sishini kamaytirish va qator oralariga ishlov bermaslik imkoniyatini beradi. Tomchilatib sug‘orish tizimi suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi, vegetatsiya davrida ekinlarni o‘g‘itlash ishlari ham shu tizim orqali amalga oshiriladi. Qo‘shqator usulda ekish natijasida maydondagi nihollar soni 220-240 ming tupgacha yetkaziladi. Kombinatsiyalashgan seyalkaning ekish apparatlari chigitni 1 yoki 2 donadan bir xil chuqurlikga aniq ekishni ta’minlaydi. Shuning hisobiga nihollarni yagana va chopiq qilishga sarflanadigan qo‘l mehnati bartaraf etiladi. Qator oralariga ishlov berilmaganligi sababli yonilg‘i-moylash mahsulotlari sarfi keskin kamayadi. Texnologiyaning kompleks ta’siri ostida paxta hosili ochiq maydonga nisbatan 10-20 kun ertaroq va bir tekis pishib yetiladi, oliy va birinchi navli yuqori sifatli paxta xom ashyosining ulushi ortadi. Hosildorlik 60-65 sentnerdan oshib, yetishtirilgan paxtaning tannarxi arzonlashadi.

Chigitni plyonka ostiga qo‘shqator usulda ekib, tomchilatib sug‘orish tizimi yordamida yetishtirish bugungi kunda dolzarb bo‘lib turgan paxta xom ashyosi ishlab chiqarish hajmlarini keskin oshirish hamda suv tanqisligi va global iqlim o‘zgarishlari sharoitlariga moslashish zarurati talablariga aynan mos keladi.

Resurstejamkorlik nuqtai-nazaridan olganda qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘larini ekishda aniq ekish usullariga to‘liq o‘tish vaqti allaqachon yetib kelganligini aytish kerak. Bunda pnevmatik seyalkalarning ahamiyati juda muhim o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqib, **pnevmatik seyalkalardan foydalanishning asosiy afzalliklari**ga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchidan, urug‘lik sarfi sezilarli darajada kamayadi. Tuproq-iqlim sharoitlari va hududlar kesimida olganda urug‘lik 20 % dan 40 % gacha iqtisod qilinishi mumkin. Respublikamizning ayrim xo‘jaliklarida hali-hanuzgacha eskirib ketgan mexanik prinsipda ishlaydigan seyalkalar qo‘llanilayotganini e’tiborga olsak, bu salmoqli miqdordagi urug‘lik iqtisodini beradi. bundan tashqari, mexanik prinsipga asoslangan aniq ekish apparatlariga qarshi o‘laroq pnevmatik ekish apparatlarida urug‘lar shikastlanmaydi. Pnevmatik seyalkalarning ish tezligi 10-12 km/soat ga yetadi. Bu mexanik seyalkalarga nisbatan ish unumini 25-30 % gacha

oshirishni ta’minlaydi. Natijada bahorgi tig‘iz paytda qisqa muddatlarda ekish mavsumini tugallash imkoniyati ta’minlanadi.

Ikkinchidan, aniq ekilgan urug‘lar unib chiqqan vaqtning o‘zida maydonda optimal joylashadi va shuning uchun nihollarning rivojlanishi yaxshi bo‘ladi. Qalin ekilgan urug‘lardan unib chiqqan nihollar bir-birini siqib qo‘yadi, ozuqa, yorug‘lik va maydon yetishmasligidan rivojlanishi ortga suriladi va yagana qilingandan so‘nggina me’yoriy rivojlana boshlaydi. Yagana qilish jarayonida qoldirilgan nihollarning ildiz tizimi zararlanadi va bu ham ularga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, mexanik seyalkalarda ekilgan urug‘lardan chiqqan nihollarni yagana qilishga katta miqdorda qo‘l mehnati sarflanadi (qator oralarining kengligi va nihollar qalinligiga qarab – 22-58 kishi-soat/ga), aniq usulda ekilganda esa nihollar yagana qilinmaydi. Tukli chigitlarni ekishda qo‘shimcha tarzda chigitni ekishdan oldin namlash jarayonini bajarishga to‘g‘ri keladi. Bu ham vaqt va mehnat sarfining ortishiga olib keladi. Aniq ekishda esa tuksizlantirilgan chigit qo‘llaniladi va ularni ekishdan oldin namlash talab etilmaydi.

Demak, pnevmatik seyalkalardan foydalanish resurslarni tejaydi, urug‘lik sarfini kamaytiradi, qo‘l mehnatini bartaraf etib, dala madaniyatini va qishloq mehnatkashlarining ish sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligida o‘zining munosib o‘rnini hali to‘liq egallab ulgurmagan, lekin suv tanqisligi, resurslar yetishmovchiligi, ekologik buzilishlar kabi global muammolarga yechim topishda juda ta’sirchan samara berishi mumkin bo‘lgan resurstejamkor texnologiyalardan biri – bu yerlarni shudgorlamasdan va ishlov bermasdan ekin ekib yetishtirish, ya’ni **No-Till texnologiyasi**dir.

Insoniyat o‘z hayot faoliyati davomida ming yillardan buyon yerda dehqonchilik qilib keladi. Yerdan olinayotgan hosil miqdori avvaliga ekstensiv usullar hisobiga ortgan bo‘lsa, keyinchalik texnologiyalarning rivojlanishiga mos ravishda intensiv orta bordi. Olinayotgan hosil bilan birga tuproqdan olib qo‘yilayotgan ozuqa moddalar o‘rnini esa asosan kimyoviy o‘g‘itlar bilan to‘ldirish ommaviy tus oldi. Dalada tabiiy sharoitda o‘sib chiqadigan begona o‘tlar turli usullar bilan yo‘q qilindi. Yetishtirilgan madaniy ekinlarning poyasi va boshqa qismlari dalani tozalash maqsadida olib chiqib tashlandi yoki yoqib yuborildi. Natijada tuproqqa organik moddalarning tushishi keskin kamaydi.

Hozirgi vaqtda ko‘p yerlar, shu jumladan, O‘zbekistondagi yerlar ham kambag‘allashib ketdi, tuproqning boniteti va uning tarkibidagi gumus miqdori juda past darajada. Almashlab ekish tizimining izdan chiqqanligi tuproqning kambag‘allashuvini yanada kuchaytirdi.

Shudgorlash va boshqa ishlov berishlar natijasida tuproqda yashovchi turli xil mikroorganizmlarning hayot faoliyati va mikrojarayonlar sekinlashadi yoki vaqtincha to‘xtaydi, ya’ni gumus hosil bo‘lish jarayoni yomonlashadi. National Agricultural Technology Institute (INTA, Argentina) ma’lumotlariga ko‘ra, tuproqqa an’anaviy texnologiyalar asosida ishlov berish natijasida undagi organik moddalar miqdori 1950 yildagi 4 % lik darajadan 1990 yilga kelib 2 % gacha tushib ketgan [2]. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ning O‘zbekistondagi Global Iqtisodiy Fondiga qarashli Kichik Grantlar Dasturi (The GEF Small Grants Programme) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida Qoraqalpog‘iston tuproqlaridagi gumus miqdori 0,4-1,0 % oralig‘ida ekanligi aniqlangan [3], O‘zbekistonning boshqa ko‘p yerlaridagi tuproqlarda ham bu ko‘rsatkich 1 % dan oshmaydi.

No-Till texnologiyasining asosiy tamoyili – tuproqda yashaydigan jonzotlar (umurtqasizlar va mikroorganizmlar) faoliyati uchun tabiiy sharoitlarni tiklash bo‘lib, bu yo‘qotilgan tuproq unumdorligini sekin-asta asliga qaytarish va barqaror saqlab turishga imkoniyat beradi. Dala shudgorlanmaganda va boshqa ishlovlar berilmaganda avvalgi ekinlardan qolgan ang‘iz saqlab qolinadi, ekin qoldiqlari maydalagichlar yordamida maydalanib, dalaga mulcha sifatida sochiladi. Bu mulcha qatlami suv va shamol eroziyasining oldini oladi, daladagi mavjud namlikni saqlab, sug‘orishlarni kamaytirishga imkon beradi [3]. Suv tanqisligi yil sayin kuchayib borayotgan bugungi kunda bu juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, dalaga 1 tonna go‘ng solinganda

tuproqda 65-75 kg chirindi moddasi hosil bo‘ladigan bo‘lsa, dalada qoldirilgan 1 tonna somon 170-180 kg chirindi moddasini hosil qilish quvvatiga ega [4].

Hozirgi kunda yer yuzidagi ekin ekiladigan maydonlarning 13 foizdan ko‘prog‘ida ushbu texnologiya qo‘llanilmoqda. Yetakchi davlatlar sifatida AQSh, Kanada, Braziliya, Argentina va boshqa davlatlarni ko‘rsatish mumkin. Qo‘shni Qozog‘iston davlati ham 3 mln gektardan ortiq maydonda ushbu texnologiyani qo‘llab, muvaffaqiyatlarga erishmoqda [5].

Muhim jihatlardan biri – No-Till texnologiyasida begona o‘tlarga qarshi kurashish va, ayniqsa, almashlab ekish tizimini yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratish kerak. Sideratlar ekinlardan foydalanish, almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etish begona o‘tlarni kamaytirib, kasalliklarning oldini olishga yaxshi yordam beradi. Bundan tashqari, 5-6 yilda bir marta yassikesuvchi pichoqlar yordamida plastni ag‘darmasdan chuqur yumshatish amaliyotini bajarish tavsiya etiladi. Bunda tuproq yuzasidagi unumdor qatlam va ang‘iz deyarli buzilmaydi, balki tuproq ostining qattiqlashgan qismi yumshatilib, begona o‘tlarning kamayishiga erishiladi.

Tuproqni himoyalaydigan va uning unumdorligini oshiradigan dehqonchilik mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va ekosferani saqlashga salmoqli hissa qo‘shadi hamda inson mehnatini minimal darajaga tushirib, agrar soha ishtirokchilarining real daromadini ko‘paytiradi va hayot darajasini yaxshilaydi.

Resurstejamkorlik to‘g‘risida so‘z yuritilganda ekologik muvozanatni saqlash masalasini unutmaslik muhimdir. Qishloq xo‘jaligida eng mehnattalab jarayonlardan biri **tuproqni o‘g‘itlash** hisoblanadi. Undan kutiladigan maqsad ham, xuddi yuqoridagiday, tuproq unumdorligini oshirishdir. Dehqonchilik sohasining yetakchilari hisoblangan G‘arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar o‘g‘itlardan unumli foydalanish yo‘li bilan yuqori samaradorlikga erishib, dehqonchilik mahsulotlarining katta eksporterlariga aylangan. Lekin bu o‘rinda kimyoviy yo‘l bilan tayyorlangan mineral o‘g‘itlarning salmog‘i tabiiy organik o‘g‘itlarning salmog‘idan ancha va organik o‘g‘itlardan foydalanish darajasi juda past samaradorlik bilan rivojlanmoqda.

Shu bilan birga mineral o‘g‘itlar nisbatan qimmat bo‘lganligi uchun xo‘jaliklarning o‘zida chorva mollari va boshqa jonivorlarning go‘ngidan tayyorlanadigan organik o‘g‘itlardan foydalanish iqtisodiy jihatdan kamxarj va samaraliroqdir.

Keyingi yillarda respublikamizda organik o‘g‘itlarga e’tibor ancha kuchaytirildi. Masalan, kuz-qish fasllarida dala chetlariga go‘ng zahirasini tayyorlab, bahorda dalaga sochish ishlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

Tuproqning unumdorligi uning tarkibidagi chirindi (gumus) miqdoriga bog‘liq. Chirindisi ko‘p bo‘lgan tuproq unumdor bo‘ladi, uning strukturasi yaxshi, zichligi past, nam to‘plash qobiliyati yuqori bo‘ladi, turli sabablar ta’sirida zichlangandan keyin o‘zini tez tiklaydi. Tuproqdagi chirindi miqdorini oshirishning eng maqbul va ekologik jihatdan toza yo‘li – tuproqni organik o‘g‘it bilan boyitishdir. Organik o‘g‘itlar kompleks ta’sirga ega bo‘lib, tuproqning biologik faolligini kuchaytiradi. Ularni dalaga solish natijasida nafaqat o‘simliklar ozuqa bilan ta’minlanadi, balki agroekotizimda biologik quvvat aylanishining kichik halqasi jadallashadi. Tuproqqa solingan ozuqa elementlari o‘simlik va uning hosili tarkibida chorvaga yem yoki to‘shama ko‘rinishida qaytib, go‘ng holida yana tuproqqa tushadi [6]. O‘simlik mahsulotlaridan to‘g‘ri foydalanilganda azotning 25-30 foizi, fosforning 20-25 foizi va kaliyning 50-60 foizi tuproqqa qaytadi [7, 48-b.].

Go‘ng solish tuproqning mexanik ishlov berishga qarshiligini kamaytiradi, bu esa, o‘z navbatida, tuproqqa ishlov berishda yonilg‘i-moylash mahsulotlarining sarfini kamaytiradi. Organik o‘g‘itlar o‘simliklarning mineral oziqlanishi uchun optimal sharoitlar yaratadi, mexanik tarkibi og‘ir tuproqlarda organik moddalar miqdorini oshirib, tuproqning suv va havo rejimini, yengil tuproqlarda esa uning qovushqoqlik xususiyatini yaxshilaydi.

Hosildorlikni doimiy ravishda oshirib borish, tuproq unumdorligini sezilarli darajada yaxshilash va shu bilan birga chorvachilikni ham jadal rivojlantirish uchun respublikamizning barcha hududlarida dehqonchilikning ilmiy asoslangan tizimlarini qo‘llab, o‘simliklarni maqbul oziqlantirish va hosilni oshirishning eng ishonchli vositasi bo‘lgan mahalliy o‘g‘itlardan samarali

foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. Buning uchun chorvachilik fermalari go‘ng tayyorlashga va bunda uning sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga katta e’tibor qaratishlari zarur. Fermer va dehqonlar esa tayyorlangan go‘ngni dalalarga o‘z vaqtida sifatli qilib solishni ta’minlashlari kerak.

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilgan ilg‘or texnologiyalar qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekib yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘z o‘rnida va keng qo‘llash orqali salmoqli resurstejamkorlikga erishish mumkin. Ushbu texnologiyalarning barchasi tuproqdagi namlikni saqlab, suv sarfini kamaytirishga, gumus miqdorini oshirib, tuproq unumdorligini tiklashga hamda qo‘l mehnatini kamaytirib, soha mehnatkashlarining ish sharoitlarini va umuman olganda ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xudaykuliev R., Ibragimov A., Abduraxmanov A. Paxtachilikda yangi texnologiya // Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – ISSN 2181-158X. – Namangan. – № 2(19). – 2025. – B.82-86.

2. Дридигер В. Опыт Аргентины: внедрение технологии прямого посева // Аграрный консультант. – 2013. – № 1. – B.8-10.

3. https://sgp.uz/ru/izvlechennye-uroki-pri-vnedrenii-nulevoj-obrabotki-v-karakalpakstane-ili-pochemu-i-kak-nuzhno-vnedrjat- pochvozashchitnoe-zemledelie/#

4. Лыков А.А. Земледелие. Учебник для ВУЗов. – Москва, “Агропромиздат”, 1991. – B.77.

5. Нурбеков А.И., Кассам А. и др. Практика почвозащитного и ресурсосберегающего земледелия в Азербайджане, Казахстане и Узбекистане. – Анкара, 2016. – 95 s.

6. Кузиев Ж.М., Каримбердиева А.А., Матякупов А.Р. Круговорот и баланс элементов питания в агроценозах бассейна р. Кашкадарья // Владимирский земледелец. – 2023. - № 1. – S.31-35. – DOI:10.24412/2225-2584-2023-1-31-35.

7. Кидин В.В. Органические удобрения: Учебное пособие / Москва, Изд-во РГАУ-МСХА, 2012. – 166 s.

Abduraxmanov A.A. Zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar. *Maqolada qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va parvarishlash jarayonlarini mexanizatsiyalash nuqtai-nazaridan qishloq xo‘jaligimizga joriy etishni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lgan bir qator zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.*

Абдурахманов А.А. Современные ресурсосберегающие технологии. *В статье представлена краткая информация о современных ресурсосберегающих технологиях с точки зрения механизации сева и ухода за культурами, которые должны быть широко внедрены в наше сельскохозяйственное производство.*

Abdurakhmanov A.A. Modern resource-saving technologies. *The article provides brief information on modern resource-saving technologies in terms of mechanisation of sowing and crop care, which should be widely implemented in our agricultural production*.

UO‘T 631.332.81

BIR O‘TISHDA PUSHTALARGA TOMCHILATIB SUG‘ORISH QUVURLARI VA PLYONKA YOTQIZADIGAN HAMDA POLIZ EKINLARI KO‘CHATLARINI EKADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN AGREGATNING KONSTRUKTIV SXEMASI

Ibragimov A.[1] t.f.d., prof., Orinbayev P.[1] t.f.f.d.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan poliz ekinlarini yetishtirishda kam energiya sarflab,

barcha texnologik jarayonlarning sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1].

Hozirgi kunda dunyo miqyosida poliz ekinlari 6,0-6,6 mln gektar maydonda [2], Respublikamizda esa 72 ming gektardan oshiqroq maydonda [3] yetishtirilmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan dehqon, tomorqa va fermer xo‘jaliklari tomonidan poliz ekinlarini ochiq maydonlarda urug‘idan va ko‘chat usulida plyonka ostida yetishtirish texnologiyalari qollaniladi [4].

Mavjud adabiyotlar tahliliga ko‘ra qishloq xo‘jaligi ekinlarini ko‘chat usulida ekish agrotexnologik jihatdan samarali usul hisoblanadi. Ushbu usulning biologik, agronomik va iqtisodiy afzalliklari bir qator ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [5,6,7], ya’niy:

- **vegetatsiya davrini qisqartirish va erta hosil olish.** Ko‘chat usulida ekilgan o‘simliklar urug‘dan to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalalarga ekiladigan o‘simliklarga nisbatan o‘sish fazasini 2-4 haftaga erta tugatadi. Bu esa hosilning ertaroq yetilishini ta’minlaydi. Parnik sharoitida 25–30 kun davomida parvarishlangan poliz ekinlari ko‘chatlari dalalarga o‘tkazilganda, ularning vegetatsiya davri 15-20% ga qisqaradi.

- **hosildorlikni oshirish.** Ko‘chat usulida yetishtirilgan ekinlar boshlang‘ich o‘sish davrida yuqori samaradorlik bilan o‘sib, kasalliklardan kamroq zarar ko‘radi. Shu sababli, hosildorlik yuqori bo‘ladi. Ko‘chat usulida ekish orqali poliz ekinlari hosildorligi o‘rtacha 15-30% ga ortishi aniqlangan.

- **dala resurslaridan samarali foydalanish.** Ko‘chat usulida ekish orqali yerdan foydalanish samaradorligi oshadi, chunki vegetatsiya jarayoni tezlashadi va mavsum ichida ikkinchi ekin ekish imkoniyati yuzaga keladi. Ko‘chat usulida ekish agrotexnikasi qo‘llangan maydonlarda bir yilda ikkinchi hosil olish imkoniyati 35-40% ga oshib, umumiy yerdan foydalanish koeffitsienti 1,3-1,5 ga yetgan.

- **noqulay iqlim sharoitlariga chidamlilik.** Ko‘chatlar parnik yoki issiqxona sharoitida yetishtirilgani bois, ular tashqi muhit ta’siriga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Ushbu usul sovuqqa va quruqchilikka chidamli navlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

- **kasalliklar va zararkunandalarga chidamlilik.** Ko‘chat usulida parvarishlangan o‘simliklar ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, ular fitopatogen kasalliklar (fuzarioz, antraknoz va boshqalar) hamda zararkunandalar ta’siriga nisbatan chidamli bo‘ladi. Biologik muhofazalangan ko‘chatlar fitoftoroz va qovoqdosh o‘simliklarning asosiy kasalliklariga chalinish ehtimoli 1,5-2 barobar kamaygan.


Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra poliz ekinlarini ko‘chat usulida ekib yetishtirish dehqon, tomorqa va fermer xo‘jaliklarining ortiqcha harajatlarini kamaytirish hamda undan olinadigan daromadini oshirishga imkon yaratiladi.

Bugungi kunda Respublikamizda poliz ekinlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklar tomonidan plyonka ostiga ko‘chat usulida ekish texnologiyasi keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Ushbu texnologiya bo‘yicha kuzda shudgorlangan dalalar erta bahorda chizellanadi, boronalanadi hamda molalanadi, so‘ngra qator oralari kengligi 70 cm bo‘lgan egat ochgichlar bilan sug‘orish egatlari olinadi [8,9.].

Egat ochgichlar ramaga quydagicha joylashtiriladi: traktorga agregatlanadigan ramaning o‘rtasiga GX-4 pushtaolgiching qamrov kengligi 70 cm bo‘lgan egatochgichi 25 cm chuqurlikka botadigan qilinib sug‘orish egatini olish uchun mahkamlanadi va ramaga ushbu egat ochgichning yon tomonlariga bo‘ylamasiga 40 cm hamda ko‘ndalangiga 50 sm masofalarda KXU-4 universal paxtachilik chopiq kultivatorining qamrov kengligi 60 sm bo‘lgan ikkita egatochgichi tuproqga botish chuqurligi 15 cm qilib to‘shaladigan plyonkaning ikki chetini ko‘mishga ariqchalar ochish uchun o‘rnatiladi (1-rasm).

Keyinchalik ochiagan egatlarga qo‘lda plyonkalar to‘shalib, uning ikki cheti ko‘miladi, to‘shalgan plyonka ustidan poliz ko‘chatlarini ekish uchun qo‘lbola yasalgan turli hil moslamalar bilan pushtalarda ekish zonasiga teshikchalar ochilib, chuqurchalar tayyorlanadi. Tayyorlangan chuqurchalarga tuproqni namlash uchun bir muncha suv quyilib, poliz ko‘chatlari ekib chiqiladi (2-rasm). Quyilgan suv ko‘chat ildizlari rivojlanguncha yetarlicha namlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.



1-rasm. Poliz ekinlarini plyonka ostida yetishtirishda qo‘llaniladigan egatochgichlarni joylashtirish








2-rasm. Poliz ekinlari ko‘chatlarini ekishda bajariladigan jarayonlardan fotolavhalar

Respublikamizda ushbu qo‘llanilayotgan texnologiyada qo‘l mehnatining sarfi juda katta. Bundan tashqari agrotexnik talablar bo‘yicha belgilangan ishlarni bajarishda ko‘p vaqt talab qilinishi hisobiga tuproqdagi namlikning yo‘qotilishiga olib keladi, bular esa o‘z navbatida yetishtirilayotgan mahsulotning tannarxi oshib ketishiga ta‘sir ko‘rsatadi.


Keltirilgan texnologiyaning kamchiliklarini bartaraf etish hamda jarayonni maxanizatsiyalash maqsadida QXMITI olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarga tayangan holda poliz ekinlarini ko‘chat usulida plyonka ostiga ekadigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (3-rasm).

Kombinatsiyalashgan agregat dala bo‘ylab bir o‘tishda poliz ekinlarini ekish sxemasiga moslab qator orasi 70 yoki 90 sm qilib olingan egat va uning yon tomonidagi ikkita pushta (ko‘chat ekish zonasi) ustiga tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib, egat va pushtalarni plyonka bilan qoplaydi hamda pushtalar tepasiga ekish zonasiga ko‘chatlarni ekish sxemasiga mos ravishda ekib ketadi (4-rasm).



1 – rama; 2 – osish qurilmasi; 3 – tomchilatib sug‘orish quvur rulonini o‘rnatish moslamasi; 4 – tomchilatib sug‘orish quvuri; 5 – parallelogarmm mexanizmi; 6 – plyonka rulonini o‘rnatish moslamasi; 7 – plyonka to‘shagich; 8 – ko‘chatlarni qo‘yish uchun moslama; 9 – o‘rindiq; 10 – ko‘chat ekish qurilmasi; 11 – ko‘chat ekkich; 12 – zichlagich; 13 – harakat uzatuvchi g‘ildirak; 14 – plyonka o‘stiga tuproq yotqizuvchi moslama; 15 – plyonka o‘stiga tuproq yotqizuvchi moslamaga tuproq uzatuvchi disk; 16 – ko‘mish disklari; 17 – plyonka chetlarini tuproqga tekislab yotqizuvchi moslama; 18 – ochish disklari; 19 – tomchilatib sug‘orish quvurini yotqizadigan ish organi; 20 – shibbalovchi katoklar.

3-rasm. Poliz ekinlarini ko‘chat usulida plyonka ostiga ekadigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi



1 – plyonka; 2 – tomchilatib so‘g‘orish quvuri; 3 – ko‘chat; 4 – egat; 5 – pushta.

4-rasm. Kombinatsiyalashgan agregat o‘tganidan keyingi pushta ko‘rinishi.

Kombinatsiyalashgan agregat ikki qismdan: ochilgan egatlar ustiga va pushtalarga (ekish zonasi) plyonka to‘shaydigan va poliz ekinlari ko‘chatlarini to‘shalgan plyonka ustidan pushtalarga (ekish zonasi) ekadigan ko‘chat ekish qurilmasidan tashkil topgan bo‘lib uning ish jarayoni quyidagicha kechadi. Qurilmaning oldida joylashgan shibbalovchi katoklar 20 ko‘chat

ekish zonasini trapesiya shakliga keltirib, kerakli zichlikda zichlab va shibbalab, pushtalarga shakl berib ketadi, ortidan pushtaning o‘stiga tomchilatib sug‘orish quvurini yotqizadigan ish organi ekish zonasidan ko‘ndalangiga 5 cm masofada tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizadi, so‘ngra ochish disklari 18 egat va pushtalar ustiga to‘shaladigan plyonkaning ikki chetini ko‘mish uchun chuqurligi 10 cmga teng bo‘lgan ariqchalarni ochib ketadi, plyonka to‘shagich 7 egat va ikkita pushtani plyonka bilan qoplaydi, ketidan plyonka chetlarini tuproqqa tekislab yotqizuvchi moslama 17, ochish disklar 18 yordamida ochilgan ariqchalarda harakatlanib to‘shalgan plyonkaning ikki chetini tuproqqa tekislab bosib, ko‘mish disklari 16 plyonkaning ikki chetini tuproq bilan ko‘mib ketadi. So‘ngra to‘shalgan plyonka ustiga tuproq yotqizuvchi moslama 14 pushta tepasiga ekiladigan ko‘chatlarning chetlari ochilib qolmasligi uchun eniga 7 sm qilib tuproq to‘shab ketadi.

Ko‘chat ekish qurilmasi 10 harakat uzatuvchi g‘ildirak 13 orqali zanjirli uzatmalar yordamida aylanma harakatlanib, poliz ekinlari ko‘chatlarini pushtalarga, plyonkani teshib tuproqqa ekib ketadi, zichlagich 12 esa ekilgan ko‘chatlarning chetlarini tuproqqa botirib zichlab ketadi.

O‘rindiq 9 da o‘tirgan ishchi ko‘chat ekkich 11 ga ko‘chatlar qo‘yilgan moslama 8 dan o‘tiradi.

Kombinatsiyalashgan agregat 1,5–2 km/soat harakat tezligida harakatlanadi.

Xulosa

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi asosida uning tajriba nusxasi tayorlanib, amaliyotda qollanilsa, poliz ekinlari ko‘chatlarini plyonka ostiga ekish texnologiyasi butunlay mexanizatsiyalashadi, qo‘l mehnati va boshqa harajatlar keskin kamayadi hamda ish sifati va unimi oshadi.

Adabiyotlar ro‘xati

1. https://lex.uz/docs/4567334
2. https://ourworldindata.org/explorers/global-food?tab=chart&Food=Watermelons&Metric=Land+use&Per+capita=false&country=~OWID_WRL
3. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/45878-respublika-bo-yicha-qancha-maydonga-poliz-ekinlari-ekilgan
4. P.F.Orinbayev, B.B.Ramazanov, Z.M.Kalmuratova O‘zbekistonda poliz ekinlarini yetishtiruchi xo‘jaliklar tomonidan qo‘llanilayotgan texnologiya// Qurilish va ta‘lim ilmiy jurnali – Namangan, 2025. – № 3. – B. 280-283.
5. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304423824004990?utm_source=chatgpt.com
6. https://www.purdue.edu/hla/sites/yardandgarden/seed-versus-transplant/?utm_source=chatgpt.com
7. https://cals.cornell.edu/school-integrative-plant-science/school-sections/horticulture-section/outreach-and-extension/pandemic-vegetable-gardening/pandemic-vegetable-gardening-2021-archive/transplants-or-direct-seeding-whats-best?utm_source=chatgpt.com
8. Mevali bog‘ qator oralarida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2015. – 23 b.
9. Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, yuqori hosildor sabzavot va poliz urug‘lari navlarini saralab olish va o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish” bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent, Tafakkur, 2016. – 77 b.

Ibragimov A.A., Orinbayev P.F. Bir o‘tishda pushtalarga tomchilatib sug‘orish quvurlari va plyonka yotqizadigan hamda to‘shab poliz ekinlari ko‘chatlarini ekadigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi. *Maqolada Respublikamizda poliz ekinlarini yetishtiradagan xo‘jaliklar tomonidan qo‘llanilayotgan ko‘chatlarni plyonka ostiga ekish texnologiyasining kamchiliklari va ularni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan poliz*

ekinlari ko‘chatlarini plyonka ostiga to‘mchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizish bilan bir vaqtda ekadigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi va uning texnologik ish jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Ибрагимов А.А., Оринбаев П.Ф. Конструктивная схема комбинированного агрегата для укладки на гребни капельно-оросительных трубок и плёнок с одновременной посадкой рассад бахчевых культур. *В статье приведена информация о недостатках применяемой хозяйствами Республики технологии посадки рассад бахчевых культур под плёнку, описаны конструктивная схема и технологический процесс работы комбинированного агрегата, предназначенного для посадки рассад бахчевых культур под плёнку с укладкой шлангов капельного орошения, разработанного с целью устранения отмеченных недостатков.*

Ibragimov A.A., Orinbaev P.F. Design diagram of a combined unit for laying drip irrigation pipes and films on ridges with simultaneous planting of melon crops seedlings. *The article provides information on the shortcomings of the technology used by farms in the Republic for planting melon crops seedlings under plastic film, describes the design and technological process of a combined unit designed for planting melon crops seedlings under plastic film with the installation of drip irrigation hoses, developed with the aim of eliminating the noted shortcomings.*

UO‘T 631.331

POLIZ EKINLARI URUG‘LARINI EKISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Allaniyazov S.[1] t.f.n., Ramazanov B.[2] PhD, Ablatova G.[3] tayanch doktorant

[1] Nukus davlat texnika universiteti.
[2] Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[3] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi dehqonchilikda eng qadimiy usullardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sug‘orish jarayonida nihollar va hosil chirishining oldini olish maqsadida ekin maydonlarida egat va pushtalarni olish zarur. Shu bilan birga, yetishtiriladigan ekin turiga qarab egat va pushtalarning chuqurligi hamda kengligi turlicha bo‘ladi [1].

Poliz ekinlari urug‘larining unib chiqishi, avvalo, ularni to‘g‘ri muddatda ekish bilan uzviy bog‘liq. Respublikamizning markaziy hududlarida qovun va tarvuzning ertapishar navlari 15 aprelgacha, o‘rtapishar navlari 20 apreldan 10 maygacha, kechpishar navlari esa 15 maydan 10 iyungacha ekiladi. Janubiy viloyatlarda ertapishar navlar uchun eng qulay muddat 10 aprelgacha, o‘rtapishar navlar uchun 10-20 aprel, kechpishar navlar uchun esa 10-20 iyun hisoblanadi. Shimoliy viloyatlarda esa ertapishar qovun va tarvuzlar 20 aprelgacha, o‘rtapisharlari 25 apreldan 10 maygacha, kechpishar navlari esa 20-30 may oralig‘ida ekilishi tavsiya etiladi [2].

Poliz ekinlari urug‘larini ekish ishlari agrotexnik talablarga muvofiq tuproqning 8-10 cm chuqurlikdagi qatlamida harorat +12…+15 °C darajaga yetganda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki bu turdagi egatlar qator oralariga ishlov berish jarayonida to‘rt g‘ildirakli traktorlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ekish sxemasi qovun va tarvuz uchun (210+70):2×70 yoki (270+90):2×70 cm, qovoq uchun esa (450+90):2×90 cm qilib belgilanadi. Urug‘lar 3-6 cm chuqurlikda joylashtiriladi. Mayda urug‘li qovun va tarvuz navlarini ekishda gektariga o‘rtacha 4 kg, yirik urug‘li tarvuzlar uchun 5-6 kg, qovoq urug‘larini ekish uchun esa 3-5 kg urug‘ sarflanishi talab etiladi [3].

Hozirgi kunda MDH mamlakatlari hamda respublikamizda poliz ekinlari urug‘larini ekish jarayonida turli texnologiyalar qo‘llanilmoqda [4]. Mazkur maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari va mavjud kamchiliklari tahlil qilingan.

Respublikamiz fermer xo‘jaliklarida poliz mahsulotlarini yetishtirish odatda, kuzda shudgorlab qo‘yilgan maydonlarda erta bahorda chizellash va ekish oldi ishlov berishdan


boshlanadi. Keyin esa egatochgichlar yordamida egatlar ochilib, ularga organik o‘g‘itlar solinadi, so‘ngra o‘g‘it solingan egatlar okuchnik yordamida ko‘milgan holda pushta shakllantiriladi. Shu tarzda tayyorlangan pushtalarga poliz ekinlari urug‘lari yoki ko‘chatlari asosan qo‘l mehnati bilan ekiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda qo‘llanilayotgan mavjud agrotexnologiyalarda qo‘l mehnati hamda yonilg‘i-moylash materiallari sarfi yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga, agrotexnik talablarga muvofiq belgilangan ishlar ko‘p vaqt talab etishi natijasida tuproqdagi namlikning yo‘qolishi kuzatiladi. Bundan tashqari, poliz ekinlari urug‘lari yoki ko‘chatlari asosan qo‘l mehnati orqali ekilishi ularni yetishtirish jarayonida mehnat unumdorligini pasaytiradi va ish jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Ana shu jihatlar amalda qo‘llanilayotgan texnologiyaning asosiy kamchiliklari sifatida qayd etiladi.

Ushbu keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida QXMITI olimlari tomonidan poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm).

Kombinatsiyalashgan mashina osish qurilmasi 2 bilan jihozlangan rama 4, eksgauster 3, bunker 5, ekish apparati 6, zichlagich 7, ko‘mgich 8, ekkich 9, freza 10, egatochgich 11, tayanch g‘ildirak 12 va parallelogramm mexanizm 13 dan iborat.

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruksiyasi ikki qismdan: ya’ni yerlarni bir yo‘la ekishga tayyorlaydigan va poliz ekinlari urug‘larini aniq ekadigan pnevmatik ekish seyalkasidan iborat bo‘lib, uning ish jarayoni quyidagicha kechadi: ramaning oldingi qismiga o‘rnatilgan egatochgich 11 sug‘orish egatlarini ochib ketadi. Freza 10 sug‘orish egatini ochish jarayonida tuproq yuzasida hosil bo‘lgan yirik kesaklarni maydalab, urug‘larni ekish uchun mayin tuproq qatlamini hosil qilib ketadi.



1-traktor; 2-osish qurilmasi; 3-eksgauster; 4-rama; 5-bunker; 6-ekish apparati; 7-zichlagich; 8-ko‘mgich; 9-ekkich; 10-freza; 11-egatochgich; 12-tayanch g‘ildirak; 13-parallelogramm mexanizm

1-rasm. Poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi

So‘ngra pnevmatik seyalkaning ekkichi 9 tayyorlangan pushtalarning tepa qismiga poliz ekinlari urug‘larini aniq ekib, ko‘mgich 8 lar bilan ko‘madi va zichlagich 7 yordamida zichlab ketadi.

Ushbu kombinatsiyalashgan mashina yordamida yerlarni tayyorlashda quyidagi samaradorlikka erishish mumkin. Birinchi navbatda, egatochgich sug‘orish egatini ochadi va freza urug‘ ekish uchun zarur bo‘lgan mayin tuproq qatlamini hosil qiladi. Bu esa urug‘larni bir xil chuqurlikda va optimal sharoitda joylashishiga zamin yaratadi. Pnevmatik ekish apparati urug‘larni aniq me’yorda va bir tekis ekish imkonini berib, ko‘chatlarning bir hil o‘sib chiqishini

ta’minlaydi. Shuningdek, ko‘mgich va zichlagichlar yordamida urug‘lar tuproq bilan yetarlicha ko‘miladi hamda yaxshi namlikni saqlaydi. Natijada, bir nechta texnologik operatsiyalar bitta ish jarayonida bajariladi, qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj keskin kamayadi, yonilg‘i-moylash materiallari sarfi tejaladi va eng asosiysi – agrotexnika talablariga to‘liq rioya etilgan holda ish sifatli bajariladi. Shu orqali tuproqdagi namlikning yo‘qolishi oldi olinadi va tuproqning ortiqcha zichlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, poliz ekinlarining urug‘lari yuqori aniqlikda ekilishi sababli, o‘sish va rivojlanish jarayoni barqaror kechadi hamda hosildorlikning ortishiga erishiladi.

Xulosa

Poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini aniq ekadigan kombinatsiyalashgan mashina qo‘llanilganda qo‘l mehnatiga barham berilib, kam sarf- xarajatlar bilan yuqori hosil olishga erishish ta‘minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamatov F.M., Xudayarov B.M., Rajabov A.X. Paxta dalalarida pushta olishning ilmiy-texnik asoslari. – Toshkent: Navruz, 2018. – B.28-34.

2. Mevali bog‘ qator oralarida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2015. – 23 b.

3. Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, yuqori hosildor sabzavot va poliz urug‘lari navlarini saralab olish va o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish” bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent, Tafakkur, 2016. – 77 b.

4. Orinbayev.P Poliz ekinlari urug‘larini ekish texnologiyalarining tahlili // Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari:/ XXI - yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. – Toshkent: TIQXMMI, 2022. – B. 870-874.

Allaniyazov S., Ramazanov B., Ablatova G. Poliz ekinlari urug‘larini ekih texnologiyalarini takomillashtirish. *Maqolada poliz ekinlari urug‘larini ekishda bugungi kunda respublikamizda qo‘llanilayotgan texnologiyalar tahlil qilingan va ularni takomillashtirishga qaratilgan poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini aniq ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi keltirilgan.*

Алланиязов С., Рамазанов Б., Аблатова Г. Совершенствование технологии посева семян бахчевых культур. *В статье анализируются технологии, применяемые в нашей республике при посеве семян бахчевых культур, и представлена конструктивная схема комбинированной машины, которая одновременно подготавливает почву и точно сеет семена бахчевых культур,исключая применение ручного труда.*

Allaniyazov S., Ramazanov B., Ablatova G. Improvement of the technology of sowing seeds of melon crops. *The article analyses the technologies used in our republic for sowing melon seeds and presents a design diagram of a combined machine that simultaneously prepares the soil and accurately sows melon seeds, eliminating the need for manual labour.*

УДК.631.331.99

РЕЗУЛЬТАТЫ СТЕНДОВЫХ ИСПЫТАНИЙ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО КАТУШЕЧНОГО ВЫСЕВАЮЩЕГО АППАРАТА НА ВЫСЕВЕ СЕМЯН КОРМОВОЙ ПОЛЫНИ

Умаров Ш.Г.[1] базовый докторант, Хазиев С.А.[1] (PhD)

[1] Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства

В настоящее время семена пустынных кормовых растений, в частности, кормовой полыни, высевают вручную. Многолетние изучения зарубежных исследователей В.П. Горячкина, А.Н. Семёнова, Г.М. Бузенкова, А.Н. Карпенко, С.А. Ма, В.Т. Солдатова а также

отечественных Т.Мусаева, С.Мамаджанова, Э.Фарманова и других [1-5] показывают, что для высева несыпучих семян трав можно применять сеялки с катушечными высевающими аппаратами. Катушечный высевающий аппарат, в сравнении с другими типами высевающих аппаратов на высеве семян различных растений, обладает рядом положительных качеств. К числу таких следует отнести, прежде всего, сравнительную простоту устройств и удобства регулировки. Постоянство высева этим аппаратом достаточно высокое, количественная равномерность высева также довольно высока, и при этом неравномерность составляет в пределах 6 – 10% при агротребовании 20% [1-5].

Исходя из вышеуказанных нами проведены испытания экспериментального катушечного высевающего аппарата на высеве семян кормовой полыни. Изучение работы катушечного высевающего аппарата со сводоразрушительным устройством на высеве семян кормовой полыни, изготовленного на базе почвообрабатывающего посевного агрегата АЯМ-2, сеялок СНП-1 и СПК-0,7, предназначенных для высева семян саксаула, изени, камфоросмы и чогона проводились на лабораторном стенде (рис.1). Вариатором и перестановкой сменных приводных звездочек проводилась регулировка режимов работы аппарата.

При испытаниях изучены норма и неравномерность высева высевающим аппаратом в зависимости от числа оборотов катушки и нормы высева семян при различной ширине междурядья и чистоте семян.





Рис. 1. Кинематическая схема лабораторного стенда для изучения высевающих аппаратов

В испытаниях чистота семян полыни составляла в пределах 25-100%, норма высева в пределах 3,0-120,0 kg/ha.

Определение чистоты полыни и исследования высевающего аппарата проводились по общеизвестным методикам. Данные исследований приведены на рисунках 2 и 3.


Результаты исследований показали, что при высеве семян полыни катушечным высевающим аппаратом со сводоразрушительным устройством наблюдается даже визуально порционность вывода семян из аппарата желобками катушки. Однако постоянство высева остаётся достаточно удовлетворительным, т.е. даже, казалось бы, при значительной порционности вывода семян из аппарата, количество высева за оборот катушки изменяется мало (рис.2).


Полученные результаты по неравномерности высева в зависимости от нормы высева и чистоты семян (рис.3) показали, что чем больше засоренность тем выше неравномерность. Кроме того, на неравномерность сказывается и ширина междурядий.



1 – минимальная, 2 – средняя, 3 – максимальная нормы высева за один оборот катушки

Рис.2 Количественная равномерность высева семян полыни при ширине междурядья 45 (А); 60 (Б); 70 (В) и 90 (Г) cm





А – В = 45 cm; Б – В = 60 cm; В – В = 70 cm; Г – В = 90 cm.

1 – $W_ч$ = 100 %; 2 – $W_ч$ = 75 %; 3 – $W_ч$ = 50 %; 4 – $W_ч$ = 25%.

Рис. 3 Неравномерность высева *q* семян полыни в зависимости от нормы высева $Q_р$, чистоты семян $W_ч$ и ширины междурядия *B*

Неравномерность высева находится в зависимости от чистоты семян в пределах, соответственно, при междурядье 45 cm: 100 % - 1,7- 2,4%; 75 % - 1,8 – 4,9 %; 50 % - 2,8 – 3,5 %; и 25 % - 3,9 - 5,5 %; при междурядье 60 cm: 100 % - 1,2 - 2,1 %; 75 % - 1,2 - 2,2 %; 50 % - 2,6 % - 4,1 %; и 25 % - 2,9-5,4 %; на междурядьях 70 cm: 100 % - 1,3 - 1,9 %; 75 % - 1,6 - 2,1 %; 50 % - 2,3 - 3,3 % и 25 % - 3,3 - 10,0 %; а междурядье 90 cm: 100 % - 1,4 - 2,0 %; 75 % - 1,7 - 2,4 %; 50 % - 2,7 - 3,5 %; и 25 % - 3,1 - 9,8 %.

По результатам видно (рис.3), что при меньшей норме высева для каждого междурядья и чистоты семян неравномерность выше, чем при оптимальной норме высева. Несмотря на это необходимо отметить, что полученная неравномерность во всех случаях находится в пределах агротехнических требований (не более 20%).

Заключение

Экспериментальный катушечный высевающий аппарат со сводоразрушительным устройством обеспечивает норму и неравномерность высева семян кормовой полыни, соответственно, в пределах 30,0 - 120,0 kg/ha и 1,2 - 10,0% в зависимости от засорённости семян, которые допускаются до 75%. Неравномерность высева по агротехническим требованиям не более 20,0%.

Катушечный высевающий аппарат со сводоразрушительным устройством можно регулировать на междурядье по агротребованиям для полыни в пределах 45-90 cm, при этом норма высева устанавливается рабочей длиной катушки, зазором между катушкой и клапаном и числом оборотов катушки, которые изменяются, соответственно, в пределах 5-30 mm, 5-55 mm и 1-3 оборотов.

Список литературы

1. Шамсутдинов З.Ш. Создание долголетних пастбищ в аридной зоне Средней Азии. – Ташкент. Фан. 1975. с. 3-163.

2. Агротехнические указания по улучшению пустынных и полупустынных пастбищ Узбекистана. – Ташкент. 1969. с. 1-29.

3. Бузенков Г.М., С.А. Ма. Машины для посева сельскохозяйственных культур. – Москва, Машиностроение. 1976, 272с.

4. Мусаев Т. Комбинированный посевной агрегат для пастбищ. ж. Сельское хозяйство Узбекистана. 1975. №3, с.31-32.

5. Фармонов Э.Т. Саксовул ва черкез ўсимликлари уруғларини экишни механизациялашнинг илмий-техникавий ечими. Техника фанлар доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021, 190 с.

Umarov Sh. G. Xaziyev S.A. Xashak bop shuvoq urug'larini ekishda eksperimental g'altakli ekish apparatining sinovlari natijalari. *Maqolada O'zbekiston arid zonasi sharoitlari uchun xashak bop shuvoq urug'larini ekishda eksperimental g'altakli ekish apparatining stend sinovlari natijalari keltirilga. Bu erda tavsiya etilgan qurilmaning parametrlari va ish rejimlariga qarab ekish meyyorlari va bir xilligi organilgan.*

Умаров Ш.Г. Хазиев С.А. Результаты стендовых испытаний экспериментального катушечного высевающего аппарата на высеве семян кормовой полыни. *В статье приведены результаты стендовых испытаний экспериментального катушечного высевающего аппарата на высеве семян кормовой полыни для условий аридной зоны Узбекистана, где обоснованы нормы и равномерность высева в зависимости от параметров и режимов работы предлагаемого аппарата.*

Umarov Sh.G. Khaziev S.A. Results of bench tests of the experimental reel seeding apparatus on the sowing of fodder wormwood seeds. *This article presents the results of bench tests of the experimental reel seeding apparatus on the sowing of fodder wormwood seeds for the conditions of the arid zone of Uzbekistan, where the norms and uniformity of sowing are substantiated depending on the parameters and modes of operation of the proposed apparatus.*

UO‘T 631.319.06

TUPROQQA FREZALI ISHLOV BERIB BIR YO‘LA URUG‘NI ANIQ VA DONALAB EKISH JARAYONINING NAZARIY TADQIQI

Shaymardanov B.[1], Ro‘ziyev D.[1], Berdimuratov P.[1], Sharipov Z.[1], Shaymardanov X.[2]

[1] Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti
[2] Boston College Information Technology Services


Yog‘ingarchilikdan hosil bo‘ladigan ortiqcha ko‘lob suvning salbiy ta’siridan va bahorgi suv yetishmasligining oldini olish maqsadida freza yordamida bira yo‘la mayda fraksiyali tuproqli jo‘yak hosil qilish, uning ichiga urug‘ ekish va sug‘orish quvurini manzilli joylashtirish texnologiyasini yaratish kam xarajatlar talab qilib, erta bahorda qisqa muddatlarda ob-havoga bog‘liqlikni kamaytirib ekish imkonini beradi.

1-rasmda ushbu texnologik jarayonni amalga oshirishga mшljallangan kombinatsiyalashgan ekkichning ishchi organlari, ishlash tartibi, sug‘orish quvuri va soshnikning sxemalari ko‘rsatilgan.

Traktorga osilgan ekkich kuzda shudgor qilingan dalada harakatlanganda tasmali frezalar orasida joylashgan egat ochgich 4 jo‘yak ochib, freza barabani 5 ga qator orasidan tuproqni tashlab beradi, freza tuproqni va begona o‘tlarni maydalaydi va pushta shakllantigich fartugi 6 ichiga uloqtiradi. Fartukka kirish va undan chiqishi kichrayib boruvchi trapesiya shaklida bo‘ladi.

Tuproq oqimining fartuk ichi o‘rta qismida va chiqishida trapesiya shaklga ega bo‘ladi. Ushbu tuproq trapesiyalari zichligi kam, ya’ni g‘ovakligi katta bo‘lganligi sababli oxirgi trapesiya zichlagich yordamida kerak bo‘ladiga zichlikkacha sfera shaklda zichlanadi (2-rasm). Zichlagich g‘altagining zichlash darajasi ramaga sharnirli qotirilgan prujinali talper-tortqi 7 bilan rostlanadi.


Pushta shakllantirgich fartugi korpusi freza barabani g‘ilofiga sharnirli bog‘langanligi va chiqish qismida ramaga va fartuk korpusiga sharnirli ulangan prujinali tortqiga osiilganligi sababli tuproq oqimi ta’sirida fartuk korpusi tik yo‘nalishda tebranma harakatlanadi. Natijada fartuk orqa qirrasiga mahkamlangan g‘altakcha 12 bilan tuproq uyumi tekislanadi va shibbalanadi. Zichlagich g‘altakchasi uzunligi fartuk chiqish qirrasi eniga teng bo‘lib, freza barabanidan uloqtirilayotgan tuproq oqimini qaytarish vazifasini ham bajaradi.



1 – freza barabani g‘ilofi; 2 – freza barabani; 3 – fartukni g‘ilofga osish sharniri; 4 - sug‘orish quvurining yo‘naltirgich quvurida joylashishi; 5 – fartukka mahkamlangan quvur yo‘naltirgich; 6 – y o‘naltirgich g‘altakchalari; 7 – soshnik tushirish quvuri; 8 – fartukni osish sharniri; 9 – shakllangan pushtani zichlagich; 10 – fartuk yon devori; 11 – urug‘ o‘tkazgich; 12 – fartukning zichlash g‘altagi.

1-rasm. Kombinatsiyalashgan ekkichning umumiy sxemasi:

Tadqiqotchilar [8] izlanishlari natijasida, gidrometereologiya ko‘rsatkichlari tahlilidan yog‘ingarchiik natijasida ko‘lob sathi maksimal qiymati 9-10 sm bo‘lishligini e’tiborga olib, oxirgi zichlangan pushta balandligi 10 sm deb qabul qilindi. Shu holatdan kelib chiqib, va sirt yuzasi sferik shakldagi pushtada quyosh radiatsiyasining issiqlik to‘planishi maksimal bo‘lishligidan oxirgi hosil bo‘ladigan pushta sirtini sfera ko‘rinishda qabul qilinadi [14].



a b v

a – fartuk o‘rtasida; b – fartukdan chiqishida; v – zichlagichdan keyin

2-rasm. Pushta shakllantirgich ichida va zichlagichdan keyingi pushtalar shakllanish sxemasi

Ekkichning tajriba variantida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida pushta shakllantirgich fartugi ichida hosil bo‘ladigan pushtalar 4-rasmda keltirilgan. 2-rasm a da keltirilgan pushta shakli shakllantirgich fartugi uzunligi o‘rtalariga to‘g‘ri kelsa, 2-rasm b dagisi - shakllantirgich fartugidan keyingi zichlangich ta’sirida shakllanadi. Oxirgi 2-rasm v shaklni tuproqni asosiy zichlagich shakllantiradi, ushbu oxirgi pushtaning zichligini o‘lchab aniqlanganida u 1,1 - 1,2 g/sm^3 ga tengligi aniqlandi.

Ishlov berilgan tuproq massasi o‘zgarmaslik shartidan 4-rasmdagi shakllar hajmlari o‘lchandi:


$$V_1 = V_2 = \frac{1}{2}(a+b)\cdot h, \tag{1}$$

Rasm 4 v shaklning hajmini topamiz:

$$V_3 = S\cdot h, \tag{2}$$

bunda $S,\ h$ - mos ravishda sferaning yuzasi va balandligi.

Sfera yuzasi S ni quyidagicha topamiz:



$$y = -ax^2 + 10$$
$$0 = -a\cdot 1600 + 10$$
$$a = \frac{1}{160}$$
$$S = 2\cdot\int_0^{40}\cdot\left(-\frac{x^2}{160}+10\right)\cdot dx = 2\cdot\left(-\frac{x^3}{3\cdot 160}+10x\right)\cdot\int_0^{40} =$$
$$= 2\cdot\left(-\frac{40^3}{3\cdot 160}+40\cdot 10\right) = 2\cdot\left(-\frac{1600\cdot 40}{3\cdot 160}+400\right) =$$
$$= 2\cdot\left(-\frac{400}{3}+400\right) = \frac{1600}{3} = 533{,}3\ cm^2.$$

Yuqoridagilardan kelib chiqib

$$\frac{V_3}{V_1} = 0{,}222, \qquad \frac{V_3}{V_2} = 0{,}333, \qquad \frac{V_2}{V_3} = 0{,}666 \qquad ekanligidan$$
$$\rho_3 = 1{,}15\ g/cm^3\ \ bo‘lganida$$
$$\rho_1 = 0{,}333\ g/cm^3, \quad \rho_2 = 0{,}383\ g/cm^3\ \ ga\ teng$$

ekanligi aniqlandi. Demak, birinchi va ikkinchi hajmlardagi g‘ovaklik 50% dan ortadi.

Dastlabki eksperimentlar natijalaridan oxirgi hosil bo‘ladigan sfera shaklidagi balandligi 9-10 cm pushtaning ichki harorati 4-5 ^{0}C ga oshganligi, tuproq sirtidagi hosil bo‘ladigan qatqaloq 2-3 mm bo‘lishligi aniqlandi.

Pushta shakllantirgich fartuki parametrlarini asoslash

Tadqiqotlar tahlili [3] asosida olingan natijalar bo‘yicha xulosa qilish mumkinki, tuproq oqimini fartuk ichiga yo‘naltirish uchun g‘ilof va fartukning qaytarish burchagi katta bo‘lganda eng yaxshi shaklga ega bo‘ladi. Shu sababli mavjud g‘ilof shakllari: silindrik, parabolik va tarkiblilaridan oxirgisi optimalga yaqin energetik ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi.

Frezadan otilayotgan tuproq oqimining fartuk bo‘ylab xarakatlanishi uchun quyidagi shartlar qabul qilinadi:

- tuproq zarrachalari oqim ko‘rinishida harakatlanadi;
- tuproq oqimi fartukning ikkinchi yarmida uyum hosil qiladi.

G.F. Ponov [7], tuproq kanalida tajribalar o‘tkazib, quyidagilarni aniqlagan: uloqtirilayotgan tuproq massasi, uloqtirish masofasi va uloqtirishga sarflangan ish freza diametri oshishi bilan oshadi, masalan, freza diametrining 320 dan 500 mm ga oshishi uloqtirilayotgan tuproq vazni 8,85% ga, uloqtirilish masofasi 57% ga, uloqtirish ishi sarfi 51% ga oshishiga olib kelgan.

Freza barabaning diametrini hisobiy aniqlash quyidagi formuladan aniqlanadi [7]:

$$D = (2{,}5 \div 3)a_{max}, \quad (3)$$

bunda a_{max} - tuproqqa ishlov berish chuqurligi, m.

Tadqiqotchilar ishida [9] g‘ilofga o‘tkazilgan urinma «τ - τ» va freza pichog‘idan uloqtirilayotgan tuproq oqimi tezligi V_{ob} orasidagi burchak kattaligini aniqlash uchun μ_k parametrini kiritadi va tekis burchak π va g‘ilof ishchi sirtining gorizontalga nisbatan o‘rnatilish burchagi α_n orqali quyidagi ifodadan aniqlaydi

$$\mu_k = \pi - (\alpha_{ob} + \alpha_n) \quad (4)$$


Ifoda shuni ko‘rsatadiki, g‘ilof va fartukning o‘zgarmas knstruksiyasida μ_k qiymati asosan tuproqning uloqtirilish burchagiga boqliq. Ushbu ifoda tuproq uloqtirilish burchagining 0° dan hisoblash uchun qabul qilingan oralig‘ida o‘zgarishiga bog‘liq (masalan, G.N. Sineokov va I.M.Panovlar ma’lumotlari bo‘yicha [11] yumshatilmagan tuproqning uloqtirish burchagi 30^0 tashkil etadi, uni hisoblashlar uchun asos qilib qabul qilish mumkin).

Qirqish tezligining 6 m/s dan oshishida tuproq qirindisi deformatsiyasining tashqi ko‘rinishi o‘zgarishiga olib keladi. Pichoq oldida bitta emas, balki bir nechta tirqishlar hosil bo‘ladi. Tirqish hosil bo‘lish jarayonining o‘ta jadallashishi monolit buzilishining uvalanish ko‘rinishiga o‘tish ustunligidan dalolat beradi [7].


Pichoqning oldindan yumshatilgan tuproq bilan o‘zaro tasirlashish jarayoni yuqorida keltirilgan ancha farqlanadi: pichoq oldida tirqish hosil bo‘lmaydi, balki tuproq qirindisi elementlarining siljishi sodir bo‘ladi [7].

Zich tuproqni qirqishda qirqib olinadigan qirindining tuproq hajmining 30% ni tashkil etuvchi yuqori qismi gorizontga nisbatan 10-30° burchak ostida uloqtiriladi. Oldindan yumshatilgan tuproq qirindisi yuqori qismi gorizontga nisbatan 5-15° burchak osti uloqtiriladi va uning uloqtirilish masofasi birinchi holatdan kamroq [7].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida urug‘ ekish soshnigining fartukka o‘rnatilish va tuproqning zichlanish muhiti aniqlanadi (3-rasm). 4-rasmdan ko‘rinadiki, soshnikni o‘rnatish muhiti fartuk uzunligining yarmidan keyin va tuproq zichlanish muhitidan pastda joylashadi.



3-rasm. Soshnikni o‘rnatish joyini aniqlashda frezadan tuproq oqimining fartuk ichiga uloqtirilish sxemasi



4-rasm. Soshnikni o‘rnatish va tuproqni zichlash muhitini aniqlashning hisobiy sxemasi

Fartuk uzunligi tuproq oqimining fartuk oxirgi chiqish qirrasidan chiqib ketmaslik shartidan aniqlanadi. Dastlabki eksperimentalar natijalaridan fartukning uzunligi 500-600 mm ni tashkil etdi.

Tuproq oqimining g‘ilof va fartukda turg‘un harakatlanish shartidan shakllantirgich fartugi kirish balandligini aniqlaymiz:

$$h_{vx.f} = R_b + h_p + h_t - l_k \cdot cos\beta_k^{pr} \quad (5)$$

gde R_b - freza barabanning radiusi, m;

h_p - pichoq balandligi, m;

h_t - pichoq tig‘i bilan g‘ilof ichki sirti orasidagi masofa, m;

l_k - β_k^{pr} burchak ostidagi uzunlik, m. (8-rasm).

Tadqiqotlardan aniqlanganki [7], baraban diametri qanchilik kichik bo‘lsa, tuproqqa rotatsion ishlov berish mashinalari energetik ko‘rsatkichlari shunchalik kichik bo‘ladi. Shuning uchun kam vaznli va kichik gabaritli mashinalar yaratish uchun, hamda buralish momentini kamaytirish uchun baraban diametrini imkon darajasida kichik tanlanadi. Bu holatda barabannaning maksimal botishida dala yuzasi bilan freza korpusi orasida tirqish ko‘zda tutilishi lozim.

Soshnikni o‘rnatish balandligi

$$h_c = H_f - H_\rho + h_g, \ m, \quad (6)$$

bunda H_f - fartuk balandligi, m;

H_ρ - tuproq zichlanish qalinligi m,;

h_g - ekish chuquriligi, m.


Soshnikni fartuk uzunligi bo‘yicha o‘rnatish masofasi

$$l_c = \frac{l_f}{2} - \frac{h_f}{2} \cdot cos15^0, \quad (7)$$

Bunda l_f - fartuk uzunligi, m; h_f - berilgan no‘qtadagi fartuk balandligi, m.

Agar urug‘ni ekish va manzilli sug‘orish quvurini joylashtirish no‘qtasi tuproq oqimi uloqtirilish burchagidan pastda ya’ni < 15^0 joylashtirilsa, urug‘ va quvur joylashish chuquriligi tuproqning fizik-mexanik xususiyatlariga, soshniklarning fartuk bilan birgalikdagi og‘irligiga, soshnikning tayanch yuzasi kattaligiga, fartuk chiqish qirradan joylashish masofasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari tuproqning namligiga, maydalanish darajasiga, bu esa o‘z navbatida kinematik rejim ko‘rsatkichi λ ga ya’ni freza pichog‘ining ilgargilanma tezligi v_m va aylanma tezligiga v_o ga hamda frezalash chuquriligi N ga bog‘liq bo‘ladi.



5-rasm. Fartukning g‘ilofga ulanishi joyini topish va uloqtirilgan tuproq oqimining fartukka urishidagi kuchlar ta’siri sxemasi

5-rasmda freza pichog‘idan uloqtirilgan tuproq massasining g‘ilof va fartukka urilishi kuchlari sxemasi keltirilgan. Markazdan qochma kuch ta’sirida g‘ilof va fartukka uriladigan tuproq massasining fartuk ichiga yo‘naltirilishi shartdan kuchlar ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Markazdan qochma kuch $F_\omega = m \cdot \omega^2 \cdot r$ (8)

Og‘irlik kuchi $G = mg\ r$ (9)

Ishqalanish kuchi $F_i = f \cdot N$ (10)

Fartukning qaytarish-uloqtirish kuchi $F_q = G + F_i$ (11)

Markazdan qochma kuch ta’sirida tuproq massasi fartuk ishchi yuzasiga urilishi natijasida maydalangan kesak qo‘shimcha deformatsiyalanadi va qaytarish kuchi ta’sirida ma’lum masofaga uloqtirilib sochiladi.

Markazdan qochma kuch ta’sirida mayda kesaklarning fartuk ishchi yuzasiga urilib deformatsiyalanish kritik tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi [9]:

$$V_{kp} \geq [\sigma_{ch}] \cdot cos\,\alpha_{\omega} \cdot \sqrt{\frac{\left(J+mR_b^2\right)}{3J\rho(1-k^2)\left(2R_b h_f - h_f^2\right)}} \quad (12)$$

Bu ifodadan ko‘rinib turibdiki frezali barabanning aylanma harakatdagi chiziqli tezligi ta’sirida fartuk ishchi yuzasiga urilish tezligi freza barabani radiusi, inersiya momenti, ishlov berish chuqurligi hamda kesaklarning mustahkamligi, massasi, elastiklik moduli, zichligi va tiklanish koeffitsienti markazdan qochma kuchning yo‘nalish burchagiga bog‘liq ekan.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarga asosan $[\sigma_{ch}] = 3{,}5 \cdot 10^5$ Pa, $E = 1{,}9 \cdot 10^6$ Pa, $\rho = 1200$ kg/m^3, $m = 1{,}02$ kg, $k = 0{,}3$, $J = 0{,}11$ kgm^2.

Kesaklarning fartuk ichki yuzasidan uloqtirilishi. Freza pichog‘i yordamida tuproq palaxsalarining maydalanishdan so‘ng mayda kesaklar freza aylanma tezligi ta’sirida fartuk ishchi yuzasi tomon irg‘itiladi. Tuproq oqimi sochilish tasmasi eni va zarrachalar uchish masofasi tuproq qatlamlari aralashish, o‘simlik qoldiqlarining ko‘milishi va fartuk ichida teng taqsimlanish darajasini aniqlaydi.

Fartuk ishchi yuzasidan tuproq zarrachalari tushish momentida (6-rasm) unga og‘irlik kuchi mg va havo qarshilik kuchi ta’sir qiladi [13].


$$R_c = k_n \cdot m \cdot v_n^2\,, \quad (13)$$

bunda v_n - zarrachalarning boshlang‘ich tezligi; k_n - paruslik koeffitsienti.

Zarrachalarni tekis yuzaga harakati birlamchi yaqinlashishini qabul qilib, uning harakat tenglamasini tuzamiz, bunda koordinatalar boshini zarrachalarning yuzadan tushish joyida deb belgilaymiz. Unda

$$\left.\begin{aligned} \ddot{x} &= -k_n v_n^2 \cdot cos\alpha_1 \\ \ddot{y} &= -g + k_n v_n^2 \cdot sin\alpha_1 \end{aligned}\right\} \quad (14)$$

bunda α - zarrachalar tezligi vektorining OX o‘qiga qiyalik burchagi.



6-rasm. Fartuk ishchi yuzasidan uloqtirilgan tuproq zarrachalariga ta’sir qilish kuchlari

(14) tenglamani yechish uchun $\alpha_1 = 0$ ni qo‘yib olamiz, chunki α_1 burchak 7-9° dan oshmaydi, undan so‘ng ikki marta integrallab, tuproq zarrachasi uchish masofasini aniqlaydigan tenglamani keltirib chiqaramiz,


$$x = \frac{ln\left(k_n \cdot v_n \sqrt{\frac{2H}{g}+1}\right)}{k_n}. \quad (15)$$

Tenglama (15) dan ko‘rinadiki, tuproq zarrachalarining uloqtirilish masofasi ularning boshlang‘ich tezligi, paruslik koeffitsienti va freza pichog‘i tig‘ining fartuk ishchi yuzasigacha joylashishi balandligiga bog‘liq. Tuproq kesaklari bilan birga poyalar va boshqa o‘simlik qoldiqlari ham uloqtiriladi. O‘simlik qoldiqlarining paruslik koeffitsienti qiymati tuproq kesak zarralaridan katta ekanligidan ularning uchishi masofasi kichik bo‘ladi. Shuning hisobiga


uloqtirilayotgan massa aralashadi, bu esa ayniqsa tuproqqa organik va mineral o‘g‘itlar kiritilishida muhim hisoblanadi.

Freza rotoridan uloqtirilayotgan tuproq zarrachalari kinetik energiyaga ega bo‘lib, bu energiya oldin uloqtirilgan tuproq zarrachalarini zichlashga sarflanadi. Fartuk ishchi yuzadan qaytib tushayotgan kesak zarrachalarining dinamik ta’sirida bu zarrachalar kinetik energiyasining yumshoq tuproq qatlamiga kirishi kabi uni zichlashga ham sarflanadi. Hisoblashlar va kuzatuvlar [7] shuni ko‘rsatadiki, uloqtirilayotgan zarrachalar 1,5-3 kgk/sm^2 ga ekvivalent bo‘lgan dinamik bosimni yuzaga keltiradi, ya’ni taxminan suv qo‘yilgan yengil silindrik g‘altak bosimiga mos keladi. Shu sababli fartuk tagidan zichlangan tuproqda katta qiymatdagi g‘ovaklik bo‘lmaydi.


Dastlabki tajribalardan agregat hakati tezligining muqobil qiymatlarini aniqlash maqsadida freza barabanining chiziqli tezligi va agregat harakat tezligi nisbati - kinematik rejim ko‘rsatkichi λ ning oxirgi zichlangan pushta balandligi h_p orasidagi o‘rganildi (7-rasm).



7-rasm. Kinematik rejim parametri bilan oxirgi zichlangan pushta orasidagi bog‘lanish grafigi



8-rasm. Fartuk tagi tuproq uyumi hajmi o‘zgarishi va oxirgi zichlashdan keyingi hajmning fartuk va zichlagich uzunliklariga bog‘liq grafigi



9-rasm. Fartuk ostidagi tuproq uyumining uzunligi bo‘yicha va zichlagichdan keyingi o‘zgarishi grafigi

Yuqorida keltirilgan hisobiy tadqiqotlar asosida oxirgi zichlangan pushtaning 1,1-1,2 g/sm^3 zichligini ta’minlashda fartuk ostidagi tuproq mssasi o‘zgarmaslik shartidan $h_p \cong 9\ sm$ ekanligidan $\lambda = 4$ ekanligi aniqlanadi. λ ning qiymati oshishi bilan o‘zgarmas qiymatda o‘rnatilgan soshnikdan tushayotgan urug‘ ko‘milish chuqurligi oshadi. Bu urug‘ o‘nib chiqishini kechiktiradi. Va aksincha bo‘lganda urug‘ning quruq tuproqqa tushish ehtimoli oshadi.

Fartuk ostiga uloqtirilayotgan tuproqning tiqilib qolish shartidan dastlabki tajribalardan fartuk tagidagi tuproq uyumi hajmining fartuk uzunligi bo‘yicha va pushtani oxirgi zichlashdan keyingi qiymatlar o‘zgarishlarini o‘rganib (2-rasm), muqobil qiymatlarini topdik (8-rasm).

Fartuk tagidagi tuproq oqimi zichligining fartuk uzunligi bo‘yicha va zichlagichdan keyingi zichligini o‘rganishni teskari tartibda bajarildi: o‘tkazilgan tajribalar asosida λ har xil qiymatlarida zichlangan pushta balandligini (9 sm) qabul qilib olinib, fartuk ostidagi tuproq zichliklarini fartuk oxiridan old tomonga o‘zgarishini hisoblab topdik (9-rasm). Keltirilgan grafik tahlilidan shakllanayotgan tuproq g‘ovakligi 50% oshishligi aniqlandi.

Grafik tahlilidan fartukning uzunligi 500-600 mm bo‘lishligi aniqlandi, undan ortiq uzunlikda zichlik o‘zgarmaydi, demak ortiqcha uzunlik metall sarfini va fartuk vaznini oshiradi.

Zichlagichning tadqiq etiladigan parametrlari. Agrotexnik talablarga mos ravishda frezalash bilan bira yo‘la urug‘ ekishda ekilgan urug‘ ustidagi tuproq g‘ovakligi oshadi. Natijada


tuproq zichligini talab darajasidagi 1,1-1,2 g/sm^3 ga yetkazish uchun tuproq g‘altak yordamida zichlanadi.

Shundan kelib chiqib, g‘altakning tuproqqa botish chuqurligi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi.

Frezali ishlov berilganda, odatda, to‘proq g‘ovakligi oshadi va hajmiy paxmayish sodir bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich odatda 30% dan oshadi. Tuproqqa balandligi 10 sm bo‘lgan pushta hosil qilishda pushtaning usti ko‘rinishi sfera shaklida (2-rasm) bo‘lishi kerak, bu pushta ustida mulcha qatlami hosil qilishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli pushta shakllantiradigan g‘altakning ko‘rinishi 10- rasmdagi kabi bo‘lishi kerak.

Oldindan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar asosiy fartukdan chiqayotgan pushta balandligi ikki baravar kamayganda, ya’ni, pushta 10 sm gacha zichlanganda tuproq zichligi 1,1 - 1,2 g/sm^3 ga teng bo‘ladi.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlari [23] natijasida chigit ekilgandan keyin zichlanish uyumi yon tomonining gorizontga nisbatan nishablik burchagi 30^0 atrofida bo‘lishligi aniqlangan, bu holda yomg‘ir suvining oqib tushishida pushta yoni yuvilib ketmaydi. Shu sababli zichlagichning konussimon qismi (10-rasm) qiyalik burchagi $\alpha = 30^0$ ni qabul qildik.



10-rasm. Zichlagichning aniqlangan parametrlari

Zichlagich silindr qismining enini akademik G.M. Rudakovning [13] pushta ustida ekkich ishchi organining harakatlanishi hisobga olish bo‘yicha ma’lumotini e’tiborga olib, va pushta sirtining sfera shaklini hosil qilish zichlagich sirtlari orasidagi tirqish kengligini hisobga olib 200 mm qabul qilindi.

Zichlagichning qamrov kengligi g‘altak ikki chekkadagi qirralarining yerga tayanib qolmasligi shartidan, fartuk qamrov kengligi 800 mm bo‘lganida V$_e$=600 mm qabul qilinadi. Konstruktiv hisoblardan g‘altakning o‘lchamlari (10-rasm) qabul qilindi. Shundan kelib chiqib, zichlash g‘altagiga tik yuklanishni topamiz.

Tadqiqotlardan isbotlanadiki, tuproq zichlanishi tarqalishi va g‘altakning botish chuqurligi agregat tezligi 1,5 - 2,5 m/s bo‘lganida o‘zgarmas bo‘lib saqlanadi 1,5-2,5 m/s [3, 4, 6, 7].

Zichlagichga beriladigan tik yuklanishni pushta tuprog‘i talab darajasida zichlanishi ta’minlanishi shartidan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [12]

$$Q_z = 0{,}5q_s(1+\mu V_a^2)\Big\{B_sD_s\Big[\sqrt{D_sh_z-h_z^2}-(0{,}5D_s-h_z)\times \times arcsin\frac{2\sqrt{D_sh_z-h_z^2}}{D_s}\Big]+2B_k(D_s+2B_ktg\alpha)\times \times\Big[\sqrt{(D_s+2B_ktg\alpha)h_z-h_z^2}-[0{,}5(D_s+2B_ktg\alpha)-h_z]\times \times arcsin\frac{2\sqrt{(D_s+2B_ktg\alpha)h_z-h_z^2}}{D_s+2B_ktg\alpha}\Big]\Big\} \quad (16)$$

Bunda q_s – pushta tuprog‘ining statik hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m^3;

μ – proporsionallik koeffitsienti, s^2/m^2;

V_a– agregatning harakat tezligi, m/s.

q_s = 2·10^6 N/m^3 [15; 151-b.], μ = 0,08 s^2/m^2 [15; 33-35-b.] va h_z= 2,5 cm qabul qilinib hamda B_s, D_s, α, B_k larni yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo‘yib, (16) ifoda bo‘yicha 1,5-2,2 m/s harakat tezligida pushta tuprog‘ining talab darajasida zichlanishini ta’minlash uchun zichlagichga 2,1-2,4 kN oralig‘ida tik yuklanish berilishi lozimligini aniqlandi.

Xulosa

Tuproqqa frezali ishlov berib, bir yo‘la pushtalar shakllantirib, ustiga ma’lum chuqurlikka urug‘ ekish va sug‘orish quvurlarini manzilli joylashtirish texnologiyasi bir qancha sarf-xarajatlarni va qatqaloq xosil bo‘lishining oldini oladi va ekilgan urug‘ning aniq unib chiqishiga zamin yaratadi.

Pushta shakllantirgich fartugining uzunligi bщyicha o‘rtasida tuproq zichligi $\rho_1 = 0{,}333\ g/sm^3$, fartukdan keyin $\rho_2 = 0{,}383\ g/sm^3$ va oxirgi hosil bo‘lgan pushtaning zichligi 1,1-1,2 g/sm^3 ga tengligi hamda sfera shaklidagi balandligi 9-10 sm bo‘lishi, pushtaning ichidan harorat 4-5 ^{0}S ga oshganligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 dekabrdagi PQ-431- sonli “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Сенин М.Ф. Технологические и технические основы совмещения фрезерования почвы с посевом. М6 Изд-во МСХА, 1991. 40-49 с.

4. Калинин А.Б. Мировые тенденции и совреиенные технические системы для возделывания картофеля: учебное пособие / А.Б. Калинин, В.А.Ружьев, И.З. Теплинский. - СПб.: Проспект Науки, 2016. - 160 с.

5. Turdialiev V.M. Tuproqqa ishlov beradigan va sabzavot ekinlarini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiыishning ilmi-texnik yechimlari. Texn. fanl.doktori (Doktor of Science) dissertatsiya ishi, 2018 y., Toshkent. 306 b.

6. Muxamedov J., Turdaliev V., Qosimov A., Mamadaliev I. Kombinatsiyalashgan agregat ekish oldidan tuproqqa ishlov beruvchi frezali barabanining parametrlarini ilmiy asoslash // Mashinasozlikda zamonaviy materiallar, texnika va texnologiyalar: xalqaro ilmiy- texnikaviy anjuman to‘plami. – Andijon: -2015. - II-seksiya. – B. 320-323.

7. Синеоков Г.Н., Панов И.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. -М.: Машиностроение, 1977. -53,125, 259, 296-299 с.

8. Бердимуратов П.Т. Разработка и обоснование параметров формовщика гребней для хлопковой сеялки. Диссер. на соиск. учен. степ. доктора философии (Phd) по техн. наук. Ташкент. 2019. 43-47 с.

9 Ахметов А.А. Тенденция совершенствования конструкции хлопководческих предпосевных почвообрабатывающих машин-орудий / Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-Press nashrioti. 2017 г., 174-179 с.

10. Рудаков Г.М. Технологические основы механизации сева хлопчатника. Издательсва Фан УзССР. 1974. 226-231 с.

11. Попов Г.Ф. Обоснование диаметра фрезбарабана, формы рабочих органов и скоростных режимов работы фрезы ФПН-2,8 и ФПН-4,2. Материалы НТС ВИСХОМ. Вып.2. М., ОНТИ ВИСХОМ, 1963, с. 125.

12. Абdualiev N.H. G‘o‘za qatorlari orasida pol hosil qiladigan qurilma zichlagichining parametrlarini asoslash: Diss. t.f. (PhD). – Namangan, 2021. – 58-60 б.

13. Рудаков Г.М. Перспективные технологические процессы механизации возделывания хлопчатника. – Ташкент, 1984. – 14-251 с.

14. Агрофизика: учеб. пособие / Е. В. Шеин [и др.]; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2014. – 40-47 с. ISBN 978-5-9984-0462-7.

15. Xoliqulov J. O‘. Bog‘ qator oralarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichi va zichlagichining paramttrlarini asoslash. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun Dissertatsiya. O’zbekiton, Gulbahor, 2025 y. 151 b.

Shaymardanov B., Ro‘ziyev D., Berdimuratov P., Sharipov Z., Shaymardanov X. Tuproqqa frezali ishlov berib bir yo‘la urug‘ni aniq va donalab ekish jarayoni nazariy tadqiqi. *Maqolada tuproqqa ekish oldi frezali ishlov berish orqali pushta shakllantirib, bir yo‘la chigit ekish va sug‘orish quvurlarini manzilli joylashtirish kombinatsiyalashgan mashinasining nazariy asoslari berilgan.*

Шаймарданов Б., Рузиев Д., Бердимуратов П., Шарипов З., Шаймарданов Х. Теоретическое исследование процесса посева семян после фрезерной обработки. почвы. *В статье приведены теоретические основы комбинированной машины, которая при предпосевной фрезерной обработке почвы формирует гряды, одновременно высевает семена хлопчатника точным и дозированным способом и укладывает трубки капельного орошения.*

Shaymardanov B., Ro‘ziev D., Berdimuratov P., Sharipov Z., Shaymardanov Kh. Theoretical study of the seed sowing process after milling the soil. *The article presents the theoretical basis for a combined machine that forms ridges during pre-sowing milling of the soil, simultaneously sows cotton seeds in a precise and metered manner, and lays drip irrigation tubes*

UO‘T 631.331.99

PIYOZ URUG‘LARINI EKADIGAN SEYALKA PUSHTAOLGICHI TEKISLAGICHLARINING HARAKAT YO‘NALISHIGA NISBATAN O‘RNATILISH BURCHAGINI TADQIQ ETISH

Xamidov N.M.[1] t.f.f.d., Eshdavlatov A.E.[2] t.f.f.d., dots., Xabibullayev B.M.[1], Orazaliev M.R.[1]

[1] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.
[2] Qarshi davlat texnika universiteti.

O‘zbekiston sharoitida sabzavot ekinlarining mayda urug‘larini ekadigan maxsus seyalka bo‘lmaganligi sababli bu ish bizning tuproq-iqlim sharoitimizga moslashmagan xorijiy seyalkalar hamda har xil yasama moslamalar bilan amalga oshirilmoqda. Ammo bu seyalkalar va moslamalar agregatning daladan bir o‘tishida pushtalarni shakllantirib, mayda urug‘larni ularning tepasiga qatorlab ekib keta olmaydi. Bundan tashqari ekishga tayyorlangan dalalarda pushta olish va ekish tadbirlari alohida-alohida agregatlar bilan bajarib kelinmoqda. Bu esa ekish muddatining cho‘zilishi, urug‘lik, mehnat, yonilg‘i-moylash materiallari sarfining ortishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida ekishga tayyorlangan dalalarda agregatning bir o‘tishida pushtalarni shakllantirib, ularning tepasiga sabzavot ekinlari urug‘larini qatorlab ekadigan seyalka konstruksiyasi ishlab chiqilgan [1].

Ushbu maqolada seyalka pushtaolgichlariga o‘rnatiladigan tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tekislagichlarning asosiy vazifasi pushtaolgichlar tomonidan shakllantirilgan pushtalar tepasini tekislash orqali talab darajasidagi balandlik va kenglikka ega bo‘lgan pushtalarni hosil qilish hamda urug‘larni bu yerga bir tekis ekilishini ta’minlashdan iborat.

Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etishda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida pushtaning geometrik o‘lchamlari (pushta balandligi, tepasining kengligi) va pushtaolgichning tortishga qarshiligi qabul qilindi. Tajribalarda tekislagichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 5° interval bilan 25° dan 40° gacha o‘zgartirildi. Bunda tekislagichlarning har birini qamrash kengligi 250 mm, pushtaolgichga o‘rnatilish balandligi 120 mm, pushtaolgichlar orasidagi ko‘ndalang masofa 700 mm, ular orasidagi bo‘ylama masofa 200 mm etib qabul qilindi hamda tekislagichlarning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 0° va agregatning harakat tezligi 5,2 va 7,6 km/h etib tanlandi.


Tajribalarda tekislagichlar bilan jihozlangan pushtaolgich tomonidan shakllantirilgan

pushtaning geometrik o‘lchamlari O’z DSt 3412:2019 [2], uning tortishga qarshiligi esa O’z DSt 3193:2017 [3] me’yoriy hujjatlarda keltirilgan usullar bo‘yicha aniqlandi.

Tajribalarda olingan natijalar quyidagi jadval hamda 1-3-rasmlarda keltirilgan.

Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini pushtaolgichning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati							
		Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °							
		25		30		35		40	
1	Harakat tezligi, km/h	5,2	7,6	5,2	7,6	5,2	7,6	5,2	7,6
2	Pushta o‘lchamlari:								
	- balandligi, mm	130	115	115	105	105	95	100	90
	- tepasining kengligi, mm	210	270	265	305	305	325	315	340
3	Tortishga qarshilik kuchi, N	566	602	515	554	517	557	621	662



1 – 5,2 km/h;

$h_p = 0{,}05\gamma^2 - 4{,}95\gamma + 207{,}75$;


$R^2 = 0{,}9966$.

2 – 7,6 km/h;

$h_p = 0{,}1\gamma^2 - 8{,}5\gamma + 280$;

$R^2 = 1$.

1-rasm. Pushtaolgichlar tomonidan shakllantirgan pushta balandligining tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari



1 – 5,2 km/h;

$b_2 = -0{,}3\gamma^2 + 25{,}9\gamma - 240{,}5$;


$R^2 = 0{,}9991$.

2 – 7,6 km/h;

$y = -0{,}2\gamma^2 + 17{,}6\gamma - 44{,}5$;

$R^2 = 0{,}9982$.

2-rasm. Pushtaolgichlar tomonidan shakllantirgan pushta tepasining kengligini tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari



1 – 5,2 km/h; 2 – 7,6 km/h;

$R = 1{,}53\gamma^2 - 95{,}79\gamma + 2043{,}1$; $R = 1{,}55\gamma^2 - 97{,}41\gamma + 2035$;

$R^2 = 0{,}983$. $R^2 = 0{,}984$.

3-rasm. Pushtaolgichning tortishga qarshiligini tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

Ulardan ko‘rinib turibdiki, agregatning har ikkala harakat tezlik-larida tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini 25° dan 30° gacha oshishi bilan pushta balandligini mos ravishda 130 mm dan 115 mm gacha va 115 mm dan 105 mm gacha kamayishi, pushta tepasining kengligini mos ravishda 210 mm dan 265 mm gacha va 270 mm dan 305 mm gacha ortishi, 30° dan 40° gacha oshishi bilan esa pushta balandligini mos ravishda 115 mm dan 100 mm gacha va 105 mm dan 90 mm gacha kamayishi, pushta tepasining kengligini mos ravishda 265 mm dan 315 mm gacha va 305 mm dan 340 mm gacha oshishi kuzatilgan. Ya’ni, tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini 25° dan 40° gacha oshishi pushta balandligining kamayishi hamda pushta tepasi kengligining oshishiga olib kelgan. Buni o‘rganilayotgan burchakning ortishi tuproq bo‘laklarining tekislagichlar tomonidan harakat yo‘nalishi bo‘yicha surilishi va ularni pushtalar egatlariga ko‘p to‘kilishga olib kelishi bilan izohlash mumkin.

Agregatning harakat tezligi 5,2 km/h dan 7,6 km/h gacha ortganda pushta balandligi 10 mm dan 15 mm gacha kamaygan, pushta tepasining kengligi 20 mm dan 60 mm gacha kengaygan. Buni agregat harakat tezligi ortishi bilan pushtaolgich barcha elementlarining tuproq bo‘laklariga beriladigan zarba kuchini kattalashishi va ularni uzoq masofaga uloqtirilishi bilan izohlash mumkin.

Agregatning 5,2 va 7,6 km/h harakat tezliklarida tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 25° dan 40° gacha o‘zgarishi bilan pushtaolgichning tortishga qarshiligi mos ravishda avvaliga 566 N dan 517 N gacha va 602 N dan 557 N gacha kamaygan, keyinchalik 517 N dan 621 N gacha va 557 N dan 662 N gacha ortgan. Buning asosiy sababi shundaki, tekislagichlar harakat yo‘nalishiga nisbatan 30-35° oralig‘ida o‘rnatilganda tuproqning ularning oldida uyulishi va ishchi sirtlariga yopishib qolishi minimal darajada bo‘ladi [4, 5, 6.].

Xulosa

Kam energiya sarflagan holda sabzavot ekinlarining mayda urug‘lari ekiladigan pushtalarni talab darajasida shakllantirish uchun tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 30-35° oralig‘ida tanlanishi va rostlanishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. To‘xtaqo‘ziyev A., Ibragimov A.A., Xamidov N.M. Bir yo‘la pushta olib mayda urug‘li sabzavot ekinlari urug‘larini ekadigan seyalka pushtaolgichi tekislagichining parametrlarini nazariy asoslash // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining axborotnomasi. – Nukus, 2021. – №2. – B.18-23.

2. O’z DSt 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproqqa yuza ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari” – Toshkent, 2019. – 52 b.

3. O’z DSt 3193:2017 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli” – Toshkent, 2017. – 14 b.

4. Сергиенко В.А. Технологические основы механизации обработки почвы в междурядьях хлопчатника. –Ташкент: Фан, 1978. – 112 с.

5. Ibragimov A.A. G‘o‘za qator oralariga ishlov berish va donni qatorlab ekish uchun kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Tex. fan. dok. (DSc) dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 196 b.

6. Утемуратова Д.Т. Обоснование параметров плоскорежущей лапы-бритвы хлопкового культиватора (на примере Республики Каракалпакстан): Автореф. дисс.… канд.техн.наук. – Янгиюль, 1994. – 16 с.

Xamidov N.M, Eshdavlatov A.E., Xabibullayev B.M., Orazaliev M.R. Sabzavot seyalkasi pushtaolgichi tekislagichlarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini tadqiq etish. *Maqolada bir yo‘la pushta shakllantirib, sabzavot ekinlarining mayda urug‘larini qatorlab ekadigan seyalka pushtaolgichi tekislagichlarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining ularning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.*

Хамидов Н.М., Эшдавлатов А.Э., Хабибуллаев Б.М., Оразалиев М.Р Исследование угла установки выравнивателей гребнеделателя относительно направления движения овощной сеялки. *В данной статье приведены результаты экспериментальных исследований по изучению влияния угла установки относительно направления движения выравнивателей гребнеделателя сеялки для сева мелкосеменных овощных культур с одновременной нарезкой поливных борозд на показатели его работы.*

Khamidov N.M., Eshdavlatov A.E., Xabibullayev B.M., Orazaliev M.R. Influence of the installation angle of the levelers of the comber relative to the direction of movement on the performance of the vegetable seeder. *This article presents the results of experimental studies on the influence of the angle of installation relative to the direction of movement of the levelers of the comber of the seeder for sowing small-seeded vegetable crops with simultaneous cutting of irrigation furrows on the indicators of its work.*

UO‘T 631.363

TUPROQNI FREZALAB, PUSHTALAR SHAKLLANTIRADIGAN VA TOMCHILATIB SUG‘ORISH QUVURLARINI YOTQIZIB URUG‘ EKADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN AGREGAT

Berdimuratov P.T.[1], Saidqulova Yu.A.[1]

[1] Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Qishloq xo‘jaligida energiya-resurs tejamkor texnologiyalar va texnikalardan foydalanishning asosiy usullaridan biri kombinatsiyalashgan agregatlardan foydalanishdir O‘zbekiston sharoitida an’anaviy texnologiyalar bo‘yicha begona o‘tlarni va tuproq qatqaloqlarini yo‘qotish maqsadida ikki marta tirmalash va molalash tadbirlari bajariladi. Bu esa agregatning tuproqni zichlashiga, bir necha qishloq xo‘jalik texnikalari va chopiq traktorlarini ishlatilishiga olib keladi.

Keyingi yillarda ilg‘or tajribalarga asoslangan pushtaga ekish amaliyoti keng tarqalmoqda. Tajribalarda aniqlanishicha, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga o‘simlik yoniga joylashtirish va sug‘orishni amalga oshirish qator oralariga an’anaviy usullarda ishlov berish imkonini beradi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi - ekish oldidan tuproqqa faol ishlov berib, pushta hosil qilish, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga ekiladigan urug‘


yoniga joylashtirish va birato‘la urug‘ni ekish uchun kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasini yaratishdan iborat.

Muammoning hozirgi holati. Hozirgi paytda kirib kelayotgan va qo‘llanilayotgan innovatsion ekish oldi tuproqqa ishlov berish texnologiyalari yerni kuzda ag‘darib va ag‘darmasdan ishlov berilganda ham qo‘llanish imkonini beradi. Jumladan, tuproqqa pushtali ishlov berish (ridge tillage) texnologiyasida tuproqqa ekishgacha ishlov berilmaydi. Tuproq qatlamining 1/3 qismiga o‘q panjali yoki jo‘yaklarni tozalovchi ishchi qurollar bilan ishlov berilib, pushtalar shakllantiriladi va ekish amalga oshiriladi. Ekish balandligi 10-15 sm li pushtalar ustida amalga oshiriladi. Begona o‘tlarga qarshi kurashda gerbitsidlar qo‘llanib, kultivatsiya bilan birgalikda amalga oshiriladi. Tasmali ishlov berish (strip tillage) texnologiyasida pushtali ishlov berish singari tuproq yuzasining 30 % iga frezalar bilan, diskli ishchi organlar bilan yoki passiv yumshatkichlar bilan ishlov beriladi. Tartib bo‘yicha odatda bu jarayon bilan birga ekish amalga oshiriladi. Begona o‘tlarga qarshi kurashda gerbitsidlar qo‘llanib, kultivatsiya bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Hal etiladigan vazifalar - ekish oldidan bajariladigan tirmalash va mola bosish jarayonlari o‘rniga tuproqqa faol ishlov berib, tuproqni talab darajasida yumshatish va begona o‘tlarni yo‘qotish; pushta shakllantirish va uni zichlash bilan bir vaqtda tomchilatib sug‘orish quvurini ma’lum chuqurlikda ko‘mib joylashtirish; urug‘ ekish; kultivatsiyalar sonini keskin qisqartirish yoki butunlay o‘tkazmaslik; pushta ichida tomir tizimini manzilli va tekis namlantirish va o‘g‘itlash.

Bajarilgan tadqiqotlar natijalari. O‘zbekiston tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib, tuproqqa asosiy ishlov berishning an’anaviy va innovatsion texnologiyalari qo‘llanilganda ham ekish oldi ishlov berish va ekish imkonini beradigan kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasi yaratildi (1-rasm).

Mashina ikki qismdan iborat: 1) tuproqqa freza bilan ishlov berib, pushta shakllantirish va tomchilatib sug‘orish quvurini pushta ustiga ekiladigan urug‘ qatori yoniga bo‘ylama joylashtirish qismi; 2) ekish qismi. Texnik ekinlarni keng qatorlar oralig‘ida ekish (60 va 90 sm) da turli xil ekkichlar - qatorlab va aniq ekish mashinalari ishlatiladi. Taklif etilayotgan kombinatsiyalash agregatda turli xil ekkichdan foydalanish maqsadida pushta tayyorlash va ekish qismlari alohida joylashgan. Turli sinfdagi chopiq traktorlariga agregatlanishi bo‘yicha mashina ikki xil holatda



1-freza ramasi; 2 - tomchilatib sug‘orish quvuri o‘ram g‘altagi; 3 -freza uzatma reduktori vali; 4- pichoqli barabanli freza; 5- pichoqli baraban kronshteyni; 6- pushta shakllantirgich g‘ilofi; 7 - pushta zichlagich g‘altagi kronshteyni; 8- pushta zichlagich g‘altagi; 9-zichlash g‘altagini rostlash talrepi; 10-ekkich (seyalka) uchun osma moslama; 11 - ekkich osma moslamasi gidrotsilindri; 12- ekkich (seyalka).

1-rasm. Tuproqni frezalab, pushtalar shakllantiradigan va tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib urug‘ ekadigan kombinatsiyalashgan agregat

ishlatilishi mumkin: 1) faqat birinchi qismi bilan ekish oldidan pushta tayyorlash va tomchilatib sug‘orish quvurini joylashtirish; 2) pushta tayyorlash, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga joylashtirish va birato‘la urug‘ ekish. Ikkala holat ham bahorgi ekish va hosil yig‘ib olingandan keyingi qayta ekish jarayonlarini amalga oshiradi.

Mashina old qismi traktorga uch nuqtada osiladi, frezaning reduktori traktorning quvvat olish valiga ulanadi. Ekkich mashina old qismining osish moslamasi 10 (rasm 1) orqali uch nuqtadan ulanadi, osma ulagichda ekkichni gorizontga nisbatan rostlanish moslamasi 9 ga ega.


Traktorga agregatlangan mashina quyidagicha ishlaydi: traktor ishga tushganida avval freza 1 ishga tushiriladi, mashina tushirilib tuproqqa ishlov berish va ekish boshlanadi. Freza 1 (rasm 1) tuproqqa faol ishlov beradi, unga o‘rnatilgan g‘ilof 6 yordamida pushta shakllantiriladi. Tomchilatib sug‘orish quvuri o‘ram g‘altagi 2 dan maxsus moslama orqali (rasmda ko‘rsatilmagan) quvur pushta ustiga ma’lum 2-3 sm chuqurlikka ko‘miladi va usti yopiladi. Shakllangan pushta kronshteynga o‘rnatilgan pushta zichlagich g‘altagi 7 bilan zichlanadi. Undan keyin harakatlanayotgan ekkich 12 g‘ildiraklari pushta tubiga tayanib, sudraladi, u bilan harakat ravonligi ta’minlanadi. Urug‘ ekishda qatorlab yoki aniq ekish mashinalari ishlatilishi mumkin.

Frezaning aylanma harakati chiziq tezligi yo‘nalishi agregat harakati bo‘yicha yo‘nalganligi sababli uning sudralib tortilishiga qarshiligi kamayadi. Shu sababli frezaga ta’sir qiluvchi kuchlar tahlili mashinani sudrashga qarshiligini aniqlashga yordam beradi. O‘rnatiladigan ekkichlarning sudrashga qarshiligi ularning rusumi tavsifidan qabul qilinadi.

Freza ishchi organlariga ta’sir qiluvchi kuchlar tahlili. Freza pichoqlari agregat harakatiga perpendikulyar joylashgan bo‘ylama o‘qqa ega, shuning uchun ularga ta’sir qiluvchi elementar kuchlarni bitta umumiy teng ta’sir qiluvchi kuch R_{xz} ga keltirish mumkin. Bu kuch agregat harakatiga perpendikulyar bo‘lgan bo‘ylama o‘qqa vertikal tekislikka nisbatan ma’lum burchak ψ ostida joylashtirilgan (rasm 2 *a*).

ψ burchak va R_{xz} kuch qiymatlari freza barabanining aylanish burchagi $\varphi=\omega t$ ga bog‘liq holda o‘zgaradi (rasm 2 b). Pichoqnining tuproqqa kirishi boshlanishidan tuproq qirindisi qirqib olinishi sodir bo‘lishi oqibatida R_{xz} kuch qiymati oshadi, keyin pichoqning baraban o‘qi vertikal tekisligidan o‘tishi bilan pastdan yuqoriga harakatlanishida qarshilik botiq egri chiziq bo‘yicha kamayadi. R_{xz} kuchining oshishi mos ravishda baraban aylanish burchagining $15...25^0$ qiymatlari oralig‘ida bo‘ladi. Shu burchaklar orasida barabanning majburiy aylanishlari oqibatida kuch R_{xz} ning ta’siri natijasida frezani sudrashga qarshiligi kamayadi. Barabanning aylanishlar soni 160 ayl/min bo‘lganida sudrashga qarshilik oshadi.

R_{xz} kuchini uni tashkil etuvchilari R_x va R_z ga ajratish mumkin. Gorizontal tashkil etuvchi $R_x=R_{xz}cos\psi$ agregat yo‘nalishi bo‘yicha yo‘naladi va mashinani sudrashga qarshiligini kamaytiradi, bu mashinaning 0,9-1,2 sinfdagi traktorlar bilan ishlash imkonini beradi.



2-rasm. Frezaning ta’sir qiluvchi kuchlar va quvvat tavsifi

a - pichoqqa ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi; *b* - R_{xz} kuchi va ψ burchagining pichoq aylanishi burchagiga bog‘liq holda o‘zgarish grafigi.

Vertikal tashkil etuvchi $R_z=R_x tg\psi$ ning vertikal yo‘nalishida mashina ishchi organlarining tuproqqa chuqurlashishiga qarshilik qiladi, pastga yo‘nalishida esa chuqurlashishga yordam beradi. Olingan barcha qiymatlar natijasida burchakning o‘zgarishi +12 dan -15^0 gacha ekanligi aniqlandi. R_z kuchi yuqoriga yo‘nalishida ijobiy, pastga yo‘nalganida salbiy qiymatlarga ega.

Rotatsion pichoqlarning qarshilik qiymatlarini quyidagi soddalashtirilgan formuladan aniqlash mumkin:

$$R_x=k_k\delta b, \qquad (1)$$

bunda k_k – qirqib olishga solishtirma qarshilik koeffitsienti, N/m^2; δ - qirindi qalinligi, *m*; b - qirindi eni, *m*.

Qirqib olishning solishtirma qarshiligi tuproqning mexanik tarkibi (o‘simlik qoldiqlari ham hisobga olinadi) va uning holatiga, qirindilar o‘lchamlariga (pichoqqa uzatilayotgan qatlam)ga va qirqish tezligiga ya’ni baraban aylanishlar soniga bog‘liq. Olingan ma’lumotlardan kichik qatlam uzatilishida solishtirma qarshilik katta, qalin qatlam uzatilishida esa solishtirma qarshilik kamayishiga olib keladi. Bu holatda yupqa qatlamga nisbatan qalin qatlamning uzatilishi tuproqning kam uvalanishiga sabab bo‘ladi.

*F*reza ishiga talab qilinadigan quvvat taxminan quyidagicha aniqlanadi:

$$N = N_m + N_k + N_{up}, \quad (2)$$

bunda N_m – mashinaning dala bo‘ylab harakatlanishi quvvati, *kVt;* N_k – tuproqni qirib olish uchun quvvat (tuproq deformatsiyasi), *kVt;* N_{up} – qirindilarni irg‘itish uchun quvvat, *kVt.*

Birinchi tashkil etuvchi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_m \approx 10^{-2} fG\upsilon, \quad (3)$$

bunda G – mashina massasi, *kg*; υ – mashina harakat tezligi, *m/s*; f – dumalanish koeffitsienti, f = 0,15...0,2.

Ikkinchi tashkil etuvchi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$N_k = 10^{-4} k_k \delta\, bazn/6, \quad (4)$$

bunda a – tuproqqa ishlov berish chuqurligi, 7-12 *cm*; z –pichoqlarning umumiy soni; n – freza barabani aylanishlar soni, *160-200 min*$^{-1}$.

Uchinchi tashkil etuvchi quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ir} = 510^{-4} k_0 G_T u_b, \quad (5)$$

bunda G_T - bir sekundda irg‘itilayotgan tuproq massasi, *kg;* k_0 – ishchi organning shakliga bog‘liq holda tuproq irg‘itilishi koeffitsienti; u_b – barabanning aylanma tezligi, *m/s*.

Freza bilan tuproqqa ishlov berish uchun quvvat sarfi quvvatning solishtirma eltuvchanligi, ya’ni ish hajmi birligi uchun quvvat sarfi bo‘yicha baholanadi (masalan, dm^3).


Yuqoridagi kuchlar tahlilidan ko‘rinadiki, pichoqqa tuproq qatlami uzatilishining kamayishi va ilgargilanma harakat tezligining oshishi bilan solishtirma ish keskin oshadi, shu sababli freza tezligi nisbatan uncha katta emas - 1,1...1,4 m/s (4...5 km/h). Bunday ish tartibida irg‘itilayotgan tuproq hajmidan kerakli sathdagi pushta balandligi shakllantiriladi. Bundan shakllangan pushtani zichlashga qarshilik kamayadi.

Pushta shakllantirgichga ta’sir qiluvchi qarshilik kuchlar tahlili. Pushta shakllantirgichga ta’sir qiluvchi qarshilik kuchlari irg‘itilgan tuproqni qabul qilish fartugi, ikkita yon ag‘dargichlar va yuqori to‘g‘ri qismlari qarshiliklari yig‘indisiga teng:


$$P_x = R_{1x} + 2R_{3x} + R_{px} + R_{nx} + R_{2x}, \quad (6)$$

bunda R_{1x} – fartukda irg‘itilayotgan tuproqqa qarshilikning gorizontal tashkil qiluvchisi; R_{3x} –tuproqning yon ag‘dargichlarga qarshiligi gorizontal tashkil etuvchisi; R_{px} – tuproqning ag‘dargichlar old qirralariga qarshilik kuchlari gorziontal tashkil etuvchilari; R_{nx} – shakllantirgich ag‘dargichlarining past qirralariga qarshilik kuchi gorizontal tashkil etuvchisi; R_{2x}– tuproqning shakllantigich yuqori tom qismiga qarshili kuchi gorizontal tashkil etuvchisi.

Ushbu qarshilik kuchlari qiymatlari analitik usulda va dala sharoitida dinamometrik tenzometrlash tajribalari natijalari asosida aniqlanadi [8].



3-rasm. Pushta shakllantirgichga bo‘ylama-vertikal tekislikda ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi



4-rasm. pushta shakllantirgichga gorizontal tekislikda ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi

Taklif etilayotgan tomchilatib sug‘orish quvuri [7] elastik plastikatdan tayyorlangan, suv chiqarish teshiklari quvur bo‘ylama o‘qi bo‘yicha ma’lum mosafada joylashgan. Suv chiqarish teshiklari dumaloq teshiklar bo‘lib, teshik diametri *d* ning quvur diametri *D* ga nisbati quyidagicha: *d/D* = 1/(30…40), quvur devoridagi teshiklar orasidagi masofa *L* = 80…400 mm ga teng.

Xulosa

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashina erta bahorda tirmalash va molalash operatsiyalari o‘rniga pushta shakllantirib, urug‘ ekish va tomchilatib sug‘orish usulida chigit suvi va o‘g‘itlash imkonini beradi. Traktorga agregatlangan mashinadan ikki usulda foydalaniladi: pushta shakllantirish va pushta ustiga tomchilatish quvurini joylashtirish; birato‘la urug‘ ekish. Agregat bir necha opreatsiyalarni bir o‘tishda bajrishi energiya va resurs tejash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. «Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелие: Теория и методика исследований» под общей редакцией доктора сельскохозяйственных наук, профессора Хафиза Муминджанова. Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций. Анкара, 2015.

2. Асаналиев А. и др. Почво- и водосберегающие технологии в Центральной Азии / А. Асаналиев, Т. Сыдыкбаев, А. Гареева - Б.: 2018. 204 с. ISBN 978-9967-11-645-0

3. «Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелие в Центральной Азии: современное состояние, программы государственной и институциональной поддержки, а также стратегия для его внедрения» Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций, 2012.

4. Нурбеков А., Кассам А., Сыдык Д., Зиядуллаев З., Джумшудов И., Хафиз Муминджанов, Дэвид Фейндель, Йозеф Турок. «Практика Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелия в Азербайджане, Казахстане и Узбекистане» Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций. Анкара, 2016.

5. Ревякин Е.Л., Табашников А.Т., Самойленко Е.М., Драгайцев В.И. «Ресурсосберегающие технологии: состояние, перспективы, эффективность»: науч. изд. М.: ФГБНУ «Росинформагротех», 2011.

6. Пылыпив А. М., Нестерова В.А., «Необходимость применения ресурсосберегающих технологий в растениеводстве». Интернет-журнал «Мир науки», Выпуск №1, январь – март, 2015. 6. Отчет ОФ ЦОКИ по проведённым мероприятиям за период май-ноябрь 2017 года в рамках проекта ФАО/ГЭФ «Устойчивое управление горными лесными и земельными ресурсами в условиях изменения климата».

7. Б.П.Шаймарданов, Х.Б.Шаймарданов, Р.Д.Матчанов. Поливной шланг для капельного орошения и способ его укладки. Патент UZ IAP 06314. 14.10.2020. (21). № IAP 2017 0013 № (22). 12.01. Ташкент. 2017.

8. F Mamatov, B Mirzaev, P Berdimuratov, B Shaimardanov. M Aytmuratov, D Jumamuratov Traction resistances of the cotton seeder moulder. GIS 2021 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012052 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/868/1/012052.

Berdimuratov P.T., Saidqulova Yu.A. Tuproqni frezalab, pushtalar shakllantiradigan va tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib urug‘ ekadigan kombinatsiyalashgan agregat. *Maqolada ekish oldidan tuproqni tasmali frezalash, pushtalar shakllantirish va tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib birato‘la urug‘ ekish imkoniga ega kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasi va ishlash jarayonlari bo‘yicha izlanishlar natijalari keltirilgan.Taklif etilayotgan mashinada texnik ekinlar urug‘larini ekishdan oldin tuproqqa frezali ishlov berish, pushtalar shakllantirish, tomchilatib sug‘orish quvurini pushta ustiga bo‘ylamasiga joylashtirish va birato‘la urug‘ ekish bir vaqtda bajariladi.*

Бердимуратов П.Т., Саидкулова Ю.А. Комбинированный агрегата для предпосевного полосового фрезерования почвы, формирование гребней укладки шлангов капельного орошения и сева семян. *В статье приводятся результаты исследований по разработке конструкции и процесс работы комбинированного агрегата для предпосевного полосового фрезерования почвы, формирования гребней, укладки шлангов капельного орошения Предлагаемая конструкция машины одновременно выполняет операции предпосевной фрезерной обработки почвы с формированием гребней, укладки шлангов новой конструкции для капельного орошения, уплотнения гребней и посев семян с помощью различной конструкции сеялок.*

Berdimuratov P.T., Saidkulova Yu.A. Combined unit for pre-sowing strip tillage, formation of ridges for laying drip irrigation hoses and sowing seeds. *The article presents the results of research on the design and operation of a combined unit for pre-sowing strip tillage, ridge formation, laying drip irrigation hoses. The proposed machine design simultaneously performs pre-sowing soil milling with ridge formation, laying newly designed hoses for drip irrigation, ridge compaction, and seed sowing using various seed drill designs.*

UO‘T 631.33.02.5

QISHLOQ XO‘JALIGI EKIN URUG‘LARI VA KO‘CHATLARINI EKISH QURILMA ZICHLAGICH (PRIKATKA)LARINING TAHLILI

Kalmuratova Z.M.[1] tayanch doktorant

[1] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligida ekinlarning barqaror unib chiqishi hamda yuqori darajadagi hosildorlikka erishish, asosan, urug‘ va ko‘chatlarni ekishning to‘g‘ri agrotexnik usullariga bog‘liq. Ayniqsa, zichlagich (prikatka) qurilmalarining ahamiyati bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu moslamalar urug‘ yoki ko‘chatning tuproq bilan zich kontaktini ta’minlab, namlikning saqlanishiga, tuproqdagi havo bo‘shliqlarining kamayishiga va teng unish uchun optimal sharoit vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Urug‘ sepilganidan so‘ng uni tuproqqa bosib chiqish (ya’ni zichlash) quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Urug‘ bilan tuproq orasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi;

Tuproqdagi namlikning bug‘lanib ketishini sekinlashtiradi;

Ildizlar uchun havo bo‘shliqlari kamayib, sog‘lom mikroiqlim hosil qiladi;

Shamol va quyosh ta’sirida tuproqning haddan tashqari tez qurib qolishining oldini oladi.

Ko‘chat ekish jarayonida esa prikatka yordamida ildiz atrofidagi tuproq zichlanadi, bu esa ko‘chatning o‘sishiga qulay, barqaror muhitni shakllantiradi. [1]

Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari bugungi kunda eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va insoniyat hayotida bevosita ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biri hisoblanadi. Bu esa dunyo

miqyosida ortib borayotgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur yo‘nalish nafaqat mexanizatsiyalashtirilgan texnik qurilmalarni, balki zamonaviy agrokimyoviy vositalar va o‘simliklarni kasalliklar, begona o‘tlar hamda hasharotlardan himoya qiluvchi ilg‘or texnologiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, urug‘lik mahsulotlarining sifati va hosildorligini oshirishga qaratilgan biotexnologik yechimlar ham qishloq xo‘jaligi innovatsiyalarining ajralmas qismini tashkil etadi.

Yurtimizda ham ushbu sohani modernizatsiya qilish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va topshiriqlari misol bo‘la oladi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlariga 2025-yilda zamonaviy paxta terish mashinalari, lazerli yer tekislagichlar hamda ko‘p funksiyali, aniq donalab chigit ekish seyalkalarini xarid qilish rejasini shakllantirish topshirilgan. [2]

Hozirgi zamon qishloq xo‘jaligi amaliyotida turli konstruksiyadagi zichlagich qurilmalari keng qo‘llanilmoqda. Ular orasida quyidagi asosiy turlari mavjud:

Silliq barabanli zichlagichlar – tuzilishi jihatidan eng oddiy va ko‘p tarqalgan variant bo‘lib, silliq metall yoki yog‘ochdan tayyorlangan baraban og‘irligi orqali tuproqni siqadi.

Halqali (zveno) zichlagichlar – tishli yoki halqali shakldagi baraban yordamida tuproqni qisman zichlab, qisman esa g‘ovaklik holatini saqlab qoladi. Ular, asosan, o‘rta va yengil strukturalarga ega tuproqlarda ishlatiladi.

Rifli (profil) zichlagichlar – yuzasi maxsus riflarga ega bo‘lib, zichlash jarayonida namlikni ushlab turishga xizmat qiluvchi rifchalar hosil qiladi.

Vibratsion zichlagichlar – ilg‘or texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yuqori zichlash darajasi va bir tekis bosimni ta’minlaydi. Ular ko‘proq ko‘chat ekish amaliyotida qo‘llaniladi.

Zichlagich tanlashda muhim texnik ko‘rsatkichlar:

Massa (kg): Qurilmaning tuproqni zichlash qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Massasi kattaroq zichlagichlar chuqurroq qatlamlarni siqadi, biroq harakatchanlik darajasi kamayadi.

Ish kengligi (metr): ish jarayonida zichlanadigan maydon hajmini bildiradi. Katta maydonlarda keng ish yuzasiga ega zichlagichlar yuqori unum beradi.

Zichlash bosimi (kPa): Tuproqqa ta’sir etuvchi kuch miqdori bo‘lib, urug‘ning zararlanmasligi va havoning siqilishi uchun muvozanatli bo‘lishi lozim.

Ish tezligi (km/soat): Traktor bilan birgalikda samarali ishlashi uchun muhim. Haddan ortiq tez harakat zichlash sifatini pasaytirishi mumkin.

Zamonaviy zichlagichlarning afzalliklari:

Oxirgi yillarda ishlab chiqarilayotgan zichlagichlar quyidagi ustunliklarga ega:

Energiya tejamkorlik,

Turli xil tuproq sharoitlariga moslashuvchanlik,

Qurilmalar bilan oson integratsiyalashuvi,

Texnik xizmat ko‘rsatishning soddaligi.

Masalan, “Agrotex MZ-2,7” yoki “Lemken VarioPack” kabi ilg‘or zichlagichlar bir vaqtning o‘zida siqish, tekislash va yiv hosil qilish kabi bir nechta funksiyalarni bajaradi.

Ko‘chat ekishdagi zichlashning roli:

Ko‘chatlar ekilgach, ularning ildiz atrofidagi tuproqni bir xilda siqish quyidagi afzalliklarni beradi:

Ildizni ortiqcha havodan ajratadi;

Tuproqdagi namlikni ushlab qoladi;

Ko‘chatning ildiz otishini va tez o‘sishini ta’minlaydi.

Aks holda, ildizlar havo bilan bevosita aloqada bo‘lib qurib qolish xavfi ortadi. Shu sababli, zichlash sifati tashqi tomondan sezilmasligi mumkin bo‘lsa-da, u butun vegetatsiya davriga bevosita ta’sir qiladi.

Amaliy tavsiyalar:

Yengil tuproqlarda – halqali zichlagichlardan foydalanish tavsiya etiladi.
Og‘ir tuproqlarda – silliq yoki rifli zichlagichlar samaraliroq hisoblanadi.
Urug‘ ekish chuqurligi 4–6 cm bo‘lsa, zichlash bosimi 70–100 kPa atrofida bo‘lishi lozim.
Ko‘chat ekishda zichlagichlar bilan birgalikda sug‘orish tizimlarini uyg‘unlashtirish natijadorlikni yanada oshiradi. [3]

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekinlarning sifatli unib chiqishi va ko‘chatlarning muvaffaqiyatli ildiz otishida zichlagich qurilmalarning ahamiyati kattadir. Ushbu qurilmalar yordamida urug‘ va ko‘chat atrofidagi tuproq qatlamining optimal zichligi ta’minlanadi, bu esa o‘simliklarning agrotexnik talablarga mos holda rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, energiya tejamkor, funksional jihatdan ilg‘or zichlagichlardan foydalanish dehqonchilikda unumdorlikni oshirib, barqaror hosildorlikka erishishda muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli, har bir fermer xo‘jaligi yoki agrotexnik mutaxassis ekish texnologiyasini ishlab chiqishda zichlash usulini alohida e’tiborda saqlashi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Atabayeva N., Qodirho‘jayev O. O‘simlikshunoslik, Toshkent “Yangi asr avlodi”,2021, 301 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-431-сон 12.12.2024.
3. Bo‘riev H.Ch., Do‘smurotova S.I., Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘shunosligi. Toshkent, “Mehnat”, 2023, 100 b.

Kalmuratova Z.M. Qishloq xo‘jaligi ekin urug‘lari va ko‘chatlarini ekish qurilma zichlagich (prikatka)larining tahlili. *Maqolada qishloq xo‘jaligi ekin urug‘lari va ko‘chatlarini ekishda qo‘llaniladigan zichlagich (prikatka) qurilmalarining konstruktiv tuzilishlari, ishlash prinsiplari va ularning samaradorlik darajasi tahlil qilingan.*

Калмуратова З.М. Анализ устройств-уплотнителей (прикаток) для сева семян и посадки рассад сельскохозяйственных культур*. В статье анализируются конструкции, принципы действия и эффективность различных уплотняющих устройств, используемых при севе семян и посадке рассад сельскохозяйственных культур.*

Kalmuratova Z.M. Analysis of compacting devices (rollers) for sowing seeds and planting seedlings of agricultural crops. *The article analyses the designs, operating principles and effectiveness of various compacting devices used for sowing seeds and planting seedlings of agricultural crops.*

UO‘T 634.1-13

MEVALI DARAXT KO‘CHATLARINI EKISHNI UZLUKSIZ AMALGA OSHIRADIGAN MASHINA KO‘MGICHINING HARAKATINI TADQIQ ETISH


To‘xtaqo‘ziyev A.[1] t.f.d., prof., Ergashev M.M.[1] t.f.f.d., k.i.x.,
Akbarov I.A.[1] t.f.f.d., Abdubannopov A.A.[2]

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
[2] Farg’ona davlat texnika universiteti.

Respublikamiz tabiiy iqlim sharoiti keng assortimentdagi o‘ta sifatli eksportbop bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish uchun mosligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalari kabi bog‘dorchilikni ham rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bundan tashqari O‘zbekistonda mevali bog‘lar barpo etish va ulardan yuqori hosil olishda energiya tejamkor, bir necha texnologik jarayonlarni agrotexnika talablariga mos ravishda amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqarishga e’tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasida, jumladan “Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, sanoatbop meva-sabzavot hajmini 3,4 mln.tonnaga yetkazish, qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan texnika va tirkamalar turlarini ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahalliylashtirish darajasini 50 foizga yetkazish, mashinasozlik mahsulotlari tannarxini o‘rtacha 20 foizga pasaytirish” ustuvor vazifa qilib qo‘yilgan [1]. Ushbu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish va bog‘dorchilikni qishloq xo‘jaligining serdaromad sohasiga aylantirish uchun unda bajariladigan hamma ishlarni mexanizatsiyalash talab etiladi. Bog‘dorchilikda ham har qanday ekinni parvarishlash texnologiyasidek, yerni ko‘chat ekishga tayyorlash, ko‘chat ekish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash, hosilni yig‘ishtirish va mahsulotni saralash kabi ishlar bajariladi.

Hozirgi kunlarda respublikamizda ko‘chat ekishdan oldin tuproq 30-35 cm chuqurlikda haydaladi, chizellanadi va ketma-ket molalanadi. Shu jarayonlar to‘liq bajarilgandan so‘ng belgilangan joydan ko‘chat ekiladigan chuqurlar kovlanadi. Chuqurlar maxsus KYa-100, KNYu-100, KRK – 60 qurilmalar yoki qo‘lda 60x60x60 cm o‘lchamda kovlanadi [2]. Ko‘chatlarni ko‘mish esa to‘liq qo‘l kuchi bilan bajariladi. Bu esa mehnat sarfi va boshqa sarflanadigan xarajatlarni yuqori bo‘lishiga olib keladi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda QXMITIda yangi bog‘larni barpo etishda qo‘llaniladigan hamda mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ishlab chiqildi hamda uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda.



1-rama; 2-osish qurilmasi; 3- chuqur yumshatkich-egatochgich; 4-diskli ko‘mgich; 5-konussimon g‘altakmola; 6-ko‘chat zahirasi uchun joy (bunker); 7-o‘rindiq; 8-iztortkich; 9- ekran

1-rasm. Daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashinaning kostruktiv sxemasi

Daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashina rama 1, osish qurilmasi 2, chuqur yumshatkich-egatochkich 3, ishchi sirti sferik disk ko‘rinishida bo‘lgan hamda dala yuzasiga tik o‘rnatilgan ko‘mgich 4, konussimon g‘altakmola 5, ko‘chat zahirasi uchun joy (bunker) 6, o‘rindiq 7, iztortkich 8 va ekran 9 lardan tashkil topgan (1-rasm).

Ish jarayonida daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashina ko‘chat ekiladigan chuqur egat ochadi, u yerga tushirilgan ko‘chatni tuproq bilan ko‘madi va zichlaydi.

Ushbu maqolada mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ko‘mgichining ish jarayonidagi harakatini tadqiq etishga doir o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Ko‘mgich ish jarayonida murakkab harakat qiladi: o‘z o‘qi atrofida aylanma va mashina bilan birga ilgarilanma harakatda bo‘ladi va u ishchi sirtining istalgan nuqtasining *xyz* koordinatalar sistemasidagi (2-rasm) harakati quydagicha ifodalanadi [3]

$$x = V_i t + R\sin\varphi_i \cos\alpha \cos\omega t + R(1-\cos\varphi_i)\sin\alpha; \quad (1)$$

$$y = R(1-\cos\varphi_i)\sin\alpha - R\sin\varphi_i \sin\alpha\cos\omega t; \quad (2)$$

$$z = -R\sin\varphi_i \sin\omega t, \quad (3)$$


bunda V_i – ko‘mgichning mashina bilan birgalikdagi ilgarilanma harakat tezligi, m/s;
t – vaqt, s;

R- ko‘mgich ishchi sirtining egrilik radiusi
φ_i – qaralayotgan “*i*” nuqta holatini aniqlaydigan markaziy burchakning yarmi, °;
ω – ko‘mgichning aylanma harakatdagi burchak tezligi, rad/s.

(1)-(3) tenglamalardan foydalanib, ko‘mgich ishchi sirti qaralayotgan nuqtasining absolyut tezligi va tezlanishini aniqlaymiz:

$$V_a = \sqrt{\left(\frac{dx}{dt}\right)^2 + \left(\frac{dy}{dt}\right)^2 + \left(\frac{dz}{dt}\right)^2} \tag{4}$$

va $$W_a = \sqrt{\left(\frac{d^2x}{dt^2}\right)^2 + \left(\frac{d^2y}{dt^2}\right)^2 + \left(\frac{d^2z}{dt^2}\right)^2}, \tag{5}$$



2-rasm. Ko‘mgichning ish jarayonidagi harakatini tadqiq etishga doir sxema

bunda $$\frac{dx}{dt} = V_i t - \omega R \sin\varphi_i \cos\alpha \sin\omega t; \tag{6}$$

$$\frac{dy}{dt} = \omega R \sin\varphi_i \sin\alpha \sin\omega t; \tag{7}$$

$$\frac{dz}{dt} = -\omega R \sin\varphi_i \cos\omega t; \tag{8}$$

$$\frac{d^2x}{dt^2} = -\omega^2 R \sin\varphi_i \cos\alpha \cos\omega t; \tag{9}$$

$$\frac{d^2y}{dt^2} = \omega^2 R \sin\varphi_i \sin\alpha \cos\omega t; \tag{10}$$

$$\frac{d^2z}{dt^2} = \omega^2 R \sin\varphi_i \sin\omega t. \tag{11}$$

Bularni hisobga olganda (4) va (5) ifodalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$V_a = \sqrt{V_i^2 - 2V_i \omega R \sin\varphi_i \cos\alpha \sin\omega t + \omega^2 R^2 \sin^2\varphi_i} \tag{12}$$

va

$$W_a = \omega^2 R \sin\varphi_i. \tag{13}$$

Adabiyotlardan ma’lumki [4]

$$\omega = \frac{2V_i \cos\alpha}{D}, \tag{14}$$

bunda *D* – ko‘mgichning diametri. m.
ω ning (14) ifoda bo‘yicha qiymatini (12) va (13) ifodaga qo‘yib quyidagilarga ega bo‘lamiz

$$V_a = 2V_i \sqrt{\frac{1}{4} - \frac{R}{D}\cos^2\alpha \sin\varphi_i \left(\sin\frac{2V_i \cos\alpha}{D} t + \frac{R}{D}\sin\varphi_i\right)} \tag{15}$$

va

$$W_a = \frac{4V_i^2}{D^2} R \sin\varphi_i \cos\alpha. \tag{16}$$

Bu ifodalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘mgichning tuproqqa ta’sir darajasi va demak ish ko‘rsatkichlari uning harakat tezligiga, diametriga, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish

burchagiga hamda ish sirtining egrilik radiusiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi va bular ishlab chiqilgan qurilma ko‘mgichining parametrlarini tadqiq etishda hisobga olinishi lozim.

Xulosa

Mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ko‘mgichining tuproqqa ta’sir darajasi va demak ish ko‘rsatkichlari uning harakat tezligiga, diametriga, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga hamda ish sirtining egrilik radiusiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-60-son Farmoni.

2. Ostonaqulov T.E., Narzieva S.X., B.X.G‘ulomov Mevachilik asoslari. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2010. – 298 b.

3. Канарев Ф.М. Ротационные почвообрабатывающие машины и орудия. – Москва: Машиностроение, 1983. – С. 144.

4. Ergashev M.M. Kombinatsiyalashgan borona diskli yumshatkichlarining parametrlarni asoslash. Tex. fan. (PhD) … dis. – Toshkent – 2018. – 165 b.

To‘xtaqo‘ziyev A., Ergashev M.M., Akbarov I.A., Abdubannopov A.A. Mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ko‘mgichining harakatini tadqiq etish. *Maqolada mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina harakatini tadqiq etish bщyicha o‘tkazilgan nazariy tadqiotlarning natijalari keltirilgan.*

Тухтакузиев А., Эргашев М.М., Акбаров И.А., Абдубаннопов А.А. Исследование движения закапывателя машины для беспрерывной посадки саженцев плодовых деревьев. *В статье приведены результаты теоретических исследований по изучению движения закапывателя машины для беспрерывной посадки саженцев плодовых деревьев*

Tokhtakuziyev A., Ergashev M.M., Akbarov I.A., Abdubannopov A.A. Study of the movement of the dredger of a machine for continuous planting of fruit tree seedlings. *The article presents the results of theoretical research on studying the movement of the dredger of a continuous fruit tree planting machine.*

UO‘T 631.331.52

PIYOZ URUG‘INI KO‘P QATORLAB EKADIGAN SEYALKA TAJRIBA NUSXASI SINOVLARINING NATIJALARI

Eshdavlatov A.E.[1] t.f.f.d., dots., Xamidov N.M.[2] t.f.f.d.

[1] Qarshi davlat texnika universiteti.

[2] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Jahonda energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqish yetakchi o‘rinni egallamoqda. Dunyo miqyosida bugungi kunda 60 mln. gektar maydonga turli xil sabzavot ekinlari yetishtirilib, shu jumladan 4,5 mln gektar ya’ni 7,5 % maydonda piyoz yetishtirilishini hisobga olsak [1], piyoz ekini urug‘larini tasmali ko‘p qatorlab ekish uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, piyoz urug‘lari asosan tasmali yoppa usulda ekiladi. Bunda urug‘lar qatorlarga joylashtirilmasdan, har xil kenglikdagi tasma shaklida, har bir tasma ichida yoppasiga sochib ekiladi, ya’ni urug‘lar tasmada qatorlab ekilgandagidek ma’lum tartibda emas, tartibsiz joylashadi. Shuni aytish kerakki, tasmali yoppa usulda ekilgan urug‘lar bir xil chuqurlikka ko‘milmaydi. Natijada urug‘lar har xil muddatlarda unib chiqadi. Bu esa ko‘chatlarning har xil rivojlanishiga olib kelib, hosildorlikka salbiy ta’sir etishi mumkin. Tasmali usulda ekin maydonidan unumli foydalaniladi, maydon birligiga ko‘proq ko‘chat joylashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu

imkoniyatdan to‘la foydalanish yo‘llaridan biri – tasmada urug‘larni bir necha qatorga joylashtirishdir. Bu usul tasmali ko‘p qatorlab ekish usuli, deb ataladi. Urug‘lar qatorlab ekilganda ularni bir xil chuqurlikka ko‘mish imkoniyati ta’minlanib, ko‘chatlarning yoppasiga bir vaqtda unib chiqishiga erishiladi [1].

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda, piyoz ekinlarini yetishtirishda ekishga tayyorlangan dalalarda agregatning bir o‘tishida sug‘orish egatlarini ochib, pushta hosil qiladigan va piyoz urug‘larini shu pushtaga tasma usulida bir necha qatorlab ekadigan seyalka (rasmga qarang) ishlab chiqildi [2].



Piyoz urug‘larini ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning ish jarayondagi ko‘rinishi

Seyalka osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, egatochkich, tayanch-yuritmali g‘ildirak, zanjirli uzatma, parallelogramm mexanizm, urug‘ bunkeri, urug‘ miqdorlagich, urug‘ o‘tkazgich, ekkich, konus to‘g‘inli prikatkalardan tashkil topgan.

Seyalka ramasi ikkita ko‘ndalang va ularni bir-biri bilan bog‘lovchi bo‘ylama bruslardan tashkil topgan bo‘lib, harakat yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bo‘lib joylashgan ko‘ndalang brus egatochkich,harakat yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bo‘lib joylashgan ko‘ndalang brus egatochkich, ikkinchi brus esa ekish seksiyalari bilan jihozlangan. Ekish seksiyalari brusga paralelogramm mexanizm qurilmasi orqali mahkamlangan.

Piyoz urug‘larni tasmali ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning sinovlari Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining piyoz urug‘larini ekishga tayyorlangan dalalarida o‘tkazildi. Sinovlarni o‘tkazishdan oldin tuproqning namligi va qattiqligi GOST 20915-11 ga [3] binoan aniqlandi va 0-5, 5-10, 10-15 va 15-20 sm qatlamlarda mos ravishda namligi 13,4; 15,1; 17,4 va 18,6 % , zichligi esa 1,10; 1,14; 1,22 va 1,25 g/sm^3 ni tashkil etdi.

Sinovlarda seyalka TTZ-LS I 38 rusumli mini traktoriga agregatlanib, 5 va 7,5 km/soat harakat tezliklarida ishlatildi. Bunda O’z RH 63.06: 2001 [4] bo‘yicha urug‘larning ko‘milish chuqurligi, tasmadagi qatorlar kengligi, ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasida masofa va sug‘orish egatlarining chuqurligi aniqlandi va natijalari jadvalda keltirilgan.

Ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini tasma usulda ko‘p qatorlab ekadigan seyalka sinovlarining natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati		
		Dastlabki talablar bo‘yicha	Sinov natijalari bo‘yicha	
1	Harakat tezligi, km/soat	5-8	5,2	7,6
2	Urug‘larning ko‘milish chuqurli, sm	1,5-2	1,9	1,7
3	Tasmadagi qatorlar kengligi, sm	10±1	10,2	9,6
4	Ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasida masofa, sm	70±2	69,3	70,4
5	Sug‘orish egatlarining chuqurligi, sm	10-15	10,9	13,2

Ulardan ko‘rinib turibdiki, har ikkala harakat tezligida ham piyoz urug‘larini tasma usulida ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning sifat ko‘rsatkichlari dastlabki talablarga to‘liq mos keladi va urug‘larni o‘rtacha ko‘milish chuqurligi 1,7; 1,9 sm, tasmadagi qatorlar kengligi 9,6; 10,2 sm, ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasidagi masofa 69,1; 70,4 sm, sug‘orish egatlarining chuqurligi 10,9; 13,2 sm ni tashkil etdi.

Xulosa

O‘tkazilgan sinovlarda ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini tasmali ko‘p qatorlab ekadigan seyalka belgilangan texnologik jarayonni agrotexnika talablari darajasida ishonchli bajardi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1 Ibragimov A., Abduraxmanov A., Eshdavlatov A. Piyoz urug‘larini ekadigan seyalka// AGROILM. – Toshkent, 2019. – Maxsus son – № 61. – B. 78.

2. Ibragimov A., Karakhanov A., Abdurakhmanov A., Eshdavlatov A., Uteniyazov P., Khadzhiev A. Research results for a new onion seed drill // Agricultural machinery and technologies. – Moscow, 2020. – N 4. – C.12-16.

3. ГОСТ 20915-11. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний. – М.: 2013. – 22 с.

4. O’z RH 63.06: 2001. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины посевные. Программа и методы испытаний. – Toshkent, 2001. – 47 б.

Eshdavlatov A. E., Xamidov N.M. Piyoz urug‘ini ko‘p qatorlab ekadigan seyalka tajriba nusxasi sinovlarining natijalari. *Maqolada ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning tajriba nusxasi sinovlarining natijalari keltirilgan bo‘lib, bunda urug‘larning ko‘milish chuqurligi, tasmadagi qatorlar kengligi, sug‘orish egatlarining chuqurligi aniqlangan.*

Эшдавлатов А.Э., Хамидов Н.М. Результаты испытаний пилотной сеялки для посадки семян лука в несколько рядов. *В статье представлены результаты испытаний опытного экземпляра разработанного сеялки для многорядного посева семян лука, в ходе которых была определена глубина заделки семян, ширина рядов в полосе, глубина поливных корзин.*

Eshdavlatov A. E., Khamidov N.M. Results of testing a pilot seeder for planting onion seeds in several rows. *The article presents the results of testing a prototype of the developed seed drill for multi-row sowing of onion seeds, during which the depth of seed placement, row width in the strip, and the depth of watering baskets were determined.*

O‘SIMLIKLARNI PARVARISHLASH VA O‘G‘ITLASH MASHINALARINING AGROTEXNIK VA TEXNIK-EKSPLUATATSION KO‘RSATKICHLARINI OSHIRISH

ПОВЫШЕНИЕ АГРОТЕХНИЧЕСКИХ И ТЕХНИКО-ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МАШИН ПО УХОДУ ЗА РАСТЕНИЯМИ И ВНЕСЕНИЮ УДОБРЕНИЙ

INCREASING AGRICULTURAL AND TECHNICAL AND OPERATIONAL INDICATORS OF MACHINES FOR CARE OF PLANTS AND FERTILIZER

UO’T 631.333.8

ORGANIK O‘G‘ITLARNI LOKAL SOLADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN O‘G‘ITLAGICHNING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASH

Abduraxmanov A.A.[1] t.f.n., k.i.x., Uteniyazov P.A.[1] t.f.f.d., Xadjiyev A.A.[1] t.f.f.d.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Ma’lumki, organik o‘g‘itlar, shu jumladan, hayvonlar go‘ngi tarkibida juda ko‘p turdagi ozuqa moddalari va mikroelementlar (azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, temir, kobalt va b.) mavjud bo‘lib, bunday o‘g‘itlar o‘simliklarga yumshoq ta’sir qiladi, tuproqning fizik-mexanik xossalarini va “tuproq-o‘simlik” tizimida makro va mikroelementlarning aylanishini yaxshilaydi. Ekologik nuqtai-nazardan organik o‘g‘itlar xavfsiz hisoblanadi hamda yetishtirilgan hosil tarkibida nitratlar me’yorining mo‘tadil bo‘lishini ta’minlaydi [1, 2, 3, 4].

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun organik o‘g‘itlarni tuproqqa lokal solish texnologiyasi [5] va uni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich ishlab chiqilgan [6]. Bu texnologiyaga asosan kuzda shudgorlangan va tekislangan dalalarda belgilangan chuqurlikda egatlar ochiladi va ularga lokal usulda go‘ng solinib, ustidan tuproq bilan ko‘miladi va pushtalar hosil qilinadi. Muhimi – bu jarayonlarning hammasi kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning bir o‘tishida amalga oshiriladi. Bahorda mana shu o‘g‘itlangan pushtalar ustiga poliz ekinlarining urug‘lari ekiladi. Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning asosiy qismlari bunker, kurakchali barabanlar, gumbazbuzgich-maydalagichlar, o‘g‘ityo‘naltirgichlar, egatochgichlar, tayanch-yuritma g‘ildiraklar va yuritma mexanizmidan iborat.

Kombinatsiyalashgan agregatning asosiy ishchi organlarini harakatlantirib, organik o‘g‘itni (qoramol go‘ngi misolida) me’yorlab o‘tkazib berishga talab etiladigan quvvatni aniqlash uchun laboratoriya sharoitida K-505 rusumli ko‘chma o‘lchov komplektidan foydalanildi (1-rasm). Bu o‘lchov komplekti kuchlanishi 600 *V* gacha bo‘lgan, bir tekis va notekis zo‘riqishlar yuzaga keladigan bir fazali va uch fazali uch simli yoki uch fazali to‘rt simli o‘zgaruvchan tok zanjiridagi quvvatni aniqlashga mo‘ljallangan.



1-rasm. K-505 rusumidagi o‘lchov komplekti

Eksperimentlarni o‘tkazish uchun kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich 1 laboratoriya sharoitida tayanchlarga ko‘tarib qo‘yilib (2-rasm), ishchi organlarini harakatlantirish uchun variator 2 orqali elektrodvigatel 3 ga, u esa o‘z navbatida K-505 o‘lchov komplekti 4 orqali elektr tarmog‘iga ulandi.

Tajribalarda variatorning o‘zini, o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va

gumbazbuzgich-maydalagichlarini salt holatda (go‘ng solinmasdan, bo‘sh) hamda o‘g‘itni me’yorlab o‘tkazish jarayonida (yuklama bilan) aylantirishga talab qilinadigan quvvatlar aniqlandi. Tajribalar uch karra takrorlikda o‘tkazildi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tarmoqdan oladigan umumiy quvvati quyidagi ifoda bo‘yicha hisoblandi:

$$P = P_a + P_в + P_c\,, \tag{1}$$

bunda P – umumiy quvvat, *W*;

P_a, $P_в$, P_c – mos ravishda, *A*, *B* va *C* fazalardan olinadigan quvvat, *W*.

Har bir fazaning ish jarayonidagi va salt holatdagi quvvati quyidagi ifoda bilan aniqlandi:

$$P_f = i_v K_p, \tag{2}$$

bunda i_v – vattmetrning ko‘rsatkichi, *daraja*;

K_p – o‘lchov komplektining doimiylik koeffitsienti, *W/daraja*.



1 – o‘g‘itlagich; 2 – variator; 3 – elektrodvigatel; 4 – K-505 o‘lchov komplekti

2-rasm. O‘g‘itlagichning ishchi organlarini aylantirishga sarflanadigan quvvatni aniqlash jarayoni

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tortishga qarshiligini aniqlash uchun tenzometriya usulidan foydalanildi [7, 8]. Bunda agregatning tortishga qarshiligi dinamometrik bo‘g‘in va “Morion” o‘lchash asbobi yordamida hamda o‘g‘itlagich bilan agregatlangan MTZ-80X traktorini yordamchi traktor (Magnum) yordamida shatakka olish yo‘li bilan aniqlandi.

Tajribalar o‘tkazilishidan oldin va o‘tkazilgandan so‘ng dinamometrik bo‘g‘in 500 *N* interval bilan *0* dan 6000 *N* gacha bo‘lgan kuchlar ta’sir ettirilib, tarirovka qilindi. Tarirovka jarayonida olingan ma’lumotlar asosida tarirovka koeffitsienti hisoblab chiqildi. Tarirovkadagi xatolik 2,3 % ni tashkil etdi.

Tajribalarda avval MTZ-80X traktorining o‘zi Magnum traktori yordamida shatakka olinib, uning tortishga qarshiligi aniqlandi (3-rasm). Keyin MTZ-80X traktori o‘g‘itlagich bilan agregatlanib, yana shatakka olindi va agregatning tortishga qarshiligi aniqlandi (4-rasm). Bunda “Morion” o‘lchash asbobining ko‘rsatkichi tarirovka koeffitsientiga ko‘paytirilib, qarshilikning *N* hisobidagi haqiqiy qiymati aniqlandi.

Tajriba vaqtida o‘g‘itlagichning oldingi egatochgichlari 10 cm, ortki egatochgich 20 cm chuqurlikga sozlandi, o‘g‘itni me’yorlaydigan ishchi organlari (kurakchali barabanlari va

gumbazbuzgich-maydalagichlari) esa salt holatda ishladi, ya’ni o‘g‘it solish jarayoni bajarilmadi. Shu sababdan tajribalar vaqtida aniqlangan agregatning tortishga qarshiligidan traktorning tortishga qarshiligini ayirib tashlaganimizda kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tortishga umumiy qarshiligi emas, balki egatlarni ochish va ishchi organlarini salt holatda aylantirish jarayonidagi tortishga qarshiligi aniqlandi.



3-rasm. MTZ-80X traktorining tortishga qarshiligini aniqlash jarayoni



4-rasm. Agregatning tortishga qarshiligini aniqlash jarayoni

O‘g‘itlagichning tortishga umumiy qarshiligi laboratoriyada aniqlangan ma’lumotlar bilan jamlanganda kelib chiqadi. Tenzometriyalash jarayonida agregatning harakatlanish tezligi 6,39 va 7,57 km/h ni tashkil etdi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning ishchi organlarini aylantirishga sarflanadigan quvvatni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kombinatsiyalashgan o’g’itlagichning ishchi organlarini aylantirishga talab qilinadigan quvvat

Ishlash holati	Quvvat sarfi, *kW*	
	Jami	Sof
Variatorning o‘zini aylantirish	0,44	-
O‘g‘itlagich ishchi organlarini salt holatda aylantirish (yuklamasiz)	0,70	0,26
O‘g‘itlagich ishchi organlarini ish holatida aylantirish (yuklama bilan)	1,56	1,12

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, elektrodvigatel variatorning o‘zini aylantirish uchun 0,44 *kW*, kombinatsiyalashgan agregatning kurakchali barabani va gumbazbuzgich-maydalagichlarini go‘ng solmasdan, bo‘sh aylantirganda 0,70 *kW* hamda yuklama bilan ishlaganda, ya’ni go‘ngni me’yorlab o‘tkazish jarayonida 1,56 *kW* quvvat sarfladi. Demak, kombinatsiyalashgan

o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlarining o‘zini aylantirishga 0,26 *kW* va qoramol go‘ngini me’yorlab o‘tkazib berishga 1,12 *kW* quvvat talab qilinadi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning dalada ishlayotganida tortishga qarshiligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajrabalarda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, MTZ-80X traktorining harakat tezligi 6,39 km/h bo‘lganda uning tortishga qarshiligi 1604,9 *N* ni, o‘g‘itlagich bilan agregatlanganda esa – 4276,1 *N* ni tashkil etdi. Harakat tezligi 7,57 km/h bo‘lganda esa bu ko‘rsatkichlar, mos ravishda, 1720,0 va 4711,7 *N* ni tashkil etdi. Demak, qurilmaning tortishga qarshiligi harakat tezligi 6,39 km/h bo‘lganda 2671,2 *N* ni, harakat tezligi 7,57 km/h bo‘lganda esa 2991,7 *N* ni tashkil etdi. Bu qarshilikni yengish uchun birinchi holatda 4,74 *kW* va ikkinchi holatda 6,29 *kW* quvvat talab etiladi.

2-jadval

O‘g‘itlagichning tortishga qarshiligi

Agregat tarkibi	Tortishga qarshiligi, *N*	
	6,39 km/h Tezlikda	7,57 km/h tezlikda
Traktorning o‘zi	1604,9	1720,0
Agregat holida	4276,1	4711,7
O‘g‘itlagichning o‘zi	2671,2	2991,7

1-jadval ma’lumotlaridan o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlarining o‘zini aylantirishga sarflanadigan quvvat 0,26 *kW* ni tashkil etishini hisobga olsak, o‘g‘itlagichning egatlar ochish va pushtalar hosil qilishga talab etadigan quvvati, agregatning tezligiga bog‘liq holda, 4,48 va 6,03 *kW* ni tashkil etadi. Organik o‘g‘itni me’yorlab uzatish jarayoniga sarflanadigan quvvat esa 0,86 *kW* ni tashkil etadi. Demak, kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich agregatining umumiy qarshiligi 6,39 km/h tezlikda ishlaganda 5,60 *kW* ni, 7,57 km/h tezlikda esa 7,15 *kW* ni tashkil etar ekan.

Xulosa

Poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun daladan bir o‘tishda organik o‘g‘itlarni tuproqqa lokal usulda solib, sug‘orish egatini ochadigan va ekish pushtalarini shakllantiradigan kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning o‘g‘itni me’yorlab o‘tkazib beradigan ishchi organlarini ish jarayonida aylantirishga 1,12 *kW*, egatlar ochish va pushtalar shakllantirish jarayoniga, agregatning ish tezligi 6,39 km/h va 7,57 km/h bo‘lganda, mos ravishda, 4,48 va 6,03 *kW*, agregatni ishlatish uchun umumiy holda 5,60 va 7,15 *kW* quvvat talab etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hitha Sh, Vinaya Ch, Linu M. Organic fertilizers as a route to controlled release of nutrients. Chapter 13// Controlled Release Fertilizers for Sustainable Agriculture, 2021. – pp. 231-245. doi: 10.1016/B978-0-12-819555-0.00013-3

2. Lal R. Soil organic matter content and crop yield// Journal of Soil and Water Conservation, 2020;(75): 27A–32A. doi: 10.2489/ jswc.75.2.27A

3. Zhou Z, Zhang S, Jiang N, et al. Effects of organic fertilizer incorporation practices on crops yield, soil quality, and soil fauna feeding activity in the wheat-maize rotation system// *Front. Environ. Sci.* 2022:(10):1058071. doi: 10.3389/fenvs.2022.1058071.

4. Miner GL, Delgado JA, Ippolito JA, et al. Assessing manure and inorganic nitrogen fertilization impacts on soil health, crop productivity, and crop quality in a continuous maize agroecosystem// Journal of Soil and Water Conservation, 2020:(75): pp.481-498. https://doi.org/10. 2489/jswc.2020.00148.

5. Утениязов П. Органик ўғитларни локал солиш технологияси// Агро илм. – Toshkent, 2016. – №1(39). – B.70-71.

6. Abduraxmanov A.A., Xadjiyev A.A., Uteniyazov P.A., Karaxanov A. Tuproqqa organik o'g'itlarni solish qurilmasi (Ustroystvo dlya vneseniya organicheskix udobreniy v pochvu). – FAP № 2697. – Rasmiy axborotnoma. – 23.05.2025. – № 5 (290).

7. Tst 63.03.2001. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы энергетической оценки. – Москва: Изд-во стандартов, 1989. – 59 с.

8. РД 10.4.1-89. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины и орудия для глубокой обработки почвы. Программа и методы испытаний. – Москва, 1989. – 52 с.

Abduraxmanov A.A., Uteniyazov P.A., Xadjiyev A.A. Organik o'g'itlarni lokal soladigan kombinatsiyalashgan o'g'itlagichning energetik ko'rsatkichlarini aniqlash. *Maqolada poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun daladan bir o'tishda organik o'g'itlarni tuproqqa lokal usulda solib, sug'orish egatini ochadigan va ekish pushtalarini shakllantiradigan kombinatsiyalashgan o'g'itlagichning energetik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari keltirilgan.*

Абдурахманов А.А., Утениязов П.А., Хаджиев А.А. Определение энергетических показателей работы комбинированного удобрителя при локальном внесении органических удобрений. *В статье представлены результаты экспериментов по определению энергетических показателей комбинированного удобрителя, предназначенного для локального внесения органических удобрений с одновременным формированием посевных гребней и нарезкой поливной борозды.*

Abdurakhmanov A.A., Uteniyazov P.A., Khadjiev A.A. Determination of energy performance of combined fertiliser at local application of organic fertilisers. *The article presents the results of experiments to determine the energy performance of a combined fertiliser designed for local application of organic fertilisers with simultaneous formation of seed ridges and cutting of irrigation furrows.*

UO'T 631.333.356.46

ORGANIK O'G'ITLARNI LOKAL SOLADIGAN QURILMANING DISKLI EGATOCHGICH TOMONIDAN TUPROQ BO'LAGINING KESILISHI VA ISHCHI SIRTIDAGI HARAKATINI TADQIQ ETISH

Ibragimov A.A.[1] t.f.d., prof., Ramazanov B.B.[1] t.f.f.d., Ramazanov B.N.[2]

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

[2] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.


Organik o'g'itlarni poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga lokal usulda solishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish yo'nalishida, jumladan, organik o'g'itlarni poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga lokal usulda solib, ularni ko'mish bilan bir vaqtda sug'orish ariqlarini ochib va ekish pushtalarini hosil qilib ketadigan samarali texnika vositasini yaratish va ishchi qismlarning texnologik jarayonlarini asoslash, ularning tuproq va o'g'it bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan poliz ekinlari ekiladigan maydonlarda daladan bir o'tishda egatlar ochib, ularga organik o'g'itlarni me'yorlab lokal usulda solib, ustini tuproq bilan ko'mish jarayonida sug'orish egatini ochib, ekish pushtalarini hosil qilib ketadigan ixcham va qulay qurilmani yaratish maqsadida QXMITIda poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga organik o'g'itlarni lokal soladigan qurilma ishlab chiqilgan [1]. Ammo, uning o'g'itlash va sug'orish egatlarini ochadigan ish organlarining turi, texnologik ish jarayonlari va parametrlarini asoslash, ularning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili asosida qurilmaning [2] organik o'g'itni solishga egatlarni

olish uchun sferik disklar hamda solingan o‘g‘itni ko‘mish bilan bir vaqtda sug‘orish arig‘ini va ekish pushtalarini shakllantirish uchun ikki ag‘dargichli ishchi organ tanlab olindi [3].


Ushbu maqolada tuproq bo‘laklarining sferik diskli egatochgichlar ishchi sirtidagi harakati tadqiq etilgan.

Sferik diskli egatochgichlar (1-rasm) ish jarayonida tuproq palaxsalarini kesadi, ularni ish sirtlari bo‘ylab ko‘taradi va qarama-karshi tomonga uloqtirib ikkita o‘g‘itlash egatlarini va bitta pushta hosil qiladi [4, 5].



1-rasm. Diskli egatochgichlarning ish jarayoni

Diskli egatochgich tomonidan kesib olinayotgan palaxsa balandlagi δ, ko‘ndalang kesimining kengligi b va yuzi S (2-rasm) bilan xarakterlanadi.



2-rasm. Diskli egatochgich kesayotgan tuproq palaxsasining shakli va o‘lchamlari

Ularni quyidagi ifodalar bo‘yicha aniqlash mumkin [6]:

$$\delta = h; \tag{1}$$

$$b = 2\sqrt{\frac{h}{\cos\beta}\left(D - \frac{h}{\cos\beta}\right)}; \tag{2}$$

$$S = \left[\frac{D^2}{4}\arccos\left(1 - \frac{2h}{D\cos\beta}\right) - \left(\frac{D}{2} - \frac{h}{\cos\beta}\right)\sqrt{\frac{h}{\cos\beta}\left(D - \frac{h}{\cos\beta}\right)}\right]\sin\alpha\cos\beta \tag{3}$$

bunda D – sferik diskning diametri, m;

h – sferik diskli egatochgichning tuproqqa botish chuqurligi, m.

β – sferik diskli egatochgichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °.

(1) – (3) ifodalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, diskli egatochgich tuproqdan kesib

olinadigan palaxsaning shakli va o‘lchamlari uning diametri (radiusi), harakat yo‘nalishiga va tikka nisbatan o‘rnatilish burchaklari hamda tuproqqa botish chuqurligiga bog‘liq.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, sferik disk tuproqdan ko‘ndalang kesimi nov ko‘rinishida bo‘lgan palaxsani kesib oladi. Palaxsaning disk tig‘i kesgan qismi ellips ko‘rinishida bo‘lib, uni kuyidagi tenglama bo‘yicha ifodalash mumkin:


$$\frac{Z^2}{R_\partial^2 \sin^2 \alpha} + \frac{Y^2}{R_\partial^2 \sin^2 \beta} = 1, \tag{4}$$

bunda *X,U* – disk aylanish markazidan o‘tkazilgan koordinata o‘qlari;

R_d – disk radiusi, *m*;

β – diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °.

Tuproq bo‘laklarining sferik diskli egatochgichning ishchi sirtidagi harakatini. Sferik diskli egatochgichning ishchi sirtiga kelib tushgan tuproq bo‘laklari unda murakkab harakatda bo‘ladi. Tuproq bo‘laklari sferik diskli egatochgich bilan birga aylanma (ko‘chirma) va uning ishchi sirti bo‘ylab nisbiy harakatda bo‘ladi [7]. Sferik diskli egatochgich ishchi sirtining M_0 nuqtasi bilan uchrashgan tuproq bo‘lagi (3-rasm) ko‘chirma va nisbiy harakatlar traektoriyalari S_k va S_n ning yig‘indisi bo‘lgan S_a traektoriya bo‘ylab V_a absolyut tezlik bilan harakatlanib, ma’lum vaqtdan keyin M_1 nuqtaga ko‘chadi.



3-rasm. Tuproq bo‘lagini diskli egatochgichning ishchi sirti bo‘ylab harakatini tadqiq etishga doir sxema

Bunda tuproq bo‘lagining M_1 nuqtadagi absolyut tezligi uning shu nuqtadagi ko‘chirma V_k va nisbiy V_n tezliklarining geometrik yig‘indisiga teng bo‘ladi, ya’ni:

$$V_a = \sqrt{V_к^2 + V_н^2 + 2V_к V_н} \cos \varepsilon, \tag{5}$$

bunda ε – tuprok bo‘lagining ko‘chirma V_k va nisbiy V_n tezliklari orasidagi burchak.

Ko‘chirma tezlik quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi [8]:

$$V_к = \omega r, \tag{6}$$

bunda ω – egatochgichning burchak tezligi, *rad/s*;

r – egatochgichning aylanish o‘qidan qaralayotgan tuproq bo‘lagigacha bo‘lgan radial masofa, *m*.

Ma’lumki [6]

$$\omega = \frac{2V_n \cos \beta}{D}, \tag{7}$$

bunda V_n – egatochgichning ilgarilanma harakatdagi tezligi, *m/s*.

ω ning (7) ifoda bo‘yicha qiymatini (6) ga qo‘yib, V_k ni aniqlash uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$V_к = \frac{2V_n r\cos\alpha}{D}. \quad (8)$$

V_n, ya'ni tuproq bo'laklarining diskli egatochgichning ishchi sirti bo'ylab nisbiy tezligini aniqlash uchun ularning egatochgichning ishchi sirtidagi nisbiy harakatining differensial tenglamasi tuziladi va yechiladi [7].

Tuproq bo'laklari egatochgichning ishchi sirtida va undan tushgandan keyin birgalikda harakatlanadi. Buni hisobga olgan holda ularni quyidagicha ifodalash mumkin [9]:

$$V_н^T = \kappa\left\{-\frac{1}{e^{2f\left[\arcsin\left(\frac{D}{2R}\right)-\varphi_0\right]}}\left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+\right.\right.$$

$$+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f}-\sin^2\varphi_0\right)\Bigg]+$$

$$+\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+$$

$$\left.\left.+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left[\frac{D\sqrt{R^2-(0{,}5D)^2}}{fR^2}-\left(\frac{D}{2R}\right)^2\right]\right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (9)$$

va

$$V_a^T = \left\{(V_n\cos\beta)^2+\kappa^2\left\{-\frac{1}{e^{2f\left[\arcsin\left(\frac{D}{2R}\right)-\varphi_0\right]}}\left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+\right.\right.\right.$$

$$+2gR\frac{(1+4f^2)}{(1+4f^2)}\sin(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f}-\sin^2\varphi_0\right)\Bigg]+$$

$$+\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+$$

$$\left.\left.\left.+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left[\frac{D\sqrt{R^2-(0{,}5D)^2}}{fR^2}-\left(\frac{D}{2R}\right)^2\right]\right\}\right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (10)$$

(9) - (10) ifodalar disk ish sirtini istalgan nuqtasida joylashgan tuproq bo'laklarini ko'chirma, nisbiy va absolyut tezliklari qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Berilgan ish sharoitlari uchun tuproq bo'laklarining sferik disk ishchi sirtidagi harakat tezliklari va demak, uning ish ko'rsatkichlari agregatning tezligiga, disk sferasining radiusiga hamda diametriga va diskning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagiga bog'liq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Uteniyazov P.A. Organik o'g'itlarni poliz ekinlari ostiga soladigan texnika vositasining parametrlarini asoslash. Tex. fan. (PhD) ... dis. – Toshkent, 2020. – B. 173.

2. Qoraxonov A., Abduraxmanov A., Uteniyazov P. Poliz ekinlari ostiga organik o'g'itlarni lokal soladigan o'g'itlagich qurilma// Agro ilm. – Toshkent, 2019. – № 3 (59). –B. 99.

3. Ramazanov B.B. Organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilmaning o‘g‘itlash va sug‘orish egatlarini ochadigan ish organlarining turini tanlash bo‘yicha taqqoslov sinovlarining natijalari: Respublika ko‘p tarmoqli sammit materiallari to‘plami I - Toshkent; 2022. – B. 605-609.

4. Тўхтакўзиев А., Насритдинов А.А. Взаимодействие сферического диска с почвой// Вестник Российской академии сельскохозяйственных наук. – Москва, 2000. – № 6. – С. 76-77.

5. Киргизов Х.Т. Обоснование параметров рабочих органов для полосной обработки почвы под посев повторных кормовых культур: Автореф. дисс. … канд. техн. наук. – Янгиюль: ЎзМЭИ, 1999. – 16 с.

6. Нартов П.С. Дисковые почвообрабатывающие орудия. – Воронеж, 1972. – 182 с.

7. Ишмурадов Ш.У. Дискли плугнинг параметрларини асослаш. Тех. фан. (PhD) … дис. - Тошкент – 2019. – 152 б.

8. Бать М.И., Джанелидзе Г.Ю., Кельзон А.С. Теоретическая механика. – Москва: 1963. – 483 с.

9. Рудаков Г.М. Технологические основы механизации сева хлопчатника. – Ташкент: Фан, 1974. – 244 с.

Ibragimov A.A., Ramazanov B.B., Ramazanov B.N. Tuproq bo‘laklarining organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilmaning diskli egatochgishi ishchi sirtidagi harakatini tadqiq etish. *Maqolada tuproq bo‘laklarining organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilmaning diskli egatochgichi ishchi sirtidagi harakatini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.*

Ибрагимов А.А., Рамазанов Б.Б., Рамазанов Б.Н. Исследование движения почвенных частиц по рабочей поверхности дискового бороздореза устройства для локального внесения органических удобрений. *В статье приведены результаты теоретических исследований по изучению движения почвенных частиц по рабочей поверхности дискового бороздореза устройства для локального внесения органических удобрений.*

Ibragimov A.A., Ramazanov B.B., Ramazanov B.N. Study of soil particle movement on the working surface of the disc furrow cutter of the device for local application of organic fertilizers. *The article presents the results of a theoretical study on the movement of soil particles along the working surface of a disk furrow cutter for local application of organic fertilizers.*

УДК 632.98:631.348.45

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ И РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ НАЗЕМНОГО ОПРЫСКИВАНИЯ ПРОПАШНЫХ КУЛЬТУР

Борисенко И.Б.[1] д.т.н., проф., Мезникова М.В.[1] д.т.н., с.н.с., Скрипкин Д.В.[1] к.т.н.

[1] Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.

Разработка технологии и системы машин под новую технологию – важная научная и производственная задача. Для южных районов России и регионов рискованного земледелия с недостатком влаги и малым содержанием гумуса хорошие результаты даёт применение полосовой технологии. Техника для осуществления данной технологии в основной своей массе импортная и крайне дорогостоящая. Поэтому разработка технических средств для выполнения технологических операций по полосовой технологии открывает перспективное направление производства, одновременно способствует импортозамещению. Однако, не все технологические операции встраиваются в подход полосового воздействия при применении полосовой технологии.

Наиболее распространенным способом наземного опрыскивания в России и за рубежом является сплошное опрыскивание, когда форсунки на штанге опрыскивателя расположены вертикально, что обеспечивает полное покрытие поверхности поля рабочим

растворам. Кроме того, при вертикальном опрыскивании для достижения полного перекрытия факелов распыла от соседних форсунок штангу опрыскивателя поднимают гораздо выше над верхней частью растений, чем это в действительности нужно [1,2,4].

Для пропашных культур данный способ опрыскивания можно применять на операциях по гербицидной обработке до всходов, опустив штангу опрыскивателя на минимально возможную высоту. На операциях борьбы от вредителей и болезней, листовой подкормке, десикации сплошная обработка ведет к необоснованному расходу пестицидов, увеличению стоимости технологии и чрезмерному и неоправданному загрязнению окружающей среды. К тому же нет налаженного промышленного производства опрыскивателей для локального полосового опрыскивания строго по полосам произрастания культурных растений с высоким качеством покрытия и распределения по объекту обработки. Поэтому совершенствование технологий опрыскивания пропашных культур является важной научно-технической задачей, одновременно с направлением повышения качественных показателей опрыскивания и снижения норм расхода растворов на единицу обрабатываемой площади без снижения нормы на объекте обработки, а также выполнение требований экологической безопасности. Учеными Волгоградского ГАУ разработана, запатентована и успешно применяется на полях Волгоградского региона новая технология полосового опрыскивания с боковым распылом рабочей жидкости [1-3].

Центральное место в новой технологии отводится точному воздействию на растение и среду его обитания (Патенты на изобретение РФ №2709762, 2769737, 2783606, 2785465). Данный подход, вместо сплошного опрыскивания поля, подразумевает его целевое нанесение соответствующими полосами по грядам или между ними, оставляя требуемое пространство нетронутым (рис. 1). Это позволяет значительно сократить общий объем используемого препарата, тем самым снижая потенциальный вред для окружающей среды [1].




Рисунок 1 – Распыл рабочего раствора при полосовом опрыскивании по фазам развития культуры (на примере картофеля)

Экономический и экологический эффект достигается перераспределением рабочего раствора с междурядья на объект воздействия и глубиною проникновения рабочего раствора в наземную вегетативную часть выращиваемой культуры с учетом фазы развития. Применяемое техническое решение позволяет сократить расстояние от распылителя до обрабатываемого объекта, что дополнительно повышает качественные показатели опрыскивания [3,4,5].

Способ полосового опрыскивания с боковым распылом выполняется путём распыления рабочего раствора над рядом культурных растений по ходу движения опрыскивателя. Для этого применяются щелевые плоскофакельные распылители, установленные под углом 45° к вертикальной плоскости и ориентированные друг к другу в поперечной плоскости [1-3,5].

Для оптимизации применения почвенных гербицидов при культивировании картофеля и других овощей на грядах, исследуется технология сплошного опрыскивания способом полосовой обработки на основе слияния двух потоков (патент РФ №2769737) рабочего раствора от бокового опрыскивания (патент РФ №2817070). Это позволяет добиться стабильной ширины обработки с учетом более допустимых перемещений штанги опрыскивателя по вертикали.

Данный технологический процесс нанесения почвенного гербицида по гребням обеспечивает равномерное покрытие раствором контуры гряд. Эта технология требует

модификацию штанги опрыскивателя или применения специальных зажимов для использования с корпусами насадок для гибких шлангов, изменяющими расположение адаптеров форсунок (патент РФ №2797917). С этой целью установлены парные односторонние адаптеры, направленные друг к другу, с возможностью регулировки расстояния между ними (рис. 2). Последующие парные адаптеры устанавливаются с продольным зеркальным смещением относительно оси штанги на величину S=100-120 мм. Такая установка парных адаптеров предотвращает слияние факелов распыла соседних форсунок в вертикально-продольной плоскости. Расстояние между распылителями определяется шириной обрабатываемой полосы с учетом допустимых поперечных отклонений опрыскивателя от продольной оси движения относительно обрабатываемых рядов растений. Технологический результат выражается в повышении равномерности распределении рабочего раствора в междурядьях и на поверхности гряд, по сравнению с использованием распылителей с вертикальным расположением.




Рисунок 2 – Распределение почвенного гербицида по гребням при инновационном способе опрыскивания

Экономическая эффективность от применения локального внесения удобрений и средств защиты пропашных культур способом полосового наземного опрыскивания на объект обработки намного выше, чем при их сплошном вертикальном внесении. Количество рабочего раствора, вносимого на единицу площади, снижается на 15-50% в зависимости от применяемого угла распыления форсунки и фазы вегетации культуры. Внесение удобрений и средств защиты растений с локализацией по абрису культурного растения позволяет выделить так называемые «условно чистые зоны» в межполосном пространстве, что благотворно воздействует на обитателей почвы, интенсивность естественных природных процессов, повышает общий уровень экологической обстановки. Как следствие, повышается экосистема всей площади и получаемой продукции.

Заключение

Предложена ресурсосберегающая технология ухода за посадками картофеля опрыскиванием, позволяющая проводить операции защиты и питания растений с высокими показателями качества с учетом фаз развития и назначения рабочего раствора. Применение разработанных технических решений для выполнения технологии полосового опрыскивания с боковым распылом рабочего раствора позволяет выполнять опрыскивание картофеля с сокращением эксплуатационных технических затрат на обработку и на препараты, не снижая рекомендованных норм внесения на объект обработки, что делает технологию высокорентабельной и повышает прибыль. С учетом принятой технологии возделывания, снижение затрат на выращивание картофеля составляет от 1000 и более руб/га.

Список литературы

1. Мезникова, М.В. Технологическое обоснование зоны покрытия рабочим раствором при полосовом опрыскивании пропашных культур / М.В. Мезникова, И.Б. Борисенко, Д.В. Скрипкин, Д.А. Соколов / Вестник аграрной науки Дона. - 2024. – Т.17, № 1 (65). – С. 56 – 64. DOI: 10.55618/20756704_2024_17_1_56-64 – EDN OSJKVC.

2. Борисенко, И. Б. Использование цементной пыли в замкнутом цикле производства промышленности в сельском хозяйстве / И. Б. Борисенко, М. В. Мезникова, Е. И. Улыбина 3. Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: Наука и высшее профессиональное образование. – 2024. – № 5(77). – С. 318-325. – DOI 10.32786/2071-9485-2024-05-36. – EDN PMFGPX.

4. Мезникова М. В., Борисенко И. Б., Скрипкин Д. В., Соколов Д. А. Технологические особенности полосового опрыскивания картофеля с применением ленточного способа по гребневой технологии. Известия НВ АУК. 2025. – 2(80). – 379-390. DOI: 10.32786/2071-9485-2025-02-40.

5. Borisenko, I. B. Strip tillage as an implementation of resource-saving approaches in areas of risky agriculture / I. B. Borisenko, M. V. Meznikova // E3S Web of Conferences Vol. 398, 01023 (2023) International Conference on Advances in Agrobusiness and Biotechnology Research (ABR 2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339801023 Published online22 June 2023

6. Мезникова, М.В. Влияние технологических параметров вертикального опрыскивания на обеспечение экологической безопасности при возделывании пропашных культур / М.В. Мезникова // Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: наука и высшее профессиональное образование. – 2022. – № 4 (68). – С. 502 – 514. DOI: https://doi.org/10.32786/2071-9485-2022-04-59

Borisenko I.B., Meznikova M.V., Skripkin D.V. Chopiq ekinlarini yer usti texnikasi yordamida purkash samaradorligi va resurstejamkorligini oshirish. *Yo‘l-yo‘l purkashning resurstejamkor texnologiyasi chopiq ekinlarining rivojlanish fazalari va purkash maqsadini hisobga olgan holda yuqori sifat ko‘rsatkichlariga erishish, ishlov berish xarajatlari va gektarbay qo‘llash me’yorini kamaytirish imkonini beradi, bu esa texnologiyani yuqori rentabelli qiladi va foydani oshiradi.*

Борисенко И.Б., Мезникова М.В., Скрипкин Д.В. Повышение эффективности и ресурсосбережения наземного опрыскивания пропашных культур. *Ресурсосберегающая технология полосового опрыскивания позволяет достигать высоких показателей качества с учетом фаз развития и назначения рабочего раствора с сокращением затрат на обработку и погектарной нормы внесения, что делает технологию высокорентабельной и повышает прибыль.*

Borisenko I.B., Meznikova M.V., Skripkin D.V. Improving the efficiency and resource saving of land spraying of row crops. *Resource-saving strip spraying technology allows you to achieve high quality indicators, taking into account the phases of development and appointment of the working solution with a reduction in processing costs and the cross-section rate of application, which makes the technology highly profitable and increases profit.*

UO‘T 631.13.3

QO‘Y JUNIDAN ORGANIK O‘G‘IT SIFATIDA FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI

Alijanov Dj.[1], Ne’matjanov A.E.[1], Uralov S.V.[2]

[1] Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

[2] Registon ta’lim o‘quv markazi

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikada 2021 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra qo‘y va echkilar soni 22 mln 498 ming 600 boshni tashkil etadi va ularning 13,3 % fermer xo‘jaliklarida, 81,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi [1, 2].

Respublikada jun sanoati tezkor rivojlanishda, korxonalar soni oshmoqda, ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda, eksport salohiyati sezilarli oshmoqda. Chorvashilik va qorako’l junidan foydalanish ham asta-sekin ko’tarilmoqda.

2025-yil 21-aprelda: Buxoro viloyatining Kogon tumanida qo‘y junini qayta ishlashga mo‘ljallangan “KOMTEKS PPOSH” nomli innovatsion klaster tashkil etilishi ma’lum bo‘ldi. Ushbu korxona aholidan jun sotib oladi, ip va adyol, choyshab ishlab chiqaradi. Navoiy viloyati, Tomdi tumani “Tomdi Karakul Breeding Cluster” 2024-yilda yuvilgan qo‘y junini Hindistonga eksport qilgan. Bu klasterning jun bo‘yicha amaliy faolligini ko‘rsatadi. Junni qayta ishlash klasterlari asosan cho‘l-yaylov resurslari yirik bo‘lgan hududlarda jamlangan: Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Qoraqalpog‘iston – yetakchi. Normativ-huquqiy baza klasterlarni barcha yaylovli hududlarda tashkil etishni ko‘zda tutadi, bu yonma-yon jun va terini qayta ishlash quvvatlari shakllanayotganini anglatadi.

Respublikada jami 175 ta investitsion loyiha rejalashtirilgan klasterlarda, jumladan, 55 ta junni qabul qilish va qayta ishlash zavodlari, 39 ta yem ishlab chiqarish, 8 ta terini qayta ishlash korxonalari mavjudligi ko‘zda tutilgan.

Lekin yuqorida qayd etilganlar va statistik ma’lumotlar bo’yicha Respublikada qo‘ylardan olinadigan junlarning 25-30 foizigina qayta ishlanadi. Qishloq joylarida ko‘pchilik hollarda, ayniqsa dag‘al junli qo‘ylar junlari tashlab yoki yoqib yuboriladi. Bu esa xo‘jaliklarga iqtisodiy va ekologiyaga ham zarar keltiradi.

So’nggi vaqtlarda olib borilgan tadqiqotlar qo‘y juni qishloq xo‘jaligi uchun foydali bo‘lgan nayob xususiyatlarga ega ekanligini aniqlagan. Ishlatilgan qo‘y junlari qoldiqlaridan va ayniqsa ishlatilmay qolgan junlardan o‘g‘it sifatida foydalanish bo‘yicha qator Yevropa davlatlari va qo‘shni Qozog‘iston va Qirg‘izston davlarlarida ham ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda [3].

Shaxsiy xo‘jaliklar va bog‘bonlar uchun nafaqat yuqori hosildorlik, balki qo‘llayotgan o‘g‘it materiallarining xavfsizligi ham muhim hisoblanadi. Kimyoviy o‘g‘itlardan qoshib o‘z yeri va dehqonchiligi uchun kuyib-pichayotgan dehqonlar uchun qo‘y junidan tayyorlangan tabiiy o‘g‘it ideal to‘g‘ri keladi.

Qo‘y junlaridan o‘g‘it tayyorlash g‘oyasi jun sanoati korxonalarida yaroqsiz bo‘lgan jun qoldiqlarini utillashtirish muammosi tug‘ilgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Izlanishlar qo‘y juni tarkibi azot, fosfor, kaliy va boshqa o‘simliklar uchun foydali moddalarga ega ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu kashfiyotga asosan qo‘y junidan o‘g‘it tayyorlash boshlangan va natijada u bog‘bon va dehqonlarda ommaboplikga erishgan.

Qo‘y junidan tayyorlangan o‘g‘it universal mahsulot bo‘lib, u har xil turdagi o‘simliklarga va o‘stirish sharoitiga to‘g‘ri kelaberadi. Ulardan foydalanishdan maksimal foyda olish uchun o‘g‘itni to‘g‘ri tayyorlash va uni ekin dalasiga solishning optimal usulini tanlash muhim hisoblanadi.

Qo‘y junidan o‘g‘it granulaga qayta ishlanadi yoki tabiiy sochma holatda qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish jarayonida uning tabiiy holati saqlanib qolishi va undagi to‘yimli moddalarning asta-sekin chiqarilishi ta’minlanadi.

“Qishloq xo‘jaligi texnika va texnologiyalari” kafedrasi xodimlari tomonidan qo‘y junidan foydalanish texnologiyalari ishlab chiqildi. Ular: 1) granula ko’rinishida organik o’g’it tayyorlash texnologiyasi; 2) kompostlash texnologiyasi; 3) ekishdan oldin cho’l o’simliklari urug’lariga ishlov berish (drajelash). Granulalangan va kompostlangan o’g’it tayyorlash hamda o‘simliklar urug‘larini qo‘y juni qo‘shib drajelab ekish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda qo‘y junini granulalash va o‘simliklar urug‘larini drajelash mashinalari konstruktiv-texnologik sxemalari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda qo‘y junidan tayyorlangan o‘g‘itning xususiyatlari va ekin dalalariga solganda samarasi to‘g‘risida va cho‘l ozuqabop o‘simliklari urug‘larini drajelab ekish samaradorligi o‘rganilmoqda [3].

Qo‘y junidan o‘g‘it sifatida foydalanish va cho‘l ozuqabop o‘simliklari urug‘larini drajelab ekish quyidagi ustunliklarni beradi [3]:

qo‘y juni tuproqda sekin chiriydi (12 oygacha) va o‘simliklarga uzoq vaqt to‘yimli moddalarni mustahqam yetkazib turadi. Bu o‘simliklarni tez-tez o‘g‘itlashni, ishch kuchi va logistikaga bo‘lgan sarflarni kamaytiradi;

to‘yimli moddalarning boy tarkibiga ega, jumladan, 10-12 % azot – o‘simlik o‘sishini rivojlantiradi, kaliy – mevalar sifatini yaxshilaydi, fosfor – ildiz tizimini mustahkamlaydi, oltingugurt – oqsilni sintez qilishga kerak bo‘ladi va mikroelementlar tabiiy balanslashganligi junni ko‘pchilik ekinlar uchun universal o‘g‘itga aylantiradi;

qo‘y juni tolalari o‘z og‘irligidan 2-3 barabor ko‘p namlikni shimib oladi va uni asta-sekin chiqaradi. Bu ayniqsa qurg‘oqchilik iqlimli xududlar uchun muhim hisoblanadi;

qo‘y juni tuproqni yumshatib aeratsiyani ko‘taradi, tuproq strukturasini yaxshilaydi. Natijada o‘simlik ildiz tizimi rivojlanishiga ta’sir etadi;

qo‘y junidan tayyorlangan o‘g‘it chorvachilikdan chiqadigan chiqindini minimallashtiradi va ekologiyaga ta’sirini kamaytiradi va dehqonchilik uchun to‘liq organik mahsulot hisoblanadi;

yerga solingan qo‘y junidan mulcha sifatida bir qatlam o‘g‘it solish begona o‘tlar o‘sishini pasaytiradi va tuproqning qizib ketishining oldi olinadi;

qo‘y juni bilan drajelangan cho‘l ozuqabop o‘imliklari urug‘lari o‘lcham va shakli bir xilligi sababli ekilish xususiyati yaxshilanadi, kasallik va zararkunandalardan himoyalanadi, namlik uzoq vaqt ushlanib turadi, o‘simlik unib chiqishi va o‘sishi tezlashadi, aniq ekish mumkinligi sababli ekishda iqtisod qilinadi.

Xulosa

Qo‘y junidan tayyorlangan o‘g‘it an’anaviy o‘g‘itlar kamchiliklaridan xoli bo‘lib, o‘z ichiga ularning asosiy afzalliklarini olishi, ular ekologik toza, foydalanishda qulay, tuproq strukturasini yaxshilashi va uning namligini ushlab turishi yaxshilanadi.

Qo‘y juni bilan drajelangan cho‘l ozuqabop ekinlari (izen, keyreuk, teresken, saksovul va boshq.) urug‘larini ekish qulaylashadi va unib chiqishi yaxshilanadi, shamol erroziyasidan himoyalanishi, namlik va to‘yimli moddalar zahirasi ta’minlanadi.

Keyingi tadqiqotlarni qo‘y junini granulalash va o‘simliklar urug‘larini drajelash mashinalari konstruktiv-texnologik sxemalari asosida mashinalarni yaratish ustida davom ettirish kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi statistik qo‘mitasi ma’lumotlari// №01/5-01-19-540, 2021 yil 13 fevral.

2. Yusupov Yu.B., Lerman S., Chertoviskiy A.S., Akbarov O.M. O‘zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari// Agrar sektorni rivojlantirish tendensiyalari nuqtai-nazaridan tahlil. – Toshkent. Nasaf – 2010. – B. 154.

3. Alijanov D., Ne’matjanov A.E. Qo’y junidan organik o’g’it sifatida foydalanish// O’zbekiston agrar fani xabarnomasi, №3 (21) 2025. – B. 266-267.

Alijanov D., Ne’matjanov A.E., Uralov S.V. Qo‘y junidan organik o‘g‘it sifatida foydalanish texnologiyalarining afzalliklari. *Maqolada Respublikada yengil sanoatda ishlatishga yaroqsiz qo‘y juni chiqindilari va hozirgi kunda mutlaqo ishlov berilmasdan tashlab yuborilayotgan dag‘al junlardan organik o‘g‘it sifatida foydalanish texnologiyalari yo’ritilgan. Tadqiqot ob’yekti sifatida qo‘y juni chiqindilari va dag’al junlar olingan.*

Алижанов Д., Неъматжанов А.Э., Уралов С.В. Преимущества технологий использования овечьей шерсти в качестве органического удобрения. *В статье рассматриваются технологии использования отходов овечьей шерсти, непригодных для использования в легкой промышленности Республики, и грубой шерсти, которая в настоящее время выбрасывается без какой-либо обработки, в качестве органического удобрения. Объектом исследования являются отходы овечьей шерсти и грубая шерсть.*

Alijanov D., Ne'matjanov A.E., Uralov S.V. Advantages of technologies for using sheep wool as an organic fertilizer. *The article examines the technologies for using sheep wool waste that is unsuitable for use in the Republic's light industry and coarse wool that is currently being discarded without any processing as an organic fertilizer. The object of the research is sheep wool waste and coarse wool.*

UO‘T 631.311.634:64

ANOR TUPLARINI KO‘MADIGAN MASHINA SINOVLARINING NATIJALARI

Abdunazarov E.[1] t.f.f.d., Xamzayeva Sh.[1] mustaqil izlanuvchi

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida anor tuplarini ko‘mishda qo‘llaniladigan energiya-material hajmdorligi nisbatan past, ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan mashina Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan anor tuplarini ko‘madigan mashina (keyingi o‘rinlarda ATKM) qo‘llanilganda bir o‘tishda anor tuplari va shoxlarining talab darajasida sifatli ko‘milishi ta’minlanadi va buning natijasida anor tuplarini tuproq bilan ko‘mishda mehnat, vaqt va yonilg‘i sarfi kamayadi, ish unumi va sifati ortadi [1-3].

Rasmda tavsiya etilayotgan parametrlar asosida ishlab chiqilgan ATKMning traktorga agregatlangan hamda ish jarayonidagi ko‘rinishlari tasvirlangan.



a)



b)

Rasm. ATKMning traktorga agregatlangan (*a*) va ish jarayonidagi (*b*) ko‘rinishlari

Dastlabki talablar hamda texnik topshiriqlar asosida «BMKB-Agromash» AJ da hozirgi davrda keng qo‘llanilayotgan yuqori quvvatli 4-5 sinfdagi g‘ildirakli traktorlar (CASE PUMA 180, Magnum 8940, MX-255, NEW HOLLAND T7060, AXION-850) bilan agregatlash imkonini beradigan ATKMning tajribaviy nusxasi tayyorlandi. 1-jadvalda asoslangan parametrlar bilan ishlab chiqilgan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan ATKM ish organlarining o‘lchamlari keltirilgan [4].

1-jadval

Ishlab chiqilgan anor tuplarini ko‘madigan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan mashinaning parametrlari

№	Parametrlarning nomi	Belgilanishi	Qiymati
1.	Uyumlagich roliklarining soni, dona	n	6
2.	Uyumlagich yon devorining gorizontal tekislikda harakat yo‘nalishiga nisbatan joylashish burchagi, °	γ_u	25
3.	Uyumlagich yuqori yon devorining qamrash kengligi, cm	b_{yo}	50
4.	Uyumlagich old qismining kengligi, cm	A	86
5.	Uyumlagich orqa qismining kengligi, cm	b	70
6.	Uyumlagichning uzunligi, cm	L	100
7.	Uyumlagich roligining uzunligi, cm	l_r	50
8.	Uyumlagich roligining katta diametri, mm	D_r	88
9.	Uyumlagich roligining kichik diametri, mm	d_r	40

Ushbu mashina uyumlagich-yotqizgich, nov shaklidagi uzatgich, traktorga osish mexanizmlari, oxirgi tup yotqizgich, bir-biriga simmetrik joylashgan korpuslar hamda shibbalagichlardan tashkil topgan. Ish jarayonida uyumlagich-yotqizgich yordamida anor tuplarining shoxlari yotqiziladi, uyumlanadi va zichlanadi, so‘ng uyumlagich-yotqizgichlardan keyin joylashgan nov shaklidagi uzatgich orqali ular oxirgi yotqizgichga yo‘naltiriladi, yotqizgich anor tuplarini yer yuzasiga bosadi va korpuslar anor tuplari ustiga tuproqni uyumlab, ularni tuproqqa to‘liq ko‘milishini ta’minlaydi.

ATKMning dala sinovlari Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanining “Zulfiya Umarova” hamda Boyovut tumanida joylashgan “Usmonobod anorzori” fermer xo‘jaliklaridagi anorzorlarda 2023–2024 yillarda anor tuplarini ko‘mish davrida, ya’ni kuz faslining oktabr va noyabr oylarida o‘tkazildi.

Ishlab chiqilgan ATKMning dala sinovlarida uning quyidagi ish ko‘rsatkichlari aniqlandi: anor tupi tana qismining shikastlanish (kesilish, sinish va uzilish) darajalari; anor shoxlarining shikastlanish darajasi; ish unumi; yonilg‘i sarfi (2-jadval).

2-jadval

Ishlab chiqilgan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan ATKM dala sinovlarining natijalari

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati		
		Dastlabki talablar bo‘yicha	ATKM-1 (shartli)	
			5 km/h	7 km/h
1.	Agregatning harakat tezligi, km/h	5-7	5,1	6,8
2.	Anor tupi tana qismining kesilishi va ezilish darajasi, %	≤ 3	1,8	2,9
3.	Anor tupi tana qismining sinish darajasi, %	≤ 1,5	0,7	1,3
4.	Anor tupi tana qismining uzilish darajasi, %	≤ 1	0,3	0,6
5.	Anor shoxlarining shikastlanish darajasi, %	≤ 5	3,8	4,6
6.	Ish unumi, ha/h - asosiy ish vaqtidagi - ekspluatatsiya vaqtidagi	 2,0-3,2 1,4-2,2	 2,0 1,4	 2,8 1,9
7.	Yonilg‘i sarfi, kg/ha	≤ 22,5	16,8	18,7

ATKMning ish unumi va traktorning yonilg‘i sarfini aniqlash uchun maxsus xronometrik kuzatuvlar olib borilib, ekspluatatsion vaqt birligi ichida ko‘milgan anorzor maydoni hamda sarflangan yonilg‘i, cmena va ekspluatatsion vaqtdan foydalanish koeffitsientlari aniqlandi.

Xulosa

Agregatning 5 va 7 km/h harakat tezliklarida ishlab chiqilgan mashinaning sifat va energetik ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Imomqulov Q.B., Abdunazarov E.E., Xamzaeva Sh.M. Anor tuplarini ko‘mish va ochishda qo‘llaniladigan mashinalar// “Yuqori samarali qishloq xo‘jaligi mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari to‘plami. - Toshkent, 2022. – B. 238-242.

2. Abdunazarov E.E., Xamzayeva Sh. Anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichining parametrlari// Строительство и образование, 2024. – № 1 (3). – С. 139-143.

3. Boqijonovich I.Q. i dr. Anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichining konstruksiyasi// Механика и технология, 2022. – №. 8 (3). – С. 98-102.

Abdunazarov E., Xamzayeva Sh. Anor tuplarini ko‘madigan mashina sinovlarining natijalari. *Maqolada ish sifati va unumini oshirish maqsadida yuqori quvvatli g‘ildirakli traktorlarga (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) ishlab chiqilgan anor tuplarini ko‘madigan mashina tajriba nusxasining dala sinovlari natijalari keltirilgan.*

Абдуназаров Э., Хамзаева Ш. Результаты испытаний машины для укрывки кустов гранат. *В статье приведены результаты полевых испытаний экспериментального образца машины для укрывки кустов граната, разработанного к энергонасыщенным тракторам (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) с целью повышения качества работы и производительности.*

Abdunazarov E., KXamzayeva Sh. Results of tests a machine for burying pomegranate bushes. *The article presents the results of field tests of an experimental sample of a pomegranate bush covering machine developed for energy-rich tractors (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) to improve work quality and productivity.*

UO‘T 631.674

TEJAMKOR SUG‘ORISH TIZIMLARI ELEMENTLARINING TADQIQOTI

Xudayarov Z.J.[1] t.f.d., dots., Omonov D.S.[1]

[1] Toshkent davlat agrar universiteti.

Hozirgi kunda suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni tejash va energiya sarfini kamaytirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, an’anaviy sug‘orish usullariga nisbatan 20–60 % gacha suv tejash imkonini beradi [1]. Bu tizimlarda suv sarfi va bosim o‘zgarishi emitterlar orqali suvning teng taqsimlanishi, quvurlar gidravlik samaradorligi va qishloq xo‘jaligidagi umumiy ish unumdorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muallif tadqiqotlarida tomchilatib sug‘orishning suv-energetik balansini tahlil qilib, suv iste’molini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatishgan. IJCESEN jurnalida 2025 yilda chop etilgan ishda emitterlar orasidagi masofa va ishlash bosimining bir xillikka ta’siri o‘rganilib, 150 kPa bosimda eng yuqori bir xillik (92 %)ga erishish mumkinligi aniqlangan [2]. S.Wang va boshqalar tomonidan bosimni arzon regulyatorlar yordamida optimallashtirish usuli taklif qilinib, tizimning umumiy investitsiya xarajatlari 35 % gacha kamaytirilishi isbotlangan [3]. Shuningdek, nasos ish rejimini modellashtirish orqali energiya va issiqxona gazlari chiqindisini 4,7 % gacha kamaytirish mumkinligini ko‘rsatishgan. Italiyada olib borilgan tajribalarda esa past bosim sharoitida suv berish vaqti 17-95 % gacha uzayishi aniqlangan, bu esa bosim nazoratining muhimligini isbotlaydi.

Mualliflar tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bosim va suv sarfi o‘zgarishini to‘g‘ri modellashtirish va nazorat qilish orqali tomchilatib sug‘orish tizimlarining samaradorligini oshirish, suv va energiya sarfini kamaytirish, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish mumkin.

Bosim taqsimoti va quvur uzunligi noto‘g‘ri tanlansa, emitterlardan chiqadigan suv sarfi sezilarli farq qiladi, bu esa suvning yerda noteng taqsimlanishi va hosildorlikning pasayishiga olib keladi.

A.N. Kunapara bosim-suv chiqishi (pressure–discharge) munosabatini matematik modellashtirgan va uning asosida emitter chiqishi turli bosim sharoitlarida qanday o‘zgarishini tadqiq etgan, quvurga o‘rnatilgan tomchilatgichlar uchun bosim-suv chiqishi munosabatini quyidagicha empirik funksiya bilan ifodalashgan [4]:

$$Q = k_d P^x .$$

bunda Q – suv sarfi;

P – quvurdagi bosim;

k_d – proporsionallik koeffitsienti;

x – quvur uzunligidagi no‘qta.

Empirik ko‘rinishdagi bu tenglamaning k_d proporsionallik koeffitsientini har bir emitter turi uchun koeffitsientlarni tajribada aniqlashni talab qiladi.

S.A. Chougule quvur bo‘ylab ishqalanish va mahalliy qarshiliklar tufayli bosim yo‘qotishlarini hisoblagan [5]. U Darcy-Weisbach formulasini qo‘llab, boshlang‘ich bosimdan foydalangan holda quvur bo‘ylab bosimning qanday pasayayotganini tahlil qilgan va bosim taqsimotini integrallashtirishda quvur bo‘ylab bosimni qadamma-qadam hisoblaydi.

Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tomchilatib sug‘orish tizimini loyihalashda quvur uzunligi, bosim taqsimoti va emitter sarfini aniq hisoblash suv va energiya resurslarini tejash, suvning yerda teng taqsimlanishi va hosildorlikni oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliyotda ham juda dolzarb hisoblanadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni tejash va o‘simliklarni maqsadli ravishda oziqlantirishda samarali usul hisoblanadi. Quvurdagi bosimning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash suv taqsimoti va har bir chiqish teshigidan suv sarfini bir xil saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Quvurdagi bosim, tezlik va balandlik o‘rtasidagi bog‘lanish:

$$P + \frac{1}{2}\rho\vartheta^2 + \rho g z = const - h_{yuq}. \quad (1)$$

bunda P – quvur boshidagi bosim – P_0 = 0.1 MPa;

ρ – suv zichligi, kg/m³;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s²;

ϑ – oqim tezligi, m/s.

Bizning holatda balandlik o‘zgarishi yo‘q, faqat bosim va tezlik o‘zgaradi.

Quvurda bosimning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi Darsi–Veysbax tenglamasi asosida aniqlanadi:

$$\frac{dP(x)}{dx} = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D} \cdot \vartheta(x)^2, \quad (2)$$

bunda f_D – ishqalanish koeffitsienti;

$\vartheta(x) = \frac{Q_x}{S}$ quvurdagi tezlik;

$S = \frac{\pi D^2}{4}$ – kesim yuzasi.

Laminar oqimda ($\mathrm{Re} < 2000$) ishqalanish koeffitsienti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi: $f_D = \frac{64}{R_e}$, bunda Re-Raynolds soni.

Oqim turbalent bo‘lsa ($\mathrm{Re} > 4000$) f_D Kolbruk–Uayt tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\frac{1}{\sqrt{f_D}} = -2\log_{10}\left(\frac{3{,}7\varepsilon}{D} + \frac{2{,}51}{\mathrm{Re}\sqrt{f_D}}\right). \quad (3)$$

agar $\mathrm{Re} < 10^5$ bo‘lsa:

$$f_D \approx 0{,}316\,\mathrm{Re}^{-0{,}25}. \quad (4)$$

bunda ε – quvur devori g‘adur-budurligi (m).

Turli materiallardan tayyorlangan quvurlar uchun ishqalanish koeffitsienti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli materiallardan yasalgan quvurlar uchun ishqalanish koeffitsientining qiymati

Quvur materiali	**ε (mm)**	**f_D (Re = 1500, D = 16 mm)**	**f_D (Re = 10^5, D = 16 mm)**
Polivinilxlorid (PVC)	0.0015 – 0.01	0.0427	0.01848 – 0.02082
Po‘lat (yangi)	0.045 – 0.09	0.0427	0.02706 – 0.03235
Yemirilgan po‘lat quvur	0.2 – 1.5	0.0427	0.04146 – 0.09829
Beton	0.3 – 3	0.0427	0.04786 – 0.14916

Suyuqlik sarfning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{dQ(x)}{dx} = -\frac{q_c}{l_1}, \tag{5}$$

bunda q_c –quvur teshigidan oqayotgan suyuqlik miqdori;

l_1 – teshiklar orasidagi masofa.

(5) ni integrallab, quvur uzunligi bo‘yicha suyuqlik sarfining o‘zgarishini aniqlaymiz:

$$Q(x) = Q_0 - \frac{q_c}{l_1} x \tag{6}$$

bu yerda Q_0 – quvur boshidagi suyuqlik sarfi.

Quvurda suyuqlik bosimini o‘zgarishini Darsi-Veysbax tenglamasi orqali ifodalaymiz:

$$\frac{dP(x)}{dx} = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D}\left(\frac{Q(x)}{S}\right)^2 = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D}\left(\frac{Q_0 - \frac{q_c}{l_1} x}{S}\right)^2 \tag{7}$$

Quvur uzunligi bo‘yicha bosim o‘zgarishini integral ko‘rinishi quyidagi holatga keladi:

$$P(x) = P_0 - \int_0^x f_D \cdot \frac{\rho}{2D}\left(\frac{Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi}{S}\right)^2 d\xi, \tag{8}$$

bunda ξ – integrallash o‘zgaruvchisi (bizda quvurdagi masofa);

$d\xi$ – shu masofaning juda kichik o‘zgarishi;

D – quvur diametri, m.

Konstantalarni chiqarib yuborib, qadamma-qadam integralni yechamiz:

$$P(x) = P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2}\int_0^x \left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi\right)^2 d\xi. \tag{9}$$

ichki kvadratni yozib chiqamiz:

$$\left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi\right)^2 = Q_0^2 - 2Q_0\frac{q_c}{l_1}\xi + \left(\frac{q_c}{l_1}\right)^2 \xi^2. \tag{10}$$

har bir qismi bo‘yicha integral quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\int_0^x Q_0^2 d\xi = Q_0^2 x; \tag{11}$$

$$\int_0^x 2Q_0 \frac{q_c}{l_1} \xi d\xi = 2Q_0 \frac{q_c}{l_1} \frac{x^2}{2} = Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2; \tag{12}$$

$$\int_0^x \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \xi^2 d\xi = \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \frac{x^3}{3}. \tag{13}$$

(11), (12), (13) ni birlashtirib yozamiz:

$$\int_0^x \left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1} \xi \right)^2 d\xi = Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \frac{x^3}{3}. \tag{14}$$

yakuniy holatda quyidagi tenglamani olamiz:

$$P(x) = P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} \left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3} \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 x^3 \right]. \tag{15}$$

bu tenglama quvurdagi har bir nuqtada bosimni hisoblashga imkon beradi.

Suyuqlik sarfi quvurdagi suyuqlikning naporiga bog‘liq bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{2gH}, \tag{16}$$

bunda C_d – chiqish koeffitsienti (0.6–0.8 atrofida);

$H=\rho g P$ – quvurdagi napor, m;

P – suyuqlikning statik bosimi, Pa;

S_1 – tomchilatgich teshigining yuzasi, m^2.

Agar H ni P bosim orqali yozsak:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{\frac{2\left(P - P_{atm}\right)}{\rho}}. \tag{17}$$

(17) tenglamaga (15) ni qo‘ysak:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{\frac{2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} \left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3} \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 x^3 \right]}{\rho}}. \tag{18}$$

(18) tenglamani ikki tomonini ham kvadratga ko‘tarib, quyidagini hosil qilamiz:

$$q_c^2 = C_d^2 \cdot S_1^2 \frac{2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} \left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3} \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 x^3 \right]}{\rho} \tag{19}$$

qulaylik uchun quyidagi belgilashlar kiritib:

$$K = \frac{C_d^2 \cdot S_1^2}{\rho}; \qquad A = 2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} Q_0^2 x;$$

$$B = f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} Q_0 x^2; \qquad C = f_D \cdot \frac{\rho}{6DS^2} x^3. \tag{20}$$

(19) formulani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$q_c^2 = KA - KB\frac{q_c}{l_1} + KC\frac{q_c^2}{l_1^2}, \tag{21}$$

Natijada quvurning hohlagan nuqtasidagi teshikdan oqiyotgan suv sarfi quyidagi kvadrat tenglama bilan aniqlanadi.

$$\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right)q_c^2 + \frac{KB}{l_1}q_c - KA = 0. \tag{22}$$

Quvur uzunligi bo‘yicha tomchilatkichlardan oqayotgan suv sarfi ushbu tenglama bilan aniqlanadi:

$$q_c = \frac{-\frac{KB}{l_1} \pm \sqrt{\left(\frac{KB}{l_1}\right)^2 + 4\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right)KA}}{2\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right)}. \tag{23}$$

(15) va (23) tenglamalardagi q_c va P(x) bir-biriga bog‘liq bo‘lgani sababli, ularni iterativ usul orqali yechiladi.

Iterativ yechishda boshlang‘ich taxmin qiymati sifatida $q_c^{(0)}$ tanlanadi. (15) tenglama orqali P(x) hisoblandi. Hisoblangan P(x) qiymati (23) tenglamaga qo‘yilib, yangi $q_c^{(1)}$ topildi. Xatolik $|q_c^{(1)}-q_c^{(0)}|$ aniqlandi, agar xatolik belgilangan chegaradan kichik bo‘lsa, yechim topilgan deb hisoblandi. Aks holda, $q_c^{(0)}=q_c^{(1)}$ qilib, 2-qadamdan takrorlandi.

Standartlashgan tomchilatgichlarda 0,5-1,0 mm ichki diametri tavsiya qilinadi. Agarda quvur qo‘lda teshilsa, unda 1,1-1,6 mm atrofidagi diametr hosil qilinishi mumkin [6, 7].


Tomchilatib sug‘orish tizimlari 0.10- 0.41 MPa bosimda ishlaydi. Ushbu qiymatda tomchilatgichlardagi o‘rtacha suv sarfi 2-jadvalda keltirilgan [8, 9].

2-jadval


Tomchilatgichlardagi o‘rtacha suv sarfi

№	Tomchilatgich turi	Suv sarfi (LPH)
1.	Hunter PC / inline emitter	≈ 1.35 LPH
2.	Hunter PC / inline emitter	≈ 2.35 LPH
3.	Hunter PC / inline emitter	≈ 3.75 LPH

Hisoblash natijalari (15) va (23) – tenglamalarni iterativ usulda yechish orqali aniqlandi. Har bir masofa nuqtasi uchun avvalgi qiymatdan boshlab, q_c suv sarfi va P(x) bosim qiymatlari yangilanib bordi. Iteratsiya jarayonida $\Delta q_c=q_{c,new}-q_c$ farq kattaligi tekshirilib, farq juda kichik bo‘lganda ($<10^{-7}$ m³/s) iteratsiya to‘xtatildi. Shu tarzda quvur bo‘ylab har bir nuqtada bosim va tomchilatgichning suv sarfi hisoblab chiqildi (1, 2-rasm).



1-rasm. Tomchilatgichlarda suv sarfining o‘zgarishi: *D*=16 mm



2-rasm. Quvurda suyuqlik bosimining o‘zgarishi: P_0 = 0,4 MPa

1-rasmda D = 16 mm diametrili quvurda tomchilatgichlar suv sarfining uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, quvur boshiga yaqin nuqtalarda suv sarfi kattaroq bo‘lib, masofa oshishi bilan bosim pasayishi sababli suv sarfi sekinlik bilan kamayadi. Bu holat kichik diametrli quvurlarda gidravlik yo‘qotishlar katta bo‘lishi bilan izohlanadi.

2-rasmda boshlang‘ich bosim P_0=0,4 MPa bo‘lgan holda quvurdagi bosimning masofaga bog‘liq o‘zgarishi keltirilgan. Bosim masofa ortishi bilan kamayib, uzoq masofalarda keskin pasayishi kuzatiladi. Diametri kichik bo‘lgan quvurlarda gidravlik qarshilik katta bo‘lgani uchun bosimning tez pasayishi va suv sarfining kamayishiga olib keladi.

Olingan natijalar tomchilatib sug‘orish tizimlarida uzoq masofada bosimning barqarorligini ta’minlash uchun yetarlicha katta diametrli quvurlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Iterativ hisoblash usuli esa quvurning har bir nuqtasidagi bosim va suv sarfini aniq hisoblash imkonini berib, tizimning gidravlik parametrlarini optimal tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Kichik diametrli quvurlarda gidravlik yo‘qotishlar yuqori bo‘lib, bosim tez pasayadi va tomchilatgichlarning suv sarfi masofa ortgan sari keskin kamayadi. Diametr kattalashganda esa bosim yo‘qotishlari kamayadi va suv sarfi uzoq masofada ham barqaror saqlanadi. Olingan natijalar tomchilatib sug‘orish tizimlari uchun optimal quvur diametri va boshlang‘ich bosimni tanlashda amaliy ahamiyatga ega. Iterativ usul quvur bo‘ylab har bir nuqtadagi bosim va suv sarfini aniq hisoblash imkonini berib, suv resurslarini tejash, suv taqsimotining bir xilligini ta’minlash va tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Guo, H., Zhang, X., et al. Drip irrigation and energy–water efficiency in agriculture: a review// Water, 2024. – 16(15), 2206. https://doi.org/10.3390/w16152206

2. Wang, S., Li, Y., et al. Low-cost pressure regulation technology for mountainous micro-irrigation systems// Scientific Reports, 2025. – https://doi.org/10.1038/s41598-025-89301-9

3. IJCESEN. Effect of operating pressure and emitter spacing on drip irrigation uniformity// International Journal of Computational and Experimental Science and Engineering, 2025. https://ijcesen.com/index.php/ijcesen/article/view/1200

4. Kunapara A. N., Subbaiah R., & Patel G. R. Approximation of the Pressure-discharge Curve in Inline Drip Irrigation System. Journal of Scientific Research and Reports// Published, 2024. – vol 30, № 8. – pp. 35-45. DOI: 10.9734 /jsrr/ 2024/v30i82222.

5. Chougule, Sachin Annasaheb. Hydraulics of drip irrigation in-built emitter lines// Post Graduate Institute, Mahatma Phule Krishi Vidyapeeth, Rahuri, 2002.

6. Netafim Ltd. Drippers and Driplines Catalog// Netafim Global, 2020. – vol. 1.0. - pp. 60. https://www.netafim.com/globalassets/products/drippers-and-dripperlines/drippers-and-driplines-catalog-2020.pdf

7. Al-Agele, H. A., et al. Testing of a Novel New Drip Emitter with Variable Diameters for Variable-Rate Drip Irrigation// NSF Public Access Repository (PAR), 2020. – pp. 3-4. https://par.nsf.gov/biblio/10223522

8. Khudayarov Z.J., Khalilov R., Gorlova I., Mirzakhodjaev Sh., Mambetsheripova A. Mathematical model of water drop trajectory in artificial rainfa// IV International Scientific Conference "Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering". – Tashkent, Uzbekistan, 2022. – vol 365, 04011.

9. Hunter Industries. Drip Irrigation Design & Installation Guide// Hunter Industries, 2023. – pp. 4–5. https://www.scribd.com/document/445932581/Hunter-Drip-Design-Guide.

10. Netafim Ltd. Driplines and Drippers Catalog// Netafim Global, 2024. – vol. 1.3. pp. 44–49. https://www.netafim.pe/bynder/46CDF84F-EA4A-4E11-A6F697EF7513F391-driplines- and-drippers-catalog-2024.pdf

11. Khudayarov Z.J., Khalilov R., Mirzakhodjaev Sh., Nurmikhamedov B., Mamasov Sh. Theoretical study of the influence of the changing environment on the process of rainfall irrigation// International Scientific and Practical Conference "Environmental Risks and Safety in Mechanical Engineering" – Rostov-on-Don, Russia, 2023. – vol. 376, 02013.

12. Khudayarov Z.J., Mirzakhodjaev Sh., Khalilov R., Nurmikhamedov B., Mamasov Sh. Deflector nozzles of rain irrigation machines// VIII International Conference on Advanced Agritechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development. – Krasnoyarsk, Russia, 2023. – vol. 390, 01033.

13. Khudoyorov F. Z. Development of a drum-hose irrigation machine design adapted for furrow irrigation of agricultural crops// Journal of Agriculture and Biological Sciences, 2025. – ISSN (E), 2938-3781. – vol. 3, Issue 6.

Xudayarov Z.J., Omonov D.S. Tejamkor sug'orish tizimlari elementlarining tadqiqoti. *Maqolada tomchilatib sug'orish quvurlarida bosim va suv sarfi taqsimotini aniqlashga qaratilgan matematik model keltirilgan. Emitter suv sarfini hisoblash uchun* $aq_c^2-bq_c+c=0$ *tenglamasi, quvurda bosim o'zgarishini tahlil qilish uchun esa integral ko'rinishdagi P(x) tenglamasi qo'llanildi. Matematik model asosida bosim va suv sarfi o'zgarishi grafiklari qurilib, quvur uzunligi, emitter intervali va bosim taqsimotining suvning yerda teng taqsimlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar tomchilatib sug'orish tizimini optimal loyihalash, suv resurslarini tejash va suv taqsimlanishining bir xilligini oshirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Худаяров З.Ж., Омонов Д.С. Исследование элементов экономичных оросительных систем. *В статье представлена математическая модель, направленная на определение распределения давления и расхода воды в трубопроводах капельного орошения. Для расчета расхода воды эмиттера использовалось уравнение* $aq_c^2-bq_c+c=0$*, а для анализа изменения давления в трубопроводе - уравнение P(x) в интегральной форме. На основе математической модели построены графики изменения давления и расхода воды, проанализировано влияние длины трубопровода, интервала эмиттера и распределения давления на равномерное распределение воды в земле. Полученные результаты служат важной теоретической основой для оптимального проектирования системы капельного орошения, экономии водных ресурсов и повышения равномерности распределения воды.*

Khudayarov Z.Zh., Omonov D.S. Research of elements of economical irrigation systems. *The article presents a mathematical model aimed at determining the pressure distribution and water flow rate in drip irrigation pipelines. The* $aq_c^2-bq_c+c=0$ *equation was used to calculate the emitter water flow rate, and the P(x) equation in integral form was used to analyze the pressure change in the pipeline. Based on the mathematical model, graphs of changes in water pressure and flow rate were constructed, and the influence of pipeline length, emitter interval, and pressure distribution on the uniform distribution of water in the ground was analyzed. The obtained results serve as an important theoretical basis for optimal design of drip irrigation systems, water conservation, and increasing water distribution evenness.*

UO‘T 631.316.022

ROTATSION YUMSHATKICHGA BERILADIGAN TIK BOSIM KUCHINI NAZARIY ASOSLASH

Ibragimov K.Dj.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Paxta hosildorligini oshirishda, g‘o‘za qator oralariga ishlov berish asosiy operatsiyalardan hisoblanadi. G‘o‘za qator oralariga ishlov berishdagi asosiy maqsad begona o‘tlarga qarshi kurashish, tuproqning yuza qismini mayin yumshatish, namni yaxshi saqlab tuproqning tez qizishini hamda mikroorganizmlarning yaxshi rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir [1].

G‘o‘za qator oralariga vegetatsion sug‘orishlardan keyin ishlov berish jarayonida paxtachilik kultivatorining mavjud ish organlari tomonidan tuproq talab darajasida yumshatilmasligi natijasida namlikning tez ko‘tarilishi va g‘o‘za ildizlarining ko‘plab shikastlanishi kuzatiladi. Bu g‘o‘zaning rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, hosildorlikning kamayishiga olib keladi. Ushbu kamchiliklarni hisobga olgan holda vegetatsion sug‘orishlardan keyin g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov berishda tuproqning uvalanish sifatini yaxshilash uchun rotatsion yumshatkich ishlab chiqildi [2, 3].

Qishloq xo‘jaligida tuproqni sifatli yumshatish, begona o‘tlarni yo‘qotish va hosildor qatlamni saqlab qolish dolzarb masalalardan biridir [4]. Bu jarayonda rotatsion yumshatkichlardan keng foydalanilmoqda. Mashinaning ish unumdorligi va energiya sarfi asosan unga beriladigan tik bosim kuchiga bog‘liq bo‘ladi [5]. Shuning uchun tik bosim kuchini nazariy va amaliy jihatdan asoslab olish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada rotatsion yumshatkichning tik bosim kuchining nazariy asoslari keltirilgan.

Rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchini umumiy ko‘rinishda qo‘yidagicha ifodalash mumkin:

$$Q = Q_m + 2(Q_{yo} + Q_{ch}), \quad (1)$$

bunda Q_m, Q_{yo} va Q_{ch} – rotatsion yumshatkichlarning markaziy, yonbosh va chetki disklariga beriladigan tik bosim kuchlari, *N*.

Rotatsion yumshatkichning markaziy diskiga beriladigan bosim kuchini aniqlaymiz. Uni qo‘yidagicha ifodalaymiz:

$$Q_m = Q_{m1} + Q_{m2}, \quad (2)$$

bunda Q_{m1} – markaziy diskning pichog‘ini tuproqqa botirish uchun talab etiladigan tik bosim kuchi, *N*;

Q_{m2} – markaziy diskning o‘zini tuproqqa botirish uchun talab etiladigan tik bosim kuchi, *N*.

Q_{m1} ni adabiyotlardan ma’lum bo‘lgan qo‘yidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [6]:

$$Q_{m1} = q_0(1 + K_V V_u^{\,2}) b t_n h_p, \quad (3)$$

bunda q_0 – tuproqning statik hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m^3;

K_v – proporsionallik koeffitsienti, c^2/m^2;

V_u – rotatsion yumshatkichning ilgarilanma harakat tezligi, m/s;

t – dickning qalinligi, m;

t_n – pichoqning qalinligi, m;

b – pichoqning qamrash kengligi, m;

h_p – pichoqning tuproqqa botish chuqurligi, m;

Q_{m2} ni aniqlash uchun qo‘yidagi ifodadan foydalanamiz [6]:

$$Q_{m2} = q_0(1+K_V V_u^{\,2})t(R_m - h_n + h_d)\left\{\left[2(R_m - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - \right.\right.$$

$$\left. -(h_p - h_n + h_d)^2\right]^{\frac{1}{2}} - (R_m - h_p + h_d)\times$$

$$\left.\times \arcsin\frac{\sqrt{2(R_m - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_m - h_n + h_d}\right\}, \qquad (4)$$

bunda V_u – rotatsion yumshatkichning ilgarilanma harakat tezligi;

R_m – rotatsion yumshatkich markaziy diskining radiusi, m;

h_n – rotatsion yumshatkich pichog‘ining balandligi, m;

h_d – pichoqning diskka kirib turadigan qismining balandligi, m.

Q_{m1} va Q_{m2} ni (3) va (4) bo‘yicha qiymatlarini (2) ga qo‘yib, rotatsion yumshatkichning markaziy diskiga beriladigan tik bosim kuchini aniqlaymiz:

$$Q_m = q_o(1+K_V V_u^{\,2})\left\{bt_n h_p + t(R_m - h_n + h_d)\times\right.$$

$$\times\left\{\left[2(R_m - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2\right]^{\frac{1}{2}} - \right.$$

$$\left.\left. -(R_m - h_p + h_d)\arcsin\frac{\sqrt{2(R_m - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_m - h_n + h_d}\right\}\right\} \qquad (5)$$

Bu ifodaga asosan Q_{yo} va Q_{ch} aniqlash uchun qo‘yidagi ifodalarga ega bo‘lamiz:

$$Q_{yo} = q_0(1+K_V V_u^{\,2})\left\{bt_n h_p + t(R_{yo} - h_n + h_d)\times\right.$$

$$\times\left\{\left[2(R_{yo} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^{\,2}\right]^{\frac{1}{2}} - \right.$$

$$\left.\left. -(R_{yo} - h_p + h_d)\arcsin\frac{\sqrt{2(R_{yo} - h_n + h_p)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_{yo} - h_n + h_p}\right\}\right\} \qquad (6)$$

va

$$Q_{ch} = q_0(1+K_V V_u^{\,2})\left\{bt_n h_n + t(R_{ch} - h_n + h_d)\times\right.$$

$$\times\left[2(R_{ch} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2\right]^{\frac{1}{2}} -$$

$$\left.\left. -(R_{ch} - h_p + h_d)\arcsin\frac{\sqrt{2(R_{ch} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_{ch} - h_n + h_d}\right\}\right\}, \qquad (7)$$

bunda R_{yo} va R_{ch} – mos ravishda, rotatsion yumshatkich yonbosh va chetki disklarining radiusi, m.

Q_m, Q_{yo} va Q_{ch} ning (5)-(7) ifodalar bo‘yicha qiymatlarini (1) ga qo‘yib, rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchini aniqlash uchun qo‘yidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$Q = q_0(1+K_V V_u^{\,2})\left\{\left\{bt_n h_p + t(R_m - h_n + h_d)\times\right.\right.$$

$$\left.\times\left\{\left[2(R_{ch} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2\right]^{\frac{1}{2}} - \right.\right.$$

$$-(R_m - h_p + h_d)\arcsin\frac{\sqrt{2(R_m - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_m - h_n + h_d}\Bigg\}\Bigg\} +$$

$$+2\Big\{\Big\{bt_n h_p + t(R_{yo} - h_n + h_d)\Big\{\Big[2(R_{yo} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) -$$

$$-(h_p + h_n + h_d)^2\Big]^{\frac{1}{2}} - (R_{yo} - h_p + h_d)\times$$

$$\times\arcsin\frac{\sqrt{2(R_{yo} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_{yo} - h_n + h_d}\Bigg\}\Bigg\} +$$

$$+\Big\{bt_n h_n + t(R_{ch} - h_n - h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2\Big]^{\frac{1}{2}} -$$

$$-(R_{ch} - h_p + h_d)\times$$

$$\times\arcsin\frac{\sqrt{2(R_{ch} - h_n + h_d)(h_p - h_n + h_d) - (h_p - h_n + h_d)^2}}{R_{ch} - h_n + h_d}\Bigg\}\Bigg\}\Bigg\}\Bigg\}\Bigg\}. \qquad (8)$$

Bu ifodadan ko‘rinib turibdiki, rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchi uning pichoqlarining kengligi, qalinligi, disklarining radius (diametr)lari va qalinligi, tuproqqa botish chuqurligi, rotatsion yumshatkichning ilgarilanma harakat tezligi hamda tuproqning hajmiy ezilish koeffitsientiga bog‘liq.

$q_0=8\cdot10^6 N/m^3$; $K_v=0{,}01c^2/m^2$; $b=0{,}05m$; $t_n=0{,}005m$; $h_n=0{,}05m$, $t=0{,}005m$; $R_m=0{,}19$ m, $h_n=0{,}04m$, $h_d=0{,}04m$, $R_{yo}=0{,}15m$ va $R_{ch}=0{,}1m$ qabul qilinib, (8) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblashlar 1,5-2,0 m/s harakat tezliklarida rotatsion yumshatkich belgilangan chuqurlikka botib ishlashi uchun unga 335-341 *N* oralig‘ida tik bosim kuchi berilishi lozimligini ko‘rsatdi.

Tik bosim kuchining tuproqqa ishlov berish sifati va energiyaga ta’siri ortiqcha bo‘lsa, ish chuqurligi oshib, tuproq strukturasini buzishi mumkin. Kam bo‘lsa, tuproqqa ishlov berish sifati yomonlashadi.

Xulosa

Rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchi tuproqning fizik-mexanik xossalari, yumshatkichning konstruktiv parametrlari va tashqi yuklamalarga bog‘liq. Ushbu kuchni aniq hisoblab topish texnikaning ishlov sifatini oshirishga va energiya tejamkorligiga erishishga yordam beradi. Keyingi tadqiqotlarda bosim kuchining dinamik modellarini tuzish va dala sharoitida eksperimental sinovlar o‘tkazish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimov K.Dj. G‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan rotatsion yumshatkich// Resurstejamkor qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish: Respublika ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallari to‘plami. – Buxoro: 2023. – 318 b. – B. 67-69.

2. Ibragimov K.Dj. G‘o‘za qator oralariga vegetatsion sug‘orishlardan keyin ishlov beradigan rotatsion yumshatkich disklarinig diametrlarini asoslash // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami – Gulbahor: 2024. – 538 b – B. 181-184.

3. Patent № FAP 2696 Qishloq xo‘jaligi ekinlari qator oralariga ishlov beradigan osma kultivator Ibragimov A.A; Abduraxmanov A.A; Ibragimov Q.Dj; Orinbayev P.F. // Rasmiy axborotnoma. – 2025. – № 5 (290).

4. Bobojonov I., Abduxalilov A. Tuproqqa ishlov berish mashinalari nazariyasi. – Toshkent, 2010. – 320 b. –B. 85-102.

5. G‘ulomov A. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. – Toshkent: Mehnat, 2008. – 412 b. – B. 190-205.

6. Mamarasulova M.T. Shudgorlangan yerlarga izma-iz ishlov beradigan mashina g‘altakmolasining turi va parametrlarini asoslash: Diss…(PhD). – Namangan, 2021. – 120 b. – B. 65-70.

Ibragimov K.Dj. Rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchini nazariy asoslash. *Maqolada rotatsion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchining nazariy aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Tuproqning fizik-mexanik xossalari, yumshatkichning konstruktiv parametrlari va ish sharoitlariga asoslangan holda, tik bosim kuchi qiymatini aniqlash uchun zarur bo‘lgan analitik ifodalar keltirilgan.*

Ибрагимов К.Дж. Теоретическое обоснование силы вертикальной нагрузки к ротационному рыхлителю. *В статье рассматриваются теоретические аспекты определения силы вертикалной нагрузки, прилагаемой к ротационному рыхлителю. Приведены аналитические зависимости, необходимые для определения величины вертикалной нагрузки, исходя из физико-механических свойств почвы, конструктивных параметров и условий эксплуатации рыхлителя.*

Ibragimov K.Dj. Theoretical justification of the vertical load force on a rotary cultivator. *This article covers the theoretical aspects of the steep pressure force exerted on the Rotary softener. Based on the physical and mechanical properties of the soil, the constructive parameters of the softener and the operating conditions, the equations necessary to determine the value of the steep pressure force are presented.*

UO‘T 631.316.022

KULTIVATORNING ISH ORGANLARI SEKSIYASI PARALLELOGRAMM MEXANIZMI PRUJINASINING BOSIM KUCHINI ANIQLASH

Tolibayev A.Ye.[1] t.f.d., k.i.x., Tolibayev R.T.[2], Yerniyazov A.[3]

[1] Qishloq xo’jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi.
[2] Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.
[3] Qorao‘zak tumani Politexnikumi.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bir qancha texnologik jarayonlarni qo‘shib bajarishni ta’minlaydigan resurstejamkor texnologiyalar asosida ekinlar hosildorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash muammolarini hal qilishni taqozo etadi. Bunda takroriy ekinlar urug‘larini aniq miqdorlarda ekishda pushtaga ishlov berish muammolari alohida ahamiyatga ega [1].

Shu jihatdan bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga agregatning bir o‘tishida pushtaga minimal ishlov berish va takroriy ekinlar urug‘larini ekish texnologik jarayonlarini qo‘shib bajaradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pushtaga minimal ishlov berish uchun traktor kultivatorning old qismi bilan agregatlanadi [2].

Ushbu maqolada pushtaga minial ishlov beradigan kultivator ish organlari seksiyasiga ta’sir etuvchi kuchlarning nazariy asoslari keltirilgan.

Bu yerda birinchi navbatda ish organlari seksiyasiga ta’sir etuvchi kuchlarni ko‘rib chiqamiz. Ish jarayonida unga quyidagi kuchlar ta’sir etadi (rasmga qarang):

$G=m_c g$ – ish organlari seksiyasining og‘irlik kuchi (bunda m_c – ish organlari seksiyasining massasi, kg; g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2), N;

Q_n – prujinaning bosim kuchi, N;

R – ish organlari seksiyasiga parallelogramm mexanizm tomonidan qo‘yilgan tortish kuchi, N;


N_x, N_z – ish organlari seksiyasining tayanch g‘ildiragiga tuproq reaksiya kuchining mos ravishda gorizontal (bo‘ylama) va tik tashkil etuvchilari, N;

ΣR_{dx}, ΣR_{dz} – ish organlari seksiyasining yassi disklariga ta’sir etuvchi tuproq reaksiya kuchlarining bo‘ylama va tik tashkil etuvchilari, N;

$R_{o'x}$, $R_{o'z}$ – ish organlari seksiyaning o‘qyoysimon panjasiga ta’sir etuvchi kuchlarning bo‘ylama va tik tashkil etuvchilari, N;

ΣR_{TX}, ΣR_{TZ} – ish organlari seksiyasining tekislagichlariga ta’sir etuvchi tuproq reaksiya kuchlarining bo‘ylama va tik tashkil etuvchilari, N;

R_{rx}, R_{rz} – ish organlari seksiyasining rotatsion yumshatkichiga ta’sir etuvchi kuchlarning bo‘ylama va tik tashkil etuvchilari, N.



Ish organlari seksiyasiga ta’sir etuvchi kuchlar

Ish organlari seksiyasi parallelogramm mexanizmining DA zvenosini burilgan tezliklar plani sifatida qabul qilib, barcha ta’sir etuvchi kuchlarni A nuqtaga keltiramiz va ularning D nuqta (sharnir)ga nisbatan muvozanat tenglamasini tuzamiz:

$$\sum M_{Д} = \left(m_c g + Q_n + R_{\check{y}z} - N_z - \sum R_{\partial z} - \sum R_{TZ} - R_{pz}\right) \cdot l_n \cos\tau - \\ -\left(N_x + \sum R_{\partial x} + R_{\check{y}x} + \sum R_{TX} + R_{px}\right) \cdot l_n \sin\tau = 0 \qquad (1)$$

yoki

$$\left(m_c g + Q_n + R_{\check{y}z} - N_z - \sum R_{\partial z} - \sum R_{TZ} - R_{pz}\right) \cdot \cos\tau - \\ -\left(N_x + \sum R_{\partial x} + R_{\check{y}x} + \sum R_{TX} + R_{px}\right) \cdot \sin\tau = 0 \qquad (2)$$

bunda l_n – ish organlari seksiyasi parallelogramm mexanizmi bo‘ylama tortqilarining uzunligi, m;

τ – bo‘ylama tortqilarining gorizontal holatdan og‘ish burchagi, °.

Ish organlari seksiyasiga o‘rnatilgan ish organlari belgilangan chuqurlikka botishi va shu chuqurlikda barqaror yurishi uchun ish jarayonida uning parallelogramm mexanizmining bo‘ylama tortqilari gorizontal holatni egallab ishlashi, ya’ni τ=0° hamda N_z>0 bo‘lishi lozim [3].

Bu shartlar bajarilganda tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi ish organlarining ishlov berish chuqurligiga ta’sir ko‘rsatmaydi hamda tayanch g‘ildirak doimiy ravishda pushta tepasiga bosib turilishi tufayli ish organlari beglilangan chuqurlikka botib ishlaydi.

Bularni hisobga olganda (2) tenglamadan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$N_z = m_c g + Q_n + R_{\check{y}z} - \sum R_{\partial z} - \sum R_{TZ} - R_{pz} > 0 \qquad (3)$$

Bu ifodadan Q_n ni aniqlash uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$Q_n > \sum R_{\partial z} + \sum R_{TZ} + R_{pz} - m_c g - R_{\check{y}z}. \quad (4)$$

Bu ifodada $\sum R_{\partial z} = Q_\partial$, $R_{pz} = Q_p$, $R_{\check{y}z} = K_{\check{y}} B_{\check{y}} h_{\check{y}} tg\psi_{\check{y}}$ (bunda $K_{o'}$ – tuproqning o‘qyoysimon panjaga solishtirma qarshiligi, Pa; $h_{o'}$ – o‘qyoysimon panjaning ishlov berish chuqurligi, m; $\psi_{\check{y}}$ – o‘qyoysimon panjaga ta’sir etuvchi umumiy reaksiya kuchining gorizontdan og‘ish burchagi, ° ekanligini hisobga olib va tekislagichlar pushta tepasiga nisbatan tik o‘rnatilganligi uchun $\sum R_{TZ} = 0$ qabul qilib, quyidagi yakuniy natijani olamiz:

$$\begin{aligned} Q_n > n_\partial q_0 \left(1 + \kappa V^2\right) \Bigg\{ & \delta_o R_\partial \left[\sqrt{2R_\partial h_\partial - h_o^{\,2}} - (R_\partial - h_o) \arccos \frac{R_\partial - h_\partial}{R_\partial} \right] + \\ & + \frac{1 + f ctg\varepsilon}{\cos\varepsilon} \left[R_\partial^{\,2} - \left(R_\partial - \frac{b_\partial - \delta_\partial}{2} ctg\varepsilon \right)^2 \right] \left[\sqrt{\left(R_\partial - \frac{b_\partial - \delta_\partial}{2} ctg\varepsilon \right)^2 - (R_\partial - h_\partial)^2} - \right. \\ & \left. - (R_\partial - h_\partial) \arccos \frac{R_\partial - h_\partial}{\left(R_\partial - \frac{b_\partial - \delta_\partial}{2} ctg\varepsilon \right)} \right] \Bigg\} + Z_\kappa q_o \left(1 + K_v V^2\right) \Big(B_p b_p h_p + \\ & + \delta_p R_{p\partial} \left[\sqrt{R_{p\partial} h_p - \left(0{,}5 h_p\right)^2} - \left(R_{p\partial} - 0{,}5 h_p\right) \arccos \frac{R_{p\partial} - 0{,}5 h_p}{R_{p\partial}} \right] \Big\} - \\ & - m_c g - K_{\check{y}} B_{\check{y}} h_{\check{y}} tg\psi_{\check{y}}. \end{aligned} \quad (5)$$

Bu ifodaga Q_d va Q_p ning yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo‘yib hamda m_c=100 kg, g=9,8 m/s^2, K_o=15·10^3 Pa, $h_{o'}$= 0,1 m, ψ_o=8° [3] qabul qilib, prujinaning bosim kuchi kamida 1187,7 N bo‘lishi lozim.

Xulosa

O‘tkazilgan hisoblashlar natijasiga ko‘ra kombinatsiyalashgan agregat ishchi seksiyasi prujinasining bosim kuchi kamida 1187,7 N bo‘lganda pushtalarga ishlov beradigan ish organlar belgilangan chuqurlikka botishi va bir tekis ishlashi ta’minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Караханов А., Абдурахманов А., Толибаев А.Е. Возделывание повторных культур с применением методов минимальной обработки почвы// Agro ilm. – Tashkent, 2016. – №1. – S.65-66.

2. Tolibayev A.E. Pushta tepasiga minimal ishlov beradigan ish organlarining parametrlarini asoslash// Ozbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. – Toshkent, 2023. – №2. B. 55-57.

3. To‘xtaqo‘ziyev A., Mansurov M., Rasuljonov A., Karimova D. Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlash chuqurligi barqarorligini ta’minlashning ilmiy asoslari. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2020. – 168 b.

Tolibayev A.Ye., Tolibayev R.T., Yerniyazov A. Kultivatorning ish organlari seksiyasi parallelogramm mexanizmi prujinasining bosim kuchini aniqlash. *Maqolada pushtaga minial*

ishlov beradigan kultivator ish organlari seksiyasiga ta’sir etuvchi kuchlarning nazariy asoslari keltirilgan.

Толибаев А.Е., Толибаев Р.Т., Ерниязов А. Обоснование силы нагрузки пружины параллелограммного механизма секции рабочего органа культиватора. *В статье представлены теоретические основы определения сил, действующих на секцию рабочего органа культиватора для минимальной обработки почвы.*

Tolibaev A.E., Tolibaev R.T., Erniyazov A. Justification of the load force of the spring of the parallelogram mechanism section of the cultivator's working body. *The article presents the theoretical foundations for determining the forces acting on the section of the cultivator's working body for minimal soil tillage.*

UO‘T 631.3.:662.76(043)

TEJAMKOR SUG‘ORISH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING TAHLILI

Xakimov B.[1], Sharipov Z.[1], Usmanov T.[2]

[1] Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti.

[2] Belorus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti.

Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘lamini, jumladan suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llagan holda, oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hammamizga ma’lumki, hozirgi kunda suv resurslarining tanqisligi yildan-yilga ortib bormoqda. Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, zamonaviy suv tejamkor texnologiyalardan foydalangan holda suvdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

“Dunyo miqyosida ekinlarni sug‘orishda tejamkor usullari 80-90 % qo‘llanilishini hisobga olsak” ish sifati va unumi yuqori hamda suv tejamkor texnologiyalarga ko‘chma xizmat ko‘rsatish qurilmasini yaratish, ishlab chiqarish va joriy etish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Tejamkor sug‘orish tizimining bosimi 0,07...0,28 MPa bo‘lib, arzon naychalardan foydalanish mumkin. Tomchilatkichning konstruksiyasi shunday qilinganki, suv bosimi sezilarli darajada o‘zgarishiga qaramasdan bir xil me’yordagi (1,2 l/soat) suvni tomizadi.

Suv quvuri va naychalarining qora rangli plastmassadan tayyorlanganligi, ularning ichida mikroo‘simliklar rivojlanishining oldini oladi. Bizga ma’lumki, hozirgi kunda suv tejamkor sug‘orish qimmat sug‘orish tizimlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun suv tejamkor sug‘orish uskunasining ishlash muddatini maksimal darajada oshirish juda muhimdir.

Suv tejamkor sug‘orish usulini qo‘llashdagi asosiy muammolar:

1. Suv tejamkor sug‘orish usulidan foydalanilganda ekinlarni almashlab va navbatlab ekish tizimlari yaratilmagan;

2. Suv tejamkor sug‘orish usuliga mos o‘g‘it turlari yetishmaydi;

3. Suv tejamkor sug‘orish usulida sug‘orilganda ekinlarni o‘g‘itlash universallashmagan;

4. Suv tejamkor sug‘orish tizimlari va yer osti quduqlarida ishlatiladigan nasoslarga ko‘chma texnik xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmagan.

Mavsum davomida to‘g‘ri ishlashi, o‘z vaqtida profilaktika va servis ishlari tizimning ishlash muddatini sezilarli darajada uzaytiradi. Yana bir asosiy ishlardan biri butun tizimni mavsumiy saqlashni to‘g‘ri tashkillashtirishdir.

Amaldagi sug‘orish tizimlariga mavsum oxirida texnik xizmat ko‘rsatiladi va saqlash uchun qo‘yiladi. Bizga ma’lumki, hozirda o‘rnatilayotgan suv tejamkor sug‘orish tizimlarining ayrim elementlari va sug‘orish naychalari bir yilga moslashtirilgan va keyin chiqitga chiqarish uchun daladan chiqariladi [2, 3, 4].

Bu ekologik omil - bu dalani polietilen quvur qoldiqlari va boshqa polimer chiqindilaridan tozalash ishlariga qo‘shimcha xarajat qilishga to‘g‘ri keladi. Manbalar tahliliga ko‘ra, plastmassa

tuproqda parchalanmaydi, shuning uchun suv tejamkor sug‘orish usuli qo‘llanilgan ko‘plab fermerlarning dalalari ushbu tizim qoldiqlari bilan ifloslangan. Suv tejamkor sug‘orish tizimi samarali ishlamasligi uchun asosan ikkita xavf mavjud:

Biologik xavf – tomchilatgichda (to‘zitgich) bakteriyalar va suv o‘tlarining rivojlanishi va o‘sishi.

Kimyoviy xavf – sulfid ionlarining yuqori konsentratsiyasi temir va marganesning cho‘kishiga olib kelishi mumkin. Bunda suvni doimiy ravishda kislotalash yoki suvni cho‘ktirish uchun hovuzdan foydalanish bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Bu muammolar suv tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, suv tejamkor sug‘orish tizimlarida foydalanilayotgan suv manbalari tarkibini tekshirish va normalashni talab qiladi.

Masalan, tarkibida 0,1 mg/l dan ortiq sulfid bo‘lgan suv sug‘orish tizimida oltingugurt yuvuvchi bakteriyalarning ko‘payishini oshirishi mumkin. Bunda suvni doimiy xlorlash kerak bo‘ladi.

Agar suvda marganes tuzlari mavjud bo‘lsa, xlorlashdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak, chunki bu tomchilatgich (to‘zitgich)larga tiqilib qolishi mumkin [5, 6, 7, 8].

1-jadvalda suv sifatiga qo‘yiladigan talablar va sug‘orish tizimining tiqilib qolishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlari oldini olish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

1-jadval

Amaldagi suv sifati bilan bog‘liq turli muammolarni bartaraf etish usullari

Muammo	Bartaraf etish variantlari
Temirni o‘z ichiga olgan cho‘kmalar (Qizil gil)	- Bunda 0,7 mg/l temir uchun 1 mg/l xlor cho‘kmaning filtrlanishini tezlashtirish uchun filtrdan oldin qo‘shiladi. - Har kuni 30 dan 60 minutgacha Ph ni 4 yoki undan kamroq darajaga tushirish. - Xlorni 1 mg/l erkin xlor miqdorda doimiy ravishda yoki 10 dan 20 mg/l gacha, kuniga 30 dan 60 minutgacha yuborish. - Xlorlash samarali bo‘lishi uchun Ph 7,0 dan oshmasligi kerak.
Marganets (Qora qoplama)	Filtrdan oldin 1,3 mg/l marganes asosida 1 mg/l xlorni quyish.
Bakterial cho‘kindi va suv o‘tlari	Har bir sug‘orish davrining oxirida 20 daqiqa davomida 0,5-1 mg/l doimiy yoki 20 mg/l xlorni yuborish.
Temir sulfid (Qora qum)	Ph ni 5 dan 7 gacha tushirish uchun doimiy ravishda kislota qo‘shib temirni eritib yuborish

Bu omillarning barchasi, ma’lum bir manbaning suvida mavjud emas. Shuning uchun suv manbasini to‘g‘ri tanlash va tejamkor sug‘orish tizimidan foydalanish uchun rejalashtirilgan suvning kimyoviy tahlilini o‘tkazish juda muhimdir.

Xulosa

1. Yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va tuzatish uchun sug‘orish tizimining ishlashini muntazam tekshirib turing. Yer osti suvlarining pasayib ketish bilan bog‘liq davriy tahlillarini o‘tkazish.

2. Tizimni texnik holatiga muvofiq vaqti-vaqti bilan yuvish va suv quduqlaridagi nasoslarning ish faoliyatini diagnostik tahlil qilish kerak. Vaqti-vaqti bilan uning holatini kuzatish uchun tizimning eng tashqi nuqtalarida bosimni tekshiring.

3. Sug‘orish tizimi uchun sifatli materiallardan foydalaning, chunki yer osti sug‘orish tizimlari odatda uzoq muddatga o‘rnatiladi va katta sarmoya talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. http://agro.uz/uz/information/about_agriculture/435/4429/

2.http://newswatch.nationalgeographic.com/2012/06/25/drip-irrigation-yexpanding-worldwide.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son Qarorida ko‘rsatilgan 63-maqsad: Qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash.

4. Xakimov B., Sharipov Z., Yo‘ldoshev Sh. Mobil xizmat ko‘rsatish mashanasi uchun aralashmali yonilg‘i hosil qilishning nazariy asoslari// Toshkent davlat agrar universiteti. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari nomli Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 2024. – B. 226-230.

5. Ergashev S., Bekmirzayeva I., Nazarkulov U. Qurg‘oqchilik hududlarida suv resurslarini minimal sarflaydigan irrigatsiya va melioratsiya hamda qishloq xo‘jaligini yuritish usullari bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent: 2012.

6. Дубенок Н.Н., Майер А.В., Гуренко В.М., Бородычев В.В. Система комбинированного орошения и эффективность производства овощной продукции// Известия нижневолжского агроуниверситетского комплекса: наука и высшее профессиональное образование. 2019. № 2 (54). С. 253-265.

7. Курбанов С.А., Майер А.В. Исследования систем капельного орошения с мелкодисперсным дождеванием// Проблемы развития АПК региона. 2012. № 3. С. 15-19.

8. Акпасов А.П., Туктаров Р.Б. Конструктивные характеристики системы автоматизированного полива при комбинированном орошении сельскохозяйственных культур// Московский экономический журнал, 2023. – №3.

Xakimov B., Sharipov Z. Tejamkor sug‘orish tizimlaridan foydalanishdagi muammolar va ularning tahlili. *Maqolada suv tejaydigan sug‘orish tizimlarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish, xarid qilish, joylarda loyihalashtirish va o‘rnatishdagi kamchiliklar hamda ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning bu boradagi ko‘nikmalari yetarli emasligi va tizimning asosiy kamchiliklari haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.*

Хакимов Б., Шарипов З. Проблемы применения водосберегающих систем орошения и их анализ. *В статье представлена аналитическая информация о недостатках в производстве, поставке, техническом обеспечении, закупке, проектировании на месте и монтаже водосберегающих оросительных систем, об отсутствии навыков у некоторых сельхозпроизводителей в этой области, а также об основных недостатках данной системы.*

Khakimov B., Sharipov Z. Problems of application of water-saving irrigation systems and their analysis. *The article provides analytical information on shortcomings in the production, supply, technical support, procurement, on-site design, and installation of water-saving irrigation systems, the lack of skills among some agricultural producers in this area, and the main shortcomings of this system.*

UO‘T 631.311

MEVALI BOG’ DARAXTLARINING TANA ATROFIDAGI BEGONA O’TLARNI O’RADIGAN QURILMA KONSTRUKSIYASI

To‘rayev O.O.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.


Bog‘dorchilikda yuqori hosildorlikka erishish va mahsulot sifatini oshirishda tuproqqa ishlov berish, o‘g‘itlash, sug‘orish bilan bir qatorda, daraxt tana atrofidagi o‘tlardan tozalash ham

muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Begona o‘tlar tuproqdagi namlik va ozuqaviy moddalarni olib, daraxtlarning normal o‘sishiga to‘sqinlik qiladi, hosilning kamayishiga va sifati pasayishiga olib keladi. Shuningdek, ular turli zararkunandalar va kasalliklar tarqalishi uchun qulay muhit yaratadi.

Amalda tup oralarini qo‘l mehnati yoki oddiy vositalar yordamida tozalash katta vaqt va mehnat sarfini talab qiladi. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, bog‘larda tup oralaridagi begona o‘tlarni mexanik usulda samarali yo‘qotish imkonini beradigan maxsus mashinalarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb vazifa dir.

So‘nggi yillarda daraxt tana atrofidagi begona o‘tlarni yo‘qotadigan turli xil agregatlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati konstruktiv jihatdan murakkabligi, xizmat ko‘rsatish qiyinligi va energiya sarfining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, sodda tuzilgan, ishonchli va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan daraxt tana atrofidagi begona o‘tlarni o‘radigan mashina konstruksiyasini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida QXMITI “Bog‘dorchilik va sabzavotchilikni mexanizatsiyalash” laboratoriyasi olimlari tomonidan bog‘larda daraxtlarning atrofidagi begona o‘tlarni o‘radigan qurilmaning konstruksiyasi ishlab chiqildi (rasm.).



Rasm. Bog‘larda daraxtlarning atrofidagi begona o‘tlarni o‘radigan qurilmaning konstruktiv sxemasi

Qurilma quyidagilardan tashkil topgan: avtoulagich 1, asosiy rama 2, qo‘zg‘aluvchan rama 3, parallelogram mexanizmi 4, zanjir 5, gidromotor 6, himoya diski 7, tayanch g‘ildirak 8 , pichoq 9, konussimon tayanch 10, prujina 11.

Qurilma texnologik jarayonni quyidagicha bajaradi: traktorga qurilma avtoulagich yordamida agregatlanadi va ishchi holatiga keltiriladi. Bog‘dagi daraxtlarning tuplari diametri va yon shoxlarining o‘sish darajasi ya’ni, daraxtlarning gabitusi hisobga olinib rostlanuvchi rama daraxt tup atrofidagi o‘tlarni o‘rishga o‘rish apparati rostlanadi. Bunda asosiy ramaga kiritilgan qo‘zg‘aluvchi ramaga parallelogram mexanizimiga sharnirli o‘rnatilgan o‘rish apparati traktorning gidrotaqsimlagichiga shlanglar orqali ulangan gidromotor orqali pichoqlar harakatlantiriladi. Parallelogram mexanizmi o‘rish apparatini gorizontal tekislikka nisbatan parallel harakatlanishini ta’minlaydi.

Qurilma rostlanib ishga tushirilgandan keyin traktorning gidrotaqsimlagichi yuqori bosim bilan moy haydav, gidromotorni harakatlantiradi. Pichoqlar diskka qo‘zg‘almas qilib mahkamlangan. Traktor harakatlanishi bilan qurilma ishga tushirilib, tuplar orasidagi begona o‘tlarni o‘rishni boshlaydi.

Qurilma harakatlanib daraxt tupiga kelganda o‘rish apparatiga o‘rnatilgan maxsus rezina qoplamali himoyalovchi disk kelib ta’sirlashadi, shu paytda prujinaning ta’sir kuchini yengib tupni aylanib o‘tib, harakatini davom ettiradi.

Bog‘bonlarimizning qo‘l mehnatini kamaytirib, bog‘lardan mo‘l hosil olish uchun agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish, ya’ni tuproqdagi ozuqa moddalarni o‘zlashtirishiga va zararkunanda hashoratlarning rivojlanishiga va ko‘payishining oldini olib, tuplar orasidagi begona o‘tlarni o‘radigan qurilmani qo‘llash orqali qo‘l mehnati va sarf harajatlarni kamayishga erishiladi.

Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida yuqorida qayd etilgan qurilmaning parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

To‘rayev O. Mevali bog’ daraxtlarining tana atrofidagi begona o’tlarni o’radigan qurilma konstruksiyasi. *Maqolada bog‘larda daraxt tanasi atrofidagi begona o’tlarni o’radigan qurilmaning konstruktiv sxemasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni keltirilgan.*

Тураев О. Машина для скашивания сорной растительности в садах между деревьями. *В статье приведены необходимость применения устройства для скашивания сорняков в садах между деревьями, его конструкция и технологический процесс работы.*

Turaev O. Weed cutting machine in orchards between trees. *The article presents the necessity of using a weed cutting device in orchards between trees, its design, and the technological process of operation.*

UDC 631.313.1

EFFECT OF SPRAY PARAMETERS ON SPRAY DEPOSITION DISTRIBUTION OF PLANT PROTECTION UAV IN MELON FIELDS

Xiao Chen[1], Xiao Zhang[1], Xuejun Zhang[2], Mubashar Raza[2], Jingjing Fu[1], Yan Gong[1], Yushanjiang Maimaiti[2]

[1] Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, Nanjing 210014, China
[2] Xinjiang Academy of Agricultural Sciences, Urumqi, Xinjiang 830091, China

Introduction

Plant protection UAVs have the characteristics of high operational efficiency, water-saving and pesticide-saving, high flexibility, wide adaptability, low labor intensity, and low labor input, which have been widely applied in different crops [7-8]. Melons in open fields were mostly planted in climbing mode, with large and dense melon leaves that blocking each other [1-2]. When the flight height was too low, the UAV's downwash airflow could cause excessive flipping of the vines, resulting in physical damage to the vines. However, increasing flight height and accelerating flight speed could result in a trend of change in the downwash flow of UAVs from strong to weak, and the distribution state from concentrated to dispersed [3-5], which affected the uniformity of droplet deposition and led to unsatisfactory prevention effects. At present, the application of UAVs in disease and pest control of large-scale melon planting in open field has problems such as uneven operation quality and significant differences in control effects. Hence, study on the influence of different spray parameters on the droplet deposition distribution of UAVs will help to improve the operation quality of low height and low application amount in melon fields and drawing up operation standards for UAVs.

Materials and Methods

Experimental site

Experiment was performed in Jiashi County, Xinjiang, using DJ T50 plant protection UAV. Based on the pre-experiment, three factors and three levels of orthogonal experiments were designed for the flight height, flight speed, and application amount of plant protection UAV, as shown in Table 1.

Characterization

Five points were selected along the UAV spray width as the sample points, each point was arranged with water sensitive paper/filter paper on the front and back, and the paper cards were arranged in the same way along the flight direction of the implement at an interval of 10 meters (Fig.1), as three repetitions.

Table 1 Orthogonal experiments

Test number	flight height (m)	flight speed(m/s)	application amount (L/ha)
1	2	3	30
2	2.5	5	30
3	3	4	30
4	2	4	37.5
5	2.5	3	37.5
6	3	5	37.5
7	2	5	45
8	2.5	4	45
9	3	3	45




Fig.1 The specific layout points

After the spray was completed, the droplets on the water sensitive paper should be completely dried, and then recovered quickly and sealed for storage to prevent mois-ture.The recycled water sensitive paper cards were scanned, and Deposit Scan image analysis software was used to calculate the droplet coverage on the paper card. The unit area deposition of red tracer on each sampling filter paper was calculated ac-cording to the following formula [6].

$$p = \frac{f(A) \times V}{S} = \frac{f(A) \times V}{\pi r^2} \tag{1}$$

Where, p—Deposition amount of droplet per unit area, μg/cm^2;

A—The absorbance value of the washed temptation red solution;

f(A)—The concentration of temptation red in the washed temptation red solu-tion, μg/ml;

V—The amount of clean water added when soaking the filter paper sample, ml;

S—Area of disc filter paper, cm^2;

r—Disc filter paper radius, cm.

The coefficient of variation (CV) is the ratio of the standard deviation to the mean of a set of data, it could be used to describe the uniformity of droplet deposition distribution.

$$CV = \frac{S}{\overline{X}} \times 100\%$$
$$S = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n} (X_i - \overline{X})^2}{n-1}} \tag{2}$$

where，CV—coefficient of variation，%;

S – standard deviation;

$\overline{X}$ – average value;


n – number of samples;

Xi – i-th value.

Results and Discussion

Analysis of the interactive effects of experimental factors


The surface plot of the influence of flight speed (A) and flight height (B) on CV of droplet deposition when application amount was 45L/ha are shown in Fig.2. Under the medium droplet size, when the flight speed was constant, CV of droplet deposition gradually decreased from large to small when the flight height was low to high, it was the maximum when flight height was the range of 2-2.2m. It might be due to the severe overturning of the melon vines caused by the low flight height, resulting in poor uniformity of droplet distribution. However, when the flight speed was 5m/s, the uniformity of droplet deposition was poor within the range of 2.8-3.0m, indicating that the drift increased significantly with the increase of flight height and speed.



(a) Medium droplet size (b) Large droplet size

Fig. 2 The influence of flight speed and flight height on the uniformity of droplet deposition


When the flight speed was 4m/s, the influence of flight height (A) and application amount (C) on CV of droplet deposition are shown in Fig.3. CV of droplet deposition will slowly increased with the increase of application amount and flight height. When the flight height was between 2.8 and 3.0 m, CV changed significantly, which might be due to the increased risk of droplet drift after increasing the flight height, leading to a decrease in the uniformity of droplet deposition. And CV of droplet deposition significantly slowed down under the large droplet size.



(a) Medium droplet size (b) Large droplet size

Fig. 3 The influence of flight speed and application amount on the uniformity of droplet deposition

When the flight height was 2.5m, the influence of flight speed (B) and application amount (C) on CV of droplet deposition are shown in Fig.4. when the application amount was constant, CV of droplet density was not significantly affected by the change in flight speed. The effect on the uniformity of droplet deposition of flight speed was significantly smaller than application amount.



(a) Medium droplet size (b) Large droplet size

Fig. 4 The influence of flight height and application amount on the uniformity of droplet deposition

Determination of field control effectiveness in open melon field

The control of melon powdery mildew in the open field was carried out in Jiashi, Xinjiang. The experimental pesticide used was the fungicide 29% pyrrolidone, with CK as the blank control. Under 9 orthogonal experimental conditions for each of the two specifications of medium/large droplet sizes, the field control effectiveness determination on the 15th days after application are shown in Table 2. It could be seen that the relative prevention effect of large droplet size in the field was significantly better than that of medium droplet size. Therefore, the optimal processing parameters were: flight height 2.5m, flight speed 4m/s, and application amount 45L/ha.

Table 2 Field control effectiveness determination of different experimental treatments under medium droplet size

Experiment treatments	medium droplet size		large droplet size	
	15th days after application		15th days after application	
	Relative prevention	Effect of disease index (%)	Relative prevention	Effect of disease index (%)
1	86.05	11.33	87.16	10.19
2	87.90	9.43	96.79	0.27
3	81.98	15.53	89.88	7.39
4	89.38	7.90	92.35	4.85
5	89.38	7.90	78.52	19.09
6	91.36	5.86	77.53	20.11
7	91.11	6.12	89.38	7.90
8	95.06	2.05	81.85	15.66
9	95.56	1.54	82.72	14.77
CK	97.05	/	97.05	/

Conclusion

According to experimental studies, the optimal treatment parameters based on the amount of droplet deposition were: large droplet size, flight height 2.5m, flight speed 4m/s, and application amount 45L/ha.

References

1.Miceli Alessandro;Vetrano Filippo;Torta Livio;Esposito Alessandro;Moncada Alessandra.Effect of Mycorrhizal Inoculation on Melon Plants under Deficit Irrigation Regimes.Agronomy,2023,13(2): 440.

2. Gopalakrishnan Vinoj;Burdman Saul;Jurkevitch Edouard;Helman Yael.From the Lab to the Field: Combined Application of Plant-Growth-Promoting Bacteria for Mitigation of Salinity Stress in Melon Plants.Agronomy,2022,12(2):408.

3. Fan Gangao;Liu Zhijie;Qin Yijuan;Long Bo;Li Huifen;Li Jiyu.Airflow characteristics of rotorcraft plant protection UAV operating in rice fields.Biosystems Engineering,2023,226:209-222.

4. Wang Bin;Zhang Yan;Wang Chunshan;Teng Guifa.Droplet Deposition Distribution Prediction Method for a Six-Rotor Plant Protection UAV Based on Inverse Distance Weighting.Sensors,2022,22(19):7425.

5. Zhu Yaozong;Guo Qiwei;Tang Yu;Zhu Xing;He Yong;Huang Huasheng;Luo Shaoming.CFD simulation and measurement of the downwash airflow of a quadrotor plant protection UAV during operation.Computers and Electronics in Agriculture,2022,201.

6. Chen Chongchong;Li Shougen;Wu Xiaoyi;Li Jiale;Jia Yalan;Kang Feng;Wang Yaxiong.Research on the deposition law of the spray droplet group based on single droplet multiphase flow simulation.Journal of Cleaner Production,2023,423.

Chen X., Zhang X., Zhang X., Raza M., Fu J., Gong Y., Maimaiti Y. Qovun dalalarda o‘simliklarni himoya qilish uchun uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishda purkash parametrlarining purkalayotgan modda cho‘kishi taqsimlanishiga ta’siri. *Maqolada qovun ekilgan maydonlarda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanilganda turli purkash parametrlarining (uchish balandligi, uchish tezligi, tomchilar o‘lchami va purkalayotgan modda miqdori) purkalayotgan modda cho‘kishining taqsimlanishiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.*

Чен С., Чжан С., Чжан С., Раза М., Фу Ц., Гун Ю., Маймайти Ю. Влияние параметров распыления на распределение осаждения распыляемого вещества при использовании беспилотных летательных аппаратов для защиты растений на полях с дынями. *В статье представлены результаты экспериментальных исследований влияния различных параметров распыления (высота полета, скорость полета, размер капель и количество распыляемого вещества) на распределение осаждения распыляемого вещества при использовании беспилотных летательных аппаратов на полях с дынями.*

Chen X., Zhang X., Zhang X., Raza M., Fu J., Gong Y., Maimaiti Y. Influence of spraying parameters on the distribution of spray deposition when using unmanned aerial vehicles for plant protection in melon fields. *The article presents the results of experimental studies on the effect of various spraying parameters (flight altitude, flight speed, droplet size, and amount of sprayed substance) on the distribution of spray deposition when using unmanned aerial vehicles in melon fields.*

Translated with DeepL.com (free version)UDC 631.313.1

MECHANIZED TECHNOLOGIES AND EQUIPMENT FOR OPEN-FIELD WATERMELON AND MELON PRODUCTION IN NORTHWEST CHINA

Chen X.[1], Gong Y.[1], Fu J.[1]

[1] Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, Nanjing 210014, China

Introduction

China is a major producer of watermelons and melons, with both its planting area and output ranking first in the world. In 2023, China's watermelon planting area was 1495.3 thousand hectares, and the melon planting area was 395.8 thousand hectares [1]. However, the watermelon and melon industry is labor-intensive, with strong seasonality, high labor demand, and high labor intensity. It is currently in the development stage of "machine replacement", and the comprehensive mechanization rate for cultivation, planting, and harvesting is still relatively low. In 2024, the comprehensive mechanization rate of open-field cultivated watermelons and melons in China was approximately 45%, and that of protected cultivation was less than 40%. Mechanized production mainly concentrated in soil preparation, plant protection, and water and fertilizer integration. However, the transplanting (direct seeding), plant management, and harvesting lack specialized machinery that matches the planting agronomy, and still mainly rely on manual labor. To address these issues, the Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs has developed a series of specialized mechanized equipment for watermelon and melon production, based on typical planting models such as "double-film planting" and "ridge planting with furrow irrigation" for open-field watermelons and melons in the northwest production areas. The operation efficiency is more than 8 times higher than that of manual labor, saving labor costs by 3750 yuan per hectare.

Current Situation of Mechanization in Watermelon and Melon Production

Currently, China's watermelon and melon industry is in the development stage of "machine replacement", and significant progress has been made in the research and development of mechanized technologies for watermelon and melon production. In terms of cultivation technology, the symmetric forced vibration excitation device and vibration subsoiler have solved the problems of excessively shallow plough layer, soil compaction, and aggravated continuous cropping obstacles of watermelons and melons. The Hami precision seeder has realized precise seed filling and sowing of irregular seeds such as the oblong seeds of Hami melons. In terms of transplanting technology, focusing on four major directions: basic research on the mechanical properties of seedlings, optimal design of transplanting mechanisms, development of automatic control systems, and integration of intelligent technologies, the transformation and upgrading from traditional mechanical transplanting to intelligent and precise operations have been initially achieved. In terms of small arch shed mechanization technology, the creation of automatic small arch shed erecting machines and recycling machines has realized the mechanization of the links of building and dismantling small arch sheds. In terms of grafting technology, focusing on the optimization of grafting structure design and intelligent identification and positioning technology, it has promoted the leap of grafting equipment from semi-automation to fully autonomous operations. In terms of field management technology, technologies such as big data, the Internet of Things, and machine vision have been deeply integrated with plant protection machinery, and variable pesticide application and target-oriented pesticide application have significantly improved operation accuracy and efficiency. In terms of harvesting technology, the application of watermelon and melon picking and transportation platforms has greatly reduced manual labor.

Technology and Equipment for Integration of Machinery and Agronomy

To address the issues in the production of open-field watermelons and melons in Northwest China, such as high labor demand, high labor intensity, low mechanization level, and the resulting decline in comparative benefits of cultivation, the Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, has broken through the key technologies of integrating agricultural machinery and agronomy and developed a series of special equipment for watermelons and melons, based on the typical planting patterns in the northwest areas, such as "double-film planting" and "ridge cultivation with furrow irrigation" for open-field watermelons and melons.

To address issues such as the easy caking of organic fertilizers, uneven mechanical application, and prone blockage of machinery, key technologies including power-driven fertilizer crushing, forced fertilizer conveying, and speed-dependent (tractor driving speed) variable fertilizer discharge have been developed. An organic fertilizer deep applicator has been invented, as shown in Figure 1, which solves the problem of mechanical application of organic fertilizers. It realizes the online mixing, deep application and precise control of the proportion of organic fertilizers/chemical fertilizers, providing supporting equipment for green cultivation technologies of watermelons and melons such as "multiple substitution of chemical fertilizers" and "combination of organic and inorganic substances"[2].

To address issues such as poor adaptability of vegetable transplanters to melon seedlings, high mechanical damage rates, low survival rates of transplanting in dry land, and lack of the function of covering soil in planting holes, breakthroughs have been made in key technologies such as non-destructive conveying and planting of melon seedlings, variable water injection at the root base, and precise soil covering of planting holes. A compound operation machine for pipe-laying, film-laying, and water-sitting transplanting of watermelons and melons has been developed, as shown in Figure 2, which can complete rotary tillage, pipe-laying, film-laying, melon seedling transplanting, root base water injection, soil covering in planting holes, and compaction in one operation process. Under the high-temperature and arid conditions in Turpan, the survival rate of melon seedlings transplanted with water in dry land and drip-irrigated 8 hours later exceeds 97%[3].



Fig.1 Organic fertilizer deep application



Fig.2 Watermelon and melon pipe-laying, film-laying, water-sitting and transplanting compound operation machine

To address the issues ofhigh labor intensity, and low operational efficiency in the construction of small arch sheds for watermelons and melons, key technologies such as automatic bending, vertical insertion, and contour film covering for small arch shed erection were developed, leading to the creation of an automatic small arch shed erection machine (Figure 3). This machine enables automatic single separation, orderly transportation, timely placement, precise grabbing, bending and planting of shed poles, as well as combined operations of covering shed films and soil covering on film edges [4-5].

Key core technologies and components for automatic extraction, transportation and storage of small arch shed frames, and automatic rolling of shed films have been developed. The small arch shed automatic recycling machine (Figure 4) has been integrally invented, realizing the mechanized recycling operation of shed frames and shed films. This machine can be paired with the small arch shed automatic erection machine to realize the mechanization of the shed building and dismantling of small arch sheds, which greatly improves the operation efficiency of "double-film planting" of open-field west watermelons and melons in northwest China.



Fig.3 Automatic erection machine for small arch sheds



Fig.4 Automatic recycling machine for small arch sheds

It has overcome technical challenges such as precise deep application of fertilizers, energy conservation and consumption reduction of ditching and soil-inserting components, directional movement of furrow soil with reduced resistance, mechanized profiling and film covering on ridges, and uniform spraying of herbicides under the film. It has developed a combined operation machine for fertilization, pesticide spraying, ditching, film covering and soil covering (Figure 5), realizing the full-process mechanized combined operation of tillage and soil preparation for dry-pond melons.

Based on technologies such as a four-wheel independent electric drive chassis with high field passability and multi-sensor fusion high-precision navigation, a multi-functional intelligent operation platform for watermelons and melons (Figure 6) has been developed. It realizes operation path planning and tracking, autonomous walking operation, intelligent following, and obstacle avoidance, and can be used for intelligent operations such as pesticide spraying, intertillage and weeding, topping, and post-harvest transportation of open-field watermelons and melons.

Key technologies and devices such as large-load transmission and orderly lifting, flexible anti-collision and shock absorption, and hydraulic folding of the transmission system for mechanized harvesting of open-field watermelons and melons have been developed. A simplified harvesting and transportation operation platform for watermelons and melons (Figure 7) has been created, laying a foundation for the integrated development of such platforms.



Fig.5 Fertilizing, spraying, ditching, film mulching and soil covering combined operation machine



Fig.6 Multi-functional Intelligent Operation Platform for Watermelons and Melons



Fig.7 Light and Simplified Harvesting and Transportation Operation Platform

Results and Discussion

The application of a series of special equipment for the watermelon and melon has realized efficient and simple mechanized operations in the northwest production areas in the application of organic fertilizer, soil tillage and preparation, planting, plant protection, and harvesting. Compared with the traditional operation mode, the operation efficiency has increased by more than 8 times, and the labor cost has been saved by 3750 yuan per hectare.

Conclusion

With the development of mechanized equipment technology for watermelon and melon production, the production of watermelons and melons will show a trend of evolving from the primary "machine replacement for labor" to advanced, applicable, high-quality, efficient, and full-process mechanization, and gradually transforming and upgrading towards greenization, intellectualization, and informatization.

References

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2024). *Crop production data* . FAOSTAT. Retrieved July 5, 2024, from https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL

2.Xiao Chen; Yan Gong*; Xiao Zhang; et al. Design and experiment of 2F-40 type suspended organic fertilizer deep applicator. Agricultural Mechanization in Asia,2022,53（1）:5329-5336

3.Dejiang Liu; Yan Gong*;Xuejun Zhang;et al. Design and Experiment of Dry-Farming Cantaloupe Transplanter under Water. Agriculture, 2022, 12(6),796-808

4.Jianling Hu, Yan Gong,Xiao Chen. Design and Parameter Optimization of Rotary Double-Insertion Device for Small Arched Insertion Machine.Agriculture,2024, 14(5): 739-757.

5.Xiao Chen, Jianling Hu, Yan Gong*, Qingxu Yu ,Zhenwei Wang ,Xiaozhong Deng and Xinguo Pang. Design and Test of Automatic Feeding Device for Shed Pole of Small-Arched Insertion Machine. Agriculture,2024, 14(7):1187-1201.

Chen X., Gong Y., Fu J. Shimoli-g‘arbiy Xitoyda ochiq maydonda tarvuz va qovun yetishtirish uchun mexanizatsiyalashtirilgan texnologiyalar va uskunalar. *Maqolada shimoli-g‘arbiy Xitoyda ochiq maydonda tarvuz va qovun yetishtirish uchun mos keladigan ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish uskunalari taqdim etilgan***.**

Чен С., Гун Ю., Фу Ц. Механизированные технологии и оборудование для выращивания арбузов и дынь в открытом грунте в северо-западном Китае. *В статье*

представлено оборудование для механизации производства, подходящее для выращивания арбузов и дынь в открытом грунте в северо-западном Китае.

Chen X., Gong Y., Fu J. Mechanized Technologies and Equipment for Open-Field Watermelon and Melon Production in Northwest China. *The article introduces the production mechanization equipment suitable for open-field cultivation of watermelons and muskmelons in northwest China.*

UO‘T 631.431.7

G‘ALLADAN BO‘SHAGAN MAYDONLAR TUPROG’INING FIZIK-MEXANIK XOSSALARI VA DALA AGROFONI

Tangirov I.U.[1] tayanch doktorant, Batirov G’.Sh.[2] mustaqil izlanuvchi

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[2] Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida g‘alla yetishtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har yili millionlab gektar maydonlarda bug‘doy, arpa va boshqa don ekinlari ekiladi. Bu maydonlardan hosil yig‘ib olingach, tuproqning qanday holatda qolishi va keyingi ekinlar uchun qanday sharoit yaratishi juda muhim masaladir. G‘alla yig‘im-terimidan keyin bo‘sh qolgan maydonlarning tuproq xususiyatlarini o‘rganish ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Chunki tuproqning namligi, zichligi, qattiqligi va strukturasi keyingi mavsumda ekinlarni ekish usulini belgilaydi. Respublikamizda, ayniqsa sug‘oriladigan hududlarda, tuproqlarning bu xususiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish (no-till) texnologiyasini qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Hozirgi zamonaviy sharoitda g‘alladan bo‘shagan maydonlardan qisqa muddatda maksimal foyda olish va bir vaqtning o‘zida tuproqni degradatsiyadan saqlash global miqyosda hal qilinayotgan muhim muammolardan biridir. O‘zbekiston tuproqlari fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalari jihatidan turlicha bo‘lib, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlariga ega [1].

Respublikamizda keng tarqalgan tuproq turlari orasida o‘tloqi, och tusli bo‘z va taqir tuproqlar alohida o‘rin tutadi. Har bir tuproq turi ekish texnologiyasini tanlashda, ekinlar navini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda takroriy ekinlar yetishtirish jarayonida g‘alladan bo‘shagan maydonlardan samarali foydalanish uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Bunda energiya va resurs tejovchi usullar, ag‘darmas ishlov berish metodlari, kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Biroq, bunday texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun avvalo hududning tuproq-iqlim sharoitini va tuproqning fizik-mexanik xossalari chuqur o‘rganilishi shart. Ayniqsa, no-till usulini joriy etishda tuproqning boshlang‘ich holati, uning namligi, zichligi va qattiqligi kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olish zarur. Bu esa ekinlarning optimal o‘sishi va rivojlanishi uchun kerakli sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shuningdek, tuproqning strukturaviy holati va unumdorlik darajasi ham ekish texnologiyasini tanlashda muhim omillardir [2].

Tuproqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish sharoitlarini o‘rganish uchun g‘alladan bo‘shagan dalalar tuprog‘ining ayrim fizik-mexanik xossalari GOST 20915-2011 «Испытания селскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний» asosida o‘rganildi [3]. Tajribalar qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining kuzgi g‘alladan bo‘shagan dalasida o‘tkazildi. Tadqiqotlar davomida maydonning umumiy holati, 0-30 cm gorizontdagi qatlamlar bo‘yicha tuproq namligi, qattiqligi va zichligining o‘zgarish dinamikasi, rel’efi va daladagi begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlarining miqdori aniqlandi. Ma’lumki, tuproqning fizik-mexanik xossalari agregatlarning ish unumiga, sifatiga hamda energiyatejakorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Pushta ustiga takroriy ekinlarni ekish texnologik jarayonlarini amalga oshirishda agregatning ishchi qismlari turlarini tanlash muhim omil hisoblanib, ular asosan tuproqning turiga, mexanik tarkibiga, namligi va qattiqligiga bog‘liq

bo‘ladi.

Tuproqning namligini aniqlashda (1-rasm) 0-10, 10-20, 20-30 cm qatlamlardan bur bilan 6 ta takrorlikda namunalar olindi va har bir qatlam bo‘yicha olingan tuproq namunalari plenkaga to‘kilib, yaxshilab aralashtirilib ulardan 90-95 g miqdoridagi namunalar maxsus aluminiy stakan (byuks)larga solinib, qopqoq bilan mahkam yopildi. Tuproq solingan byukslarning massasi ±0,01 g aniqlikda o‘lchaydigan MN-390 rusumli elektron tarozida tortildi hamda raqamlangan byukslarning massalari dala daftariga yozildi.

Massasi o‘lchangan byukslardagi tuproq namunalari qopqog‘i ochiq holda 105 ^{0}C issiqliqni ta’minlaydigan termostatli maxsus pechkada 6 soat davomida quritildi. Keyin byukslar qopqoqlari yopilgan holda sovitildi va tarozida qayta o‘lchandi. Olingan natijalar asosida quyidagi formula bo‘yicha tuproqning namligi (W) foiz hisobida aniqlandi [3]:

$$W = \frac{100(m_1 - m_2)}{m_2}, \quad (1)$$

bunda m_1, m_2 – mos ravishda nam va quruq tuproq massalari, g.





1-rasm. Tuproqning namligini aniqlash jarayoni

Tuproqning zichligini aniqlashda hajmi 98,17 cm^3 ga teng bo‘lgan kesuvchi silindr bilan 0-10, 10-20, 20-30 cm qatlamlardan namunalar olindi va ular quritildi hamda quritilgan tuproq massasini silindrning hajmiga nisbati bo‘yicha tuproq zichligi aniqlandi [3]:

$$\rho = \frac{m_2}{v}, \quad (2)$$

bunda v – namuna olingan silindr hajmi, cm^3.

Tuproqning qattiqligi deganda unga konussimon yoki silindrsimon deformatorni botirilganda ko‘rsatadigan qarshiligi tushuniladi. U tuproqning turiga, mexanik tarkibiga, namligiga, ishlov berish chuqurligiga va boshqa omillarga bog‘liq.

Tuproqning qattiqligini aniqlashda VISXOMda ishlab chiqarilgan asosining diametri 11,3 mm va o‘tkirlanish burchagi 22°30′ bo‘lgan konussimon uchlikdan iborat qattiqliq o‘lchagichdan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. Tuproqning qattiqligini o’lchash jarayoni

Tajribalardan olingan natijalar bo‘yicha tuproqning namligi, zichligi, qattiqligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

G‘alladan bo‘shagan maydonlar tuprog‘ining namligi, qattiqligi va zichligi

Chuqurlik (cm)	Namlik (%)	Zichlik (g/cm^3)	Qattiqlik (MPa)
0-10	15,83	1,13	1,51
10-20	18,05	1,26	1,83
20-30	18,67	1,27	2,4

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, chuqurlik oshgan sari tuproq namligi, qattiqligi va zichligi ortib boradi. Bu holatni tuproq ustki qatlamining quyosh harorati natijasida, ostki qatlamining esa ustki qatlamlarning ezilishi ta’sirida bo‘lishi bilan izohlanadi.

Ma’lumki, respublikamizda barcha boshoqli don ekinlari vegetatsiya davrida sug‘oriladi va shu sababdan ulardan bo‘shagan dalalarning ko‘ndalang profili egat va pushta ko‘rinishida bo‘ladi.

Dalaning ko‘ndalang profilini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar qator orasi V_k=90 cm bo‘lgan g‘alla hosili yig‘ishtirib olingan maydonlarda olib borildi. Bunda dala profili 5 cm dan shkalalarga bo‘lingan maxsus reyka yordamida ±0,5 cm aniqlikda 6 takroriylikda o‘lchandi (3-rasm).



3-rasm. Dalaning ko‘ndalang profilini aniqlash jarayoni

Natijada dalalarda aniq to‘lqinli rel’ef mavjudligi aniqlandi (2-jadval). Bug’doydan keyin dalalar somon va boshqa begona o‘tlar bilan qoplangan bo‘ladi. Dala yuzasidagi begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlarining miqdorini aniqlash uchun tajribalar 3 takrorlikda (dalaning boshida, o‘rtasida va oxirida) 1 m^2 maydondagi poyalarining sonini sanash yo‘li bilan aniqlandi (4-rasm).

2-jadval

Dala yuza qismidagi o‘simlik qoldiqlarining soni

Ko‘rsatkichning nomlanishi	Ko‘rsatkichning qiymati			
	Boshida	O‘rtasida	Oxirida	o‘rtacha
1 m^2 maydondagi o‘simlik qoldiqlarining soni, dona	363	425	506	431



4-rasm. Daladagi o’simlik qoldiqlari miqdorini aniqlash jarayoni

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuproqning fizik-mexanik xossalari no-till usulini qo‘llash uchun juda qulay sharoit yaratadi. Namlikning chuqurlik bilan ortib borishi (15,83 % dan 18,67 % gacha) bu usulda sug‘orish suvini tejash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Yuza qatlamlarning zichligi (1,13 g/cm^3) va tuproqning qattiqligi (1,91 MPa) esa ekilgan urug’ni yaxshi unib chiqishi uchun yetarli miqdor hisoblanadi.

Xulosa

G‘alladan bo‘shagan maydonlarni takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlash davrida urug‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish qurilmasining ishchi organlari ishlaydigan 0-30 cm qatlamdagi tuproq namligi 15,83-18,67 % oralig‘ida, qattiqligi 1,51-2,4 MPa oralig‘ida, zichligi 1,13-1,27 g/cm^3, dala yuzasidagi qoldiq o’simlik qoldiqlari o’rtacha miqdori 431 dona va dalaning ko‘ndalang profili shakli o’rganildi va g’alladan bo’shagan maydonga takroriy ekinlar ekishning agrotexnik talablariga javob berishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ravshanov H.A. Tuproqni takroriy ekinlar ekishga tayyorlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Diss. ... tex. fan. nom. – Qarshi, 2020. – 48-49 b.
2. Мансуров К.М. Исследование процессов основной обработки почвы зоны Каршинской степи с целю улучшения агротехнических показателей: Дисс. ... канд. техн. наук. – Янгиюл, 1975. – 158 с.
3. ГОСТ 20915-11. “Испытания селскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний”. – Москва: Стандартинформ, 2013. – 23 с.
4. ГОСТ 31345-2017 Техника селскохозяйственная. Сеялки тракторные. Методы испытаний. – Москва: Стандартинформ, 2018. – 58 с.
5. O‘z DST 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari”. – Toshkent, 2019. – 52 b.
6. Tukhtakuziev A., Rasuljonov A., Azizov Sh., Temirkulova N. Effect of vertical loading applied to a double-disc coulter of seed drill for planting repeated crops on an uncultivated land on its performance// Research Focus International Scientific Journal. Volume 3. Issue 9. 2024. ISSN: 2181-3833 ResearchBip (7.8), Google Scholar, SJIF (6.577), UIF (8.3).
7. Temirkulova N.M. Tuproqqa ishlov bermasdan takroriy ekinlarni ekadigan seyalka qo‘sh yassi diskli ekkich disklarining diametrini asoslash// Mikroorganizmlarni antibiotiklarga sezuvchanligini o‘zgartirish sabablari va oqibatlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 1190-1195.
8. Temirkulova N.M. Kuzgi boshoqli donlardan bo‘shagan maydonlar tuprog‘ining fizik-mexanik xossalarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari// Qishloq xo‘jaligida resurs tejovchi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishninig ilmiy-amaliy asoslari: Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman maqolalar to‘plami. II-qism. – Andijon, 2023. – B. 598-601.
9. https://agro-olam.uz/takroriy-yekin-qosh-daromad-manbai/
10. https://dehqon.uz/404.html/malumotlar/view/295
11. https://www.samdu.uz/cy/news/31562
12. http://maqolalar.uz/qishloq-xojaligi/dehqonchilik/616-alladan-bshagan-erlarni-isa-muddatda-tayerlash-va-takroriy-ekin-ekish.html

Tangirov I.U., Batirov G’.Sh. G‘alladan bo‘shagan maydonlar tuprog’ining fizik–mexanik xossalari va dala agrofoni. *Maqolada kuzgi boshoqli ekinlardan bo‘shagan maydonlar tuprog‘ining fizik-mexanik xossalarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida turli agrofizik ko‘rsatkichlar – tuproqning zichligi, namlik miqdori, qattiqligi va agrofonlari tahlil qilindi.*

Тангиров И.У., Батиров Г.Ш. Физико-механические свойства почв и агрофон полей после уборки урожая зерновых культур. *В статье представлены результаты исследований физико-механических свойств почв на полях, освободившихся после озимых*

зерновых культур. В ходе исследований были проанализированы различные агрофизические показатели – плотность, влажность и твердость, а также профиль поля.

Tangirov I.U., Batirov G.Sh. Soil Physical and Mechanical Properties and Agro-Fon of Fields After Harvesting Grain Crops. *The article presents the results of research on the physical and mechanical properties of soils released after winter grain crops. During the research, various agrophysical indicators - density, moisture content, and hardness, as well as the profile of the field, were analyzed.*

UO‘T 631.332

DEHQON VA FERMER XO‘JALIKLARIDA URUG‘LIK SARIMSOQ YETISHTIRISHNING RESURSTEJAMKOR TEXNIKA VOSITALARI JAMLANMASINI ISHLAB CHIQISHNING YECHIMLARI

Norchayev D.[1] t.f.d., prof., Norchayev J.[2] Rustamova N.[2],
Salomova M.[2], Quralov S.[1], Bolasozova M.[3]

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[2] Qarshi davlat texnika universiteti.
[3] Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.


Hozirgi kunda Respublikamizda sarimsoq ekinini yetishtirish jadallik bilan rivojlanib, O‘zbekiston dunyoda sarimsoq eksporti bo‘yicha etakchi oltita davlatdan biri hisoblanadi. Ўхирги йилларда ҳукумат томонидан ишлаб чиқилаётган ислоҳотлар натижасида саримсоқ томорқа кичик деҳқон хўжаликларида етиштиришга алоҳида эътибор берилмоқда. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2024 yildagi PQ-115-son qarorida ham respublikamizning Buloqboshi, Xo‘jaobod, Peshku, Do‘stlik, Qarshi, Kosonsoy, Navbahor, Bulung‘ur, Jomboy, Xovos, Mirzaobod, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on tumanlari sarimsoq yetishtirishga ixtisoslashganligi belgilab qo‘yildi. Asosan respublikamizda sarimsoq tomorqa, kichik konturli maydonlarda va kichik fermer xo‘jaliklarida yuqori mehnat sarfi hisobiga yetishtirilib, mexanizatsiya darajasi esa juda past hisoblanib kelinmoqda. Buning asosiy sababi respublikamiz tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib sarimsoqni yetishtirishda urug‘lik uchun sarimsoqlarni boshchalarga ajratadigan va saralaydigan, ekadigan, yig‘ishtiradigan mashinalarni ishlab chiqish bo‘yicha yetarli tadqiqotlar olib borilmagan, shuningdek xorij texnikalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash maqsadga muvofiq emas [1].

Bunga sabab sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirishda qo‘llaniladigan xorij mashinalarining respublikamizda keng qo‘llanilmasligiga sabab sarimsoq respublikada kichik maydonlarda yetishtirilganligi uchun uning ekish sxemalari turlicha bo‘lishi va jo‘yak ochib sug‘irilishi, yig‘ishtirish jarayonida tuproq palaxsasi kesaklari qattiqligi sarimsoq tugunagidan katta bo‘lgan yirik kesaklarga ajralishi hisobiga yig‘ishtirishda sarimsoqlarni shikastlanish darajasi yuqoriligi hamda ularni urug‘lik uchun saralashda naviga bog‘liqligi, ya’ni sarimsoqlarning geometrik o‘lchamlari turlicha bo‘lishi bilan izohlanadi. Shuningdek, sarimsoqni urug‘lik uchun boshchalarga ajratish va ularni o‘lchamlariga ko‘ra saralash ishlari ham mexanizatsiyalashmagan, ayniqsa sarimsoqning vegetatsiya davrida begona o‘tlarni o‘toq qilish jarayoni ham qo‘l mehnati yordamida bajariladi [1].

Bugungi kunda respublikada sarimsoq yetishtirish eng murakkab bo‘lgan hal etilmagan vazifalardan biri bo‘lib, uni hal etish uchun yangi innovatsion ilmiy-texnik yechimlar asosida dehqon va fermer xo‘jaliklarida urug‘lik sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirishning resurstejamkor texnika vositalari jamlanmasini ishlab chiqish halq xo‘jaligi ahamiyatiga ega hisoblanadi.


Sarimsoq va boshqa shunga o‘xshagan ildiz-mevalilarni yetishtirish va yig‘ishtirishda sarf harajatlarni kamaytirish, qo‘l mehnatiga barham berish uchun sarimsoq yetishtirishda qo‘llaniladigan urug‘lik uchun boshchalarga ajratgich va saralagich qurilmalarini hamda sarimsoq ekkich va kovlagich-yuklagich mashinalarini ishlab chiqish lozim.

Ushbu vazifalarni bajarish quyidagi blok sxema (1-rasm) keltirilganidek amalga oshiriladi [1].




1-rasm. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida urug‘lik sarimsoq yetishtirish texnologiyasining blok sxemasi

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz tomonimizdan quyidagi ilmiy texnik yechimga ega bo‘lgan maxsus texnika vositalari taklif etiladi (2-5-rasmlar).




1-sarimsoqni urug‘lik pallaklarga ajratadigan maydalagich; 2-rama; 3-yechish va o‘rnatish imkoniga ega bo‘lgan silindrik g‘alvirlar; 4-novlar; 5-elektrodvigatel

2-rasm. Sarimsoqni va uning pallaklarga ajratilgan fraksiyalarini ham saralash imkonini beradigan universal resurstejamkor saralagich



1-rama; 2-konussimon bunker; 3- ichki maydalovchi baraban; 4-val; 5-nov; 6-kronshteyn; 7-motor-reduktor boshqaruvchi kronshteyn; 8-motor-reduktor; 9-rezina; 10-sarimsoq;

3-rasm. Sarimsoqni urug‘lik pallaklarga ajratadigan maydalagich




1-osma mexanizmi; 2, 3-ekish seksiyasi va uning bunkeri; 4- qo‘shimcha universal bunker; 5- tomchilatib sug‘oruvchi quvur g‘altagi; 5-g‘ildirak; 6-plyonka o‘rnatiladigan o‘q; 7-g‘ildirak; 8, plyonk.a ko‘mgich

4-rasm. Sarimsoqni an’anaviy usulda va plyonka ostiga ekish imkoniga ega sarimsoq ekish mashinasi

Yuqoridagilarni amalga oshirilishi natijasida sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirishda resurstejamkor qurilmalar, ya’ni urug‘lik uchun sarimsoqni boshchalarga ajratgich va uni saralagich qurilmasiga, bir yo‘la urug‘larni pushtaga ekib ular ustidan plyonka to‘shaydigan ekkich va sarimsoq hosilini bir yo‘la yig‘ishtirib taraga yuklaydigan ixcham kovlagich mashinasiga dastlabki talablar, texnik topshiriq va texnik shartlar tayyorlanib, keng xo‘jalik

sinovlari o‘tkaziladi va olingan natijalar bo‘yicha mashinalarni ko‘plab ishlab chiqarish bilan bog‘liq me’yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqiladi.



1-uzunligi o‘zgaruvchan seksiyali lemex; 2-rezina barmoqli biter; 3- elevator-yuklagich; 4-elevator chivig‘iga o‘rnatiladigan almashinuvchi planka; 5-g‘ildirak; 6-yo‘naltirgich; 7-panjarali taqsimlagich

5-rasm. Sarimsoq kovlagich-yuklagich mashinasi

Ko‘zda tutilgan ishlanmalarni ishlab chiqish va ularni joriy etish kabi vazifalar Vazirlar mahkamasining “Qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlari, global, mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dastur” ida belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12-dekabrdagi PQ-431-son qaror ijrosi ham ta’minlanadi [2]. Loyihada ishlab chiqiladigan mashinalar bo‘yicha olinadigan texnik yechimlarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga qo‘llash urug‘lik va iste’mol uchun sarimsoq yetishtirishni mexanizatsiyalashda 2 martaga ish unumini oshirish, yonilg‘i va mehnat sarfini kamaytirish 2 martaga, hosildorlikni 15-20 foizga oshirish, mahsulotlarni yetishtirishga sarf-xarajatlarni 3-4 marta kamaytirish hamda Respublikamiz aholisining oziq-ovqatlarga bo‘lgan talabini qondirish va eksportga chiqariladigan mahsulotlar miqdorini orttirish imkonini beradi [1].

Taklif etilayotgan sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirishda qo‘llaniladigan resurstejamkor texnika vositalar jamlanmasini ishlab chiqarish uchun Respublikamizning qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarida yetarli imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bu bo‘yicha texnikalarni kelajakda tijoratlashtirish maqsadida respublikamizdagi “Agriparts Group” MChJ mahalliy korxonasi bilan hamkorlik olib boriladi [1].

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib bu texnologiyada sarimsoqni urug‘lik boshchalarga ajratadigan va saralaydigan qurilmalar hamda sarimsoq ekkich va kovlagich-yuklagich mashinalari ilmiy texnik yechimlar asosida ishlab chiqilishi halq xo‘jaligi ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://scientific-jl.com/new/article/view/7459
2. https://lex.uz/uz/docs/-7261011

Norchayev D., Norchayev J., Rustamova N., Salomova M., Quralov S., Bolasozova M. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida urug‘lik sarimsoq yetishtirishning resurstejamkor texnika vositalari jamlanmasini ishlab chiqishning yechimlari. *Maqolada respublikamizda sarimsoq yetishtirishning hozirgi holati, uning halq xo‘jaligida tutgan o‘rni va ahamiyati hamda zaruriyati, ularni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumotlar va urug‘lik sarimsoq yetishtirishning mexanizatsiyalashgan texnik yechimlari keltirilgan.*

Норчаев Д., Норчаев Ж., Рустамова Н., Саломова М., Куралов С., Боласозова М. Решения по разработке комплекса ресурсосберегающих технических средств для выращивания семенного чеснока в дехканских и фермерских хозяйствах. *В статье представлена информatsiя о современном состоянии выращивания чеснока в нашей республике, его роли и значении в народном хозяйстве, а также необходимости, проводимых реформах по их развитию, и механизированных технических решениях для выращивания семенного чеснока.*

Norchaev D., Norchaev Zh., Rustamova N., Salomova M., Kuralov S., Bolasozova M. Solutions for the development of a set of resource-saving technical means for growing seed garlic in dehkan and farmer enterprises. *The article presents information on the current state of garlic cultivation in our republic, its role and importance in the national economy, ongoing reforms for its development, the need for mechanized technical solutions for growing seed garlic.*

UO‘T 631.352.4/631.349

BUG‘DOY SOMONINI MAYDALASH VA DALAGA SOCHISH BO‘YICHA O‘TKAZILGAN TAJRIBA NATIJALARI

Abduraxmanov A.A[1] t.f.n., k.i.x., Muhammadiyev A.U.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 1,3 mln gektar maydonga bug‘doy ekiladi. O‘rim mavsumi may oyining oxiri va iyul oyining boshlaridan boshlanadi. Bug‘doy asosan don kombaynlari yordamida o‘riladi. Odatda kombayn jatkasi bug‘doy boshog‘ini o‘rib ketishga moslashgan bo‘ladi va o‘rimdan keyin dalada somon poya, ya’ni ang‘iz qoladi. Bu ang‘izning balandligi dalaning relefiga va bug‘doy ekinining o‘sganlik darajasiga qarab 20 cm dan 40 cm gacha boradi.

Bug‘doy o‘rimidan keyin odatda yerga ikkinchi (takroriy) ekin ekiladi. Bunda an’anaviy dehqonchilikda bug‘doy poyasidan bo‘shagan dalalarga agrotexnik ishlov beriladi, bu esa qo‘shimcha sarf-xarajatlarni talab qiladi. Ba’zi dalalarni esa yoqib yuborishadi, bu esa tuproqdagi foydali mikroorganizmlarning nobud bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun bugungi kunda ko‘pgina mamlakatlarda keng ommalashayotgan texnologiyani, ya’ni bug‘doy poyasini maydalab, dalaga sochib yuboradigan qurilmani joriy etish dolzarb vazifadir. Bu qurilma nafaqat bug‘doy poyasini, balki daladagi begona o‘simlik poyalarini ham maydalab dalaga sochib yuborish vazifasini bajaradi.

O‘simlik poyalarini maydalab dalaga sochish texnologiyasi bo‘yicha amerikalik olimlar M.C.Siemens va D.E.Wilkins, xitoylik Zhenjiang Zhou Chaozhi va Gan Xinyuan Cao lar tadqiqotlar olib borishgan [3; 395-406-b., 4]. O‘zbekistonda somonni maydalab dalaga sochish texnologiyasi bo‘yicha Rajabov A., Tursunov M. kabi olimlar [2] shug‘ullanib, bug‘doy o‘rimidan keyingi somon poyalarini maydalab sochishning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati kattaligini ta’kidlashgan, bu jarayon orqali tuproqdagi namlikni saqlash, tuproqning organik moddalar bilan boyishi va takroriy ekin uchun maydonni tez tayyorlash imkoniyatlari tug‘ilishi haqida ma’lumotlar keltirishgan.

Shunga qaramay, hozirgi kunda Respublikamizda ushbu texnologiya keng tarqalmagan. Buning asosiy sababi – shu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar yetarli emasligi va maydalagich-sochgich texnika vositalari yo‘qligidir. Demak, ushbu yo‘nalishda tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borish va resurstejamkor hamda qulay bo‘lgan texnika vositasini yaratish dolzarb masaladir.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bug‘doydan bo‘shagan dalalarda somon qoldiqlarini maydalaydigan va dalaga sochadigan maydalagich-sochgich konstruksiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u 1,4 sinfidagi traktorlar bilan agregatlanadi va 1,8 m qamrov kengligiga ega. Shunga asosan, bu qurilma 90 cm yoki 70 cm kenglikdagi qator oralarida yetishtirilgan bug‘doy dalalarida somonni maydalab, dalaga sochishga mo‘ljallangan. Maqolada ushbu maydalagich-sochgich yordamida bug‘doydan qolgan somonni maydalash va sochish bo‘yicha o‘tkazilgan dala tajribalarining natijalari keltirilgan.

Dala tajribasi o‘tkazishdan oldin bug‘doyi o‘rilgan dalaning tajriba o‘tkaziladigan joyidan 8 ta hisob nuqtalari belgilab olindi (4 ta nuqta agregatning oldinga yurishi bo‘yicha va 4 ta nuqta ortga qaytishi bo‘yicha) va shu nuqtalardagi somon poyalarining soni va balandligi aniqlandi. Buning uchun avvaldan tayyorlangan, maydoni 0,5 m² ga teng bo‘lgan maxsus ramka shu hisob nuqtalariga muayyan koordinata bilan navbatma-navbat qo‘yilib, uning ichidagi somon poyalarining soni (joylashish qalinligi) va balandligi o‘lchab chiqildi. Maydalagich-sochgich qurilmasi o‘tishidan oldingi holat bo‘yicha ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, dalada ekilgan bug‘doyning joylashish qalinligi har xil bo‘lgan va o‘rtacha qiymati 818 tup/m^2 va o‘rtakvadrat chetlanishi 131,2 tupni tashkil etadi. Somon poyalarining balandligi esa o‘rtacha 37,8 cm ni, o‘rtakvadrat chetlanishi esa 3,6 cm ni tashkil etdi.

1-jadval

Tajriba o‘tkaziladigan daladagi bug‘doy ang‘iziningqalinligi va balandligi

Ko‘rsatkichlar	Hisob nuqtalari bo‘yicha								$M_{o'r}$	±σ
	1	2	3	4	5	6	7	8		
Somon poyalarining qalinligi, tup/m^2	740	786	994	914	684	820	652	950	818	131,2
Somon poyalarining balandligi, cm	37,7	38,6	45,0	37,9	33,6	36,6	37,3	35,7	37,8	3,6

Shundan so‘ng maydalagich-sochgich qurilma ishga tushirilib, hisob nuqtalari joylashgan qatorlar bo‘ylab daladagi somon ang‘izini maydalab-sochish jarayoni amalga oshirildi. Bunda 1-, 2-, 5- va 6-hisob nuqtalarida maydalagich-sochgichning ish organlari tuproq yuzasidan (pushtalar tepasidan) 5 cm balandlikka, 3-, 4-, 7- va 8-hisob nuqtalarida esa 2 cm balandlikka sozlandi.

Tajribalarda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Undan ko‘rinib turibdiki, somon maydalagich-sochgich qurilma ang‘iz poya ustidan o‘tganidan keyin qurilmaning o‘rnatilgan kesish balandligi 5 cm bo‘lganda kesilgan somon poyalarining balandligi o‘rtacha 12,7 cm ni, o‘rtakvadrat chetlanishi 4,0 cm ni, o‘rnatilgan kesish balandligi 2 cm bo‘lganda esa, mos ravishda, 10,1 va 2,7 cm ni tashkil etdi. Somonlarning maydalanish darajasi sochilgan somon bo‘laklarining uzunliklarini o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi va bunda barcha hisob nuqtalari bo‘yicha maydalangan somon bo‘laklarining o‘rtacha uzunligi 12,5 cm ni va ularning o‘rtakvadrat chetlanishi 1,0 cm ni tashkil etdi.

Maydalagich-sochgich o‘tgandan keyin qolgan somon poyalarining balandligi kesish ishchi organlarini o‘rnatish balandligidan ancha katta chiqqanligining sababi shundaki, hisob olish vaqtida maxsus ramka pushta tepasining o‘rtasiga to‘g‘ri keladigan qilib o‘rnatildi. Uning kengligi 70 cm ga teng. Shu sababdan u pushta tepasi bilan birga uning ikki yonidagi egatlarni ham qamradi va bu yerlarda, tabiiyki, somon poyalarining balandligi kattaroqdir. Somonni maydalash darajasi

qoniqarli, deb hisoblash mumkin va bu o‘rtacha uzunlik takroriy ekinlarni ekishda seyalkalarga halaqit qilmaydi.

2-jadval

Maydalagich-sochgich o‘tgandan keyin qolgan bug‘doy ang‘izining balandligi va somon bo‘laklarining uzunligi

Ko‘rsatkichlar		Hisob nuqtalari bo‘yicha								$M_{o'r}$	±σ
		1	2	3	4	5	6	7	8		
Somon poyalarining balandligi, cm	O‘rnatilgan kesish balandligi 5 cm bo‘lganda	14	11,3	-	-	17,1	16,1	-	-	12,7	4,0
	O‘rnatilgan kesish balandligi 2 cm bo‘lganda	-	-	10,2	13,7	-	-	9,5	15	10,1	2,7
Somon poyalarining uzunligi, cm		12,0	13,0	14,2	11,8	10,9	12,9	12,9	12,3	12,5	1,0

Xulosa

Ishlab chiqilgan somon maydalagich-sochgich qurilmasi qo‘llanilganda dalada qolib ketgan somon ang‘izining balandligi No-Till texnologiyasi asosida ishlaydigan seyalkalar uchun halaqit bermaydigan darajagacha kamayadi. Lekin shuni aytish kerakki, somonni maydalash darajasi ularning tuproqqa yaxshiroq aralashishi va tezroq chirishi uchun yetarli darajada emas. Shu sababdan uning parametrlari va ish rejimini yanada chuqurroq o‘rganib, tajribalarni matematik rejalashtirish usuli yordamida maqbullashtirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030- yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-5853-son Farmoni. Toshkent.

2. Rajabov A., Tursunov M. Qishloq xo‘jaligida resurs tejovchi texnologiyalar // Toshkent: Agroilm, 2020. – B.36-37.

3. Siemens M. C., D. E. Wilkins. Effect of residue management methods on no-till drill performance // Appliend Engineering in Agriculture USA Vol .5, pp 51-60.

4. Zhenjiang Zhou Chaozhi Gan Xinyuan Cao “Influence of tillage practices and straw incorporation on soil aggregates, organic carbon, and crop yields in a rice-wheat rotation system” // Scientific Reports (Nature Publishing Group), 2016, Vol. 6, pp 36-41.

Abduraxmanov A., Muhammadiyev A. Bug‘doy somonini maydalash va dalaga sochish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari. *Maqolada bug‘doy hosili yig‘ishtirib olingandan so‘ng somonni maydalash va dala bo‘ylab sochish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan. Ishchi organning kesish balandligi 5 cm ga sozlanganda ang‘izni kesish balandligining amaldagi qiymati o‘rtacha 12,7 cm ni tashkil etdi. Bunda maydalangan somonning uzunligi o‘rtacha 12,5 cm ni, uning o‘rtakvadrat chetlanishi esa 1,0 cm ni tashkil etdi.*

Абдурахманов А., Мухаммадиев А. Результаты экспериментов по измельчению и разбрасыванию по полю пшеничной соломы. *В статье приведены результаты проведенных экспериментальных опытов по измельчению соломы после уборки урожая пшеницы и разбрасыванию ее по полю. Фактическая высота среза стерни составила в*

среднем 12,7 см при установочной 5 см. При этом длина измельченной соломы составила 12,5 см при среднеквадратическом отклонении 1,0 см.

Abdurakhmanov A., Muhammadiyev A. Results of experiments on grinding and spreading wheat straw on the field. *The article presents the results of experimental studies on grinding straw after wheat harvesting and spreading it on the field. The actual stubble height averaged 12.7 cm with a set height of 5 cm. The length of the chopped straw was 12.5 cm with a standard deviation of 1.0 cm.*

UO‘T 631.311.634:64

ANOR TUPLARINI KO‘MADIGAN MASHINA KO‘MUVCHI QISMINING PARAMETRLARINI MAQBULLASHTIRISH

Abdunazarov E.[1] t.f.f.d.

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Yurtimiz sharoitida sovuq urib ketishining oldini olish maqsadida anor tuplari kech kuzda tuproq bilan ko‘milib, bahorda ochiladi. Ammo maxsus texnika vositalari ishlab chiqarilmasligi sababli anor tuplarini ko‘mish va ochish ishlari mexanizatsiyalashmagan va hozirgi kungacha ham qo‘l kuchi bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ortishiga va ish unumini kamayishiga olib kelmoqda hamda anor yetishtirish, ulardan yuqori hosil olish hamda katta maydonlarda anor plantatsiyalarini tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, anor tuplari kech kuz oylarida ko‘milishini hisobga oladigan bo‘lsak, qish erta kelgan yillari qo‘l kuchi bilan barcha maydonlardagi anor tuplarini to‘liq ko‘milishiga erishilinmaydi va buning natijasida ularni sovuq urib ketish hollari kuzatiladi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda institutda anor tuplarini tuproq bilan ko‘madigan qurilma ishlab chiqish va parametrlarini asoslashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda [1,2,3,4,5,6,7].

Anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi ish organining nazariy va bir omilli eksperimentlarda o‘rganilgan parametrlarining uning ish ko‘rsatkichlariga birgalikdagi ta’sirini o‘rganish hamda ularning maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida matematik rejalashtirish usuli bilan ko‘p omilli eksperimentlar o‘tkazildi [8,9,10]. Bunda baholash mezonlariga omillarning ta’sirini ikkinchi darajali polinom to‘liq yoritib beradi deb qaralib, tajribalar B4 rejasi bo‘yicha o‘tkazildi [11].

Tadqiqotlarni o‘tkazishda anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi qismi korpuslari orasidagi tashqi ko‘ndalang masofa L_t, osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama masofa l_y, korpus ish sirtining balandligi h_k hamda agregatning harakat tezligi V uning sifat va energetik ish ko‘rsatkichlariga eng ko‘p ta’sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi. Ular quyidagicha shartli belgilandi :

X_1 – korpuslar orasidagi ko‘ndalang masofa, cm;

X_2 – osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama masofa, cm;

X_3 – korpus ish sirtining balandligi, cm;

X_4 –agregatning harakat tezligi, km/h.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar va bir omilli tajribalarga asoslanib, omillarning shartli belgilanishi, sathi va variatsiyalanish (o‘zgarish) oraliqlarining qiymatlari belgilab olindi (1-jadval).

Eksperimentlarda olingan ma’lumotlarga Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining eksperi-mentlarni rejalashtirish laboratoriyasida ishlab chiqilgan «PLANEXP» dasturi bo‘yicha ishlov berildi. Bunda dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren kriteriyasidan, regressiya koeffitsientlari qiymatini baholashda Styudent kriteriyasidan, regression modellarning adekvatligini baholashda Fisher kriteriyasidan foydalanildi.

1-jadval

Ta’sir etuvchi omillarning sathlari va ularning variatsiyalanish oraliqlari

T/r	Omillarning nomlanishi	O‘lchov birligi	Shartli belgilanishi	Variatsiya oralig‘i	Omillarning sathi		
					-1	0	+1
1.	Korpuslar orasidagi ko‘ndalang masofa	cm	X_1	15	200	215	230
2.	Osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama masofa	cm	X_2	10	10	20	30
3.	Korpus ish sirtining balandligi	cm	X_3	5	57	62	67
4.	Agregatning harakat tezligi	km/h	X_4	2	5	6	7

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezoni sifatida ko‘milmay qolgan anor (shoxlari, tanasi, tupi) (Y_1, %), tuproq uyumining balandligi (Y_2, cm), tuproq uyumining eni (Y_3, cm), anor tuplarini ko‘milish qalinligi (Y_4, cm) hamda ko‘muvchi qismning tortishga qarshiligi (Y_5, kN) qabul qilindi.

Baholash mezonlariga nazorat qilinmaydigan omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida tajribalarni o‘tkazish ketma-ketligi tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib o‘rnatildi [12,13,14]. Bundan tashqari tajribalarda barcha variantlar uchun ishlov berish chuqurligi bir xil – 35 cm etib belgilandi.

Tajriba natijalariga belgilangan tartibda ishlov berilib [15], baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

ko‘milmay qolgan anor (shoxlari, tanasi, tupi) darajasi (%);

$$Y_1 = 3,656-1,09X_1+1,252X_2+0,146X_3-1,035X_4+0,636X_1^2+0,098X_1X_2-0,101X_1X_3- -0,051X_1X_4+0,486X_2^2+0,083X_2X_3+1,543X_3^2-0,153X_3X_4+0,483X4^2 \quad (1)$$

tuproq uyumining balandligi (cm);

$$Y_2=54,478+3,774X_1+4,678X_2+4,138X_3+3,847X_4-1,660X^2-0,415X_1X_2+0,665X_1X_3- -0,835X_1X_4+3,203X_2^2+0,735X_2X_3-1,555X_2X_4-2,08X_3^2-2,014X_3X_4-1,715X_4^2 \quad (2)$$

tuproq uyumining eni (cm);

$$Y_3=138,16-10,13X_1+10,12X_2+11,762X_3-7,67X_4+6,590X_1^2+0,615X_1X_2+3,615X_1X_3- -3,131X_1X_4+5,862X_2^2-2,2X_2X_3-1,4X_2X_4+4,091X_3^2+2,24X_3X_4+3,391X_4^2 \quad (3)$$

anor tuplarini ko‘milish qalinligi (cm);

$$Y_4=12,936+2,017X_1-3,207X_2-2,578X_3+2,412X_4-1,976X_1^2+0,801X_1X_2+1,511X_1X_3- -0,949X_1X_4+0,464X_2^2-1,861X_2X_3+1,589X_2X_4+1,845X_3^2+2,008X_3X_4+0,502X_4^2 \quad (4)$$

ko‘muvchi qismning tortishga qarshiligi (kN);

$$Y_5 = 18,478+2,571X_1-2,15X_2-1,257X_3+1,365X_4-0,563X_1^2-0,238X_1X_2-0,762X_1X_3+ +0,762X_1X_4+1,695X_2^2-0,604X_2X_3+4,394X_3X_3+0,413X_3X_4+0,714X_4^2 \quad (5)$$

Ushbu regressiya tenglamalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, anor tuplarini ko‘mish va shikastlash darajalari, mashinaning tortishga qarshiligi jarayonga ta’sir etuvchi omillar bilan murakkab bog‘liqlikga ega.

Korpuslar orasidagi ko‘ndalang masofa ortishi bilan ko‘milmay qolgan anor tuplarining ulushi kamaygan, shikastlash darajasi esa kamaygan [16].

Osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama masofa oshishi bilan anor tuplarini shikastlash darajasi kamaydi.

Korpuslar orasidagi bo‘ylama masofa va uning qamrov kengligi oshishi solishtirma qarshilikning kamayishini ta’minlaydi, agregatning harakat tezligi oshishi esa solishtirma qarshilikning ortishiga olib keladi.

(1) va (5) tenglamalardan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [17].

Tadqiq etilayotgan parametrlarning talab darajasidagi ish sifatini resurstejamkorlikni saqlagan holda ta’minlaydigan qiymatlarini aniqlashda (1) - (5) regressiya tenglamalari PK «Pentium IV» kompyuterida Excel dasturini «yechimni qidirish» amali bo‘yicha birgalikda yechildi. Regressiya tenglamalarini birgalikda yechishda Y_1 mezon, ya’ni anor tuplarini ko‘mish darajasi 98 % dan kam bo‘lmasligi; Y_2 mezon, ya’ni mashinaning tortishga qarshiligi minimal qiymatga ega bo‘lish shartlari qabul qilindi [18,19,20]. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Anor tuplarini ko‘madigan mashina parametrlarining maqbul qiymatlari

X_4		X_1		X_2		X_3	
Kodlangan	Haqiqiy, km/h	Kodlangan	Haqiqiy, cm	Kodlangan	Haqiqiy, cm	Kodlangan	Haqiqiy, sm
1	7	-0,3951	224,0728	-0,1	29,3896	0,0304	62,1520
0	6	-0,25804	226,1293	0,0	29,8797	0,0525	62,2628
-1	5	0,7248	240,8733	-0,6489	23,5102	0,1939	62,9699

Demak, anor tuplarini ko‘madigan mashina 5–7 km/h harakat tezliklarda kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta’minlashi uchun korpuslar orasidagi tashqi ko‘ndalang masofa 224,1–240,8 cm, osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama masofa 23,5 dan 29,8 sm hamda korpus ish sirtining balandligi 62,1–62,9 sm bo‘lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida ko‘milmay qolgan anor (shoxlari, tanasi, tupi) darajasi 4 %, tuproq uyumining balandligi 49,9–55,1 cm, tuproq uyumining eni 140,0–145,1 cm, anor tuplarini ko‘milish qalinligi 12,2–14,8 cm ko‘muvchi qismning tortishga qarshiligi 19,2–20,9 kN ni tashkil etdi.

Xulosa

Yuqorida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, anor tuplarini ko‘madigan mashina 5–7 km/h harakat tezliklarda kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta’minlashi uchun omillarning qiymatlarida ko‘milmay qolgan anor (shoxlari, tanasi, tupi) darajasi 4 %, tuproq uyumining balandligi 49,9–55,1 cm, tuproq uyumining eni 140,0–145,1 cm, anor tuplarini ko‘milish qalinligi 12,2–14,8 cm ko‘muvchi qismning tortishga qarshiligi 19,2–20,9 kN ni tashkil etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdunazarov E.E. Anor tuplarini ko‘madigan mashina ish organining parametrlarini asoslash: Dis. ... texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Gulbahor: QXMITI, 2021. – 160 b.

2. Imomqulov Q., Abdunazarov E. Anor tuplarini ko‘madigan mashina korpuslarining qamrash kengligi va ishlov berish chuqurligini asoslash// AGRO ILM. – Toshkent, 2020. – №3(66). – B. 70-72.

3. Qutbiddin I., AbdunazarovElbek K. S. BURYING MACHINE TO POMEGRANATE BUSHES // Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №.13. – P. 1377-1381.

4. Abdunazarov E. E. Prospects for the development of vegetable growing in UZBEKISTAN //Stroitelstvo i obrazovanie. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 164-167.

5. Abdunazarov E. E., Imomqulov Q. B. Small-scale mechanization in vegetable growing //Stroitelstvo i obrazovanie. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 155-160.

6. Abdunazarov E. E. Growing vegetables in household gardens and greenhouses //Stroitelstvo i obrazovanie. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 160-164.

7. Abdunazarov E. Anor tuplarini ko‘madigan mashinaning ishlash sharoitini o‘rganish natijalari// Qishloq xo‘jaligi ilm-fanida yoshlarning roli: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. – 2-jild. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. – B. 392-396.

8. Imomqulov Q.B., Abdunazarov E.E. Anor tuplarini ko‘madigan mashina korpuslari orasidagi ko‘ndalang masofani asoslash// Farg‘ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali. – Farg‘ona, 2020. – №6. – B. 206-208.

9. Abdunazarov E., Ortiqov N. Takomillashtirilgan anor tuplarini ko‘madigan mashina // Investitsiyalarni diversifikatsiyalash asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Namangan, 2019. – B. 284-287.

10. Abdunazarov E. A Anor tuplarini ko‘madigan mashina tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani asoslash //Uzbekistan Journal of Engineering and Technology. – 2021.

11. Кобзарь А.И. Прикладная математическая статистика. Для инженеров и научных работников. – 2012. – 816 с.

12. Джонсон Н., Лион Ф. Статистика и планирование эксперемента в технике и науке. Методы обработки данных// Пер. с английского. – Москва: Мир, 1990. – 610 с.

13. Аугамбаев М., Иванов А., Терехов Ю. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Ташкент: Укитувчи, 1993.

– 336 с.

14. Спирин Н.А., Лавров В.В. Методы планирования и обработки результатов инженерного эксперимента. – Екатеринбург: ГОУ ВПО Уральский государственный технический университет, 2004. – 258 с.

15. Boqizhjonovich I. K., Elmurodovich A. E. The results of the experiments conducted on the selection of the type of working body of the machine for burying pomegranate bushes //74.58 g (5U) J 91. – 2020. – S. 69.9.

16. Abdunazarov E.E. Anor tuplarini ko‘mishning mexanizatsiyalash muammolari// Zamonaviy iml-fanning innovatsion rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. – Andijon, 2019. – B. 558-559.

17. Abdunazarov E.E. Anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi ish organlarining tortishga qarshiligini aniqlash// Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to‘plami. – 2-tom. – Jizzax, 2020. – B. 108-111.

18. Imomqulov Q.B., Abdunazarov E.E., Mamadalieva G.Q., Ortiqov N.B. Anor tuplarini ko‘madigan mashinaning konstruktiv sxemasi va parametrlarini nazariy aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari// Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – Namangan, 2020. – №1 (1). – B. 80-94.

19. Abdunazarov,Elbek Elmurodovich and Abdullayev,Kamol Kxakimovich and Babaev,Narimon Otabayevich, 20220518727, English, Journal article, Iran, 2008-4161 2008-3645, 15, (1), Ahvaz, Jundishapur Journal of Microbiology, (4354–4362), Ahvaz Jundishapur University of Medical Sciences, Ensure the stability of the processing depth of machine for hiding pomegranate bushes., (2022)

20. E.E.Abdunazarov Anor tuplarini ko‘madigan mashina tup yotqizgichi bosim prujinasining bikirligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri // Строительство и образование. 2025. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/anor-tuplarini-ko-madigan-mashina-tup-yotqizgichi-bosim-prujinasining-bikirligini-uning-ish-ko-rsatkichlariga-ta-siri (дата обращения: 20.09.2025).

Abdunazarov E. Anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi qismining parametrlarini maqbullashtirish. *Ushbu maqolada anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi qismining parametrlarini maqbullashtirish natijalari keltirilgan bo‘lib, nazariy va bir omilli eksperimentlarda o‘rganilgan parametrlarining uning ish ko‘rsatkichlariga birgalikdagi ta’siri o‘rganilgan. Anor tuplarini ko‘madigan mashina ko‘muvchi korpuslari orasidagi tashqi ko‘ndalang masofa 224,1–240,8 cm, osish qurilmasi bilan tup yotqizgich orasidagi bo‘ylama*

masofa 23,5 dan 29,8 cm hamda korpus ish sirtining balandligi 62,1–62,9 cm bo‘lishi agregatning 5–7 km/h harakat tezliklarda anor tuplarini kam energiya sarflagan holda agrotexnik talablar darajasida ko‘mish imkonini beradi.

Абдуназаров Э. Оптимизация параметров закапывающего узла машины для укрытия гранатовых кустов. *В данной статье представлены результаты оптимизации параметров закапывающего узла машины для укрытия гранатовых кустов. Изучено совместное влияние параметров, исследованных в теоретических и однофакторных экспериментах, на рабочие показатели машины. Установлено, что при внешнем поперечном расстоянии между закапывающими корпусами машины 224,1–240,8 см, продольном расстоянии между подвесным устройством и укладчиком кустов 23,5–29,8 см, а также высоте рабочей поверхности корпуса 62,1–62,9 см, обеспечивается качественное укрытие гранатовых кустов с минимальными энергозатратами при рабочих скоростях агрегата 5–7 км/ч в соответствии с агротехническими требованиями.*

Abdunazarov E. Optimization of the burying unit parameters of a pomegranate bush covering machine. *This article presents the results of optimizing the parameters of the burying unit of a machine designed for covering pomegranate bushes. The combined effect of parameters studied through theoretical and single-factor experiments on the machine’s performance indicators was analyzed. It was established that an external transverse distance between the burying bodies of 224.1–240.8 cm, a longitudinal distance between the suspension system and the bush laying unit of 23.5–29.8 cm, and a working surface height of the body of 62.1–62.9 cm provide effective bush coverage in compliance with agrotechnical requirements at operational speeds of 5–7 km/h, while minimizing energy consumption.*

UO‘T 631. 315. 4

ISH JARAYONIDA G‘O‘ZA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERUVCHI TISHLI YUMSHATKICHGA TA’SIR ETUVCHI KUCHLARNI TADQIQ ETISH

Isakov Z.[1]

[1] Buxoro davlat texnika universiteti.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida agrar sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida esa innovatsion texnologiyalardan foydalanish turadi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanadi va uni modernizatsiya qilish, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega [1].

Jahonda energiyatejamkor va ish unumi yuqori g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan texnik vositalar va qurollarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida 910 million gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan maydon mavjudligi va shundan 34 million gektarda g‘o‘za yetishtirilishi”ni hisobga olsak, sug‘orish ishlari amalga oshirilgandan keyin g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beradigan, ish unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurollarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan g‘o‘za yetishtiriladigan maydonlarda g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan tishli yumshatkich qurilmadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda chopiq ekinlari ekiladigan maydonlarda ko‘chatlarga kam shikast yetkazgan holda to‘liq o‘sib rivojlanishini ta’minlashga imkon yaratadigan g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi energiyatejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan qurollarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda paxtachiliknining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yangicha yondoshuv orqali g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan, ish sifati va unumi yuqori energiyatejamkor qurollarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “Qishloq xo‘jaligi


va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash..” vazifalari belgilab berilgan [2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz tomonimidan g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkichning parametrlarini asoslash borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlar o‘rganildi.

Ish jarayonida tishli yumshatkichga quyidagi kuchlar ta’sir etadi (rasmga qarang) [3].

$G = mg$ – og‘irlik kuchi, N;

Q – bosim prujinalarining taranglik kuchi, N;



Ish jarayonida tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlar

$\sum R_b$ – tuproq tomonidan yumshatkich tishlariga ta’sir etuvchi gorizontal reaksiya kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N;

$\sum R_t$ – tuproq tomonidan yumshatkich tishlariga ta’sir etuvchi tik reaksiya kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N;

R_x – yumshatkichga qo‘yilgan tortish kuchining bo‘ylama tashkil etuvchisi, N;

R_z – yumshatkichga qo‘yilgan tortish kuchining tik tashkil etuvchisi, N.

Rasmda keltirilgan hisobiy sxemadan foydalanib tishli yumshatkichning muvozanat tenglamalarini tuzamiz [4]. Ular quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$\sum X = P_x - \sum R_b = 0; \tag{1}$$

$$\sum Z = P_Z - mg - Q + \sum R_t = 0; \tag{2}$$

$$\sum M_0 = mgl_1 + Ql_2 - \left(\sum R_b\right)l_3 - \left(\sum R_Z\right)l_4 = 0, \tag{3}$$

bunda m – tishli yumshatkichning massasi, kg;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2;

l_1, l_2 – mos ravishda mg, va Q kuchlarning “O” sharnirga nisbatan yelkalari;

l_3, l_4 – mos ravishda $\sum R_b$ va $\sum R_t$, kuchlarning “O” sharnirga nisbatan yelkalari.

(1)–(3) tenglamalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yumshatkichning belgilangan chuqurlikka botib bir tekis yurishi asosan uning bosim prujinalarining taranglik kuchini to‘g‘ri tanlash hisobiga ta’minlanadi.

Tishli yumshatkichga bosim prujinalarining taranglik kuchi (3) tenglamadan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun uni Q ga nisbatan yechamiz [5-7].

$$Q = \frac{\left(\sum R_b\right)l_3 + \left(\sum R_t\right)l_4 - mgl_1}{l_2}. \tag{4}$$

Bu ifodadagi $\sum R_b$, $\sum R_t$, l_1, l_2, l_3, l_4 larni quyidagicha ifodalab olamiz

$$\sum R_b = \sum R_{tq}; \tag{5}$$

$$\sum R_t = q \cdot n; \tag{6}$$

$$l_1 = l_4 = 0{,}5L \tag{7}$$

va

$$l_2 = L. \tag{8}$$

Bularni hisobga olganda

$$Q = \frac{2R_{tq}l_3 + \left[\left(qn_t\right) - mg\right]L}{2L}. \tag{9}$$

(9) ifodaga R_{tq}, q, n va L ni yuqorida aniqlangan qiymatlarni qo‘yib va ishlab chiqilgan konstruksiya bo‘yicha m=12 kg, l_3=0,08 m hamda g=9,81 m/s^2 qabul qilib, prujinalar tomonidan tishli yumshatkichga beriladigan bosim kuchi 134,7 N bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Xulosa

Yuqorida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar bo‘yicha shuni ta’kidlash mumkinki, g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkich prujinalari tomonidan unga beriladigan bosim kuchi 134,7 N bo‘lishi, ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov berishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi PF-5853-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-4410-son qarori.

3. Kalimbetov, B., Kalymbetov, B., Kenzhibayeva, G., Karmanov, D., Tukhtakuziyev, A., & Kablan, B. (2019). Justification parameters of the ripper tooth of combined unit for minimum tillage. EurAsian Journal of BioSciences, 13(1), 341-347.

4. Tukhtakuziev A. Ensuring the Uniformity of Tillage Depth //Agricultural machinery and technologies. – 2019. – Т. 13. – №. 3. – С. 34-38.

5. Imomkulov K. B., Abdunazarov E. E. The results of the experiments conducted on the selection of the type of working body of the machine for burying pomegranate bushes //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 65-69.

6. Abdunazarov,Elbek Elmurodovich and Abdullayev,Kamol Kxakimovich and Babaev,Narimon Otabayevich, 20220518727, English, Journal article, Iran, 2008-4161 2008-3645, 15, (1), Ahvaz, Jundishapur Journal of Microbiology, (4354–4362), Ahvaz Jundishapur University of Medical Sciences, Ensure the stability of the processing depth of machine for hiding pomegranate bushes., (2022)

7. E.E.Abdunazarov Anor tuplarini ko‘madigan mashina tup yotqizgichi bosim prujinasining bikirligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri // Строительство и образование. 2025. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/anor-tuplarini-ko-madigan-mashina-tup-yotqizgichi-bosim-prujinasining-bikirligini-uning-ish-ko-rsatkichlariga-ta-siri (дата обращения: 20.09.2025).

Isakov Z. Ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlarni tadqiq etish. *Maqolada ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlarni tadqiq etish natijalari keltirilgan.*

Исаков З. Исследование сил, действующих на зубчатый валец, обрабатывающий хлопок между рядами, в процессе работы. *В статье представлены результаты исследования сил, действующих на зубчатый валец, обрабатывающий хлопок между рядами, в процессе работы.*

Isakov Z. Research on the forces acting on a toothed roller that processes cotton between rows during operation. *The article presents the results of a study on the forces acting on a toothed roller that processes cotton between rows during operation.*

УДК 519.23:004.4.

ПОСТРОЕНИЕ РЕГРЕССИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ВТОРОГО И ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПО РЕЗУЛЬТАТАМ АКТИВНОГО МНОГОФАКТОРНОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Субанбаев А.Д.[1], Сухов Е.М.[1]

[1] Научно-исследовательски институт механизации сельского хозяйства.

Demak, kunjut tuplarini o‘rib, uyumlab ketish va hosilini yanchib olish qurilmalarini yaratish uchun yangi texnik yechimlarni yaratish, tajriba nusxalarini tayyorlash va ularni agroklasterlar va fermer xo‘jaliklarida sinovlardan o‘tkazish yechilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammo hisoblanadi va ilmiy-amaliy yangilikka ega.

Shundan kelib chiqqan holda, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketuvchi qurilmaning tajriba nusxasi yaratildi (1-rasm) [1,2,3,4].

Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlaydigan qurilma osma bo‘lib, 0,6 sinfidagi minitraktorlar bilan agregatlanadi va rama, osish qurilmasi, brus, ichki va tashqi bashmaklar, qirqish apparati va uning yuritmasi, o‘rilgan o‘simliklarni yo‘naltirib, uyum hosil qiluvchi ish organlari kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.



1-rasm Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketadigan qurilma tajriba nusxasining orqadan va ish holatdagi ko‘rinishlari

Qurilma Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumanidagi fermer xo‘jaliklarida sinovlardan o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadqiqotlarda aniqlangan maqbul parametr va ish rejimlarida sinovlardan o‘tkazilganda 2,0 m/s ish tezligida uyumlarning o‘rtacha kengligi 40 sm ni, o‘rtacha kvadratik chetlashishi esa 5,1 sm ni tashkil etdi. Eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri don nobudgarchiligi 1,5 foizdan oshmadi va dastlabki talablarni qanoatlantirdi. Qurilmaning ekspluatatsiya vaqtidagi ish unumi o‘rtacha 0,5 ha/h ni tashkil etgani holda yonilg‘i sarfi gektariga 5,6 l ga teng bo‘ldi.

Iqtisodiy samarani hisoblash ishlab chiqilgan qurilma va qo‘l mehnati orqali 1 gektar maydondagi kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab olish uchun ketadigan mehnat va foydalanishdagi sarf-xarajatlarni hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi. Hisob-kitob ishlarida yangi texnika, ixtiro va ratsionalizatorlik takliflaridan ishlab chiqarishda foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullariga oid qo‘llanmalar hamda meyyoriy yo‘riqnomalarda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanildi [5,6].

Sarf-harajatlarni hisobga olgan holda qurilmadan foydalanishdagi yillik iqtisodiy samara quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$E_y = (D_1 - D_2) \cdot W_y, \quad (1)$$

bunda D_1 – qo‘l mehnatidan foydalanishdagi to‘g‘ridan to‘g‘ri harajatlar, so‘m/ha;

D_2 – taklif qilinayotgan qurilmadan foydalanishdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, so‘m/ha;

W_y – kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash qurilmaning bir yillik ish hajmi, ha.

Agar bir kishi bir kunda 0,15 gektar maydondagi kunjut tuplarini o‘rsa, bir gektar kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash 6,6 kun sarflaydi, yani bir kishining qo‘l mehnatidan foydalanishdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar

$$D_1 = 6{,}6 \cdot 7 \cdot 5\,470{,}8 = 252\,754{,}6\ so‘m/ha.$$

Bir gektar kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash uchun qurilmaga ajratilgan amortizatsiya xarajatlari

$$A_x = B \cdot \frac{a}{W} = 15\,000\,000 \cdot 0{,}125/10000 = 187{,}5\ so‘m, ha \quad (2)$$

bunda B – qurilmaning balans narxi, ming so‘m;

a – qayta tiklash uchun meyoriy koeffitsient, a = 12,5%;

W = 10000 m^2.

Qurilmani ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun xarajatlar

$$R = B \cdot \frac{P}{W} = 15\,000\,000 \cdot 0{,}115/10\,000 = 172{,}5\ so‘m, \text{ ha} \quad (3)$$

bunda P – ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun ajratilgan me’yoriy koeffitsient, P=11,5%.

Bir gektar maydondagi kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash uchun ishchilarga ajratiladigan ish haqi:

$$I_x = \frac{1}{Q_x} \cdot O \cdot F_c = \frac{1}{0{,}5} \cdot 1 \cdot 9\,155{,}5 = 18\,311{,}0\ so‘m, ha \quad (4)$$

bunda F_c – V razryad ishchilarga ta’rif bo‘yicha bir soatda to‘lanadigan pul miqdori,

F_c = 9 155,5 so‘m;

O – xizmat ko‘rsatadigan xodimlar soni, O =1 kishi;

Q_x – qurilmaning bir soatdagi ekspluatatsion ish unumi, Q = 0,5 ha/h.

Qurilma yonilg‘i moylash materillari uchun xarajatlar

$$G = U \cdot S = 5{,}6 \cdot 12\,000 = 67\,200\ so‘m/ha, \quad (5)$$

G - Yonilg‘i moylash materiallari sarfi, so‘m/ha;

U - YoMM sarfi, kg/ha;

S - 1 kg kompleks yonilg‘ining narxi, so‘m.

Bir gektar maydondagi kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarflanadigan xarajatlar

$$D_2 = A_x + R + I_x + G = 85\,871{,}0\ so‘m/ha\ . \quad (6)$$

Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash qurilmasining bir yillik ish hajmi

$$W_y = Z_y \cdot Q_e = 210 \cdot 0{,}5 = 105ha, \quad (7)$$

bunda Z_y – qurilmaning bir yildagi ishlash vaqti, soat.

$$Z_y = D \cdot t = 210\ soat, \quad (8)$$

bunda D – qurilmaning bir mavsumda ishlaydigan kunlari soni, D = 20 kun;

t – qurilmaning bir kunlik ish vaqti, t = 7 soat.

1-jadval

Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash uchun ishlab chiqilgan qurilmaning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun dastlabgi ma’lumotlar

T/r	Ko‘rsatgichlar nomi	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Ko‘rsatgichlar qiymatlari
1	**2**	**3**	**4**	**5**
1	Mashina turi	-	-	Osma
2	Massasi	*m*	*kg*	160
3	Balans narxi	*B*	*UZS*	15 000 000

1	2	3	4	5
4	Ish unumi	Q_e	*ga/h*	0,5
5	Yillik yuklanishi	Z_y	*h*	105
6	Xizmat ko‘rsatadigan xodimlar soni	*O*	*kishi*	1
7	Yillik ish hajmi	W_y	*ha*	210
8	V razryad ishchilarga ta’rif bo‘yicha bir soatda to‘lanadigan ish haqi	F_e	*UZS*	9155,5
9	YoMM sarfi, kg/ha	*U*	*l*	5,6
10	1 kg komleks yonilg‘ining narxi, so‘m	*S*	*UZS*	12 000
11	Kunlik ishlash vaqti	*t*	*h*	7
12	Qurilmaga bir yilda ajratiladigan amartizatsiya xarajatlari	*a*	*%*	12,5
13	Qurilmani ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun ajratilgan me’yoriy koeffitsient	*R*	*%*	11,5
14	Ish haqi	I_x	*UZS /ha*	18311
15	Amortizatsiya ajratmasi	A_x	*UZS /ha*	187,5
16	Joriy va mukammal ta’mirlash xarajatlari	*R*	*UZS /ha*	172,5
17	YoMM xarajatlari	*G*	*UZS /ha*	67 200
18	Foydalanishdaji to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar	D_2	*UZS /ha*	*85 871,0*

1-jadvalda kunjut tuplarini o‘rib-uyumlash uchun ishlab chiqilgan qurilmaning iqtisodiy samarasini aniqlash bo‘yicha dastlabgi ma’lumotlar keltirilgan. Unda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, taklif qilinayotgan qurilmada bir gektar kunjut tuplarini o‘rib uyumlash uchun sarflanadigan xarajatlar *85 871,0 so‘m* ni tashkil etadi.

Taklif qilinayotgan qurilmada bir gektar kunjut tuplarini o‘rib uyumlash uchun foydalanilganda olinadigan iqtisodiy samara quyidagiga teng

$$E = (D_1 - D_2) \cdot 1 = 252\,754{,}6 - 85\,871{,}0 = 166\,883{,}6 \text{ UZS}/ga. \quad (9)$$

Sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda qurilmadan foydalanishdagi yillik iqtisodiy samara esa *17 522 778* so‘mni tashkil etadi.

Xulosa

Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketish qurilmasidan foydalanilganda bir qator ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Ya’ni, kunjut hosilini yig‘ishtirishni mexanizatsiyalashtirish, hosilni yig‘ishtirish muddatlari qisqarishi hisobiga tabiiy to‘kilishdan don nobudgarchiligini, vaqt, qo‘l mehnati sarfini va kunjut yetishtirish tannarxini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Sinovlar natijalariga asosan bajarilgan hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketish qurilmansi qo‘lda o‘rishga nisbatan ish unumini oshirish, mehnat sarfini va boshqa sarf-xarajatlarni qisqartirish hisobiga yiliga *17 522 778* so‘m iqtisodiy samara olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Bozorboev A. Kunjut hosilini yig‘ishtirishning mexanizasiyalash muammolari. Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mas’hinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2023. – B. 225-228.

2. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Bozorboev A. Dunyoda kunjut yetishtirish dinamikasining tahlili. Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mas’hinalarini yaratish va texnika vositalaridan

foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2023. – B. 233-238.

3. ISSN 2225-1545 172-175. https://www.iupr.ru/3-106-2023

4. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Bozorboev A. Somr Physical-Mechanical Choracteristics of sesame plants. GLOBAL SCIENTIFIC REVIEW: Open access journal. – Partugal, 2024. Volume-34 – P. 10-17.

5. ГОСТ 53056-2008. Техника сельскохозяйственная. Методы экономической оценки. М.: Изд-во стандартов, 2009. – 23 с.

6. РД Уз 63.03-98. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники. – Ташкент: Узстандарт. 1999. – 24 с.

Bozorboyev A.A. Kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketadigan qurilmaning iqtisodiy samaradorligi. *Maqolada xo‘jalik sinovlari natijalariga asosan kunjut tuplarini o‘rib-uyumlab ketadigan qurilmadan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash natijalari keltirilgan. Qurilmadan foydalanish qo‘lda o‘rishga nisbatan ish unumini oshirish, mehnat va boshqa sarf-xarajatlarni qisqartirish hamda bir yilda 17 522 778 so‘m iqtisodiy samara olish imkonini berishi aniqlangan.*

Бозорбоев А.А. Экономическая эффективность устройства для кошения и укладки в валок кустов кунжута. *В статье представлены результаты расчета экономической эффективности использования устройства для кошения и укладки в валок кустов кунжута на основе результатов хозяйственных испытаний. Установлено, что использование устройства позволяет повысить производительность труда по сравнению с ручной уборкой, сократить трудовые и другие затраты, а также получить экономический эффект в размере 17 522 778 сумов в год.*

Bozorboyev A.A. Economic efficiency of a device for mowing and heaping sesame bushes. *The article presents the results of calculating the economic efficiency of using a device for mowing and stacking sesame bushes based on the results of economic tests. It has been established that the use of the device makes it possible to increase labor productivity, reduce labor and other costs, and obtain an economic effect of 17 522 778 soums per year compared to manual mowing.*

UDC 631.3

DEVELOPMENT OF SELF-PROPELLED PRUNING RESIDUE SHREDDER

Çanakcı M.[1] prof, Topakcı M.[1] prof, Karayel D[1] prof.,Unal İ.[2]dots, Çakır M.[3] prof.

[1] Akdeniz University
[2] Burdur Mehmet Akif Ersoy University
[3] Yıldız Technical University

In fruit growing, significant amounts of plant residue are generated after pruning. These residues are traditionally taken outside the orchard and burned, abandoned in vacant lots, or shredded with various machines for further use. When not utilized, these residues pose significant environmental problems. These residues are utilized using different methods in different parts of the world. They can be shredded and either directly incorporated into the soil as organic matter or, after being shredded, transported and processed for use as compost, mulch, biomass, or industrial raw materials. The technological level of the relevant farm or region is important in the implementation of these methods (Çanakcı, 2014).

The easiest and simplest method among the assessment methods, requiring less machinery, is the incorporation of residues into the soil on-site. Shredding pruning residues with machinery within the orchard, dropping them on the soil surface, and then incorporating them into the soil with a tillage machine contributes to improved soil properties. Incorporating residues into the soil

increases the soil's organic matter content, contributes to soil and water conservation, and contributes positively to soil productivity and biodiversity (Önal and Aykas, 1997, Repullo et al. 2012). A study in California on shredding and incorporating pruning residues from almond orchards into the soil as an alternative to burning indicated that this practice reduced air pollution and increased soil organic matter. Three-year studies reported that organic matter, water infiltration, and carbon content increased, and pH decreased, in soils treated with residues compared to those not treated (Holtz et al., 2005).

Mounted shredders machines (mulchers), driven by a tractor's PTO, are commonly used in applications where residue is shredded on-site and left on the soil. These machines, mounted on the rear of a tractor and driven between rows, shred pruned branches and deposit them on the soil surface, often have swinging hammer blades in their shredding unit.

Some problems have been observed in the use of existing tractor-mounted shredders, which are mounted on the tractor's PTO shaft. For the machine, which is located at the rear of the tractor, to shred the material, the tractor must pass over the windrow-shaped residue. This can cause difficulties in moving the material into the shredding unit, depending on the tractor's ground clearance and windrow height. When working with tractor-mounted machines, the tractor's technical and physical characteristics play a role. The tractor's technical specifications are not always sufficient to precisely adjust forward speed and shredder speed.

In this study, a self-propelled pruning residue shredder was developed, taking into account Turkish conditions. The machine uses hydraulics for motion transmission and a Programmable Logic Control (PLC) electronic system for control. The machine's manufacturing stages are shown in Figure 1.

The machine's main power source is a 115 HP diesel engine. Previous studies were reviewed to determine engine power, and it was anticipated that the machine could operate on terrain with a 10º slope. The engine's power is transmitted to hydraulic pumps and hydromotors at the drive points of the wheels and shredding unit. The unit, located at the front of the machine, houses the upper collection, lower collection, shredding, and screening units. The machine is controlled by an electronic control system (PLC).




Figure 1. Some views of the machine production stages

Fistly, the diesel engine drives the hydraulic pumps (Figure 2). The power taken from the hydraulic pumps is transmitted to the hydraulic motors and hydraulic pistons. The system has a total of four hydraulic pumps located on the flywheel axis. The first hydraulic pump drives the two hydromotors located on the drive wheels. The second hydraulic pump is connected to the hydromotor that drives the shredding system. The belt-and-pulley mechanism connected to the hydromotor rotates the shredder rotor at the same rate. The third pump drives the two hydromotors that drive the collector units. The final hydraulic pump drives a total of six hydraulic cylinders on the machine: five that adjust the position of the shredding unit and the upper collector, and one used for steering.

The primary function of this self-propelled machine is to shred pruning debris, which is collected by the picking up unit located at the front. The residue materials within the unit are shredded by blades connected to the rotor, which swing freely. Upper and bottom pickers facilitate the transfer of pruning residue above ground to the shredding unit. A screen is installed at the lower rear of the shredding chamber to increase shredding efficiency. Standard St 37 material is used in the machine's construction. The collector fingers are made of Hardox steel (408 HB). The hammer blades are hammer blades made of cast steel with a hardness of 400 HB.




Figure 2. The layout of the hydraulic pumps and motors on the self-propelled machine

A PLC-based measuring system was designed for the self-propelled pruning residue shredder to collect, record, and monitor sensor-based data such as the rotation speed of the fingers in the collecting unit, the rotation speed of the shredding blades, forward speed, fuel consumption, and pump pressures on the operator's screen. A Delta DVP28SV model PLC was used within the PLC panel (Figure 6). The PLC operates at 24 volts. Therefore, a 12-24 Volt converter was used within the PLC control panel.

Data collected by the measurement system can be viewed and recorded in real time on a touch-screen industrial computer (Panel PC), and transferred as a file via a USB memory stick if desired. The interior of the machine cabin was shown in Figure 2.

The technical specifications of the developed machine were given in Table 1. Following the development of the machine prototype, orchard experiments were conducted under real-world operating conditions in walnut, apricot, vineyard, olive, and orange groves (Figure 4). Key findings from the shredding of vineyard, olive, and orange residues were presented in Table 2.




Fig. 3. The interior view of the self-propelled pruning residue shredder cabin



Figure 4. Working of the machine in the orchards

Table 1. Technical specifications of the self-propelled pruning residue shredder

Technical specifications		Unit	Quantity / Description
Engine	Diesel engine power	HP	115
General sizes	Total width	mm	2230
	Total length	mm	5750
	Total height	mm	2507
	Wheelbase	mm	2240
	Front track	mm	1550
	Underbelly height	mm	350
	Mass	kg	5450
Tire Sizes Tires	Front (Drive)	-	320/85 R24
	Rear Tires	-	9.00-16
Motion transmission control	Motion transmission	-	Hydraulic
	Control system	-	Electronic (PLC)
Pickup and shredding unit	Width of shredding unit	mm	1700
	Shredder rotor speed	min^{-1}	0…2200 - Adjustable
	Number of blades	pieces	18
	Number of bottom picker fingers	pieces	20
	Number of upper picker fingers	pieces	24
	Shredding unit lift height	mm	400
	Upper and bottom pickers rotor speeds	min^{-1}	0…130 - Adjustable

Table 2. Findings regarding machine capacity.

Properties	Vineyard	Olive	Orange
Working speed, km h^{-1}	1.6	1.4	1.5
Field capacity, ha h^{-1}	0.41	0.71	0.77
Windrow density*, kg m^{-1}	2.59 ± 0.16	2.44 ± 0.13	2.23 ± 0.19
Material capacity*, kg s^{-1}	1.15 ± 0.07	0.95 ± 0.07	0.93 ± 0.08
Material capacity*, t h^{-1}	4.14 ± 0.26	3.41 ± 0.26	3.34 ± 0.21
Shredder speed, min^{-1}	1409 ± 12	1309 ± 33	1303 ± 5
Fuel consumption, L h^{-1}	10.53 ± 0.22	12.37 ± 0.29	11.73 ± 0.50
Particle geometric diameter values, mm	13.7 ± 0.4	13.4 ± 0.2	14.3 ± 0.8

Conclusion

In this study, a self-propelled machine was developed to shred pruning residue generated in orchards and left it on the soil in situ, and orchard trials were conducted. The prototype machine was observed to operate successfully during the trials. The machine's area and material capacity values, operating with different pruning residues, ranged from 0.41 to 0.77 ha h-1 and 3.34 to 4.14 t h-1. Hourly fuel consumption varied between 10.53 and 12.37 L h-1, and the average particle geometric diameter ranged between 13.7 and 14.3 mm. The machine has two patents, both approved by the Turkish Patent Institute in 2023.

References

1. Çanakcı M. 2014. Budama Artıkların Parçalanması ve Mekanizasyon (Pruning Residue Shredding and Mechanization). Hasat Dergisi (Harvest Journal), 29(344):70-78 (in Turkish)

2. Önal, D., Aykas, E. 1997. Hasat Sonrası Pamuk Saplarının Toprağa Kazandırılmasında Kullanılan Teknik ve Makinalar (Techniques and Machines Used in Recycling Cotton Stalks to the Soil After Harvest) Tarımsal Mekanizasyon 17. Ulusal Kongresi Bildiri Kitabı (Proceedings Book of the 17th National Cong. of Agricultural Mech.), 290-297, Tokat, Türkiye (in Turkish)

3. Repullo, M.A., Carbonell, R., Hidalgo, J., Rodrı´guez-Lizana, A., Ordo´n˜ez, R. 2012. Using olive pruning residues to cover soil and improve fertility., Soil & Tillage Research, 124: 36–46

4. Holtz et al., 2005 Holtz, B.A., Caesar-TonThat, T., McKenry M.V. 2005. Wood Chipping Almond Bruch and Its Effect on Soil And Petiole Nutrients, Soil Aggregation, Water Infiltration, and Nematode and Basidiomycete Population. Options Méditerranéennes, Série A, 63:247-54.

Chanakcı M., Topakcı M., Karayel D., Unal İ., Chakır M. O'ziyurar ekin qoldiqlarini maydalagich qurilmasini ishlab chiqish. *Ushbu tadqiqotda bog‘larda hosil bo‘lgan azizillo qoldiqlarini maydalash va uni o‘z joyida tuproqqa tushirish uchun o‘ziyurar mashina ishlab chiqildi va bog‘da sinovlar o‘tkazildi. Sinovlar davomida prototip mashinasi muvaffaqiyatli ishlashi kuzatildi. Turli Azizillo qoldiqlari bilan ishlaydigan mashinaning maydoni va material sig'imi qiymatlari 0.41 dan 0.77 ga* h^{-1} *va 3.34 dan 4,14 t* h^{-1} *gacha. Soatlik yoqilg'i sarfi 10.53 dan 12.37 L* h^{-1} *gacha, o'rtacha zarracha geometrik diametri esa 1.,7 dan 14.3 mm gacha bo'lgan. Mashinaning ikkita patenti mavjudtur, ikkalasita Turkiya Patent Instituti tomonidan 2023 yilda tasdiqlangan.*

Чанакчи М., Топакчи М., Карайел Д., Унал И., Чакыр М. Разработка самоходного измельчителя пожнивных остатков. *В рамках данного исследования была разработана самоходная машина для измельчения пожнивных остатков, образующихся в садах, и внесения их в почву на месте, а также проведены испытания в садах. Опытный образец машины успешно продемонстрировал свою эффективность в ходе испытаний. Показатели площади и производительности машины при работе с различными пожнивными остатками варьировались от 0.41 до 0.77 га* $ч^{-1}$ *и от 3.34 до 4.14 т* $ч^{-1}$*. Часовой расход топлива варьировался от 10.53 до 12.37 л* $ч^{-1}$*, а средний геометрический диаметр частиц – от 1.,7 до 14.3 мм. На машину получены два патента, оба из которых были одобрены Турецким патентным институтом в 2023 году.*

Chanakchi M., Topakchi M., Karayel D., Unal I., Chakir M. Development of a self-propelled crop residue shredder. *As part of this study, a self-propelled machine was developed for shredding crop residues generated in orchards and incorporating them into the soil on site, and tests were conducted in orchards. The prototype machine successfully demonstrated its effectiveness during testing. The machine's area and productivity indicators when working with various crop residues ranged from 0.41 to 0.77 ha h-1 and from 3.34 to 4.14 t h-1. Hourly fuel consumption ranged from 10.53 to 12.37 l h-1, and the average geometric particle diameter ranged from 1.7 to 14.3 mm. Two patents have been obtained for the machine, both of which were approved by the Turkish Patent Institute in 2023.*

UO‘T 631.358

KARAM HOSILINI MEXANIZATSIYALASHGAN USULDA YIG‘ISHTIRISHNING AHAMIYATI

Majitov S.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

Sabzavot ekinlarini parvarishlash va yig‘ish jarayoni yuqori mehnat talab qiluvchi vazifa hisoblanadi. Shu bois, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ushbu jarayonlarni mexanizatsiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sabzavot ekinlaridan biri bo‘lgan karamni yig‘ish hanuzgacha qo‘l mehnati talab qiladigan va kam mexanizatsiyalashgan jarayon bo‘lib qolmoqda.

O‘rtacha hisobda jahon bo‘yicha 1 gektar maydonda karam yetishtirish uchun 560-650 kishi-soat sarflangan [1]. Shundan qariyb 60 foizi hosilni yig‘ib olishga ketgan. Bu esa karam yetishtirishning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning hosildorligi juda yuqori

(70 t/h gacha) ekani bilan izohlanadi.

Bugungi kunda karamni yig‘ib olishning 3 usuli shakllangan:

- to‘liq qo‘l mehnati bilan yig‘ish;
- qisman mexanizatsiyalashgan yig‘ish (keng qamrovli transporter va platformalar orqali);
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri kombayn yordamida yig‘ish;


Qo‘l mehnatida yig‘ish usulida (1-rasm) ob-havoning noqulayligi, doimiy ishchilar yetishmovchiligi, transport masalalari ish unumiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ishchining o‘rtacha ish unumi 280 kg/soat dan oshmaydi.



1-rasm. Karam hosilini qolda yig‘ib olish jarayoni

Demak, karamni qo‘l mehnatida yig‘ish uzoq vaqt talab qiladi, natijada hosilning bir qismini o‘z vaqtida yig‘ib olish imkonsiz bo‘lib qoladi. Bu karamning sifatiga, ularning so‘lishi, qizarishi yoki chirishiga olib keladi.

Qisman mexanizatsiyalashgan usulda (2-rasm) esa keng qamrovli transporterlar yordamida karam mashinaga yuklanadi. Ushbu usul oddiyligi, arzonligi va texnik ishonchliligi sababli keng qo‘llaniladi. Bu usul orqali mehnat unumdorligi birinchi usulga nisbatan 2,0-2,5 barobargacha oshadi.




1 – markaziy bo‘lim; 2, 3 – yon bo‘limlar; 4 – qiya lotok;
5 – yig‘uvchi ishchilar; 6 – joylashtiruvchi ishchi

2-rasm. TN-12 karam yig‘ish transporterining ishlash sxemasi

Keng qamrovli transporter yordamida yig‘im-terim quyidagi texnologik tartibda olib boriladi: transporter dala bo‘ylab harakatlanadi, ishchilar karam boshlarini kesib olishadi, yashil qoplovchi barglari olib tashlanadi va kesilgan karam boshchalari transporter yordamida tashuvchi transport vositasiga yuklanadi [2].

Transporter yordamida karam boshlarini transport vositasiga ham o‘ng, ham chap bo‘limlar orqali yuklash imkoni mavjud.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri kombaynlashtirilgan (3-rasm) yig‘ishda karam boshini kesish, bargni ajratish, saralash va yuklash bir vaqtda amalga oshiriladi. Lekin bu usulda saralash jarayoni qo‘lda bajarilishi tufayli, intensivlik sababli kombayn harakat tezligi pasaytiriladi, bu esa unumdorlikni cheklaydi.




1 – rama; 2 – barg ajratgich; 3 – inspeksiya stoli; 4 – tushirish elevatori;
5 – kesish moslamasi; 6 – qabul qiluvchi transporter; 7 – shassi

3-rasm. MSK-1 kombaynining ishlash sxemasi

Bir qatorli MSK-1 kombayni asosan tovar sifatidagi karam boshlarini kesib, erkin barglarni ajratib tashlaydi va nazoratdan so‘ng karamni transport vositasiga yuklaydi [3]. Shu bilan birga, mazkur kombayn kesish moslamasini mos ravishda sozlash orqali karamni yashil barglari bilan ham kesishi mumkin.

Ish sifati baholanganida, bu kombayn mexanizatsiyalashgan yig‘im-terim uchun yaratilgan karam navlarida qoniqarli natija bergan. Kombayn yordamida yig‘ilgan mahsulot sifati qo‘lda terilgan karamdan kam emas.

Karam yetishtirishda asosiy texnologik operatsiyalar bo‘yicha mehnat xarajatlarining grafik ko‘rinishi 4-rasmda keltirilgan [4].



4-rasm. Karam yetishtirishda asosiy texnologik operatsiyalar bo‘yicha mehnat xarajatlarining grafigi

4-rasmda, karam boshlarini yig‘ib olish eng ko‘p mehnat sarfi talab etilishini, qo‘l mehnati yordamida yig‘ib olishda bo‘lishi bilan mexanizatsiyalashgan yig‘ishtirish usuliga nisbatan ikki barobardan ko‘proq mehnat sarf bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa

Karamni mexanizatsiyalashgan usulda yig‘ib olishda ish unumdorligi oshadi, hosil yo‘qotishlari kamayadi, yig‘im-terim tezligi ortadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, mahsulot sifati va saqlanish muddati yaxshilanadi. Shu bois, karam hosilini mexanizatsiyalashgan holda yig‘ish zamonaviy sabzavotchilikda muhim bo‘lib, texnologik rivojlanishning muhim yo‘nalishidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Исупов И.С. Разработка технологических приемов, овышающих эффективность поточной уборки белокочанной капусты: Дис. канд. с. – х. наук 06.01.06. – М., 1981. – 173 с.
2. Бекетов, В.П. Машины для уборки капусты. (Б-чка «Новое в механизации растениеводства») /В.П. Бекетов. – М.: Россельхозиздат, 1987.–45 с.
3. Тихонов, Н.И. Механизировать уборку капусты /Н.И. Тихонов//Картофель и овощи. – 1987. - №4. – С. 34 – 35.
4. Романовский, Н.В. Шамонин В.И. Механизированная технология уборки капусты белокочанной. ISSN 0131-5226. Сборник научных трудов. ГНУ СЗНИИМЭСХ Россельхозакадемии. 2007. Вып. 79

Majitov S. Karam hosilini mexanizatsiyalashgan usulda yig‘ishtirishning ahamiyati. *Mazkur maqolada karam hosilini mexanizatsiyalashgan usulda yig‘ishtirishning iqtisodiy va texnologik jihatdan ahamiyati yoritilgan. Mehnat sarfi, hosil yo‘qotishlari va vaqt tejamkorligi bo‘yicha mexanizatsiyalashgan usulning qo‘lda yig‘ish texnologiyasidan ustunligi ilmiy tahlillar orqali asoslab berilgan.*

Мажитов С. Значение механизированной уборки урожая капусты. *В данной статье освещено экономическое и технологическое значение механизированной уборки урожая капусты. Обосновано преимущество механизированного способа по сравнению с ручной технологией уборки по показателям трудозатрат, потерь урожая и экономии времени.*

Majitov S. The importance of mechanized cabbage harvesting. *This article highlights the economic and technological significance of mechanized cabbage harvesting. The compared to the mechanized method over manual harvesting technology in terms of labor costs, yield losses, and time savings were substantiated.*

UO‘T 631.358:633.51

TERISH APPARATLARI ALMASHINADIGAN MX-1,8GV HAMDA GORIZONTAL SHPINDELLI PAXTA TERISH MASHINALARINI ISH UNUMI HISOBI

Rizayev A.A.[1], Yo‘ldashev A.T.[1], Qo‘ldoshev D.A.[1], Djurayeva N.B.[1]

[1] M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti.

Respublikamizda fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan paxta hosilini mashinada yig‘ishtirib olishni ta’minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa fermer xo‘jaliklari mashinada terilgan paxtadan yuqori samara olishi uchun nimalarga e‘tibor berishlari kerak ekanligi va oldindan turli konstruktsiyaga ega bo‘gan paxta terish mashinalarining ish unumi va agrotexnik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yangi paxta terish mashinalarini yaratish va tadqiq etish hamda paxta terish mashinalarining terim to‘liqligi, yerga to‘kilgan, g‘o‘za tuplarida qolgan paxta miqdori, paxtaning ifloslanishi va chigitning shikastlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlarini tez va sifatli aniqlash usullari va vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish muhim vazifalardan biridir [1].

Bu vazifalardan kelib chiqib, paxta terish mashinalarining ish unumini hisoblash uchun ishlab chiqilgan matematik modellaridan va (EXM) kompyuter dasturidan foydalanamiz. Hisobiy

ishlarni bajarishda paxta dalalaridagi ko‘saklarning ochilganlik darajasini G_p/G_y=0,90 foiz paxta hosildorligi 30 s/h, dala uzunligini o‘zgarishi ℓ=200-700 m deb qabul qilamiz:

1. Vertikal shpindelli 2-qatorli paxta terish mashinasi MX-1,8 ushun: V_M =1,07 m/s, terim to‘liqligi P = 0,85, bunker sigimi G_b = 750 kg.

2. Terish apparati gorizontal shpindelli 2-qatorli paxta terish mashinasi MX-1,8GV uchun: V_M =1,25 m/s, terim to‘liqligi P = 0,92, bunker sigimi G_b = 1000 kg.

3. 2-qatorli gorizontal shpindelli TZST CE-220 paxta terish mashinasi ushun: V_M =1,44 m/s, terim to‘liqligi P = 0,92, bunker sigimi G_b = 1400 kg.

Yuqorida keltirilgan qiymatlarni EXM dasturiga [2,3] kiritib, olingan natijalarni 1-jadvalga kiritamiz.


1-jadval

Birinchi terim uchun paxta terish mashinasining bir smenadagi hisobiy ish unumi

($P=0{,}85; P=0{,}92; V_M=1{,}07\ m/s; V_M=1{,}25\ m/s; V_M=1{,}44\ m/s;\ G_p/G_y=0{,}90;\ t=7\cdot3600\ s;$ $t_T=2{,}1\cdot3600\ s; G_b=750\ kg; G_b=1000\ kg; G_b=1400\ kg; B=0{,}9\ m;\ n=2;\ t_K=0{,}65\cdot60\ s;$ $t_E=7{,}95\cdot60\ s;\ k_b=1{,}0$)


Ish unumi		Dala uzunligi ℓ, m					
		200	300	400	500	600	700
MX-1,8 G_y = 3,0 t/ga	W_{ga}	2,284	2,392	2,452	2,49	2,515	2,534
	W_{kg}	$5{,}234\cdot10^3$	$5{,}49\cdot10^3$	$5{,}628\cdot10^3$	$5{,}714\cdot10^3$	$5{,}773\cdot10^3$	$5{,}816\cdot10^3$
MX-1,8 GV G_y = 3,0 t/ga	W_{ga}	2,628	2,777	2,859	2,91	2,945	2,97
	W_{kg}	$6{,}28\cdot10^3$	$6{,}899\cdot10^3$	$7{,}101\cdot10^3$	$7{,}227\cdot10^3$	$7{,}315\cdot10^3$	$7{,}378\cdot10^3$
TZST CE-220 G_y = 3,0 t/ga	W_{ga}	2,999	3,195	3,303	3,372	3,419	3,453
	W_{kg}	$7{,}45\cdot10^3$	$7{,}937\cdot10^3$	$8{,}205\cdot10^3$	$8{,}375\cdot10^3$	$8{,}493\cdot10^3$	$8{,}578\cdot10^3$

1 va 2-rasmlarda 1-jadval hisobiy qiymatlar asosida dala uzunligini ℓ va paxta hosildorligi G_y larning gektar hisobidagi W_h va terilgan paxta massasi W_{kg} hisobida ish unumlariga ta’sir ko‘rsatish grafiklari keltirilgan.



1-MX-1,8 paxta terish mashinasi,
2- MX-1,8GV paxta terish mashinasi,
3-Gorizontal shpindelli TZST CE-220 paxta terish mashinasi

1-rasm. Dala uzunligining paxta terish mashinalarini 1-terim bo‘yicha gektar hisobidagi smenaviy W_h ish unumiga ta’siri grafigi



1-MX-1,8 paxta terish mashinasi,
2- MX-1,8GV paxta terish mashinasi,
3-Gorizontal shpindelli TZST CE-220 paxta terish mashinasi

2-rasm. Dala uzunligining paxta terish mashinalarini 1-terim bo‘yicha kilogramm hisobidagi smenaviy W_{kg} ish unumiga ta’siri grafigi

1 va 2-rasmlarni taxlili shuni ko‘rsatadiki dala maydonini uzunligi ℓ=200 dan ℓ=700 gacha oshib borganda barcha turdagi paxta terish mashinalarining ish unumi ko‘rsatkichlari W_h va W_{kg} mos ravishda oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa

Mashina terimida dala uzunligi ℓ=500 m bo‘lganda MX-1,8 paxta terish mashinasiga nisbatan MX-1,8GV paxta terish mashinasining ish unumi Wkg= 7,227/5,714=1,26 barobarga oshadi. Ishlov berilgan maydonga nisbatan olib qaralganda Wh=2,91/2,49=1,17 barobarga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Agar Gorizontal shpindelli TZST CE-220 paxta terish mashinasini ish unumini MX-1,8GV paxta terish mashinasiga nisbatan taqqoslab qaralsa Wkg=8,375/7,227=1,15 barobarga oshadi. Ishlov berilgan maydonga nisbatan olib qaralganda Wh= 3,372/2,91=1,15 barobarga ko‘p dala maydonini terib olishi nazariy hisob-kitoblar orqali aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Matchanov R.D., Yo‘ldashev A.T., Malikov Z.M., Kuldoshev D.A. Paxta terish mashinalarining ish unumdorligini aniqlash bo‘yicha hisoblash dasturi // EHM uchun dasturiy mahsulot. №DGU 11966. 18.06.2021 yil.
3. Юлдашев Ш.У. Основы технического уровня хлопкоуборочных машин. - Ташкент: Фан, 1980. - 240 с.

Rizayev A.A., Yo‘ldashev A.T., Qo‘ldoshev D.A., Djurayeva N.B. Terish apparatlari almashinadigan MX-1,8GV hamda gorizontal shpindelli paxta terish mashinalarini ish unumi hisobi. *Maқолада terish apparatlari almashadigan vertikal va gorizontal shipindelli paxta terish mashinalarining ish unumiga paxta ekilgan dala maydonini va boshqa omillarni ta’sirini aniqlash hamda ularning qiyosiy tahlillari keltirilgan.*

Ризаев А.А., Йулдашев А.Т., Кулдошев Д.А., Джураева Н.Б. Расчет производительности сменных хлопкоуборочных аппаратов МХ-1,8ГВ и горизонтально-шпиндельных хлопкоуборочных машин. *В статье представлен сравнительный анализ и определение влияния площади хлопкового поля и других факторов на производительность вертикально и горизонтально-шпиндельных хлопкоуборочных машин со сменными уборочными аппаратами.*

Rizaev A.A., Yuldashev A.T., Kuldoshev D.A., Djuraeva N.B. Calculation of the productivity of the MX-1.8GV rotary cotton harvesters and horizontal-spindle cotton harvesters. *The article presents a comparative analysis and determination of the influence of cotton field area and other factors on the productivity of vertical and horizontal-spindle cotton harvesters with replaceable harvesting equipment.*

UO‘T 631.362.322

HAVO-ELAKLI DON TOZALASH MASHINALARIDA MAYDA URUG‘LARNI TOZALASH SIFATINI OSHIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Ravshanov Sh.U.[1] t.f.n., k.i.x., Sherov D.X.[1] tayanch doktorant, Shixnazarov D.R.[2]

[1] Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[2] “Xonqa Na’muna Avtoustoz” MChJ.

Maqolada havo-elakli don tozalash mashinalarida turli omillarning mayda urug‘larni tozalash sifatini oshirishga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Mualliflar shu yo‘nalishda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ma’lumotlaridan foydalanishgan. Donni elak yordamida tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va don tozalash qurilmalarining rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlar to‘g‘risida xulosalar chiqarilgan.

Bugungi kunga kelib, don materiallarining turli fizik-mexanik xususiyatlaridan foydalangan holda tozalashning muayyan bosqichlari uchun mo‘ljallangan ko‘plab don tozalash

uskunalari ishlab chiqilgan. Don tozalash va urug‘larni saralashda komponentlarning aerodinamik, geometrik (uzunligi, kengligi, qalinligi va shakli), moddaning zichligi, sirt holati, hajmiy massa, elastiklik, rang va boshqa fizik-mexanik xususiyatlaridagi farqlardan foydalaniladi [1,2,3].

Don tozalash mashinalarini takomillashtirishning asosiy vazifalari bo‘lib talab etilgan samaradorlikni ta’minlash, don va urug‘larni tozalash sifatini oshirish, energiya va metall sarfini kamaytirish hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, xorijda va respublikamizda ushbu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

M.K.Xaritonov va boshqalar bug‘doy va arpa donini tozalash samaradorligini oshirish maqsadida elakli qurilmaning kinematik ish rejimini tahlil qildilar va elaklarni ularning vazifasiga ko‘ra stanlarda joylashtirish uchun maqbul sxemani asoslab berdilar. Tajriba tadqiqotlari natijalariga asoslanib, elakli stanni diametri 7,5 yoki 8,0 mm bo‘lgan dumaloq teshikli elaklar bilan jihozlash, gorizontga nisbatan ko‘pi bilan 7° burchak ostida o‘rnatish, tebranish chastotasini 340-370 min^{-1} oralig‘ida tanlash donni qalinligi bo‘yicha fraksiyalarga ajratishning maksimal to‘liqligini ta’minlaydi degan xulosaga kelishgan [4].

A.Yu.Golovin va boshqalar o‘z tadqiqotlarida elak yuzasida ajratishning to‘liqligi zarrachaning nisbiy harakati ko‘rsatkichlariga, shuningdek, teshiklarning tushish yo‘nalishiga nisbatan qiyalik burchagiga, garmonik tebranib turgan elak teshigining uzun qirrasi bilan o‘zaro ta’sirlashganda donning tezligi va siljishiga bog‘liqligini aniqlashgan. Shu asosda elak teshiklari qiyalik burchagi β=45°, elakning tebranish chastotasi n=110 min^{-1}, tebranish amplitudasi A=0,09 m, elakning ko‘ndalang qiyalik burchagi α_p=1,5°-2,5° bo‘lganda separatsiya jarayoni yaxshilanadi va bu ish rejimida don aralashmasini tozalash agrotexnika talablariga mos ravishda sifatli olib boriladi degan xulosaga kelishgan [5].

V.A.Patrin va A.V.Patrinlar gorizontal tebranishli yassi elaklarning zaif bo‘g‘ini elakdan ishlov berilayotgan donga uzatilayotgan energiya miqdorining kamayishi degan xulosaga kelishgan. Mavjud saralash mashinalarida separatsiya jarayoni uchun zarur bo‘lgan elak tebranishining yarim davr vaqti faqat 0,06-0,07 s ni tashkil qiladi, bu esa mualliflarning fikriga ko‘ra yetarli emas va yassi elaklarning solishtirma ish unumini elakning tebranish amplitudasini, elakdagi don yukini oshirish, elak yuritmasining aylanishlar sonini kamaytirishda donning elak yuzasi bo‘ylab ishqalanish koeffitsiyentini oshirish orqali oshirish mumkin [6].

Yassi elak ish rejimlarining moshni tozalash samaradorligiga ta’siri bo‘yicha K.Astanakulov va S.Mannabovaning tadqiqotlarida bo‘ylama-ko‘ndalang tebranma elakning bir xil yuklamalarda ishlash sifat ko‘rsatkichlari bo‘ylama tebranma elakka nisbatan 1,2-2,3 marta yuqori ekanligi aniqlangan. Don yo‘qotilishi 0,5% dan oshmasligi va tozalash samaradorligi 99% dan yuqori bo‘lishi uchun bo‘ylama-ko‘ndalang elakning tebranish chastotasi n_{fr}=140-175, bo‘ylama tebranish amplitudasi A_l=30 mm, ko‘ndalang tebranish amplitudasi A_t=3-5 mm va qiyalik burchagi α_s=14^o bo‘lishi tavsiya qilingan [7].

K.D.Astanakulov, Y.Z.Karimov va G.Fozilovlar kichik fermer xo‘jaliklari uchun don tozalash mashinasini loyihalashtirib, sinovdan o‘tkazdilar. Ma’lum mashinalardan farqli o‘laroq, donni hajmiy tozalashda ajratib olingan ishlov berilmagan bug‘doy boshoqlaridan donni ajratib olish uchun prokatli ishqalash qurilmasi ishlab chiqilgan. O‘tkazilgan tajriba-sinov tadqiqotlari asosida aniqlandiki, yanchilmagan boshoqchalarning eng yaxshi yanchilishiga birinchi valikning 600 min^{-1}, ikkinchi valikning 800-1200 min^{-1} aylanishlar chastotasida va valiklar orasidagi tirqishlar 2-3 mm bo‘lganda, donning minimal shikastlanishida erishiladi hamda don boshoqlarini minimal don yo‘qotilishi bilan sifatli tozalashga erishish uchun elakning tebranish chastotasi 100-150 min^{-1}; elakning tebranish amplitudasi 30-50 mm va elakning qiyalik burchagi 8-11^0 oraliqlarini tanlab olinishi kerak [8].

Mohamed Abu Ali, Eid Abd El-Rahman va Gamal El-Deen Nasrlar tomonidan bug‘doyni tozalash uchun kichik o‘lchamli mashina ishlab chiqishdi va uning ish sifatini donning tozaligi, donning yo‘qotilishi, yanchilmani ajratish va tozalash samaradorligi mezonlari bo‘yicha texnik baholashdi. Tajribalar elakning uchta qiyalik burchagida (5, 10 va 15°), elakning ikkita ilgarilanma-qaytma harakat tezligida (0,48 va 0,95 m/s), ikkita uzatish tezligi darajasida (1 va 1,5 kg/min) va havo oqimining uchta tezligida (5,6 va 7 m/s) o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki,

tozalikning maksimal qiymati - 96,25 % - uzatish tezligi 1,5 kg/min, elakning qiyaligi 5°, havo tezligi 5 m/s va elakning ilgarilanma-qaytma tezligi 0,95 m/s bo‘lganda kuzatildi. Minimal tozalik qiymati - 76,82 % - 1 kg/min uzatish tezligida, elakning qiyaligi 15°, havo tezligi 7 m/s va elakning ilgarilanma-qaytma tezligi 0,48 m/s bo‘lganda kuzatildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ular havo va material uzatishning turli tezliklarida elakning juda past va juda yuqori qiyalik burchagidan va elakning ilgarilanma-qaytma tezligidan foydalanishni tavsiya etmaydilar [9].

Abayineh Awgichew teff donini ajratish va tozalashga mo‘ljallangan mashinani ishlab chiqdi va sinovdan o‘tkazdi. Ushbu tadqiqot separator-tozalagich agregatiga ta’sir etuvchi teshiklar diametri, havo tezligi, elakning qiyalik burchagi va elakning tebranishi kabi ba’zi parametrlarni o‘rganish maqsadida amalga oshirildi. Mashinaning ish unumdorligi ajratish va tozalash samaradorligi, shuningdek, turli xil uzatish tezliklarida ajratish va tozalash yo‘qotishlari, elaklarning tebranishi va elaklarning qiyaligi nuqtayi nazaridan baholandi; elaklar qiyaligining uchta darajasi (0, 5 va 10^0), elaklar tebranishining to‘rtta darajasi (300, 600, 900 va 1200 min^{-1}) va uzatish tezligining to‘rtta darajasi (180, 360, 540 va 720 kg/h) dan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ajratish va tozalash uchun yo‘qotishlar elakning barcha qiyaliklari uchun elakning tebranishi va uzatish tezligining oshishi bilan ortadi. Biroq, elakning barcha qiyaliklarida elakning tebranishi va uzatish tezligining oshishi bilan ajratish va tozalash samaradorligi pasaygan. Elakning barcha tebranishlari va uzatish tezliklari uchun elakning qiyaligi 5^0 bo‘lganda minimal yo‘qotishlarga va maksimal samaradorlikka erishilgan [10].

Yayock E. S., J. Shebayan va B. J. Bature jo‘xori va tariqni tozalash uchun don tozalash mashinasini ishlab chiqdilar. Ish parametrlari sifatida unumdorlik, tozalash samaradorligi va donning yo‘qotilish foizi bo‘yicha baholangan bo‘lsa, tajriba omillari sifatida uzatish tezligi, havo tezligi va tirsakli valning amplitudalari olingan. Mashinani baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, unumdorlik mos ravishda jo‘xori va tariq uchun 620,83 dan 1088,5 kg/h gacha va 620,50 dan 1097,83 kg/h gacha, tozalash samaradorligi esa mos ravishda jo‘xori va tariq uchun 98,04 dan 98,66 % gacha va 97,30 dan 98,05 % gacha bo‘lgan. Mashinaning eng yaxshi ish ko‘rsatkichlari havo oqimining tezligi va aylanish amplitudasi ikkala ekin uchun mos ravishda 4,5 m/s va 25 mm bo‘lganda, shuningdek, jo‘xori uchun 1400 kg/h va tariq uchun 1200 kg/h uzatish me’yorlarida olingan [11].

W.J.Zamdayu yanchilayotgan massani uzatish tezligi, elakning tebranish amplitudasi va havo oqimi tezligining ish unumi va tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida mashinaning ish unumdorligi oqjo‘xori uchun 620,8 dan 1088,5 kg/h gacha, tariq uchun 620,50 dan 1097,83 kg/h gacha, tozalash samaradorligi esa oqjo‘xori uchun 98,04 dan 98,66% gacha, tariq uchun 97,30 dan 98,05% gacha oraliqda bo‘ldi. Sochilishdagi yo‘qotishlar tariqda 0,83 dan 1,27% gacha, jo‘xorida 1,31 dan 2,12% gacha bo‘lgan. Tariqning eng yaxshi tozalash samaradorligi don yo‘qotilishi 0,89% bo‘lganda 98,05% ni, jo‘xorining tegishli qiymati esa 1,59% bo‘lganda 98,64% ni tashkil etgan. Optimal tozalash samaradorligiga havo tezligi 4,5 m/s, elak tebranish amplitudasi 25 mm va uzatish tezligi mos ravishda jo‘xori uchun 1400 kg/soat va tariq uchun 1200 kg/soat bo‘lganda erishilgan [12].

M.T.Ebaid tadqiqotlari natijasida elakning qiyalik burchagi, elakning tebranishi va havo tezligi tozalashda donning tozaligi va umumiy yo‘qotilishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar ekanligini aniqladi. Havoning tezligi, elakning qiyalik burchagi va elakning tebranishi oshishi hisobiga tozalik oshdi. Umumiy yo‘qotishlar havo tezligi, elakning qiyalik burchagi va tebranishning ortishi hisobiga ko‘paygan [13].

Abd El_Tawwab va boshqalar elakning qiyaligi separatsiya samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil ekanligi haqidagi xulosaga kelishgan. Ularning tadqiqotlarida separatsiya samaradorligi kichik yurish uzunligida elakning qiyaligi oshishi bilan sezilarli darajada oshdi va katta yurish uzunligida esa kamaydi [14].

Salwa S. Hanna va boshqalar fenxel urug‘ini begona aralashmalardan tozalash qurilmasini ishlab chiqishgan. Mashina urug‘larni uchta alohida tuynukdan chiquvchi uch toifaga bo‘ladi. Urug‘larning maksimal tozaligi birinchi, ikkinchi va uchinchi navlar uchun mos ravishda 99,15,

98,74 va 83,65 % ni tashkil etib, krivoshipning aylanish tezligi 250 min^{-1}, amplitudasi 20 mm, elakning qiyalik burchagi $8,5^0$ va havo tezligi 2,7 m/s bo‘lganda olingan [15].

Ayat B. EL-Sayed va boshqalar kunjut va qashqarbeda urug‘lari ayrim fizik-mexanik xossalarining tozalash agregatining samaradorligiga ta’sirini o‘rganishgan va urug‘larning xususiyatlari ularni tozalash sifatiga ta’sir qiladi degan xulosaga kelishgan. Optimal ko‘rsatkich kunjut va qashqarbeda urug‘larining 12 % namligida, elakning dumaloq shakldagi teshik diametri 3 mm, elakning qiyalik burchagi 3^0 va tebranish tezligi 2,26 m/s bo‘lganda kuzatilgan [16].

Ramadas Narayanan va boshqalarning tadqiqotlarida kunjut va kalonji urug‘larini tozalovchi Kimseed Cleaner MK3 qurilmasining samaradorligi o‘rganilgan bo‘lib, bunda tebranish chastotasi va havo oqimi tezligining tozalash samaradorligi hamda unumdorligiga ta’siri alohida e’tiborga olingan. Natijalar har bir ekin turi uchun qurilma sozlamalarini moslashtirishning muhimligini ko‘rsatib, ikkala parametr ham begona aralashmalarning ajralishi va urug‘larning yo‘qolishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Kunjutni ikki bosqichda tozalash yirik va mayda aralashmalardan samarali tozalash uchun tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda tebranish chastotasi 390-420 min^{-1} va havo oqimi tezligi 1,25-1,5 m/s, ikkinchi bosqichda esa 315-330 min^{-1} va havo oqimi tezligi 1,75-2,0 m/s bo‘lganda eng yaxshi natijalar olingan. Silkitish chastotasi va havo sarfining oshishi tozalash samaradorligi oshgan; ammo, ularning yuqori qiymatlari urug‘larning yo‘qotilishini ko‘paytirgan, bu esa urug‘larni ajratib olish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, keyingi tadqiqotlar uzatish tezligi, elak qiyaligining tozalash darajasiga ta’sirini o‘rganishi kerak degan xulosaga kelingan [17].

V.Yu.Revenko, S.S. Frolov va A.N.Tkachenkolar Melin duragay kungaboqar urug‘larini tozalashda kichik hajmli urug‘ tozalash mashinasining eng samarali konstruktiv yechimlari va maqbul kinematik ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida elakning qiyalik burchagi 7-9° oralig‘ida, tebranishlar chastotasi 300-700 min^{-1}, amplitudasi 4-7 mm, elakning uzunligi 750-850 mm va kengligi 330-350 mm bo‘lishi kerak degan xulosaga kelishgan [18].

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha tahlillar natijalariga ko‘ra donni elak yordamida tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- urug‘lar va boshqa o‘simlik materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari: tozalash, saralash va boshqa texnologik jarayonlarning samaradorligini belgilaydi;
- elak teshiklari o‘lchami: mayda teshikli elak mayda aralashmalarni, yirik teshikli elak esa yirik aralashmalarni ajratadi, bu esa yakuniy mahsulot tarkibiga ta’sir qiladi;
- elakning qiyalik burchagi: qiyalik burchagining o‘zgarishi materialning elak bo‘ylab harakatlanish tezligiga va natijada ajratish samaradorligiga ta’sir qiladi;
- elakning harakat tezligi va silkitish chastotasi: tezlikni oshirish ish unumdorligini oshirishi mumkin, lekin bu tozalash sifatiga ham ta’sir qilishi mumkin, chunki harakat tezligi tozalashga ta’sir qiluvchi "sakrashlar"ni keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqotlarning asosiy qismi quyidagilarga qaratilgan:

- elak parametrlarini maqbullashtirish: sifatli donning yo‘qotilishini kamaytirish va aralashmalarni maksimal darajada ajratib olish uchun elak parametrlarining maqbul nisbatini aniqlash;
- turli xil don va aralashmalar bilan ishlay oladigan yanada samarali yangi turdagi yechimlarni ishlab chiqish;
- elak parametrlarining urug‘lik don, oziq-ovqat ehtiyojlari uchun don, yirik va mayda aralashmalar kabi muayyan fraksiyalarni ajratib olishga ta’sirini aniqlash;
- don va chiqindilarni tozalashning fraksiyalarga ajratish va aralashmalardan tozalash kabi yanada samarali yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, havo-elakli don tozalash mashinalarining tuzilishi va ishlash jarayonini, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish orqali ularning rivojlanishidagi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tozalash elaklarining ishchi maydonini, ventilyatorlarning unumdorligini oshirish, donlarning muallaq turish tezligi va o‘lchamlari bo‘yicha tozalashning fraksion texnologiyasini qo‘llash, dag‘al aralashmalardan tozalash uchun qo‘shimcha elakdan foydalanish hisobiga ish unumini oshirish;

- dastlabki va asosiy tozalashning texnologik jarayoni va ishchi qismlarini takomillashtirish orqali donni tozalash sifatini yaxshilash;

- funksional imkoniyatlarni kengaytirish - dastlabki va birlamchi tozalash uchun don tozalash mashinalarini, shuningdek, dastlabki va birlamchi tozalashni bajarish uchun universal don tozalash mashinalarini ishlab chiqish;

- chastota o‘zgartirgich yordamida ventilyatorning aylanish chastotasini o‘zgartirish orqali havo oqimining tezligini boshqarish.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlillari natijalariga ko‘ra, donni elak yordamida tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida urug‘lar va boshqa o‘simlik materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari, elak teshiklari o‘lchami, elakning qiyalik burchagi, elakning o‘lchamlari, kinematik parametrlari va havo oqimi tezligini ko‘rsatish mumkin. Tadqiqotlarning asosiy qismi donning yo‘qotilishini kamaytirish va aralashmalarni maksimal darajada ajratib olish uchun elak parametrlarining maqbul nisbatini aniqlash, turli xil don va aralashmalar bilan ishlay oladigan yanada samarali yangi turdagi yechimlarni ishlab chiqish, donni tozalashda yanada samarali yangi texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yurochka S.S., Dovlatov I.M., Tarasov V.R., Komkov I.V. Yirik shoxli hayvonlarda issiqlik stressini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish metodologiyasi ma'lumotlarni tahlil qilishdan teskari aloqali prototipni yaratishgacha. *Qoramollarda issiqlik stressini o'rganish bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan. Aniq chorvachilik va agrosanoat majmuasini raqamlashtirish sohasidagi tadqiqotchilar uchun ma'lumotlarni tahlil qilishdan tortib, teskari aloqaga ega monitoring tizimini yaratishgacha bo'lgan bosqichlarning ahamiyati asoslangan.*

Юрочка С.С., Довлатов И.М., Тарасов В.Р., Комков И.В. Методология разработки системы контроля теплового стресса у крупного рогатого скота от анализа данных до создания прототипа с обратной связью. *Представлены методологические рекомендации по исследованию теплового стресса у КРС. Обоснована важность этапов от анализа данных до создания системы мониторинга с обратной связью для исследователей в области точного животноводства и цифровизации АПК.*

Yurochka S.S., Dovlatov I.M., Tarasov V.R., Komkov I.V. Methodology for developing a heat stress monitoring system for cattle, from data analysis to the creation of a prototype with feedback. *Methodological recommendations for studying heat stress in cattle are presented. The importance of the stages from data analysis to the creation of a feedback monitoring system for researchers in the field of precision livestock farming and digitalization of the agro-industrial complex is substantiated.*

УДК 631.171 / 636.2.034

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ КОНТРОЛЬ ТЕПЛОВОГО СТРЕССА В МОЛОЧНОМ СКОТОВОДСТВЕ: ИНТЕГРАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОГО АППАРАТА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОДУКТИВНОСТИ

Павкин Д.Ю.[1], Довлатов И.М.[1], Комков И.В.[1]

[1] Федеральное государственное бюджетное научное учреждение «Федеральный научный агроинженерный центр ВИМ», Россия

Тепловой стресс (THI ≥72) снижает удой на 6,7–15%, ухудшает качество молока и нарушает метаболизм (кортизол +30–40%, кетоновые тела). Генетические маркеры (TRH, PRLR) и микробиомные профили (Christensenellaceae) определяют термостойкость, что перспективно для геномной селекции [1-3].

Ключевые адаптационные меры: инженерные системы (вентиляция, компостные подстилки) снижают температуру на 2-4°C и потери до 5%; кормовые добавки (Saccharomyces cerevisiae, ниацин) укрепляют барьерные функции и снижают стресс; цифровой мониторинг (HSP70, RT-температура) позволяет прогнозировать стресс за 2-3 часа [4, 5].

Универсальные реакции при THI >75: гипертермия (39,5-39,8°C), тахипноэ (72-100 вдохов/мин), снижение руминации на 30%. Интеграция физиологических и микроклиматических данных сокращает энергопотребление на 25%, предотвращая глобальные потери. Приоритет – внедрение гибридных моделей машинного обучения и адаптивных систем управления [6, 7].

Цель исследования – создание математического аппарата и алгоритма адаптивного управления микроклиматом, обеспечивающих раннее выявление и коррекцию теплового стресса у сельскохозяйственных животных.

Материалы и методы. Аналитическая информация для написания работы формировалась из открытых источников данных elibrary, MDPI, Google Scholar. В результате поиска были отобраны литературные источники, опубликованные в основном за последние 6 лет. Разработка функционально-структурных схем осуществлялась с помощью онлайн-приложения для создания диаграмм и схем – Draw.io.

Результаты и обсуждение. Для повышения точности регулирования микроклиматических условий разработан комплексный математический аппарат (1), интегрирующий уравнения, описывающие параметры воздушной среды (температуру, относительную влажность, концентрацию CO_2), и алгоритм расчёта температурно-влажностного индекса (THI). Последний функционирует как ключевой критерий объективной оценки степени теплового стресса и связанных с ним физиологических изменений у сельскохозяйственных животных.

$$\begin{cases} W_{\text{в}} = W_{\text{вп}} + W_{\text{дж}} + W_{\text{корм}} + W_{\text{п}} + W_{\text{от ж}} \\ W = \dfrac{p}{p_0} \times 100\% \\ t = \dfrac{tp - tr}{2} \\ C_{CO_2} = 0.03 \times \dfrac{V_a}{V_{\text{п}}} \\ THI = 0{,}8 * T + K * RH * (T - 14{,}4) \end{cases} \quad (1)$$

где $W_{\text{в}}$ – количество влаги, которое необходимо удалить из помещения; $W_{\text{дж}}$ – количество влаги, поступающих в результате дыхания животных; $W_{\text{вп}}$ – количество влаги внутри помещения на поверхности ограждений и тому подобном; $W_{\text{корм}}$ – количество влаги, поступающей от кормов; $W_{\text{п}}$ – количество влаги, поступающей с приточным воздухом; $W_{\text{от ж}}$ – количество влаги, поступающее от отходов жизнедеятельности; W – относительная влажность воздуха; p – абсолютная влажность воздуха; p_0 – плотность насыщенного водяного пара при текущей температуре; t - температура в помещении; tp – температура воздуха в помещении, °C; tr – температура внутренних поверхностей пола, стен, радиаторов; 0,03 – содержание углекислого газа в атмосферном воздухе, %; Va – объём атмосферного воздуха, прошедшего через поглотитель, см³; Vп – объём воздуха помещения, прошедшего через поглотитель, см³; T – температура окружающей среды, °C; RH – относительная влажность, выраженная в пропорции (50 % = 0,50); K - поправочный коэффициент влияния влажности кормов, находится в диапазоне 0,95-1,05 в зависимости от вида корма (0,95 – молотое зерно; 1,00 – гранулированные комбикорма; 1,05 – сочные корма с высоким содержанием влажности).

Для регулирования теплового стресса необходимо использовать современные технологии, например контроллер для идентификации и регулирования теплового стресса. На данном этапе исследований предполагается идентификация теплового стресса и уведомление оператора о его наступлении (рис. 1). В последующем функционал дополнится тем, что будут выдаваться указания исполнительным механизмам для регулирования микроклиматических показателей помещения.

Начало алгоритма. Запускается опрос датчиков показателей микроклимата. Если датчики работают адекватно, то осуществляется сбор данных показателей микроклимата. При отрицательном ответе происходит автоматическая отладка датчиков. В случае ликвидации проблемы проходит повторный опрос датчиков. При отрицательном ответе осуществляется отправка уведомлений о неполадках датчиков оператору и осуществляется сбор данных с датчиков, прошедших проверку. После сбора данных осуществляется передача данных в контроллер. Затем проводится анализ полученного массива данных.




Рис. 1. Алгоритм работы контроллера

Заключение

Разработанный математический аппарат, интегрирующая уравнения, описывающие параметры воздушной среды (температуру, относительную влажность, концентрацию CO_2) обеспечивает высокоточное управление микроклиматом в условиях теплового стресса. Разработан алгоритм, обеспечивающий оптимальное функционирование системы управления.

Список литературы

1. Rodriguez-Venegas R., Meza-Herrera C.A., Robles-Trillo P.A., Angel-Garcia O., Rivas-Madero J.S., Rodriguez-Martínez R. Heat Stress Characterization in a Dairy Cattle Intensive Production Cluster under Arid Land Conditions: An Annual, Seasonal, Daily, and Minute-To-Minute, Big Data Approach / Agriculture. – 2022. -№ 12. – P. 760. DOI:10.3390/agriculture12060760.

2. Boonkum W., Teawyoneyong W., Chankitisakul V., Duangjinda M., Buaban S. Impact of Heat Stress on Milk Yield, Milk Fat-to-Protein Ratio, and Conception Rate in Thai–Holstein Dairy Cattle: A Phenotypic and Genetic Perspective / Animals. – 2024. - № 14. – P. 3026. https://doi.org/ DOI:10.3390/ani14203026.

3. Muzzo B.I., Ramsey R.D., Villalba J.J. Changes in Climate and Their Implications for Cattle Nutrition and Managemen / Climate. – 2025. - № 13 (1). DOI:10.3390/cli13010001.

4. Idris M., Sullivan M., Gaughan J.B., Phillips C.J.C. The Relationship between the Infrared Eye Temperature of Beef Cattle and Associated Biological Responses at High Environmental Temperatures / Animals. – 2024. - № 14. – P. 2898. DOI: 10.3390/ani14192898.

5. Idris M., Sullivan M., Gaughan J.B., Phillips C.J.C. Behavioural Responses of Beef Cattle to Hot Conditions / Animals. – 2024. - № 14. – P. 2444. DOI: 10.3390/ani14162444.

6. Комков И.В., Довлатов И.М., Павкин Д.Ю., Матвеев В.Ю. Разработка алгоритмов управления системы обеспечения температурных режимов для уменьшения стресса

животных / Вестник НГИЭИ. – 2024. – № 5 (156). – С. 7-18. – DOI 10.24412/2227-9407-2024-5-7-18.

7. Wang Z., Guo M., Liang Y., Zhou F., Zhang H., Li M., Yang Z., Karrow N., Mao Y. Breed-Specific Responses and Ruminal Microbiome Shifts in Dairy Cows Under Heat Stress / Animals. – 2025. - № 15. – P. 817. DOI:10.3390/ani15060817.

Pavkin D.Yu., Dovlatov I.M., Komkov I.V. Sut chorvachiligida issiqlik stressini intellektual nazorat qilish: mahsuldorlikni oshirish uchun matematik apparatni integratsiyalash. *Qoramollarda issiqlik stressini kamaytirish uchun mikroiqlimni adaptiv boshqarishning matematik apparati va algoritmi ishlab chiqilgan. Tizim harorat-namlik indeksi (THI) va xulq-atvor belgilaridan foydalanadi, energiya sarfini 25 foizga kamaytiradi, iqtisodiy yo‘qotishlarni minimallashtiradi va chorvachilikning iqlim muammolariga chidamliligini oshiradi.*

Павкин Д.Ю., Довлатов И.М., Комков И.В. Интеллектуальный контроль теплового стресса в молочном скотоводстве: интеграция математического аппарата для повышения продуктивности. *Разработан математический аппарат и алгоритм адаптивного управления микроклиматом для снижения теплового стресса у КРС. Система использует температурно-влажностный индекс (THI) и поведенческие маркеры, снижает энергопотребление на 25%, минимизирует экономические потери и повышает устойчивость животноводства к климатическим вызовам.*

Pavkin D.Yu., Dovlatov I.M., Komkov I.V. Intelligent control of heat stress in dairy cattle farming: integration of mathematical tools to increase productivity. *Methodological recommendations for the study of thermal stress in cattle are presented. The importance of the stages from data analysis to the creation of a feedback monitoring system for researchers in the field of precision animal husbandry and digitalization of agriculture is substantiated.*

UO‘T 631.332.8

SARIMSOQPIYOZ BOSHINI DONALARGA AJRATADIGAN QURILMANING TARKIBIY QISMLARI, TEXNOLIGIK ISH JARAYONI VA GEOMETRIK O‘LCHAMLARI

Norchayev D.R.[1] t.f.d., prof., Quralov S.D.[1] tayanch doktorant

[1] Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Sarimsoqpiyoz yetishtirishda, jumladan, uni ekish davrida uning boshini donalarga ajratish qo‘l mehnatida amalga oshiriladi va u ko‘p mehnat talab qiladigan jarayon hisoblanadi [1]. Shu sababdan qo‘l mehnatiga barham berish maqsadida sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratadigan qurilma yaratish talabi mavjud. Ushbu qurilma ekish oldi davrida donalarga ajratilgan sarimsoqpiyozni ko‘p vaqt davomida turib qolish holatini oldini oladi va uning unuvchanlik xossasini yaxshi saqlashga yordam beradi. Ushbu maqolada qurilmaning konstruktiv o‘lchamlari va texnologik ish jarayonlari yoritib beriladi.

Sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratadigan qurilma elektrodvigatel yordamida harakatlanadi va statsionar sharoitda foydalaniladi.

Qurilma rama 1, tashqi konussimon qobiq 2, ichki konussimon baraban 3, val 4, sirpanish taxtasi 5, mufta 6, kronshteyn 7, elektrodvigatel-reduktor 8, tashqi konussimon qobiq va ichki konussimon barabanga yopishtirib mahkamlangan rezina 9, bunker 10 kabi tarkibiy qismlardan iborat (1-rasm).

Qurilma tarkibiy qismlarining vazifasi va konstruktiv o‘lchamlari quyidagilardan iborat:

- **Rama** qurilmaning tarkibiy qismlarini o‘rnatib, mahkamlashga xizmat qilishi va u burchak profilli metaldan tayyorlanishi kerak;

- **Tashqi konussimon qobiq** ramaga o‘rnatiladi va u sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratadigan organi vazifasini bajaradi. Tashqi konussimon qobiq temir listdan kesik konus shaklida

tayyorlanadi. Uning yuqori diametri 50 sm, pastki asosining diametri 30 sm, balandligi 30 sm ga teng bo‘ishi lozim;

- **Ichki konussimon baraban** kesik konus shaklidagi temirdan tayyorlanib, uning yuqori asosining diametri 40 sm, pastki asosining diametri 22 sm, balandligi 30 sm ga teng. Ichki konussimon baraban elektr dvigatelga vertikal o‘rnatilgan valga mahkamlanishi va u undan aylanma harakatga kelishi kerak [2];

- Reduktorga ulangan uzunligi 50 sm, qalinligi 30 mmli val dvigateldan uzatilgan harakatdan unga mahkamlangan ichki konussimon barabanni aylanma harakatga keltiradi. Aylnishlar soni 1 – 80 r/min gacha bo‘lishi mumkin;

- Uzunligi 52 sm, eni 30 sm, qalinligi 2 mmli sirpanish taxtasi gorizontga nisbatan 30° qiyalikda ramalarga bikr mahkamlangan. U donalarga ajratilgan sarimsoqpiyozlarni og‘irlik kuchi tasirida idishlarga yo‘naltirib berishga xizmat qiladi;

- Balandligi 22 sm, eni 20 sm, qalinligi 3 mm.li kronshteyn ramaga bkir mahkamlandi. Kronshteyn o‘ziga mahkamlangan motor-reduktorni 0 – 8 sm oraliqda yuqoriga va pastga siljitish imkonini berilgan, unda 4 ta yo‘lakli teshiklar mavjud;


- Kronshteynga mahkamlangan konstruktiv 1.5 kW quvvatga ega bo‘lib, u 2,2 kW quvvatga ega invertordan ishga tushirilishi kerak;

- **Reduktor** kronshteynga mahlamlanadi va u dvigateldan uzatilgan harakatni 20 marta kamaytirib berishi lozim;

- Tashqi konussimon qobiqning ichchi sirti va ichki konussimon barabanning tashqi sirti 1 sm qalinlikdagi yumshoq rezina bilan qoplanib, rezina donalarga ajralgan sarimsoqpiyozlarga ko‘rsatiladigan salbiy tasirni yo‘qotishga xizmat qilishi kerak;

- 2,2 kW quvvatga ega invertor 220 V kuchlanishga ega elektr tarmog‘iga ulanadi va elektrodvigatelning aylanishlar sonini o‘zgartirib berishi lozim;

- Balandligi 15 sm, diametri 50 sm bo‘lgan slindirsimon bunker qalinligi 0,8-1,2 mmli metall listdan tayyorlanib, bunker tashqi konussimon qobiqga bikr mahkamlanishi kerak.



1-rasm Sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratadigan qurilmaning konstruktiv sxemasi

Qurilmaning bunker qismiga ishchi kuchi yordamida sarimsoqpiyoz boshlari solinadi. Ular boshlari dum qismidan ajratilgan va keraklicha quritilgan bo‘lishi kerak. Bunkerga solingan sarimsoqpiyoz boshlari og‘irlik kuchi ta’sirida yuzalari rezina bilan qoplangan kesik konus shaklidagi tashqi qobiq hamda kesik konusli aylanuvchi ichki barabanlar orasidagi qisqarib boruvchi oraliqga yo‘naladi. Bo oraliqda sarimsoqpiyoz noshlariga bir nechta kuchlar, og‘irlik kuchi, Yuza bo‘ylab teng ta’sir etuvchi kuch, ishqalanish kuchi, normal va tangensial kuchlar tasirida qisman yoki to‘liq holda donalarga ajraladi [3]. Donalarga ajralgan sarimsoqpiyozlar pastki tuynuklar orqali o‘z og‘irlik kuchlari ta’sirida sirpanish taxtasi bo‘ylab harakatlanib, maxsus idishlarga yo‘naladi.

Sarimsoqpiyoz boshi ko‘p sonli donalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning o‘zaro biriktiruvchi to‘qimalari quruq va qattiq bo‘ladi. Donalarga ajratish jarayonida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- Boshi diametri (35–70 mm gacha);
- Donalarning shakli va qattiqligi;
- Namlik darajasi (40–60 % oralig‘ida);
- Bosim va zarba kuchining qiymati.

Demak, qurilmaning asosiy parametrlari bosh hajmi va donalarning mexanik xossalariga mos holda tanlanishi kerak.

Xulosa

Sarimsoqpiyozni donalarga ajratadigan qurilmaning optimal ish rejimlari aniqlandi. Qurilma qo‘lda bajariladigan mehnatni bir necha barobarga qisqartiradi, unumdorlikni oshiradi va donalarning shikastlanish darajasini maqbul chegarada ushlab turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, “Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari” XX11 – yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani, Toshkent 2023-y, 396-bet.

2. RESEARCH FOCUS, | VOLUME 4 | ISSUE 3 | 2025 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (12.32) | Google Scholar | Index Copernicus (ICV69.78).

3. Development Of A Garlic Bulb Separator: 1. Separating Unit. Misr Journal Of Agricultural Engineering January 2013.

Norchayev D.R., Quralov S.D. Sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratadigan qurilmaning tarkibiy qismlari, texnoligik ish jarayoni va geometrik o‘lchamlari. *Maqolada sarimsoqpiyoz boshini donalarga ajratuvchi qurilmaning tuzilishi va ishlash prinsipi yoritilgan. Qurilma tashqi konussimon qobiq va ichki baraban o‘rtasidagi qisqarib boruvchi oraliqda hosil bo‘ladigan kuchlar ta’sirida sarimsoqpiyozni donalarga ajratadi. Qurilma qo‘l mehnatini mexanizatsiyalash hamda donalarning unuvchanligini saqlash imkonini beradi.*

Норчаев Д.Р., Куралов С.Д. Составные части, технологический процесс и геометрические размеры устройства для разделения головки чеснока на зерна. *В статье рассмотрены конструкция и принцип работы устройства для разделения головок чеснока на зубчики. Устройство функционирует за счёт сил, возникающих в сужающемся зазоре между наружным конусным кожухом и внутренним барабаном. Оно позволяет механизировать ручной труд и сохранить всхожесть зубчиков чеснока.*

Norchaev D.R., Kuralov S.D. Components, technological process and geometric dimensions of a device for separating garlic heads into cloves *The article describes the design and working principle of a garlic bulb separator. The device operates by forces generated in the narrowing gap between the external conical shell and the internal drum, ensuring effective clove separation. It enables mechanization of manual labor while preserving the germination quality of garlic cloves.*

UO‘T 631.362.1

LOVIYA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH VA URUG‘INI SARALASH TEXNOLOGIYASI

Alimova F.A.[1] t.f.n., prof.,(TDTU), Maxmudov N.M.[2] t.f.f.d., Rivojiddinov J.I.[2]

[1] Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

[2] Namangan davlat texnika universiteti.

Dunyo aholisi tez o‘sib, 2050-yilga borib bashorat qilinayotgan 9,6 milliard kishini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish uchun hozirgi kunda ishlab chiqarilayotganga nisbatan 70 foiz ko‘p oziq-ovqat talab qilinishi taxmin qilinmoqda va bu talab asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hamda Afrika davlatlariga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi oldida

turgan eng katta muammolardan biri, doimiy ravishda o‘sib borayotgan dunyo aholisining ozuqaviy ehtiyojlarini qondirish uchun barqaror va ekologik sof tizimlarni ishlab chiqishdir [1].

Loviya keng tarqalgan oziq-ovqat ekini. Asosan uning urug‘lari, yashil dukkaklari va kanservalangan dukkaklaridan foydalaniladi. Urug‘larida 28-30 foiz, yashil dukkaklarida 18 foiz oqsil saqlanadi. Uning yashil dukkaklarida 2 foiz qand, shuningdek, 100 gramm massasida 22 mg vitamin saqlanadi. Yirik urug‘li loviyani vatani- Amerika. Mayda urug‘li loviyani vatani- Janubiy Osiyo [2].

Oddiy loviya bir yillik, qisqa kun o‘simligi bo‘lib, urug‘lari 10-12 °C da una boshlaydi. Sovuqqa chidamsiz, maysalari 0,5 °C sovuqda nobud bo‘ladi. Ayrim navlari - 2 °C sovuqqa bardosh beradi. Loviya namsevar o‘simlik. Tuproqda namlik ChDNS ning 70 foizidan kam bo‘lmaganda yuqori hosil shakllanadi. Tuproq muhiti pH-6,5-7 bo‘lganda, yaxshi o‘sadi, unumdor, begona o‘tlardan toza tuproqlarda yuqori hosil beradi [3,4].

Loviya o‘sib rivojlanishi jarayonida poyasi va hosili pishib yetilgan davrda urug‘lari quyidagi ranglarda bo‘lishi mumkin:

- *Yashil rangli urug‘lar;*
- *Oq rangli urug‘lar;*
- *Qizil rangli urug‘lar;*
- *Qora rangli urug‘lar;*
- *Siyohrang va to‘q ko‘k rangli urug‘lar.*

Urug‘lar qaysi rangda bo‘lishidan qat’i nazar mineral-vitaminli tarkibida katta farq bo‘lmaydi. Masalan, oq va yashil rangli urug‘lar – kalsiy va temir, V guruhidagi vitaminlarga boy bo‘ladi. Qizil donli loviya turlarida kaloriyalilik darajasi va urug‘ tarkibidagi oqsil miqdori yuqoriroq bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Rasmda Osiyo loviyasining umumiy ko‘rinishi tasvirlangan



Osiyo loviyasining umumiy ko‘rinishi

Loviya dukkaklilar oilasiga kiradi, avlodi – Rhaseolus L. avlodiga mansub bo‘lib, 230 ta turni o‘z ichiga oladi va shulardan 20 tasi ekiladi, qolgani yovvoyi holda o‘sadi. Loviyaning barcha turi kelib chiqishiga qarab ikki guruhga – Amerika va Osiyo loviyasi guruhlariga bo‘linadi. Madaniy turlaridan 8 tasi Amerikadan kelib chiqqan, 9 ta turi esa – Osiyodan. Bu guruhlar urug‘ning, dukkagining kattaligi, shakli bilan farq qiladi. Quyidagi jadvalda loviyaning tur xillari bir-biridan farq qiladigan morfologik belgilari bo‘yicha tavsifi keltirilgan. Loviya o‘simligi yetishtirilgandan so‘ng ularni yanchib dukkagidan donni urug‘lik va oziq ovqatga ajratiladi.

Ma’lumki, har qanday qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ining laboratoriya va dala sharoitida unumdorligi, provard natijada, hosildorligi ularning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita bog‘liq. Qishloq xo‘jalik ekinlarining urug‘lik sifatini tozalash va saralash orqali amalga oshirish mumkin. Biroq, hozirgacha mamlakatimiz qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini tayyorlash texnologik tizimlarida loviya urug‘ini saralash yoki tozalash qurilmasi mavjud emas [5, 6]. Shu bois ekishga tayyorlanayotgan loviya urug‘ining sifat ko‘rsatkichlari past bo‘lib, agrotexnik talablarga to‘liq javob bermasdan, bir gektar yerga sarfi asoslangan me’yorlardan 2-3 barobar ko‘p va ortiqcha ko‘chatlarni yagonalash uchun 120 kishi·h/ga qo‘shimcha qo‘l mehnati sarflanishi talab etiladi. Oqibatda inson iste’moli va chorva ozuqasi sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan minglab tonna urug‘lar yerga tashlanadi va isrof bo‘lyabdi [7]. Bu loviya ekinlarni yetishtirish uchun sarflanadigan harajatlar ko‘lamining haddan tashqari ko‘payishiga va yig‘ib olingan mahsulot tannarxining oshishiga olib kelyapti.

Barcha don tozalash va saralash mashinalarining ishlash prinsipi urug‘ning shakli va o‘lchamiga asoslanadi hamda ular shamol hamda elaklar yordamida donni saralaydigan

mashinalarga, don va boshqa urug‘larni trenajyorlar, elaklar, shamol va trierlar yordamida uzunligi bo‘yicha saralaydigan mashinalarga bo‘linadi.

Jadval

Loviyaning tur xillari bo‘yicha morfologik belgilari

Belgilari	Oddiy loviya	Lima loviyasi	Ko‘p gulli loviya	Tepari loviyasi	Osiyo loviyasi
Urug‘ pallasi	Yer yuziga chiqadi	Yer yuziga chiqadi	Yer yuziga chiqmaydi	Mayda va o‘rta birinchi bargi yumshoq, tukli va tuksiz	Yer yuziga chiqadi
Maysa	O‘rta va yirik ,kam tuklangan	O‘rta va yirik, birinchi bargi yumshoq bilan, tuksiz	Yirik, kam tuklangan	Mayda va o‘rta birinchi bargi yumshoq, tukli va tuksiz	Mayda, birinchi bargi ingichka, uzun tukli
Gultuplar	Gullar soni 212 ta, yirik	Gullar soni 3060 ta, mayda va yirik	Gullar soni 1640 ta, yirik	Gullar soni kam 25 ta, yirik	Gullar soni kam 24 ta, yirik
Gullar	Oq, Pushti, binafsha	Oq, silliq, tuk, pushti rang	Qizil, pushti, oq, tukli, binafsha	Oq, binafsha	Oq va tuk, pushti, oq
Dukkak	To‘g‘ri, hanjarsimon, silindrsimon, silliq 410 ta, urug‘ uchun o‘kirlashgan	Kalta, keng 23 ta urug‘, uchi o‘tkirlashgan	Yirik, keng gadir-budur, 26 ta urug‘, uchi o‘tkirlashgan	Kalta, to‘g‘ri, ingichka, 45 ta urug‘, uchi o‘tkirlashgan	Uzun, silindrsimon, 710 ta urug‘, yirik va tukli, tukli
Urug‘lar	Mayda, yirik , 1000 donasini massasi 140-1100 g ,dumaloq tuhumsimon	Yirik va o‘rta, 1000 donasini massasi 240-1150 g, rangi turli: oq, sariq, qora, qizil, silliq, silliq, noaniq	Juda yirik, 1000 donasini massasi 1150 g dan oshadi	Mayda, 1000 donasini massasi 130-150 g, rangli, silliq, noaniq	Mayda, 1000 donasini massasi vazni 80-120 g, tukli, tukli, rangli, oq, silindrsimon

Loviya doni dukkaklaridan yanchib ajratgandan so‘ng, ularni shamol yordamida donini turli xil aralashmalardan tozalaydigan va saralaydigan mashinalarda amalga oshiriladi. Amalda VS2, VS8 va VS10 don saralash mashinalari qo‘llaniladi. Ushbu mashinalarning ishlash prinsipi bir xil bo‘lib, ular bir-biridan ish unumi, viteslar soni, tugunlarning tuzilishi va o‘lchamlari bo‘yicha farqlanadi.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, biologik xossalari bir-biriga yaqin bo‘lgan yuqori sifatli urug‘lar olish uchun ularni barcha muhim fizik-mexanik xossalari bo‘yicha saralash zarur. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash bu talabga to‘liq javob beradi. Chunki, elektr maydoni urug‘larni barcha muhim fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda, ularga yo‘naltirilgan elektr maydon kuchi bilan ta’sir qiladi, ya’ni elektr maydoni urug‘larni barcha muhim fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda, ularga turli qiymatdagi elektr maydon kuchi bilan ta’sir qiladi. Natijada, urug‘lar elektr maydonida barcha muhim fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, geometrik o‘lchami, zichligi, elektr xossalari bo‘yicha saralanadi [8].

Taklif etilayotgan elektrotexnologik qurilmada elektr maydoni qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladi va qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasiga tushgan urug‘lar qutblanib, hosil bo‘ladigan elektr maydon kuchi bilan ish organiga tortiladi. Ta’sir etadigan kuchlarning o‘zaro nisbatiga asosan, fizik-mexanik xosalariga bo‘g‘liq ravishda, urug‘lar

aylanayotgan ish organi yuzasidan har xil burchaklarda uzulib, qabul qilish bukerining mos fraksiyasi, ya’ni urug‘lik yoki texnik fraksiyasiga tushadi.

Xulosa

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur ilmiy-tadqiqot ishida loviya urug‘ini tozalash va saralash hamda ekishga tayyorlangan urug‘larni laboratoriya va dala sharoitida sinovdan o‘tkazish bo‘yicha elektrotexnologik qurilmani ishlab chiqish istiqbollari ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://agro-olam.uz/loviya-yetishtirish-boyicha-tavsiyalar/
2. https://agrobank.uz/uz/search?query=loviya&file=true
3. https://agronet.uz/loviya-ekish-va-parvarishlash/
4. Mukhammadiev, A., & Makhmudov, N. M. (2022). EFFICIENCY OF ELECTROTECHNOLOGICAL SELECTION OF MUNG BEAN SEED. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(8), 644-648.
5. Mukhammadiev, A., Makhamadali o’g’li, M. N., Yusupov, O. Y., & Imomqulov U. B. (2022). Determining The Breaking Angles Of Mung Bean From The Surface Of The Working Organ By Basing The Voltage Applied To The Electrodes. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 4766-4770.
6. Rosaboev, A. va Maxmudov, N. Dukkakli urug‘larning sifatini oshirish yo‘llari // Agro ilm. – Toshkent. 2020 – № 2. – B. 32-33.
7. Rosaboev A.T. Letuchkalarni triboelektrik qurilmada saralashning ilmiy va texnologik asoslari: Monografiya. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – 109 b.
8. Umarov, Q. B., & Makhmudov, N. Basis of the strength of the mug seed on the earth of the working body // Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. (4), 52. – Namangan, 2021. – № 4. – B. 52.

Alimova F.A., Maxmudov N.M., Rivojiddinov J.I. Loviya o‘simligini yetishtirish va urug‘ini saralash texnologiyasi. *Maqolada loviya o‘simligini yetishtirish, morfologik belgilari hamda urug‘lik olish texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Алимова Ф.А., Махмудов Н.М., Ривожиддинов Ж.И. Технология выращивания и сортировка семян фасолей. *В статье приведены сведения об особенности возделывания, морфологическое характеристики и технология производства семян фасоли.*

Alimova F.A., Maxmudov N.M., Rivojiddinov J.I. Technology of growing and sorting the seed of beans. *The article presents the cultivation, morphological characteristics and seed production technology of beans.*

УДК 621.313.333

МЕТОДИКА РАСЧЁТА ЛИНЕЙНОГО АСИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ

Юнусов Р.Ф.[1], Рахмонов Ш.С.[2], Хасанов Д.Р.[1], Абдуманонов Д.Д.[1], Юсуфалиев Г.Ю.[1]

[1] Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

[2] Каршинский государственный технический университет.

Использование в технологических процессах АПК большого количества различных электрифицированных рабочих машин требует постоянного совершенствования их электропривода.

Рациональный электропривод выбирается на основании подробного анализа приводных характеристик (технологических, кинематических, энергетических, механических, нагрузочных, инерционных) рабочих органов машин и установок производств АПК.

Рассмотрение основных приводных характеристик стационарных машин производств АПК, в частности, 279 растениеводческих и 116 животноводческих машин, показало, что они имеют, соответственно, 385 и 260 рабочих органов и приводных электродвигателей – 325 и 230 [1-4]. Распределение рабочих органов всех машин по типу движения показало, что вращательное движение имеют 56,3% от общего их количества, в т.ч. до 500 мин$^{-1}$ – 39,7%, более 500 мин$^{-1}$ – 16,4%; поступательное движение – 43,7 %, в т.ч. до 1 м/с – 27,3%, 1-2 м/с – 6,8%, более 2 м/с – 9,6%.

Привод рабочих органов с частотой вращения до 500 об/мин, поступательным движением, а также не имеющих индивидуальный приводной электродвигатель осуществляется посредством механических преобразователей. Рассмотрение кинематических схем вышеуказанных 395 сельскохозяйственных машин показало, что в приводе 645 рабочих органов используется 944 различных механических преобразователей. Распределение их следующее: цилиндрические, конические и червячные редукторы – 30,6%; ременные передачи – 37,2%; цепные передачи – 12,4%; зубчатые передачи – 5,1%; мотор-редукторы – 4,3%; прямое соединение – 3,9%; прочие соединения и передачи – 6,5%.

Приведенный анализ показывает, что для ряда рабочих органов сельскохозяйственных машин, совершающих поступательное и колебательное движения, а также вращательное движение с частотой вращения до 500 об/мин, перспективны специальные электромеханические и электромагнитные преобразователи, в т.ч. электропривод с индукционным двигателем с разомкнутым магнитопроводом (ИДРМ). Такие приводы позволяют получить необходимые технологически заданные приводные характеристики, достигнуть интеграции с рабочим органом при исключении механических преобразователей, вследствие чего снижаются материало и энергоёмкость, повышается эксплуатационная надёжность сельскохозяйственных машин в целом [2-10].

При исследовании индукционных двигателей с разомкнутым магнитопроводом исследователями используются различные оптимизационные критерии их оценки (удельные, энергетические, тяговые показатели и др.). Всё же основными доминирующими критериями большинство исследователей считают энергетические (КПД, коэффициент мощности или их произведение) и тяговые показатели.

Современная практика проектирования электрических машин предполагает использование на разных стадиях проектирования математических моделей различной степени сложности. Более простые модели, облегчающие многовариантные расчёты, применяются при оптимизации машин. В дальнейшем при поверочных расчётах для уточнения параметров и характеристик используются сложные математические модели, позволяющие учесть реальные условия работы активных частей машины в различных режимах [7-11].

В большинстве случаев задание на проектирование ЛАД содержит: необходимое тяговое усилие **F** (пусковое или в рабочем режиме), номинальную скорость перемещения подвижной части v_2, напряжение U_1 и частоту f_1 питающей сети. Иногда оптимальная частота f_1 подлежит выбору. Задается или ограничивается один из главных размеров ЛАД: длина ℓ или ширина $2b$ активной зоны. Условия эксплуатации определяют минимальный немагнитный зазор δ. Задаются также перегрузочная способность двигателя и кратность пускового усилия, график нагрузки, сопряжение фаз обмотки индуктора, конструктивный тип по способу защиты от воздействия окружающей среды и предполагаемый способ охлаждения. Техническое задание на проектирование ЛАД должно содержать также требования к эксплуатационным характеристикам машины, позволяющие выбрать критерии оптимальности и ограничения для оптимизации двигателя.

На первом этапе проектирования в ходе поисковых расчётов определяются электромагнитные нагрузки (A_1, B_δ), главные размеры машины $(\delta, \tau, \ell, 2b)$ и размеры зубцовой зоны индуктора $(t_z, b_z, b_n, h_n, k_{11}, k_{12})$. В основу методики оптимизационных расчётов положены выражения, приведённые в [1-4]. Входящие в указанные выражения

коэффициенты могут быть заданы или рассчитаны предварительно. Коэффициенты k_{11} и k_{12}, определяющие геометрию зубцовой зоны индуктора, могут быть приняты равными рекомендуемым для вращающихся машин: $k_{11} = 2{,}5…4$ и $k_{12} = 0{,}4…0{,}6$. Для ЛАД с относительно большими воздушными зазорами значения коэффициентов могут быть повышены: $k_{11} = 3…5$ и $k_{12} = 0{,}5…0{,}65$. Коэффициент заполнения пакета магнитопровода сталью $k'_c = 0{,}95…0{,}97$. Коэффициент заполнения паза медью $k_{з.м} = 0{,}32…0{,}36$ (для всыпных обмоток). Коэффициент насыщения магнитной цепи $k_\mu = 1{,}03…1{,}05$. Обмоточный коэффициент $k_{об} = 0{,}94…0{,}96$. Коэффициент воздушного зазора определяется по выражению

$$k\delta = k'_\delta k''_\delta \ , \tag{1}$$

где коэффициент Картера

$$k'_\delta = t_z \Big/ \left(t_z - \frac{b_n^2}{5\delta + b_n}\right), \tag{2}$$

и коэффициент, учитывающий рассеяние основного магнитного потока в воздушном зазоре [10],

$$k''_\delta = sha\delta / (a\delta) \ . \tag{3}$$

Коэффициент k_n, определяющий ослабление индукции магнитного поля на поверхности вторичного элемента (ВЭ) по сравнению с ее значением на поверхности индуктора, рассчитывается по формуле [10]

$$k_n = cha\delta \ . \tag{4}$$

Для двустороннего ЛАД с немагнитным высокопроводящим ВЭ в выражениях (2)-(4) δ – это половина общего немагнитного зазора.

Коэффициент $k_{лоб}$, определяющий длину лобовой части обмотки индуктора, зависит от размеров паза и способа укладки обмотки. Если охарактеризовать размеры паза произведением коэффициентов $k_{11}k_{12} = 0{,}16…0{,}36$, то ориентировочно можно принять: для пазов относительно малой площади ($k_{11}k_{12} = 0{,}16…0{,}26$) $k_{лоб} = 1{,}9…2{,}0$ (однослойная обмотка) и $k_{лоб} = 1{,}6…1{,}7$ (двухслойная обмотка), а для пазов относительно большой площади ($k_{лоб} = 0{,}26…0{,}36$), соответственно, $k_{лоб} = 2{,}0…2{,}1$ и $1{,}7…1{,}8$.

Остальные величины в выражениях, связывающих показатели ЛАД с электромагнитными нагрузками и размерами, задаются в проектном задании либо подлежат определению в ходе оптимизации ЛАД. Расчёты могут проводиться по одному из следующих путей: 1) исходная величина – фактор нагрева AJ; 2) исходная величина – максимально допустимая индукция магнитного поля в основании зубца $B_{z\,max}$. В первом случае задается значение AJ и определяется линейная токовая нагрузка A_1 по формуле

$$A_1 = k_{12}\sqrt{AJk_{3.M}}k_{11}t_z \ . \tag{5}$$

Затем по [7] находится индукция магнитного поля в воздушном зазоре B_δ и проверяется индукция магнитного поля в основании зубца B_{zmax}. Например, для ЛАД с прямоугольными открытыми пазами индуктора B_{zmax} рассчитывается по формуле:

$$B_{zmax} = \frac{B_\delta k_n}{k_c(1-k_{12})}\left(\frac{1{,}05k_\delta \delta k_{11}}{k_{об}\tau I_{m*}} + 1\right) \ . \tag{6}$$

Если $B_{zmax} < B_{z\,доп} = 1{,}7…1{,}9$ Тл, то можно увеличить значения коэффициентов k_{11} и k_{12}. Если $B_{zmax} > B_{z\,доп}$, то необходимо снизить величины AJ либо уменьшить коэффициенты k_{11} и k_{12}.

При втором подходе по заданному значению B_{zmax} из выражения (6) находят B_δ и далее по [7] и (5) значения A_1 и AJ. Фактор нагрева AJ сравнивается с максимально

допустимым значением для данного класса нагревостойкости изоляции. При необходимости корректируются значения k_{11} и k_{12} либо B_{zmax}.

После уточнения электромагнитных нагрузок рассчитываются технико-экономические показатели ЛАД, определяются необходимое число полюсов индуктора и поправочные коэффициенты для учёта продольного краевого эффекта. Формуляр предварительного расчёта ЛАД приведён в [7-11]. Простота описанного алгоритма расчёта позволяет использовать его как при ручном счёте для оценки конкретного варианта ЛАД, так и с применением ЭВМ для оптимизационных расчётов. При этом расчёт не требует больших затрат машинного времени даже при использовании простейших методов нелинейного программирования.

После окончания оптимизационных расчётов находятся обмоточные данные индуктора ЛАД. Число витков в фазе

$$w_1 = \frac{k_E U_{ном}}{4\sqrt{3} k_{об} k_B \alpha_\delta f_1 B_\delta \tau 2b} \; ; \qquad (7)$$

число проводников в пазу

$$u_n = a w_1 / (pq) \; ; \qquad (8)$$

ток индуктора

$$I_1 = A_1 t_{za} / u_n \; ; \qquad (9)$$

плотность тока

$$J = AJ / A \; ; \qquad (10)$$

расчётное сечение эффективных проводников

$$S_{пр} = I_1 / J \quad . \qquad (11)$$

После определения реального сечения проводников обмотки индуктора уточняется коэффициент заполнения паза медью:

$$k_{з.м} = S_{пр} u_n / (b_n h_n) \; , \qquad (12)$$

и при необходимости расчёт повторяется с формулы (5).

По окончании предварительных расчётов уточнение характеристик и показателей ЛАД, а в ряде случаев и корректировку некоторых их параметров можно проводить по более сложным математическим моделям, позволяющим учесть как конструктивные особенности ЛАД, так и особенности режимов их работы.

Заключение

Проблемы энерго- и ресурсосбережения являются доминирующими в наиболее применяемых электропотребителях – асинхронных электродвигателях в системе электропривода. Линейные асинхронные двигатели отвечают комплексу критериев при разработке электроприводов машин с тихоходными и линейными перемещениями рабочих органов. Предложенная методика расчёта полно определяет особенности линейных асинхронных двигателей и позволяет оценить их энергетические и тяговые показатели.

Список литературы

1. Yunusov R., Imomnazarov A., Mirnigmatov B., Ozodov E., Abduganiyev A., Nazarov O. Modelling of liner electro drive in the watergate of hydrotechnical constructions. International Conference «Applied Physics, Information and Engineering Technologies (APITECH-2019)» in September 25-27, 2019 Krasnoyarsk, Russia. Journal of Physics: Conference Series. 1399 (2019) 044104. IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1399/4/044104.

2. Юнусов Р.Ф. Электропривод сельскохозяйственных машин / ЧИМЭСХ. Челябинск, 1988, 15 с. – (Рукопись деп. во ВНИИТЭИагропром 16.01.89, № 73 ВС-89 Деп).

3. Курбатова Г.С. Электродвигатели для сельского хозяйства.- М.: Энергоатомиздат, 1983.- 64 с.- (Промышленность – селу).

4. Электропривод на базе двигателей с разомкнутым магнитопроводом для машин Агропромышленного комплекса: Отчёт / ЧИМЭСХ; Рук. темы Пястолов А.А. Отв. Исполнитель Юнусов Р.Ф. – № ГР 01860022328; Инв. № 02880002765. – Челябинск, 1987. – 49 с.

5. Ямамура С. Теория линейных асинхронных двигателей: Пер. с англ. – Л.: Энергоатомиздат. Ленингр. отд-ние, 1983. – 180 с.

6. Свечарник Д.В. Электрические машины непосредственного привода: Безредукторный привод. – М.: Энергоатомиздат, 1988. – 208 с.

7. Веселовский О.Н., Коняев А.Ю., Сарапулов Ф.Н. Линейные асинхронные двигатели. – М.: Энергоатомиздат, 1991. – 256 с.

8. Yunusov R.F., Bayzakov T.M., Sattarov N.E., Xaliqnazarov U.A., Nazarov O.A., Diniqulov D.U. Linear electric actuator of a sectional plane shut-off of hydrotechnical structures // 1st International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering 2020 (ICECAE 2020). IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012017.

9. Muhammadiev A., Yunusov R.F., Bayzakov T.M., Sattarov N.E., Yusupov Sh.B., Xaliqnazarov U.A., Sattarov M.N. Liner motor drive of cattle farm feeders // 1st International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering 2020 (ICECAE 2020). IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science. 614 (2020) 012013.

10. Вольдек А.И. Индукционные магнитогидродинамические машины с жидкометаллическим рабочим телом. – Л.: Энергия. Ленингр. отд-ние, 1970. – 272 с.

11. Вилнитис А.Я., Дриц М.С. Концевой эффект в линейных асинхронных двигателях. Задачи и методы решения. – Рига: Зинатне, 1981. – 258 с.

Yunusov R.F., Rahmonov Sh.S., Xasanov D.R., Abdumananov D.D., Yusufaliev G.Yu. Chiziqli asinxron dvigatelni hisoblash uslubi. *Maqolada sanoat mashinalarining energiya va resurslarni tejovchi elektr yuritmalari uchun turli mezonlarga muvofiq chiziqli asinxron motorni optimallashtirishni hisoblash metodikasi keltirilgan.*

Юнусов Р.Ф., Рахмонов Ш.С., Хасанов Д.Р., Абдуманонов Д.Д., Юсуфалиев Г.Ю. Методика расчёта линейного асинхронного двигателя. *В статье приведена методика оптимизационного расчёта линейного асинхронного двигателя по различным критериям для энерго- и ресурсосберегающего электропривода производственных машин.*

Yunusov R.F., Rakhmonov Sh.S., Khasanov D.R., Abdumananov D.D., Yusufaliev G.Yu. Method for calculating a linear asynchronous motor. *The article presents a methodology for the optimization calculation of a linear asynchronous motor according to various criteria for energy- and resource-saving electric drives of industrial machines.*

UO‘T 631.362.2

QISHLOQ XO‘JALIGIDA URUG‘LARGA ELEKTOTEXNOLOGIK ISHLOV BERISH USULLARINING TAHLILI

Najmiddinov Z.Z[1]

[1] Qoqon davlat universiteti

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan ekin urug‘larining sifatiga bog‘liq. Urug‘larning unuvchanligi, kasalliklarga chidamliligi va tez rivojlanish qobiliyati yuqori hosildorlikka erishishning eng muhim omillaridan biridir [1]. Shu sababli, urug‘larga ekishdan oldin turli xil ishlov berish usullari qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligida kimyoviy moddalar bilan ishlov berish keng qo‘llaniladigan usuldir. Fungitsidlar, insektitsidlar va o‘sishni stimulyatorlar yordamida urug‘lardagi patogen mikroorganizmlar yo‘q qilinadi va zararkunandalarga qarshi himoya ta'minlanadi. Kimyoviy usullar tezkor natija berishi bilan birga, ekologik muammolarni keltirib chiqarishi va tuproq hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy elektrotexnologik usullar, masalan, ultrabinafsha (UB) nurlantirish va yuqori kuchlanishli elektr maydon (YUKEM) bilan urug‘larga ishlov berish samarali alternativalar sifatida paydo bo‘lmoqda. Ultrabinafsha nurlantirish qisqa to‘lqinli (200-280 nm) nurlar ta’sirida urug‘lardagi patogen mikroorganizmlarni yo‘q qiladi va biokimyoviy jarayonlarni faollashtiradi. 250-260 nm diapazondagi qisqa muddatli nurlantirish urug‘larning unuvchanligini 20-40 foizga oshiradi va patogen mikroflora 85–95 foizga kamayadi. Ushbu usul ekologik toza, kimyoviy moddalar ishlatmaydi va energiya sarfi kam, lekin inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

Yuqori kuchlanishli elektr maydon (YUKEM) 5–20 kV/sm diapazondagi elektr kuchlanishidan foydalanadi va urug‘larda ion almashinuvi hamda metabolizm jarayonlarini tezlashtiradi. Natijada unuvchanlik 25 foizga, hosildorlik esa 15-20 foizga oshadi. Ushbu usul ham ekologik toza va energiya tejamkor, ammo maxsus uskunalarga ehtiyoj va yuqori kuchlanish bilan ishlash xavfi mavjud [4].

Umuman olganda, ultrabinafsha nurlantirish va YUKEM urug‘larning unuvchanligi va hosildorligini oshirishda samarali hisoblanadi. Yuqori kuchlanishli elektr maydon usuli kuchli elektr impulslarini ta’sir etish orqali urug‘larning metabolizmini tezlashtiradi, fermentlar faoliyatini oshiradi va patogen mikroorganizmlarni inaktivatsiya qiladi. Masalan, g‘alla urug‘lariga 10-15 kV/cm kuchlanishda 30-120 soniya davomida ishlov berish orqali unib chiqish darajasi 25 foizga, hosildorlik 15-20 foizga oshishi mumkin.

So‘nggi yillarda bu ikki usulni kompleks tarzda qo‘llashning samaradorligi o‘rganilmoqda. Elektr maydon urug‘larning ichki metabolik jarayonlarini faollashtirsa, ultrabinafsha nurlantirish tashqi patogen mikroorganizmlarni kamaytiradi. Kompleks ishlov berish natijasida urug‘larning unib chiqish darajasi 30-40 foizgacha, hosildorlik esa 20-25 foizgacha oshishi mumkin [5].

Ultrabinafsha nurlantirish va yuqori kuchlanishli elektr maydon usullari qishloq xo‘jaligida urug‘larni ekologik xavfsiz va samarali tayyorlash imkonini beradi. Ularning qo‘llash sohasi keng bo‘lib, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari va paxta urug‘lari uchun ijobiy natijalar berishi isbotlangan. Kelajakda energiya tejamkor ultrabinafsha lampalar va portativ elektr generatorlar ishlab chiqilish orqali bu usullarni yanada ommalashtirish, organik dehqonchilikda keng qo‘llash istiqbollari mavjud.

Xulosa

Urug‘larga ishlov berishning zamonaviy usullari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yuqori samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi. Kimyoviy usullar tezkor va samarali bo‘lsa-da, ekologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Fizik usullar, xususan, ultrabinafsha nurlantirish va yuqori kuchlanishli elektr maydoni urug‘larning unuvchanligini oshirishda va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda istiqbolli hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Gudkov S.V. et al. *High-voltage electric field treatment of seeds: effects on germination and pathogens.* // Journal of Electrostatics. – 2021. – Vol. 112. – P. 103589.

2. Ivanova N.P. *Ультрабинафша нурларининг ўсимликларга таъсири.* – М.: Агропромиздат, 2018.

3. Журабаев М. *Қишлоқ хўжалигида электрофизик усулларни қўллаш истиқболлари.* – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2019..

4. Росабоев А.Т. Летучкаларни трибоэлектрик қурилмада саралашнинг илмий ва технологик асослари: Монография/А.Т.Росабоев. – Тошкент: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – 109 б.

5. Brown M.T. et al. *UV radiation in seed treatment: efficiency and safety aspects.* // Journal of Photochemistry and Photobiology. – 2022. – Vol. 15. – P. 112–125

Najmiddinov Z.Z. Qishloq xo‘jaligida urug‘larga elektotexnologik ishlov berish usullarining tahlili. *Maqolada qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ga ekishdan oldin elektrotexnologik ishlov berish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilish natijalari keltirilgan.*

Наджмиддинов З.З. Анализ методов электротехнологической обработки семян в сельском хозяйстве. *В статье приведены результаты анализа методов электротехнологической обработки семян сельскохозяйственных культур перед посевом и их эффективности.*

Najmidinov Z.Z. Analysis of methods of electro-technological processing of seeds in agriculture. *The article presents the results of an analysis of methods of electro-technological processing of agricultural seeds before sowing and their effectiveness.*

UO‘T 631.362.2

QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI URUG‘LARIGA ELEKTROTEXNOLOGIK ISHLOV BERUVCHI QURILMANING TEXNOLOGIK TAHLILI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Umarov Sh.Sh.[1]

[1] Qoqon davlat universiteti


Ma’lumki qishloq xo‘jaligida urug‘lik sifatini oshirish, uni zararkunandalardan himoya qilish va unib chiqish darajasini ko‘tarish muhim muammolardan biridir.

Ko‘plab qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish va urug‘larning unib chiqish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida ekishdan oldin turli fizik usullar bilan ishlov berish texnologiyalari qo‘llaniladi. Ulardan biri – urug‘larga elektr maydon ta’sirida elektrotexnologik ishlov berish hisoblanadi. Zarur hollarda urug‘larni ekishdan oldin namlantirish ham tavsiya qilinadi [1].

Elektrotexnologik ishlov berish jarayoni urug‘ yuzasidagi mikroorganizmlarni zararsizlantiradi, urug‘ning biologik faolligini oshiradi hamda unib chiqish jarayonini tezlashtiradi. Ushbu usul hosildorlikni oshirishning samarali yo‘llaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi amaliyotida keng qo‘llanila boshladi.

Elektr maydonning urug‘larga ta’sir darajasi asosan urug‘ po‘stlog‘ining tuzilishi bilan belgilanadi. Ba’zi ekinlarda elektr maydonning o‘tkazuvchanlik koeffitsienti 4-10 foiz bo‘lishi mumkin, yuqori intensivlikdagi maydon esa urug‘lar tomonidan deyarli to‘liq yutiladi [2].

Bugungi kunda urug‘larning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish va ularning biologik holatini yaxshilash uchun bir qator usullar ishlab chiqilgan. Shulardan biri – urug‘larga elektrotexnologik ishlov beradigan qurilma bo‘lib, u urug‘larga elektr maydon yordamida kompleks ishlov berishni ta’minlaydi. Qurilma urug‘larni zararsizlantirish, ularning energiya potensialini faollashtirish va ekishdan oldin sifat ko‘rsatkichlarini oshirish uchun mo‘ljallangan [3].



1 - rasm. Urug‘larga ekishdan oldin elektr maydonida ishlov berish uchun qurilma

1-rasmda elektr maydonida urug‘larni ekishdan oldin ishlov berish qurilmasi tasvirlangan bo’lib, unda yuklash va qabul qilish bunkerlari etaklanadigan barabanlar, konveyer tasmasi va to'rtta elektrod (ikkita potentsial va ikkita tuproqli) mavjud. Ushbu qurilmadan foydalanish urug'larni ikkita elektrodlararo bo'shliqda davolash imkonini beradi va ularda elektr maydoni hamda tojni tushirish maydoni hosil bo‘ladi.


Bu qurilma elektr maydonida urug‘larga ekishdan oldin ishlov berish uchun ishlab chiqilgan.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Potensial elektrodlar 3 va 4 konveyer lentasining yuqori 2 va pastki 5 tarmoqlari ustiga, ishlov berish rejimiga mos masofada, ushlagichlar 8 va 15 yordamida o‘rnatiladi. Elektrodlar 3 va 4 ga kuchlanish uzatiladi.

Sochiluvchan material (urug‘lik material, ko‘chatlik material, minerallar, tog‘ jinslari) yuklash bunkeri 1 ga solinadi, u yerdan konveyer lentasining yuqori tarmog‘i 2 ga uzatiladi, uning uyachalarini to‘ldirib, plastina 6 ustida siljiydi va bu jarayonda potensial elektrod 3 va yerga ulangan plastina 6 hosil qilgan elektr maydoni ta’sirida bo‘ladi. Plastina 6 dagi teshik 11 orqali material konveyer lentasining pastki tarmog‘i 5 ga tushadi va qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanib, yana elektr maydoni ta’siriga uchraydi (bu maydon potensial elektrod 4 va plastina 7 tomonidan hosil qilinadi). Nihoyat, material teshik 12 orqali qabul qiladigan bunker 13 ga tushadi.

Ushbu qurilmaning kamchiliklari yuqori metall sarfi va cheklangan funksionallik tufayli past samaradorlikdir.

2 - rasmda elektr maydonida urug‘larga ekishdan oldin ishlov berish qurilmasi tasvirlangan, u yuklash va qabul qilish bunkerlari, barabanlar, konveyer lentasi hamda to‘rtta elektroddan (ikkita potensial va ikkita yerga ulangan) tashkil topgan. Ushbu mashina yordamida urug‘larga ikki elektrodlar orasidagi bo‘shliqda ishlov berish mumkin hamda bu bo‘shliqlarda elektrostatik maydon va toj razryadli maydon hosil qilinadi.



2-rasm. Chigitni ekishdan oldin ishlov berish uchun qurilma

Mashina po‘lat quvurlardan tayyorlangan korpusdan iborat bo‘lib. Urug‘larni konveyer lentasi 3 ga uzatish uchun yuklash bunkeri 2 mavjud. Lenta barabanlar 4 ga tortilgan va ular elektr yuritma 5 bilan harakatga keltiriladi. Ikki elektrodlararo bo‘shliq hosil qilish uchun yuqori kuchlanish manbai 6 nazarda tutilgan va u potensial elektrod 7 ga ulangan. Potensial elektrod 7 tojsiz 7a va tojli 7b bo‘limlardan tashkil topgan va yerga ulangan elektrod 8 mavjud.

Tojsiz 7a bo‘lim bilan yerga ulangan 8 elektrod orasidagi bo‘shliq elektrostatik maydonni, tojli 7b bo‘lim bilan 8 elektrod orasidagi bo‘shliq esa tojli razryadli maydonini hosil qiladi. 7a va 7b bo‘limlar orasiga dielektrik plastinka 9 o‘rnatilgan bo‘lib, u ionlarning tojli razryadli maydoni bo‘shlig‘idan elektrostatik maydon bo‘shlig‘iga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Elektrostatik maydon va tojli razryadli maydoni parametrlari urug‘larning turi, unib chiqish davri va hokazolarga qarab, yuqori kuchlanish manbai 6 dan beriladigan kuchlanishni o‘zgartirish, shuningdek, 7a, 7b bo‘limlar va 8 elektrod orasidagi masofani ushlagich 10 lar yordamida sozlash orqali o‘zgartirilishi mumkin.

Elektroishlovdan o‘tgan urug‘larni joylashtirish uchun qabul qilish bunkeri 11 mo‘ljallangan. Qurilmani boshqarish uchun pult 12 mavjud.

Qurilma quyidagicha ishlaydi: potensial elektrodning tojsiz 7a va tojli 7b bo‘limlari ushlagichlar 10 yordamida yerga ulangan 8 elektroddan ishlov parametrlariga qarab belgilangan masofada o‘rnatiladi. Yuqori kuchlanish manbai 6 dan potensial elektrodning 7a va 7b bo‘limlariga kuchlanish beriladi. Elektroishlovdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan urug‘lar yuklash bunkeri 2 ga solinadi, va u yerdan elektr yuritma 5 yordamida harakatlanadigan barabanlar 4 orqali konveyer lentasiga 3 uzatiladi.


Konveyer lentasi bo‘ylab harakatlanib, urug‘lar avval tojsiz 7a bo‘lim va yerga ulangan 8 elektrod hosil qilgan birinchi elektrodlararo bo‘shliqqa kiradi va elektrostatik maydon ta’sirida ishlovdan o‘tadi. Keyin urug‘lar tojli 7b bo‘lim va 8 elektrod hosil qilgan ikkinchi elektrodlararo bo‘shliqqa o‘tadi va u yerda tojli razryadli maydoni ta’sirida ishlovdan o‘tadi. Shu bilan birga, 7a va 7b bo‘limlar orasiga o‘rnatilgan dielektrik plastinka 9 ionlarning bir bo‘shliqdan boshqasiga

o‘tishini oldini oladi. Elektroishlov tugagach, urug‘lar qabul qilish bunkeri 11 ga tushadi. Qurilma pult 12 yordamida boshqariladi.

Ushbu qurilmaning kamchiligi shundaki, u faqat unib chiqayotgan urug'larni elektr bilan davolash uchun mo'ljallangan bo’lib, bu uning funksional imkonini cheklaydi va dukkakli ekinlar urug'larini yuqori sifatli elektr qayta ishlash uchun qurilmaning samarasini pasaytiradi.

Taklif etilayotgan qurilma o‘zining funksional imkoniyatlarini kengaytirish natijasida turli qishloq xo‘jalik va dukkakli ekinlar urug‘ini naviga qarab elektr bilan qayta ishlash sifatini oshirish imkonini beradi.

3-rasmda qishloq xo'jalik ekinlari urug’iga elektr bilan qayta ishlash uchun tavsiya etilgan qurilmaning prinsipial sxemasi tasvirlangan.



3-rasm. Qishloq xo'jalik ekinlari urug’ini elektr bilan ishlov berish uchun qurilma

Qurilmada yuklash bunkasi 1, konveyer 2, rama 3 va 7, erga ulangan elektrod 4, elektr yuritma 5, qabul qiladigan bunker 6, potentsial elektrod 8, dielektrik asos 9, vint mexanizmi 10 va o‘lchagich 11 dan tashkil topgan.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Qishloq xo‘jalik va dukkakli ekinlar urug‘ini elektr bilan qayta ishlashdan oldin ularning naviga qarab erga ulangan va potensial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasida zarur masofa vint mexanizmi 10 va o‘lchagichi 11 yordamida o‘rnatiladi. Shundan keyin potentsial elektrodga 8 yuqori kuchlanish beriladi va konveyer tasmasi 2 elektrik yuritma 5 orqali harakatga reltiriladi. Bu vaqtda ishlov beriladigan urug'lik materiali yuklash bunkeri 1 dan konveyer lentasi 2 yuzasiga bir me’yorda etkazib beriladi va erga ulangan hamda potentsial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasidan o‘tib, yuqori kuchlanishli elektr maydonida ishljv beriladi. Ishllov berilgan urug’ qabul qilish bunkeri 6 ga tushadi va keyingi texnologik operatsiyaga jo‘natiladi. Erga ulangan va potentsial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasida zarur masofani vint mexanizmi 10 va o‘lchagich 11 yordamida urug’lik materialining turiga qarab rostlab, ularga yuqori kuchlanishli elektr maydoni bilan sifatli ishlov berishni amalga oshirish mumkin.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligida dukkakli ekinlar urug‘lariga elektr maydon ta’sirida ishlov berish texnologiyasi ularning biologik faolligini oshirish, unib chiqish ko‘rsatkichlarini yaxshilash va hosildorlikni ko‘paytirishning samarali usullaridan biridir. Taklif etilayotgan yangi qurilmani mavjud analoglarga nisbatan funksional imkoniyatlari keng bo‘lib, turli ekin urug‘larini nav va o‘lchamiga qarab yuqori sifatli elektr ishlovdan o‘tkazish imkonini beradi. Qurilmadagi dielektrik asos, vint mexanizmi va o‘lchov asbobi elektrodlar orasidagi masofani aniq sozlashga imkon yaratadi, bu esa ishlov jarayonining sifatini oshiradi va urug‘larning shikastlanish xavfini kamaytiradi. Natijada, elektr maydon yordamida urug‘larga dastlabki ishlov berish jarayoni yanada samarali, xavfsiz va universal bo‘lib, qishloq xo‘jaligi amaliyotida keng qo‘llash uchun qulay texnik yechim sifatida tavsiya etilishi mumkin

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rosaboev A.T. Letuchkalarni triboelektrik qurilmada saralashning ilmiy va texnologik asoslari: Monografiya/A.T.Rosaboev. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – 109 b.

2. Rosaboev A.T.Takomillashtirilgan elektr saralagich//AGRO ILM. – Toshkent, 2013. – № 1. – B.81-82.

3. Rosaboyev A.T, Umarov Sh.Sh Loviya urug‘iga yuqori kuchlanishli elektr maydonda ishlov berishning istiqbollari // “Zamonaviy energetikaning dolzarb muammolari va rivojlantirish istiqbollari” – Qo‘qon, 2024. – 342b.

Umarov Sh.Sh. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘lariga elektrotexnologik ishlov beruvchi qurilmaning texnologik tahlili va ularning samaradorligi. *Maqolada qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ga elektr maydoda ishlov berish qurilmalarning tuzilishi, ishlash printsipi va samaradorligini tahlil qilish natijalari keltirilgan.*

Умаров Ш.Ш. Анализ и эффективности устройств для электротехнологической обработки семян сельскохозяйственных культур. *В статье приведены результаты анализа об устройстве, принципа работы и эффективности устройств для обработки семян сельскохозяйственных культур в электрическом поле.*

Umarov Sh.Sh. Analysis and effectiveness of devices for the electro-technological processing of agricultural crop seeds*. The article presents the results of an analysis of the design, operating principle and effectiveness of devices for processing agricultural crop seeds in an electric field.*

UO‘T:631.362.36

POLIZ EKINLARI URUG‘INING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI OSHIRADIGAN ELEKTR SARALAGICH QURILMANING ISH ORGANINI BA’ZI PARAMETRLARINI ANIQLASH NATIJALARI

Rosaboyev A.[1] t.f.n., k.i.x., Tagayev B.[1] t.f.f.d.

[1] Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

2050 yilga kelib dunyo aholisi soni 10 milliardga yaqinlashishi mumkinligi haqida xalqaro tashkilotlar, jumladan, FAO mutaxassislari tomonidan berilgan prognozlar global miqyosdagi eng muhim masalalardan biri – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Mavjud iste’mol darajasi saqlanib qolgan taqdirda ham oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini kamida 50 foizga oshirish zarurati paydo bo‘ladi. Bugunning o‘zida dunyo aholisining ikki milliarddan ortiq qismi yetarli darajada to‘yimli ovqatlanish imkoniyatidan mahrum ekanligi, ushbu muammoni strategik yondashuvsiz hal etib bo‘lmasligini ko‘rsatadi[1].

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, urug‘lik sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, balki jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, aholi turmush sifatini yuksaltirishda ham hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda.

Ma’lumki, poliz ekinlaridan mo‘l-ko‘l hosil yetishtirishda, boshqa agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda, ekishga tayyorlanadigan urug‘larning sifat ko‘rsatkichlari ham juda muhim rol o‘ynaydi. Chunki, ekish uchun sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan urug‘idan foydalanish mo‘l hosil garovi hisoblanadi. Ammo, hozirgi kungacha respublika qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida poliz ekinlari urug‘ini saralash uchun biron-bir ilmiy asoslangan qurilma mavjud emas. Shuning uchun dehqonlar poliz ekinlari urug‘ini saralashda premetiv usullardan foydalanishga yoki saralamasdan ekishga majbur bo‘lishayapti. Bu urug‘lik sarfini meyoridan 1,5-2,0 marta ko‘p sarflanishiga, ortiqcha unib chiqqan nihollarni yaganalash uchun qo‘shimcha qo‘l mehnatidan

foydalanilshga hamda yetishtirilgan mahsulotning tannarxini qimmatlashishiga olib kelayapti [2, 3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz poliz ekinlari urug‘ini saralash va ularning sarfini kamaytirish uchun yuqori sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘liklar olish imkonini beradigan elektr saralagich qurilmasidan foydalanishni taklif qilayapmiz.


1-rasmda poliz ekinlari urug‘ini sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining prinsipial sxemasi va ish organi tasvirlangan.

Ish organi elektr saralagich qurilmasining asosiy qismi hisoblanib, poliz ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayoni uning yuzasida amalga oshiriladi.

Qurilmaning ish organi polietilen quvurdan tayyorlanib, yuzasiga chuqurlik burchagi “γ”, eni “t” va orasidagi masofa “δ”ga teng bo‘lgan ikki yo‘lakli vintsimon ariqchalar yo‘nilgan va ularga diametri “d”ga teng bo‘lgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘ralib, tok uzatgichlar 10 orqali yuqori kuchlanishli mabaaga ulangan.

Polietilen quvur flanes 9 va dielektrik materialdan tayyorlangan yon disklar 10 yordamida val 12 ga mahkamlangan.

Polietilen quvurdan tayyorlangan ish organi yuzasida elektr maydonini hosil qilish hamda unda poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirish uchun, uning yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida ma’lum bir masofa bo‘lishi kerak. Bu o‘z navbatida ish organi yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlashni talab etadi.



a) b)

1–yuklash bunkeri; 2– ta’minlagich; 3–ish organi; 4–qabul qilish bunkeri; 5–bo‘lish tekisligi; 6–ajratib oladigan cho‘tka; 7–sirpanish taxtasi; 8–polietilen quvur; 9–flaneslar; 10–tok uzatgichlar; 11–yon disklar; 12–val; 13–qarama-qarshi ishorali elektrodlar


1-rasm. Poliz ekinlari urug‘ini saralash uchun taklif qilingan elektr saralagich qurilmasining prinsipial sxemasi (a) va ish organi (b)

Ish organi yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun dielektrik material olinib, uning yuzasiga γ =60° chuqurlik burchagi ostida, eni t=5,0 mm hamda orasidagi masofa δ=2,0; 3,0; 4,0; 5,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lgan ariqchalar yo‘nildi. Ularga diametri d=5,0 mm li elektrodlar yelimlanib, maxsus laboratoriya stendi tayyorlandi.

2-rasmda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun tayyorlangan stendning prinsipial sxemasi tasvirlangan.

Laboratoriya stendi yordamida elektrodlar orasidagi masofa quyidagicha aniqlandi. Tasodifiy tanlash yo‘li bilan poliz ekinlari (qovun) urug‘i orasidan bir dona ajratib olindi va massasi o‘lchanib, shoyi ip 8 bilan elektr tarozi 1 ning richagi 9 ga osib qo‘yildi. Keyin shesterna 3 ga mahkamlangan dielektrik asos 5 vint 4 yordamida qarama-qarshi ishorali elektrodlar qovun urug‘i 7 ga tekkunga qadar harakatlantirilib, shoyi ip 8 ning erkin osilib turishi ta’minlandi. Keyin yuqori kuchlanishli TG-1020 transformatoridan qarama-qarshi ishorali elektrodlar 6 ga kuchlanish

berildi va dielektrik asos 5 asta-sekin pastga qarab tushirilib, qovun urug‘i 7 qarama-qarshi ishorali elektrodlar yuzasidan uzilgan paytda elektr tarozi 1 ning shkalasida ko‘rsatilgan son qiymati yozib olindi.



1−elektr tarozi; 2−tishli reyka; 3−shesterna; 4−vint; 5−orasidagi masofa har xil qilib ariqchalar yo‘nilgan dielektrik asos; 6−qarama-qarshi ishorali elektrodlar; 7−poliz ekin urug‘i; 8−shoyi ip; 9−richag

2-rasm. Elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun tayyorlangan stendining prinsipial sxemasi

Elektr tarozi qovun urug‘ining massasi bilan elektr tortish kuchining qiymatini birgalikda ko‘rsatgani uchun, elektr tortish kuchining qiymati ushbu ifodadan topildi

$$F_e = F_\Sigma - m, \quad (1)$$


bunda F_e – elektr tortish, kuchi, mg;

F_Σ – elektr tarozi ko‘rsatgan kuch, mg;

m – qovun urug‘ining massasi, mg.

Tajribalar elektrodlar orasidagi masofa har xil bo‘lgan holatlar uchun to‘rt qaytariliqdan o‘tkazildi. Olingan natijalar dala daftariga qayd qilinib, ularga hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo‘lgan dastur asosida matematik statistika usulida qayta ishlov berildi [4, 5].

3-rasmda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydoni ta’sirida hosil bo‘ladigan elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.



1–tajribada olingan egri chiziq; 2–hisoblangan egri chiziq

3-rasm. Elektr tortish kuchi(F_e)ning qiymatini elektrodlar orasidagi masofa (δ) ga bog‘liq o‘zgarish grafigi

3-rasmda tasvirlangan bog‘lanishdan ko‘rinib turibdiki, elektrodlar orasidagi masofa o‘zgarishi bilan elektr tortish kuchining qiymati ham o‘zgarayapti. Masalan, elektrodlar orasidagi masofa 2,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish kuchining qiymati 72,0 $\cdot 10^{-5}$ N ni tashkil etgan bo‘lsa, ular orasidagi masofa 4,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lganda elektr tortish kuchining qiymati,

mos ravishda, 106 ·10^{-5} N va 78,0 ·10^{-5} N ni tashkil etdi. Yoki boshqacha aytganda, elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi ma'lum bir masofagacha ortib borishi va keyin yana kamayishi kuzatildi. Buning sababini shunday tushuntirish mumkin: elektrodlar orasidagi masofa kichik bo‘lganda, ular orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlarining bir qismi nafaqat urug‘ orqali, balki havo orqali ham o‘tgani uchun elektr tortish kuchining qiymati bir oz kam bo‘ladi. Ular orasidagi masofa ortib, urug‘ning o‘lchamiga tenglashganda, qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari asosan, urug‘ orqali o‘tadi. Shuning uchun elektr tortish kuchi o‘zining maksimal qiymatiga erishadi. Elektrodlar orasidagi masofa kattalashgani sari ular orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari havo+urug‘+havo orqali o‘tgani uchun elektr tortish kuchining qiymati yana kamayadi.

Demak, poliz ekinlari urug‘i ish organi yuzasiga maksimal elektr maydon kuchi bilan tortilishi uchun, uning yuzasiga o‘ralgan elektrodlar orasidagi masofa o‘zining ma'lum bir maqbul o‘lchamiga ega bo‘lishi kerak ekan. Elektrodlar orasidagi masofani ushbu o‘lchamdan kichik yoki katta bo‘lishi elektr tortish kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.


3-rasmda tasvirlangan egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi parabola xarakteriga ega bo‘lib, quyidagi empirik formula bilan ifodalanadi

$$F_e = -6{,}93\delta^2 + 56{,}92\delta - 14{,}8, N. \qquad (2)$$

Tajribada olingan va hisoblab chiqilgan egri chiziqlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, poliz ekinlari urug‘ini ish organi yuzasiga maksimal elektr kuchi bilan tortilishini ta'minlash uchun, uning yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofa 4,0 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan.

Poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirishda elektrodlar orasidagi masofadan tashqari, ularning diametri ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ikki yo‘lakli vintsimon shaklda yo‘nilgan ariqchalarga o‘raladigan qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini aniqlash bo‘yicha ham tajribalar o‘tkazildi. Buning uchun orasidagi masofa 4,0 mm ga teng bo‘lgan ariqchalarga diametri 2,0; 3,0; 4,0; 5,0 va 6,0 mm li qarama-qarshi ishorali elektrodlar yelimlanib, yuqorida ta'kidlangan usul bilan ularga qovun urug‘ini elektr tortish kuchining qiymati to‘rt qaytariliqda o‘lchandi va dala daftariga qayd qilinib, olingan natijalarga matematik statistika usulida qayta ishlov berildi.

4-rasmda elektr tortish kuchining qiymatini qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.



1–tajribada olingan egri chiziq; 2–hisoblangan egri chiziq

4-rasm. Elektr tortish kuchi (F_e) ning qiymatini elektrodlar diametri(d)ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

4-rasmda tasvirlangan bog‘lanishdan ko‘rinib turibdiki, qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri oshishi bilan elektr tortish kuchining qiymati ham ortib borayapti. Masalan, agar qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri 2,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish kuchining qiymati 76,0 ·10^{-5} N ni tashkil etgan bo‘lsa, u 4,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish

kuchining qiymati, mos ravishda, 106,0 ·10^{-5} N va 122,0 ·10^{-5} N ni tashkil etdi. Buni shunday izohlash mumkin: qarama-qarshi ishorali elektrodlarning diametri kichik bo‘lganda, poliz ekinlari urug‘ini elektrodlarga tegadigan yuzasi nisbatan kam bo‘ladi. Urug‘ining elektrodlarga tegadigan yuzasi kam bo‘lgani uchun qutblangan yuzasi ham kichik bo‘lib, elektr tortish kuchining qiymati nisbatan kamroq bo‘ladi. Qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri oshishi bilan poliz ekinlari urug‘ini ularga tegib turgan yuzasi katta bo‘lib, qutblangan yuzasi ham ko‘payadi, natijada, elektr tortish kuchining qiymati nisbatan katta bo‘ladi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini maqbul qiymatdan katta bo‘lishi, poliz ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayoniga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘zining maqbul diametriga ega bo‘lishi lozim.

Eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalarni matematik statistika usuli bilan qayta ishlash shuni ko‘rsatdiki, elektr tortish kuchining qiymatini qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi ham parabola xarakteriga ega bo‘lib, quyidagi empirik formula bilan ifodalanadi

$$F_e = -1{,}78d^2 + 39{,}87d - 98{,}5\ ,N. \qquad (3)$$

4-rasmda tasvirlangan egri chiziqlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, poliz ekinlari urug‘ini ish organi yuzasiga maksimal tortilishi va elektr saralagich qurilmasining ish unumi yuqori bo‘lishini ta’minlash uchun qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri 5,0 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan. Qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini ushbu qiymatdan kichiraytirish elektr tortish kuchining qiymatini kamayishiga olib kelsa, undan kattalashtirish elektr saralagich qurilmasining ish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Poliz ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasida poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirishga ish organlarining yuzasiga chuqurlik burchagi 60°, eni 5,0 mm va orasidagi masofa 4,0 mm ga teng bo‘lgan ikki yo‘lakli vintsimon ariqchalar yo‘nilib, ularga diametri 5,0 mm ga teng bo‘lgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘ralganda erishiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://www.fao.org/home/ru

2. Rosaboyev A.T., Usmonov I.I. Elektr saralagich qurilmalarining ish organini takomillashtirish yo‘llari// “Resurstejamkor va fermerbop qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish”. – Gulbahor, 2020. – B.316-325.

3. Rosaboyev A.T, Usmonov I.I, Qovun urug‘ini saralaydigan elektr qurilma// AGRO ILM. – Toshkent, 2021. – № 5. – B.90-91.

4. Отчет о НИР за 2000 год по заданию 2.7.2. по теме «Разработка и ис-следование кольцевого и индукционного диэлектрического устройства для сортирования, очистки и калибровки семян различных сельскохозяйственных культур». – Гульбахор, 2000. – 53 с.

5. Rosaboyev A.T. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralashga doir // “Sholi va dukkakli – don ekinlari yetishtirishning muammolari va istiqbollari: seleksiya, urug‘chilik, agrotexnika va joriy qilish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2013. – B. 133-137.

Rosaboyev A., Tagayev B.K. Poliz ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatkichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining ish organini ba’zi parametrlarini aniqlash natijalari. *Maqolada qovun urug‘i misolida, poliz ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining ish organini ba’zi parametrlarini aniqlash natijalari keltirilgan.*

Росабоев А., Тагаев Б.К. Результаты определения некоторых параметров рабочего органа электрического сортировочного устройства, повышающего качественные показатели семян бахчевых культур. *В статье приведены результаты определения некоторых параметров рабочего органа электрического сортировочного устройства, повышающего качественные показатели семян бахчевых культур, на примере семя дыни.*

Rosaboev A., Tagaev B.K. Results of determining some parameters of the working body of an electric sorting device that increases the quality indicators of melon seeds. *The article presents the results of determining some parameters of the working body of an electric sorting device that increases the quality indicators of melon seeds, using the example of melon seeds.*

UO‘T 631.632.36

POTENSIAL ELEKTROD O‘RALADIGAN DIELEKTRIK HALQANING QALINLIGINI ANIQLASH USULI

Otaxonova Sh.N.[1]

[1] Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.


Paxtachilikni zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiyalar asosida rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb masalasi sifatida ko‘rilib, urug‘lik chigitlarni elektr maydon ta’sirida saralash bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1]. Tuksiz chigitlar elektr maydon ta’sirida saralab ekilganda, nihollarning unib chiqish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lishi bilan birga, kasalliklarga chidamli, potensial hosildorligi yuqori bo‘lishiga erishiladi. Shu jihatdan, tuksiz urug‘lik chigitlarni elektr maydon ta’sirida saralaydigan qurilmani ishlab chiqish hamda konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimlarini asoslash muhim ilmiy-texnik ahamiyatga ega [2].

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash bo‘yicha o‘tkazilgan patent izlanishlar va avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili asosida, tuksiz chigitlarni saralash uchun elektromexanik saralagich qurilmasining prinsipial sxemasi ishlab chiqildi [3].

Elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi metall va dielektrik halqalardan tashkil topgan bo‘lib, dielektrik halqalarga ariqchalar ochilgan va ularga potensial elektrod o‘ralgan. Shuning uchun potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqalarning qalinligini aniqlash muhim rol o‘ynaydi. Chunki, dielektrik halqaning qalinligiga mos ravishda, potensial elektrod bilan metall halqa orasidagi masofa o‘zgaradi. Potensial elektrod bilan metall halqa orasidagi masofani o‘zgarishi urug‘larni ish organi yuzasiga tortish kuchini o‘zgarishiga olib keladi. Bu o‘z-o‘zidan dielelektrik halqalarning qalinligini aniqlash zarurligini taqazo etadi.

Dielektrik halqalarning qalinligini aniqlash uchun qalinligi 10; 13; 16 va 19 mm ga teng bo‘lgan fomeks materiali olinib, diametri 340 mm li halqalar tayyorlandi [4].

1-rasmda diametri bir xil va qalinligi har xil bo‘lgan dielektrik halqalar tasvirlangan.




1-rasm. Diametri bir xil va qalinligi har xil bo‘lgan dielektrik halqalar, mm

Shundan keyin ushbu halqalarning yuzasiga chuqurlik burchagi $\gamma = 60^{o}$ va eni $d_a = 6$ mm ga teng bo‘lgan ariqchalar ochildi. Ariqchalarga ularning eniga mos keladigan potensial elektrodlar o‘raldi.


2-rasmda dielektrik halqaga ariqcha ochilgan va potensial elektrod o‘ralgan holat tasvirlangan.

Dielektrik halqaning qalinligini aniqlash uchun potensial elektrod bilan metall halqa orasiga urug‘larni tortadigan elektr kuchining qiymatini topish kerak.



a) b)

2-rasm. Dielektrik halqaga ariqchalar ochilgan (a) va potensial elektrod o‘ralgan (b) holati



1–elektr tarozi; 2–tishli reyka; 3–shesterna; 4–vint; 5–asos 6– va 9–metall halqa; 7–dielektrik halqa; 8–potensial elektrod; 10–urug‘; 11–shoyi ip; 12–richag

3-rasm. Dielektrik halqaga o‘ralgan potensial elektrod bilan metall halqaga urug‘ni elektr tortish kuchini o‘lchash stendning prinsipial sxemasi

Urug‘larni potensial elektrod bilan metall halqa orasiga tortadigan elektr kuchining qiymatini topish uchun [5] ga asosan, maxsus stend tayyorlandi.

3-rasmda dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, potensial elektrod bilan metall halqa orasiga urug‘larni elektr tortish kuchini aniqlash uchun ishlab chiqilgan stendning prinsipial sxemasi tasvirlangan.

Stend elektr tarozi 1, tishli reyka 2, shesterna 3, vint 4, asos 5, metall halqa 6 va 9, dielektrik halqa 7, potensial elektrod 8, urug‘ 10, shoyi ip 11 va richag 12 lardan tashkil topgan.


Metall halqa 6 va 9 potensial elektrod 8 o‘ralgan dielektrik halqa 7 asos 5 ga o‘rnatilgan bo‘lib, shesterna 3 ga mahkamlangan hamda vint yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab yuqori va pastga harakatlanish imkoniga ega.

Potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 orasiga urug‘ni elektr tortish kuchi quyidagicha aniqlandi. Tasodifiy tanlash yo‘li bilan tuksiz chigitlar ichidan bir dona ajratib olindi va uning massasi o‘lchanib shoyi ip 11 ga osib qo‘yildi. Shundan keyin, shesterna 3 ga mahkamlangan asos 5 vint 4 yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab yuqoriga ko‘tarildi va urug‘ potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 ni orasiga joylashtirilib, richag 12 ga bog‘langan shoyi ip 11 ning erkin osilib turishi ta’minlandi. Keyin AI-70 rusumli yuqori kuchlanishli manbaadan potensial elektrod 8 ga yuqori kuchlanish berilib, shesterna 3 ga mahkamlangan asos 5 vint 4 yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab, asta-sekin pastga qarab harakatlantirildi. Urug‘ potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 orasidan uzilgan vaqtda–sinxron ravishda, elektron tarozi 1 ning shkalasi ko‘rsatgan qiymat yozib olindi.

Shu usul bilan urug‘ga ta’sir etadigan elektr tortish kuchining qiymati metall halqalar orasiga har xil, ya’ni, 10; 13; 16; 19 mm qalinlikdagi dielektrik halqalarga potensial elektrod 8 o‘ralgan holatlar uchun o‘lchanib, olingan natijalar dala daftariga qayd etildi. Olingan natijalarga [6,7] ga asosan, matematik statistika usulidan foydalanib, hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo‘lgan dasturlar asosida qayta ishlov berildi.

4-rasmda urug‘ga ta’sir etadigan elektr tortish kuchining qiymatini metall halqalar orasiga joylashgan potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.

4-rasmda tasvirlangan egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi o‘zgarishi bilan urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati ham o‘zgarayapti. Masalan, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi 10 mm ga teng bo‘lganda, urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr kuchining qiymati $80{,}6\cdot10^{-5}$ N ni tashkil etgan bo‘lsa, uning qalinligi 13; 16 va 19 mm ga teng bo‘lganda, elektr kuchining qiymati, mos ravishda, $104\cdot10^{-5}$, $115\cdot10^{-5}$ va $96\cdot10^{-5}$ N ni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning ma’lum bir qalinligigacha urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini avval oshib borishi va keyin kamayishi



1 – tajriba; 2 – hisoblangan

4-rasm. Elektr tortish kuchi (F_e) ning qiymatini potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi (δ) ga bog‘liq o‘zgarish grafigi

kuzatildi. Ya’ni urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, parabola qonuniga asosan o‘zgarayapti. Buning sababini shunday izohlash mumkin: potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi kichik bo‘lganda, potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlarining bir qismi urug‘lik chigit orqali o‘tmasdan havo orqali o‘tadi. Shuning uchun urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati kam bo‘ladi. Potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi oshishi bilan potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari asosan urug‘lik chigit orqali o‘tadi. Bu urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini ortishiga olib keladi. Potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi yana ham oshganda potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari havo+urug‘lik chigit+havo orqali o‘tib, urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.

Demak, elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga kelib tushgan urug‘lik chigitlarga maksimal elektr maydon kuchi ta’sir etishi uchun potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqalar o‘zining maqbul qalinligiga ega bo‘lishi kerak ekan. Potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligini maqbul ko‘rsatkichidan kamayishi yoki ko‘payishi urug‘lik chigitlarga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.

4-rasmda tasvirlangan grafikdan ko‘rinib turibdiki, potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, urug‘lik chigitlarga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini o‘zgarishi parabola xarakteriga ega bo‘lib, u quyidagi empirik formula orqali ifodalanadi

$$F_e = -0,9028\delta^2 + 27,197\delta - 93,019\,, \qquad (1)$$

bunda F_e – elektr maydon tortish kuchi, N;

δ – potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi, mm.

(1) ifodani ekstremumga tekshiramiz

$$\frac{dF_e}{d\delta} = -0,09028 \cdot 2\delta + 27,197 = 0\,. \qquad (2)$$

$\frac{dF_e}{d\delta} = 0$ dan δ = 14 mm kelib chiqadi.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ish organi yuzasiga kelib tushgan urug‘lik chigitlarga maksimal elektr maydon kuchi ta’sir etishi uchun potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqaning qalinligi 14 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan.

Xulosa

Tuksiz chigitlar elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga maksimal elektr maydon kuchin bilan tortilishi uchun metall halqalar orasiga joylashib, potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqalarning qalinligi 14 mm ga teng bo‘lishi kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shukuraliyev A.Sh. Tuksizlangan urug‘lik chigit uchun unifikatsiyalangan ishchi organli dielektrik saralash qurilmasini ishlab chiqish // t.f.f.d.(PhD) Dis.ishi. – Andijon, 2022. – 146 b.

2. Otaxonova Sh.N. Elektromexanik saralash qurilmasining prinsipial sxemasi va ishlash prinsipi// “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. − Farg‘ona, 2025. −B 32-36.

3. Aydarov Sh.G., Otaxonova Sh.N., Qurbonboyeva D.E. Tuksiz chigitlarni elektromexanik qurilmasida saralash jarayoniga ta’sir etuvchi parametrlar//“Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari”//Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Gulbahor, 2024. –B 524-527.

5. Otaxonova Sh.N., Eshmatova G.Q., Qurbonboyeva D.E. Elektromexanik saralagich qurilmasining bo‘lish tekisligi o‘qini asoslash va urug‘larni ish organi yuzasidagi harakatini tatbiq etish//“Journal of transport” Research, innovation, results. – Volume: 2, Issue: 1, – Tashkent, 2025. –B 53-55.

6. Росабоев А.Т. Методика исследования деформации и упрогости волокон в электрическом поле // Вестник Таш ГТУ. – Ташкент, 2015. – № 3. –С. 89-94.

7. Вединяпин Г. Общая методика экспериментальных исследований и обработка опытных данных. – М.: Колос, 1973. – 199 с.

8. Лакин Г.Ф. Биометрия. – М.: Высшая школа, 1980. – 293 с.

Otaxonova Sh.N. Potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqaning qalinligini aniqlash usuli. *Maqolada elektromexanik saralagich qurilmasining ish organidagi dielektrik halqaning qalinligini aniqlash usuli va tuksiz urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liqligini tajribalarda aniqlash natijalari keltirilgan.*

Отахонова Ш.Н. Методика определения толщины диэлектрического кольца, на которое наматывается потенциальный электрод. *В статье приведена методика определения толщины диэлектрического кольца в рабочем органе электромеханического сортировочного устройства и результаты полученных экспериментальных данных величины силы электрического поля, действующей на оголенные семена в зависимости от толщины диэлектрического кольца, на которое наматывается потенциальный электрод.*

Otaxonova Sh.N. Method for determining the thickness of a dielectric ring to which a potential electrode is wrapped. *The article presents a method for determining the thickness of the dielectric ring in the working organ of an electromechanical separator device and the results of experiments establishing the dependence of the electric field strength affecting the seedless cotton seed on the thickness of the dielectric ring wrapped around the potential electrode.*

UO‘T 631.362.36

ARPA URUG‘IGA ELEKTROTEXNOLOGIK ISHLOV BERISH USULLARINING TAHLILI

Rosaboyev A.T[1] t.f.n., k.i.x., Alimova F.A.[2] t.f.n., ptof. Ergashev G‘.M.[3], Baratov X.M.[3]

[1] Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.
[2] Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.
[3] Namangan davlat texnika universiteti.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘lar olish uchun, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini barcha muhim fizik-mexanik xossalari bo‘yicha elektrotexnologik ishlov berib saralash zarur. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i elektrotexnologik ishlov berib saralaganda barcha muhim fizik-mexanik xossalari hisobga olingan holda, ularga har xil qiymatdagi elektr maydon kuchi ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, pnevmatik va mexanik usuldan farqli, elektr maydonida qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i barcha muhim fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, zichligi, geometrik o‘lchamlari, elektr qarshiligi, dielektrik singdiruvchanligi va

boshqa shunga o‘xshash muhim xossalari bo‘yicha saralanadi. Bundan tashqari, elektr maydoni urug‘larga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligini oshiradi va nihollarning o‘sib-rivojlanishini tezlashtirib, pirovard natijada, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini ko‘paytiradi [1,2].

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektrotexnologik ishlov berib saralash samaradorligini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasida elektr maydoni ikkita dielektrik materialni bir-biriga ishqalanishi natijasida hamda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga kelgani uchun patent izlanishlar triboelektrik va dielektrik qurilmalar bo‘yicha o‘tkazildi. Patent izlanishlar QXMITI fondi va internet-sayt bo‘yicha oxirgi 40 yil ichida olingan yangiliklar asosida olib borildi.

Yirik urug‘lar (makkajo‘xori, lavlagi, oshqovoq, poliz ekinlari, paxta va boshqalar)ga ekishdan oldin ishlov berish va nurlash qurilmalarining texnologik sxemalari mavjud. Ular Butun ittifoq qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 1980 yilda ishlab chiqilgan. Ammo, ular eksperimental tajribalardan nariga o‘tmagan.

Bir guruh biologlar va fiziklar tomonidan ayrim arpa urug‘lariga elektromagnit maydoni bilan qayta ishlash qurilmasi ishlab chiqilgan. Qurilmadan tarqaladigan elektromagnit maydonning yuqoriligi hamda urug‘larga ishlov berishning bir xilligini ta’minlash murakkabligi, uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Ultrabinafsha nurlar arpa urug‘lariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni zararsizlantirish va ekishdan oldin avjlantirishni ta’minlaydi. Amaliyotchilar tomonidan o‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, urug‘larni ultrabinafsha nurlantirish bilan davolash ekologik toza "yashil energetika" texnologiyalarni anglatadi va toksik kimyoviy stimulyatorlar va tuzlarlan foydalanishni talab qilmaydi, Shu bilan birga, ularni dezinfeksiya qilish va ekishdan oldin stimulyatsiya qilishni ta’minlaydi va dastlabki o‘sish jarayonlarini tezlashtirishga olib keladi, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini kuchaytiradi. UBNlar urug‘lar yuzasidagi mikroorganizmlarni samarali ravishda yo‘q qiladi, kimyoviy va biologik jarayonlarni faollashtiradi, bu esa ularni unib chiqish, unib chiqish energiyasi va qayta ishlangan ekinlarning hosildorligini ko‘payishiga olib keladi.

Ukraina Fanlar Akademiyasining Elektrofizika va radiatsiya texnologiyalari instituti olimlari bilan birgalikda Xarkov elektrotexnika kompaniyasi muhandislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida 2008 yilda urug‘larni ultrabinafsha stimulyatsiyalash uchun ekishdan oldin ishlov beradigan tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan. Ushbu qurilma kun davomida 4 tonnagacha urug‘larni qayta ishlash imkonini beradi.

2009 yilda Ukraina Fanlar akademiyasi bilan Xarkov elektrotexnika kompaniyasi birgalikda urug‘larni bir tekis nurlantirish uchun ularning fotokimyoviy aktivatori (mikroelementlar va biostimulyatorlari) orqali ultrabinafsha nurlantiradigan barabanli qurilma ishlab chiqilgan.

Ammo, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga elektrotexnologik ishlov berish o‘zining yutuqlari bilan birga, ma’lum bir kamchiliklarga ham ega bo‘lib, ushbu kamchiliklar ulardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining urug‘lik tayyorlash texnologik tizimlarida keng miqyosda foydalanishga salbiy ta’sirini ko‘rsatayapti. Masalan, tojli elektr maydonida arpa ekinlari urug‘ini saralash sifati va turg‘unligiga havo harorati va nisbiy namligi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tojli elektr va elektrostatik maydonlarda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash uchun 30-40 kV atrofida yuqori kuchlanishli elektr maydoni hosil qilib beradigan qimmatbaho manbaalar ham kerak bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash texnologiyasini urug‘lik tayyorlash tizimlarida keng miqyosda joriy etish uchun yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish zarur [3,4].

Ko‘p yillik olib borilgan ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari hamda laboratoriya-dala tajribalarining natijalarini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, arpa ekinlari urug‘ini saralashda dielektrik usuldan foydalanish yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Bunga sabab, tojli elektr va elektrostatik usullardan farqli, dielektrik usulda arpa ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayonini erkin zaryadlar bilan zaryadlamasdan,

o‘zgaruvchan va o‘zgarmas elektr maydonida amalga oshirish mumkin. Dielektrik usulda urug‘larni erkin zaryadlar bilan zaryadlamasdan saralash, texnologik jarayonga tashqi havo harorati va namligining salbiy ta’sirini kamaytirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib, ushbu maqolada sifatli, biologik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin, barcha muhim fizik-mexanik xossalari mujassamlashgan, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘lar olish uchun arpa ekinlari urug‘ini saralash texnologik samaradorligini oshiradigan, energiya va resurstejamkor elektr saralagich qurilmasini ishlab chiqish hamda uning konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimlarini asoslash nazarda tutilgan.

Xulosa

Qo‘yilgan maqsadga ikki xil sharoitda vujudga keladigan, ya’ni qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida hamda ikkita dielektrik materialni bir-biriga ishqalanishi natijasida vujudga keladigan elektr maydonlarini bitta dielektrik barabandan tayyorlangan ish organi yuzasida hosil qilib, elektr tortish kuchining qiymatini ko‘paytirish va unda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini barcha muhim fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda saralab, uzilish burchagiga mos ravishda, alohida-alohida fraksiyalarga ajratish orqali erishiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rosaboev, A. T., & Maxmudov, N. M. Modernized device for seed sorting of legumes // Наука и Инновационное развитие.–Ташкент, 2019. - № 5. – 77-82 с.

2. Rosaboev, A., & Maxmudov, N. (2020). Ways to improve the quality of legume seeds // Agro Ilm.–Toshkent, 2020. - № 2, - B. 32-33.

3. Росабоев, А. Т., & Махмудов, Н. М. Результаты разработки модернизированного электрического сортирующего устройства // Вклад университетской аграрной науки в инновационное развитие агропромышленного комплекса – Резань, 2019. – С. 352-356.

5. Mukhammadiev, A., & Makhmudov, N. M. EFFICIENCY OF ELECTROTECHNOLOGICAL SELECTION OF MUNG BEAN SEED // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – India, 2022. – Vol. 3(8). 644-648 pp.

Rosaboyev A.T., Alimova F.A., Ergashev G‘.M., Baratov X.M. Arpa urug‘iga elektrotexnologik ishlov berish usullarining tahlili. *Arpa urug‘iga elektrotexnologik ishlov berish usullarining tahlili. Maqolada qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga, arpa urug‘i misolida, elektrotexnologik ishlov berib, samaradorligini oshiradigan qurilmalarni tahlil etish natijalari keltirilgan.*

Росабоев А.Т., Алимова Ф.А., Эргашев Г.М., Баратов Х.М. Анализ методов электротехнологической обработки семян ячменя. *Анализ методов электротехнологической обработки семян ячменя. В статье представлены результаты анализа устройств, повышающих эффективность электротехнологической обработки семян сельскохозяйственных культур на примере семян ячменя.*

Rosaboyev A.T., Alimova F.A., Ergashev G.M., Baratov H.M. analysis of methods of electrotechnological processing of barley seeds. *Analysis of methods of electrotechnological processing of barley seeds. The article presents the results of an analysis of devices that increase the efficiency of electrotechnological processing of agricultural seeds, using the example of barley seeds.*

YUQORI SAMARALI QISHLOQ XO‘JALIK MASHINALARINI YARATISH VA TEXNIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH DARAJASINI OSHIRISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

Terishga berildi: 1.09.2025
Bosishga ruxsat etildi: 23.09.2025
Bichimi 84x60 1/16 ofset usulda
Times New Roman garniturasida chop etildi.
Adadi 100 dona

«Sabrina Art mediya» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Katta Qozirobod ko‘chasi, 65.